// МОЛИЯ

*ИЛМИЙ ЖУРНАЛ* **6/2023**

***Муассис:* Тошкент молия институти**

**Таҳририят ижодий жамоаси:**

Бош муҳаррир: *А.Каримов*
Бош муҳаррир ўринбосари: *Н.Обломуродов*
Муҳаррир: *М.Ҳусанова*
Техник муҳаррир: *Н.Абдуллаев*

Журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2008 йил 24 мартда 0519-рақам билан рўйхатга олинган.

2008 йилдан нашр қилинади, бир йилда 6 марта чиқади.

Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.

«Молия» илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2013 йил 13 декабрдаги 201/3-сонли қарорига биноан иқтисод фанлари бўйича фан доктори илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан илмий мақолалари эълон қилиниши зарур бўлган илмий журналлари рўйхатига киритилган.

**Веб-сайт:** *www.tfi.uz/Issues/Jmoliya*
**e-mail:** *moliya@tfi.uz*
*Обуна индекси – 1204*

Таҳририят манзили: 100084,
Тошкент ш., А.Темур кўчаси, 60[а]-уй
Тел.: (+998 71) 234-66-89

**ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ:**

**Т.З.ТЕШАБАЕВ** – Тошкент молия институти ректори,
иқтисод фанлари доктори, профессор.

**ТАҲРИР КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ:**

**А.А.КАРИМОВ** – Бош муҳаррир, иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Н.Н.ОБЛОМУРОДОВ** – Бош муҳаррир ўринбосари, иқтисод фанлари номзоди.

**М.Б.НУРМУРАТОВ** – Ўзбекистон Республикаси Марказий банк раиси.

**Н.Х.ХАЙДАРОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**А.Х.ИСЛАМКУЛОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Т.С.МАЛИКОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Э.Ғ.НАБИЕВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Б.Э.ТОШМУРОДОВА** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Ш.З.АБДУЛЛАЕВА** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Б.Қ.ХАМДАМОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**А.З.АВЛОҚУЛОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Ж.И.КАРИМҚУЛОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Ш.А.АЛЛАЯРОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Ф.Т.МУХАМЕДОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.РУСТАМОВ** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**И.К.ОЧИЛОВ** – иқтисод фанлари доктори, доцент.

**Х.М.ШЕННАЕВ** – иқтисод фанлари доктори, доцент.

**Э.Ў.ЭРГАШОВ** – иқтисод фанлари доктори, доцент.

**Т.М.БАЙМУРАТОВ** – иқтисод фанлари номзоди, профессор.

**Ё.С.ИЛХАМОВА** – иқтисод фанлари номзоди, профессор.

**И.Ғ.КЕНЖАЕВ** – иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD.

**Х.Д.ХЎЖАҚУЛОВ** – иқтисод фанлари номзоди, доцент.

**Х.ҚОБУЛОВ** – иқтисод фанлари номзоди, профессор.

**З.А.САГДУЛЛАЕВА** – иқтисод фанлари номзоди, доцент.

**Д.А.МИРЗАЕВ** – иқтисод фанлари номзоди, доцент.

**Е.Б.МАЛЕЙ** – кандидат экономических наук, доцент Полоцкого Государственного университета, Белорусь.

**ELCIN AYKAC ALP** – Туркия, Истанбул Тижорат университети профессори.

**TAE-HYOUNG MUN** – Жанубий Корея, Моквуон университети профессори.

**Н.К. МУРАВИЦКАЯ** – профессор Департамента аудита и корпоративной отчетности Финансового университета при Правительстве Российской Федерации.

**ASIF MAHBUB KARIM** – Малайзиянинг менежмент ва тадбиркорлик университети профессори.

## МОЛИЯ ВА БЮДЖЕТ

**A.A.Ostonaqulov, A.Sh.Kuliboyev.** Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi ..........5

**M.S.Valiyeva.** O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holati va tahlili.........13

**G.A.Abduvosidova.** Formation of priority directions for the development of islamic finance in the Republic of Uzbekistan..........21

**E.D.Alimardonov.** Xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirishda O‘zbekistonning xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash ..........27

**Y.U.Arifjanova.** Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda yashil obligatsiyalardan foydalanishning istiqbollari ..........35

## БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТ

**T.G‘.Jumaboev.** Moliyaviy hisobot auditi natijalarini umumlashtirish va baholash xususiyatlari ..........42

**М.Ю.Рахимов.** Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш ва ахборотларни таҳлил этишнинг илмий-назарий муаммолари ..........52

## БАНК ИШИ

**М.А.Норбаева.** Ўзбекистон валюта сиёсатининг ташқи савдо балансига VAR модели таъсирини тадқиқ этиш аҳамияти ..........61

**А.А.Мирзиёев.** Тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш йўллари ..........75

## ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИ

**Ж.М.Бердиев.** Понятие комплаенс контроля и истоки возникновения ..........83

**R.K.Rakhimov.** The ideas about increasing the efficiency of agrarian sphere of jadids..........90

## СТАТИСТИКА ИШИ

**И.Ҳабибуллаев.** Иқтисодий объектларни классификациялашнинг статистик усули ва дастурий таъминоти ..........99

**Х.Дж.Хўжақулов.** Ўзбекистонда аграр соҳанинг ҳолати ва ривожланишининг статистик таҳлили..........105

**N.I.Hayitova.** Tashqi savdo indikatorlarining iqtisodiy o‘sishga ta’sirining statistik tadqiqi..........116

**B.X.Mamatqulov, M.A.Mo'minova.** O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyatini statistik baholash ........122

**А.И.Рўзиев.** Тошкент вилоятида кўрсатилган хизматлар ҳажмини эконометрик моделлаштириш ........130

## БАҲОЛАШ ИШИ

**О.С.Умаров, А.Х.Ходжаев.** Мамлакат иқтисодиётини баҳолашда иқтисодий хавфсизликни тавсифловчи кўрсаткичларнинг аҳамияти ........136

## ИННОВАЦИЯ ВА ИНВЕСТИЦИЯ

**Н.О.Касымова.** Приоритетные направления управления инвестиционно-инновационными процессами в автомобильной промышленности Узбекистана........144

**Ж.А.Умирзоқов.** Инвестиция муҳити хавфсизлик даражасини баҳолаш методологияси ........149

## ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИ

**Sh.F.Saloxitdinov.** Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashga uslubiy yondashuvlar........159

**S.Sh.Mamadjonova, N.G.Khidirov.** The invisible hand of Uzbekistan's economy: the impact on women's labor force participation ........165

**Д.М.Якубова.** Инновационные показатели резервов роста промышленности........173

**Э.Х.Ботиров.** Мева-сабзавотчилик кластерларида экспорт имкониятлари ва стратегияси........178

## ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР

**A.S.Mamatmurodov.** Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining IPO o'tkazish mexanizmi samaradorligini oshirish........187

## СОЛИҚ ВА СОЛИҚҚА ТОРТИШ

**O.N.Hamdamov, N.A.To'rayeva.** Korporativ soliqlarni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati ........193

UO‘T 336.657.1

**Ostonaqulov Azamat Abdukarimovich,**
*Toshkent moliya instituti "Byudjet hisobi va g‘aznachilik ishi" kafedrasi professori, i.f.d., professor*

**Kuliboyev Azamat Shonazarovich,**
*Toshkent moliya instituti "Byudjet hisobi va g‘aznachilik ishi" kafedrasi dodsenti, PhD*

# BYUDJET TASHKILOTLARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR BO‘YICHA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLAR HISOBI

**Остонокулов Азамат Абдукаримович,**
*профессор кафедры «Бюджетный учет и казначейской дело» Ташкентский финансовый институт, д.э.н., профессор*

**Кулибоев Азамат Шоназарович,**
*доцент кафедры «Бюджетный учет и казначейской дело» Ташкентский финансовый институт, PhD*

# УЧЕТ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ВНЕБЮДЖЕТНЫМ ФОНДАМ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Ostonokulov Azamat Abdukarimovich,**
*Professor of the Department of Budget Accounting and Treasury, Tashkent Institute of Finance, Doctor of Economics, Professor*

**Kuliboyev Azamat Shonazarovich,**
*Associate Professor of the Department of Budget Accounting and Treasury, Tashkent Institute of Finance, PhD*

# ACCOUNTING OF RECEIVABLES AND PAYABLES FOR EXTRA-BUDGETARY FUNDS IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larning shakllanishi va sarflanishi bilan bog‘liq debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelishi nazariy jihatdan o‘rganilgan. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘larga oid debitorlik va kreditorlarlik qarzlar hisobini yuritishning asoslari bayon qilingan. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larning turlari va tarkibi ko‘payishi sharoitida debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi bilan bog‘liq amaldagi holat tadqiq etilgan. Byudjet tashkilotlarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobiga oid axborotlarni shakllantirishdagi mavjud uslubiy muammolar aniqlanib, tizimlashtirilgan. Byudjet*

*tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *byudjet tashkiloti, byudjetdan tashqari mablag'lar, debitorlik qarz, kreditorlik qarz, moliyaviy hisobot.*

***Аннотация.*** *В статье теоретически исследовано возникновение дебиторской задолженности и кредиторских обязательств, связанных с формированием и расходованием внебюджетных средств в бюджетных организациях. Описаны основы учета дебиторской задолженности и кредиторских обязательств бюджетных организаций перед внебюджетными фондами. В условиях увеличения видов и состава внебюджетных средств в бюджетных организациях изучена сложившаяся ситуация, связанная с учетом дебиторской и кредиторской задолженности. Выявлены и систематизированы существующие методологические проблемы формирования информации по учету дебиторской и кредиторской задолженности об источниках финансирования в бюджетных организациях. Даны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию учета дебиторской и кредиторской задолженности по внебюджетным фондам в бюджетных организациях.*

***Ключевые слова:*** *бюджетная организация, внебюджетные фонды, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, финансовый отчет.*

***Annotation.*** *This article theoretically examines the emergence of receivables and payable obligations associated with the formation and expenditure of extra-budgetary funds in budgetary organizations. The basics of accounting for receivables and payable obligations of budgetary organizations to extra-budgetary funds are described. In the context of an increase in the types and composition of extra-budgetary funds in budgetary organizations, the current situation related to the accounting of receivables and payables has been studied. The existing methodological problems of generating information on accounting for receivables and payables about sources of financing in budgetary organizations have been identified and systematized. Scientific proposals and practical recommendations for improving the accounting of receivables and payables for extra-budgetary funds in budgetary organizations are given.*

***Key words:*** *budget organization, extra-budgetary funds, receivables, payables, financial reporting.*

## Kirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori bilan barcha tashkilotlar kabi byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishga ruxsat etildi [1]. Shuningdek, byudjet tashkilotlari faoliyat sohalaridan kelib chiqqan holda qonunchilik asosida undiriladigan to'lovlar, byudjetdan tashqari jamg'armalar, boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar, maqsadli mablag'larni shakllantirish orqali qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini hosil qilish imkoniyati berilgan.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish imkoniyatlarining berilishi orqali ular faoliyatini rivojlantirishning imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu mablag'larning vujudga kelishi va sarflanishi bilan bog'liq hisob-kitoblar, ya'ni debitorlik va kereditorlik qarzlar bo'yicha hisoblashuvlar ko'lamining kengayishiga olib keldi. Shu sababdan ham, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha debitorlik va kreditorlik

qarzlar hisobi borasida izlanishlar olib borishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Byudjet tashkilotlarida kreditorlar bilan hisob-kitoblar hisobi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarni tadqiq qilishda o‘ziga xos jihat mavjud ekanligi aniqlanadi. Ya’ni, mazkur mavzu o‘ziga xos murakkabligi hamda byudjet tashkilotlaridagi deyarli barcha hisob obyektlari, jumladan, smetalar ijrosi, daromadlar va xarajatlar hisobi bilan uzviy bog‘liq ekan. Shuning uchun, byudjetdan tashqari mablag‘larning shakllanishi va sarflanishi jarayonlari hisobi bilan debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobining bog‘liqlik jihatlariga urg‘u qaratish maqsadga muvofiq. Xorijliy olimlarning tadqiqot obyekti bilan bog‘liq izlanishlarini o‘rganadigan bo‘lsak o‘ziga xos jihatlar mavjud.

Jumladan, M.Volchkova to‘lanadigan qarzlar ma’lum byudjet tashkilotining qarzini boshqa tashkilotlarga, ishchilarga va kreditorlar deb atalgan shaxslarga qaratishadi. Yetkazib beruvchilar, moddiy boyliklar, tovarlar, xizmatlarni yetkazib beruvchilardan sotib olish bilan bog‘liq qarzdorlar. Byudjetga, byudjetdan tashqari fondlarga, ijtimoiy fondlarga va shunga o‘xshash boshqa hisob-kitoblarga majburiy to‘lovlar bo‘yicha tashkilot xodimlariga hisob-kitob qilinadigan ish haqi majburiy deb hisoblanadi. Boshqa operatsiyalar natijasida kelib chiqqan qarzdorlar boshqa kreditorlar, deb ataladi [4].

I.P.Vorobeva boshchiligidagi olimlar byudjet va avtonom institutlar rahbarlari o‘zlarining harakatlariga ma’muriy, jinoiy, intizomiy va moddiy javobgar bo‘lishadi. Byudjet tashkilotlarining rahbarlari muddati o‘tgan qarzdorliklarni nazorat qilishlari kerak. Chunki, bunday qarzlarning ruxsat etilgan maksimal qiymatlaridan oshib ketgan taqdirda rahbar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan A.Ibragimov, M.Ostonaqulov, S.Mehmonov, A.Ostonaqulovlarning ishlanmalarida byudjet hisobida debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi, byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va hisobotiga oid izlanishlar bo‘yicha qarashlarni ko‘rishimiz mumkin.

A.Ibragimov o‘z ishlanmalarida kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagilarni keltirib o‘tgan byudjet tashkilotlari bilan tovar (ish va xizmatlar) bo‘yicha mol yetkazib beruvchilarni shartnomalarining g‘aznachilikda ro‘yxatga olinishi Davlat ushbu byudjet tashkiloti bo‘yicha to‘lovga qobiliyatli ekanligini anglatadi va shartnoma shartlari bajarilganda mol yetkazib beruvchi uchun to‘lov kafolatlanganligini bildiradi [6].

M.Ostanaqulov kreditorlik majburiyat - bu tashkilotning boshqa korxonalardan xaridorlarga sotilgan mahsulot (ish va xizmat) lar uchun olingan avanslar, mol yetkazib beruvchilardan olingan maxsulot (ish va xizmat)lar va boshqalar bo‘yicha, byudjet, byudjetdan tashqari jamg‘armalardan (soliqlar, majburiy ajratma va ushlanmalar bo‘yicha), xodimlardan (ish haqi va unga tenglashtiriladigan to‘lovlar va boshqalar bo‘yicha) qarzdorligidir [7].

S.Mehmonov kreditorlik majburiyati to‘g‘risida quyidagi fikrlarni keltirgan: kreditorlik majburiyati – bu tashkilotning boshqa korxonalardan (xaridorlarga sotilgan mahsulot (ish va xizmatlar) uchun olingan avanslar, mol yetkazib beruvchilardan olingan mahsulot(ish va xizmatlar) va boshqalar bo‘yicha), byudjet, byudjetdan tashqari jamg‘armalardan (soliqlar, majburiy ajratma va ushlanmalar bo‘yicha), xodimlardan (ish haqi va unga tenglashtiriladigan to‘lovlar va boshqalar bo‘yicha) qarzdorligidir [8].

A.Ostonaqulov byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobini yuritish va hisobotini tuzish metodologiyasini takomillashtirish borasidagi izlanishlarida

vujudga keladigan debitorlik va kreditorlik qarzlar hamda ularning hisobini ijtimoiy soha tashkilotlari yuzasidan to‘xtalib o‘tgan [9, 10].

Mazkur izlanishlarda byudjet tashkilotlari faoliyati misolida byudjetdan tashqari mablag‘lar bilan bog‘liqlikda debitorlik va kreditorlik qarzlarning o‘zgarishi hisobi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

## Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishini amalga oshirishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

## Natija va muhokama

Byudjet tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda xodimlar va stipendiya oluvchilar, byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar hamda boshqa turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitoblar debitorlik va kreditorlik qarzlar bilan bog‘liq hisob-kitoblarni tashkil etadi (1-rasmga qarang).




**1-rasm. Byudjet tashkilotlarida debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarning tarkibi**[1]

Byudjet tashkilotlari faoliyati davomida vujudga keladigan qarzlar 1-rasmda keltirilgani kabi debitorlik yoki kreditorlik majburiyat ko‘rinishida hisobda aks ettiriladi. Bunda, byudjet tashkilotini moliyalashtirish manbalari bilan bog‘liq holatda vujudga keladigan debitorlik yoki kreditorlik qarzlarni alohida tarkibga ajratish zaruriyati vujudga keladi. Ya’ni debitorlik va kreditorlik qarzlar byudjet mablag‘lari va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha vujudga kelishi hamda hisob-kitob qilinishi talab etiladi. Shuningdek, byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha hisob-kitoblar bevosita daromadlar va xarajatlar (haqiqiy va kassa xarajatlar) hamda pul mablag‘lari harakati bilan ham uzviy bog‘liq sanaladi.




**2-rasm. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelishi hamda ularning hisob-kitob qilinishi**[2]

Byudjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag‘larning ulushi yil sayin ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi ahamiyati va zarurligini yanada oshiradi hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan hisob ishlariga alohida urg‘u berishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobini alohida tadqiq etish zaruriyati vujudga keladi.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobining amalda yuritilish holatini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, biz buni 2-rasm orqali ifodalashimiz mumkin.

2-rasm byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha hisob-kitoblarning barcha bosqichlarini o‘zida ifodalaydi. Xususan:

[1] Mualliflar tomonidan tuzilgan.

[2] Mualliflar tomonidan tuzilgan.

1) debitorlik qarzlar bilan bog‘liq holatda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlarning vujudga kelishi;

2) pul mablag‘lari tushumi bilan bog‘liq holatda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlarning vujudga kelishi;

3) debitorlik qarzlarining undirilishi natijasida pul mablag‘larining kelib tushishi;

4) kreditorlik qarzlari bilan bog‘liq holatda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha xarajatlarning vujudga kelishi;

5) pul mablag‘larining sarflanishi bilan bog‘liq holatda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha xarajatlarning vujudga kelishi;

6) kreditorlik qarzlarining to‘lanishi natijasida pul mablag‘larining sarflanishi.

Daromadlarning vujudga kelishi va xarajatlarning paydo bo‘lishi bevosita debitorlik va kreditorlik qarzlar bilan uzviy bog‘liq. Demak, shundan kelib chiqib, debitorlik va kreditorlik qarzlar bilan bog‘liq hisob-kitoblar hisobini alohida tadqiq etamiz. Debitorlik va kreditorlik qarzni o‘zaro farqlash uchun byudjet tashkilotida 285-son shakl «Aylanma qaydnoma» yuritiladi (1-jadval).

Mazkur shakl har bir debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bog‘liq hisob-kitoblarni qayd qilib borish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, ham aktiv, ham passiv buxgalteriya hisobi schyoti hisoblangan hisob-kitob jarayonlaridagi debitorlik va kreditorlik qarzlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi. Oy boshidagi va oy oxiridagi debetdagi qoldiqlar debitorlik qarzlarni aks ettirsa, oy boshi va oy oxirida kreditdagi qoldiqlar kreditorlik qarzlarni anglatadi. Oy davomidagi debet aylanma debitorlik qarzlarni ko‘payishi va kreditorlik qarzlarning kamayishini, kredit aylanma esa, debitorlik qarzlarning kamayishi va kreditorlik qarzlarning ko‘payishini anglatadi.

Demak, ushbu 285-son shakl «Aylanma qaydnoma» tashkilot buxgalteriyasida debitorlik va kreditorlik qarzlarga oid operativ axborotlarni shakllantirish, hisob-kitoblar bilan bog‘liq tahliliy ma’lumotlarni umumlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, debitorlik va kreditorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar boshlang‘ich hujjatlar asosida bir vaqtning o‘zida ushbu «Aylanma qaydnoma»da hamda hisob shakli va hisob registrlarida aks ettirilishi talab etiladi.

*1-jadval*

**Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblarni ro‘yxatga olish**[3]

| T/r | Ko‘rsatkichlar (hisob-kitoblar) | Qoldiq oy boshiga | | Aylanma oy uchun | | Qoldiq oy oxiriga | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | debet | kredit | debet | kredit | debet | kredit |
| 1 | Mol yetazib beruvchi tashkilot | | 2000,0 | 1800,0 | 2400,0 | | 2600,0 |
| 2 | Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot | | 1500,0 | 1200,0 | 800,0 | | 1100,0 |
| 3 | Buyurtmachilar | 4000,0 | | 2000,0 | 3200,0 | 2800,0 | |
| ... | | | | | | | |
| | **Jami** | **4000,0** | **3500,0** | **5000,0** | **6400,0** | **2800,0** | **3700,0** |

[3] Tadqiqot obyekti misolida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Byudjet tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisob-kitoblar hisobini yuritishda 285-son shakl «Aylanma qaydnoma» har bir moliyalashtirish manbasi bo'yicha alohida yuritilishi hamda debitorlik va kreditorlik qarzlar bo'yicha buxgalteriya axborotlarini shakllantirish [2] zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq sanaladi. Chunki, har ikkala qarzlar ham pul mablag'lari bilan bog'liq holatda ularning hisob-kitobi amalga oshiriladi. Debitorlik qarzlarning undirilishi natijasida kelib tushgan mablag'lar kreditorlik qarzlarning to'lanishi uchun sarflanadi. Mazkur jihatlar har bir byudjetdan tashqari mablag'larga xos sanaladi. 1 va 2-rasmlardagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarning hisob-kitobini 3-rasmdagi ko'rinishda ifodalash mumkin.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan debitorlik va kreditorlik qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobining navbatdagi o'ziga xos xususiyati ko'zga tashlanadi. Bunda, hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag'lar hisobga olinishi nuqtayi nazaridan alohida buxgalteriya schyotlariga ajratilgan. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar ularning turlari bo'yicha guruhlashtirilgan, ammo moliyalashtirish manbalari bo'yicha ajratilmagan.

Bu esa, debitorlik va kreditorlik qarzlarni har bir byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar hisobini yuritishda tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirishda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga oluvchi ishchi schyotlarni ochish orqali amalga oshirilmoqda.




**3-rasm. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan debitorlik va kreditorlik qarzlarining hisobda aks ettirilishi**[4]

[4] Mualliflar tomonidan tuzilgan

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi, uning hisobi hamda pul mablag‘lari harakatiga oid moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlari ham bevosita debitorlik va kreditorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblarga aloqador sanaladi. Xususan, byudjetdan tashqari mablag‘lar tushumi hisobidan daromadlarning vujudga kelishi va debitorlik qarzlarining undirilishi hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag‘lar ko‘payishiga olib kelsa, mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga, xodimlar va stipendiya oluvchilarga avans (bo‘nak) to‘lovlari va qarzlarning to‘lanishi hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag‘larni kamaytiradi. Ushbu holatlar byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalar ijrosi jarayonida vujudga kelib, joriy davrda uzluksiz tarzda 294-son shakl «Kassa va haqiqiy xarajatlarni hisobga olish daftari»da hisobga olib boriladi hamda hisobot davri yakunida umumlashtirilgan holda pul mablag‘lari harakatiga oid moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha hisob-kitoblar hisobini yuritish bilan bog‘liq quyidagi munozarali va muammoli holatlarni keltirib o‘tish mumkin:

– debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar bir xil shaklda belgilangan. Ya’ni «… 15-«Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar», 16-«Byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar», 17-«Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar»ni hisobga oluvchi schyotlar ham aktiv, ham passiv schyotlar sanaladi»[2]. Ushbu holat buxgalteriya hisobida ortiqcha hisob-kitoblarni hamda hisob shakllari va registrlari ko‘rsatkchilarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlashni talab etadi. Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar joriy axborotlarni shakllantirishda qiyinchiliklarni tug‘dirmoqda.

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga amalga oshirilganligi uchun debitorlik va kreditorlik qarzlarni har bir moliyalashtirish manbalari bo‘yicha alohida hisobga olish uchun ishchi schyotlardan foydalanilishi yuqorida qayd etib o‘tildi. Byudjet tashkilotlarining hisob siyosatida ushbu holat mustaqil amalga oshiriladi va ishchi schyotlar moliyalashtirish manbalari bo‘yicha xohlagan shaklda yuritiladi. Bu esa, vazirlik, idora va qo‘mitalar tizimidagi tashkilotlarning joriy davrdagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha hisob-kitoblarga oid axborotlarini umumlashtirishga to‘sqinlik qilmoqda.

**Xulosa**

Byudjet tashkilotlarida debitorlik va kreditorlik qarzlarning hosil bo‘lishi bevosita smetalar ijrosi jarayoni bilan bog‘liq sanalib, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag‘larning shakllanishi va sarflanishi jarayonida debitorlik va kreditorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Shu sababdan, byudjetdan tashqari mablag‘larning hisobini debtiorlik va kreditorlik qarzlar hisobi bilan uzviy bog‘liq deyish mumkin.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish zarur:

– byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini tashkil etishda qarzlarni o‘z vaqtida tugatilishi bo‘yicha buxgalteriya bo‘limlarida ularning turlari bo‘yicha tahliliy nazoratni amalga oshirish;

– debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini yuritishda mablag‘lar manbalari

bo'yicha yuzaga kelishini alohida buxgalteriya schyotlarida aks ettirish, ya'ni hisob siyosatida ishchi schyotlar rejasi tarkibini aniq belgilab olish hamda hisob jarayonida ushbu tarkibga qat'iy rioya qilish;

– debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini amaldagi qonunchilik talablari darajasida tashkil etish va muddati o'tgan qarzlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirib borish;

– debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini o'z vaqtida buxgalteriya hujjatlarida to'g'ri aks ettirish tartibini hisob siyosatida aniq belgilab olish;

– byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi bo'yicha moliyaviy hisobotlar va ulardagi ko'rsatkichlarning tahliliy hisob axborotlari bilan mosligini ta'minlash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. 1999 yil 3 sentyabr, 414-son.
2. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma. 2010-yil 22-dekabr, 2169-son.
3. "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizom. 2014-yil 15-dekabr, 2634-son.
4. Волчкова М. Учреждения культуры и искусства: бухгалтерский учет и налогообложение. М.: 2007. 236 с.
5. Воробьева И.П., Спесивцева А.Л., Барышева Г.А. Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях. Издательство Томского политехнического университета. 2012. 346 с.
6. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B., Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. infoCOM. Uz MChJ. T. 2010.;
7. Ostanaqulov M. Byudjet hisobi. Toshkent. "Talqin". 2008.
8. Mehmonov S.U. Byudjet hisobi. O'quv qo'llanma. - T.: "Fan va texnologiya". 2012.
9. Ostonaqulov, A. (2022). Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar hisobi va uni takomillashtirish. Arxiv nauchnых issledovaniy, 2(1). izvlecheno ot https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1119
10. Ostonaqulov Azamat Abdukarimovich,. (2020). Budget Organizations Formation and Improving Accounting for Out-of-Budget Budgets. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8s), 11 - 16. Retrieved from http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10409

UO‘T 657/336.14

**Valiyeva Muxlisa Saydullayevna,**
*Toshkent moliya instituti*
*“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar”*
*kafedrasi o‘qituvchisi*

## O‘ZBEKISTONDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY HOLATI VA TAHLILI

**Валиева Мухлиса Сайдуллаевна,**
*Ташкентский финансовый институт*
*преподаватель кафедры*
*«Корпоративные финансы и ценные бумаги»*

## ФИНАНСОВОЕ СОСТОЯНИЕ И АНАЛИЗ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Valiyeva Mukhlisa Saidullayevna,**
*Tashkent institute of finance*
*teacher of the department*
*“Corporate Finance and Securities”*

## FINANCIAL CONDITION AND ANALYSIS OF JOINT STOCK COMPANIES IN UZBEKISTAN

**Annotatsiya**. *Mazkur maqolada O‘zbekistondagi korxonalarning moliyaviy holati, xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalni jalb qilishning dolzarbligi aks ettirilgan. Shuningdek, moliyaviy tahlil yordamida korxonaning moliyaviy holatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlari tavsiflandi. Bundan tashqari, real sektor kompaniyalarining moliyaviy faoliyati tahlili o‘tkazildi va ularning moliyaviy barqarorligi darajasi to‘g‘risida xulosalar chiqarildi.*

**Tayanch so‘zlar:** *kapital bozori, fond bozori, moliyaviy aktiv, aksiyador, emitent, bozor kapitallashuvi, globallashuv, ROE, ROA, aksiyadorlik jamiyati.*

***Аннотация.*** *В статье отражено финансовое положение предприятий Узбекистана, в частности, актуальность привлечения капитала акционерных обществ. Также с помощью финансового анализа были описаны основные показатели, определяющие финансовое состояние предприятия. Кроме того, был проведен анализ финансовой деятельности компаний реального сектора и сделаны выводы об уровне их финансовой устойчивости.*

**Ключевые слова:** *рынок капитала, фондовый рынок, финансовый актив, акционер, эмитент, рыночная капитализация, глобализация, ROE, ROA, акционерное общество.*

**Annotation.** *This article reflects the financial situation of enterprises in Uzbekistan, in particular, the relevance of capital attraction of joint-stock companies. Also, with the help of financial analysis, the main indicators determining the financial status of the enterprise were described. In addition, an analysis of the financial activity of real sector companies was conducted and conclusions were drawn about the level of their financial stability.*

**Keywords:** capital market, stock market, financial asset, shareholder, issuer, market capitalization, *globalization, ROE, ROA, joint stock company*

## Kirish

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni kechayotgan bir paytda yirik kompaniyalarning kapital faoliyatini baholash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda dunyodagi eng yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini aniqlashning asosiy koʻrsatkichlari boʻlgan oʻz kapitali rentabelligi (ROE) va aktivlar rentabelligi (ROA) koʻrsatkichlaridan foydalanmoqda. Biroq milliy aksiyadorlik jamiyatlari kapitalining samaradorligini aniqlashda bu koʻrsatkichlardan deyarli foydalanmayotgani aksiyadorlik jamiyati faoliyati toʻliq baholanmaganligini koʻrsatadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida xorijiy investorlar oʻzlarining yirik sarmoyaviy loyihalarini ularning samaradorligini hisobga olgan holda amalga oshiradilar.

Oʻzbekiston aksiyadorlik jamiyatlari kapitalidagi davlat aksiyalari paketini realizatsiya qilish[1] ushbu aksiyadorlik jamiyatlarining kapital rentabelligi va aktivlari rentabelligini aniqlash zarurligini koʻrsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalini aniqlashda oʻz kapitalining rentabelligi va sotishdan olingan daromadlilik koʻrsatkichlaridan foydalaniladi.

Oʻzbekistonda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, xususiy, jumladan, xorijiy investitsiyalar uchun mamlakatimizda investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng koʻlamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, Oʻzbekistonning yetakchi banklari va yirik korxonalarining korporativ reytinglarini, shuningdek, mamlakatning suveren kredit reytingini olish zarur, bu esa mamlakatning davlat kafolatisiz xorijiy investitsiyalar va qarzlarni jalb qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun kapital bozorini rivojlantirishda mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xorijiy tajribadan samarali foydalangan holda tashqi bozorni rivojlantirishni milliy amaliyotda qoʻllash boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy holatini aniqlash va tahlil qilish boʻyicha bir qator tadqiqot ishlari olib borildi. Professor Roberto Moro Viskonti[2] tadqiqotida oʻz kapitalining rentabelligi (ROE) biznes rentabelligining oʻlchovi sifatida ta'kidlangan boʻlib, u kompaniyaning daromadni oshirish uchun investitsiyalardan qanchalik toʻgʻri foydalanishini aks ettiradi. Bundan tashqari, muallif aktivlar rentabelligini (ROA) kompaniya rentabelligining koʻrsatkichi sifatida tavsiflaydi va menejer, investorga kompaniyaning boshqaruv aktivlari foyda olish uchun qanchalik samarali ekanligi haqida tasavvur beradi.

Xorijlik iqtisodchi Kehinde Jeyms Sundayning fikricha, aksiyadorlik jamiyatlarida kapital samaradorligini oshirish

to‘lov qobiliyati va likvidligi uchun muhim ahamiyatga ega[3]. Uning ma’ruzasida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ahvoli barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda, ularning moliyaviy hisobotlarini, nazorat tizimini takomillashtirish, shuningdek, mablag‘larini boshqarishni samarali tashkil etish, doimiy o‘sish va to‘lov qobiliyatini ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Rouf, Wallace, Naser[4] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, nisbatlar ma’lum bir moliyaviy davrda daromad yoki foyda olish qobiliyatini baholash uchun foydalaniladigan nisbat sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, aktivlar rentabelligi (ROA) moliyaviy institutlarning samaradorligini ko‘rsatadigan eng muhim daromad darajasi hisoblanadi. Masalan, banklar aktivlarning yuqori rentabellik darajasiga ega (ROA) jami aktivlardan foyda olish mumkin bo‘lgan va yuqori rentabellikni ta’kidlagan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar A.Burhonov[5] va B.Usmonov[6]ning tadqiqotlariga ko‘ra, korxona kapitali samaradorligini oshirishda moliyaviy rejalashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlagan holda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashi ta’kidlangan. R.F.Magomedov[7] tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, savdo rentabelligi (ROS) kompaniyaning narx siyosati va uning xarajatlarini nazorat qilish qobiliyatining ko‘rsatkichi bo‘lib, turli kompaniyalarda rentabellik uchun raqobat strategiyalari va mahsulot farqlari muhim ahamiyatga ega.

A.A.Zayseva[8] tekshirishiga qaraganda, investorlar va biznes egalari uchun muhim moliyaviy ko‘rsatkich kompaniyaning rentabelligi va qiymatining o‘sishini aks ettiruvchi o‘z kapitalining rentabelligi hisoblanadi. Kapital rentabelligiga ta’sir qiluvchi ba’zi omillarga o‘z kapitalining rentabelligini hisoblash uchun eng ko‘p ishlatiladigan modellardan biri bo‘lgan DuPont modelidan foydalanish orqali erishish mumkin. DuPont modeli – bu kompaniyaning rentabelligini belgilovchi asosiy omillarni baholash orqali moliyaviy tahlil usuli.

O‘zbekistonlik iqtisodchilar A.V.Vahobov va T.S.Malikov[9] tadqiqotlariga ko‘ra, o‘z kapitalining rentabelligi kompaniya egalari tomonidan qo‘yilgan kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Odatda bu ko‘rsatkich mablag‘larni boshqa kompaniyalarga, qimmatli qog‘ozlarga va depozitlarga investitsiya qilish imkoniyati bilan taqqoslanadi. Bu ko‘rsatkich kompaniya tomonidan joylashtirilgan har bir birlik qancha sof foydani ishlab olganini ko‘rsatadi.

T.P.Nikolayeva[10] tadqiqotida korxonaning rentabellik indeksi uning moliyaviy faoliyati va samaradorligini baholash imkonini beradi. Ushbu ko‘rsatkichlar odatda ma’lum turdagi daromadning bazaga nisbati sifatida ifodalangan rentabellik darajasiga mos keladi. Turli ko‘rsatkichlar korxona faoliyatining turli tomonlarini aks ettiradi.

**Tadqiqot metadalogiyasi**

Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini samarali boshqarish va jamiyatning moliyaviy samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy tadqiqotlarini o‘rganish bilan bir qatorda, uning amaliy jihatlari ham tahlil qilinadi. Aytish joizki, tahlil jarayonida qiyosiy taqqoslash, statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy taqqoslash va guruhlash, tahlil va sintez kabi bir qancha usullardan keng foydalanilgan. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligi maqsadli kapitallashuv bilan belgilandi. Korxona kapitalini shakllantirishning asosiy maqsadi zarur aktivlarni sotib olishga bo‘lgan talabni qondirish va samarali foydalanish

shartini ta'minlash uchun uning tuzilmasini optimallashtirish o'rganildi va tahlil qilindi.

**Natija va muhokama**

Milliy iqtisodiyotda korxona samaradorligini faqat rentabellik ko'rsatkichlari tizimi bilan aniqlash mumkin. U quyidagi ko'rsatkichlar guruhini o'z ichiga oladi:

Birinchisi, ishlab chiqarish rentabelligi va bu ko'rsatkichning qiymati shundaki, u mahsulot birligi tannarxini baholashga yordam beradi.

Ikkinchisi, sotishning rentabelligi va bu ko'rsatkichning o'sishi mahsulot narxining barqaror o'sishini yoki talabning oshishini va natijada birlik xarajatlarining kamayishini aks ettirishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichning pasayishi teskari tendensiyani aks ettiradi.

Daromadlilik ko'rsatkichlarining uchinchi guruhi – bu korxonaga investitsiya qilingan mablag'larning samaradorligini aks ettiruvchi aktivlar rentabelligi (ROA).

Rentabellik ko'rsatkichlarining to'rtinchi guruhi o'z mablag'larining rentabelligi bo'lib, bu ko'rsatkich tadbirkor tomonidan foydalaniladigan asosiy vositalarning rentabelligini aks ettirgani uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichning o'ziga xos xususiyati, birinchi navbatda, o'z mablag'larining samaradorligi, ya'ni investitsiya qilingan mablag'lar bo'yicha sof foyda va ikkinchidan, ROE o'sishini aks ettiruvchi korxona uchun xavf darajasi. ROE asosida korxona o'z daromadlarining o'sishini bashorat qilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya boshqaruvi va moliyaviy boshqaruv mexanizmini samarali tashkil etishda uning kapital tarkibi va tuzilishini hamda faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlariga kapitaldan samarali foydalanish, vaqt omilini to'g'ri aniqlash, moliyaviy risklarning oldini olish va barqaror rivojlanish imkonini beradi. "Bekobodsement" AJning moliyaviy ahvoli o'rganildi va ushbu aksiyadorlik jamiyatida kapitalni boshqarish jarayoni chuqur tahlil qilindi. Quyida uning so'nggi yillardagi (2016–2020) moliyaviy ahvolini ko'rishimiz mumkin.

*1-jadval*

**Moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi "BEKOBODSEMENT" AJ, foizda[11]**

| Ko'rsatkichlar | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil |
|---|---|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli aktivlar | 8,2 | 5,7 | 28,5 | 2,8 | 40,1 |
| Joriy aktivlar | 40,5 | 6 | 32,5 | 65 | 18 |
| Uzoq muddatli majburyatlar | 38 | 65 | 4 | 80 | 33 |
| Joriy majburyatlar | 43 | 31 | 6 | 35 | 38 |
| Jami savdo | 11 | 12 | 28 | 6 | 32 |

2016-yilda "Bekobodsement" AJning uzoq muddatli aktivlari hajmi 8,2 foizga o'sgan. Qolgan yillar davomida o'sish kuzatildi, xususan, 2017-yilda 5,7 foizga o'sgan bo'lsa, 2020-yilda 8 barobarga oshib, 40,1 foizni tashkil etdi. Xususan, joriy aktivlar hajmi 2016-yilda 40,5 foizga oshgan bo'lsa, 2017-yilda pasayish kuzatilgan va bu ko'rsatkich 6 foizga kamaydi. 2018-yilda ortib, 2017-yilga nisbatan 32,5 foizga oshgan. Ta'kidlash joizki, bu ko'rsatkich 2020-yilda 2019-yilga nisbatan salbiy o'zgarib, 18 foizga kamaygan. Majburiyatlar bo'limiga o'tadigan bo'lsak, uzoq muddatli majburiyatlar 2015-yilga nisbatan 2016-yilda 38 foizga kamayganini ko'rishimiz mumkin, ammo bu ko'rsatkich 2017 va 2019-yillarda mos ravishda, 65 va 80 foizga o'sib, ijobiy natijalarni ko'rsatdi. 2019-yilda ijobiy natija qayd etilgan bo'lsa-da, 2020-yilda salbiy natija qayd etildi va bu natija 33 foizni tashkil etdi.

*2-jadval*

**“Qizilqumsement”AJ 2022 va 2023 yilning 1-choragining moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasi[12]**

| Ko‘rsatkichlar nomi | O‘tgan yilning mos davri uchun | | Hisobot davrida | |
|---|---|---|---|---|
| | daromadlar | xarajatlar | daromadlar | xarajatlar |
| Mahsulot sotishdan olingan sof daromad | 269 861 612 | x | 361 691 479 | x |
| Sotilgan mahsulot tannarxi | X | 220 092 292 | X | 261 913 443 |
| Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) | 49 769 320 | 0 | 99 778 036 | 0 |
| Davr xarajatlari, jami | X | 52 602 863 | X | 57 509 913 |
| Sotish xarajatlari | X | 12 159 905 | X | 17 331 581 |
| Ma’muriy xarajatlar | X | 9 469 964 | X | 10 694 461 |
| Boshqa operatsion xarajatlar | X | 30 972 984 | X | 29 483 901 |
| Kelajakda soliqqa tortiladigan foydadan chegirib tashlana-digan hisobot davri xarajatlari: | X | | X | |
| – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar | 1 544 778 | X | 827 612 | X |
| – asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) | 0 | 1 288 755 | 43 095 735 | 0 |
| – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar, jami | 31 915 227 | X | 30 986 886 | X |
| – dividend daromadi | 16 620 | X | 0 | X |
| – foiz daromadi | 298 845 | X | 1 383 139 | X |
| – moliyaviy lizing daromadlari | | X | | X |
| Valyuta farqlaridan olingan daromadlar: | 31599762 | X | 29 603 747 | X |
| moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar | | X | X | X |
| Moliyaviy faoliyat xarajatlari | X | 28 395 413 | x | 26 450 586 |
| Foizlar bo‘yicha xarajatlar | | 6 252 508 | | 2 276 966 |
| Moliyaviy lizing bo‘yicha foizli xarajatlar | X | | X | |

2-jadvaldan shuni takidlash mumkinki, mahsulot sotishdan olingan sof daromad 2022-yilda 269 861 612 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 361 691 479 ming so‘mga yetdi. Bundan tashqari, mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda 2022-yilda 49 769 320 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda rekord darajaga – 99 778 036 ming so‘mga ko‘tarildi. Shuningdek asosiy faoliyat xarajatlari 2022-yilda 1 288 755 ming so‘mni tashkil etgan. Asosiy faoliyat daromadlari esa 43 095 735 ming so‘mni tashkil etgan.




**1-rasm. “O‘zmetkombinat” AJda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari[13]**

So‘nggi yillarda “O‘zmetkombinat” AJ korxonasida metall prokat ishlab chiqarish ko‘payganini ko‘rish mumkin. Yillar va muvaffaqiyatli narx dinamikasi tufayli daromad va sof foydaning o‘sishini ko‘rishimiz mumkin. 2015-yilda 722 ming tonna prokat ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib bu ko‘rsatkich 47 foizga oshib, 1061 ming tonnani tashkil etdi. Biroq 2018-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda “O‘zmetkombinat” AJ ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirmagan prokat ishlab chiqarildi va bu davrda ishlab chiqarish faqat 0,61% ga oshdi. 2022-yilda metall buyumlar ishlab chiqarish 1067,5 ming tonnani tashkil etdi (2021-yilda). 1075,40 ming tonna (2023 yil rejasi – 1100 ming tonna), shu jumladan, uzun mahsulotlar 819,37 ming tonna (835 ming tonna, 820,70 ming tonna) va silliqlash sharlari 240,0 ming tonna (247,40 ming tonna, 248,00 ming tonna).

Mahalliy metallolomlar tushumi 819,37 ming tonnani tashkil etdi (2021-yilda 961,00 ming. tonna) va import qilingan metallolom 24,71 ming tonna (18,60 ming tonna). “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati ulushiga respublika bo‘yicha qora metallar sotishning 90 foizi to‘g‘ri keladi. Kompaniyaning daromadi 6,31 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2021-yilning 9 oyiga nisbatan 6,81 foizga ko‘pdir. Sof foyda 21-yilda 1,18 trillion so‘mdan hozirgi 0,78 trillion so‘mgacha kamaydi (-34,25%).

Kompaniyaning sof foyda marjasi ham 2021-yilnig 9-oyidagi 20,02% dan 12,33% gacha kamaydi. 2022-yilning mos davri. Kompaniyaning yalpi marjasi 34,92% dan 31,25% gacha kamaydi.

Operatsion foyda va rentabellikning pasayishi asosan quyidagilarga bog‘liq: to‘lovlar 399 mlrd.so‘mni tashkil etgan ijtimoiy investitsiyalar; aylanma mablag‘larning o‘tgan yil bilan taqqoslanadigan o‘zgarishlari va asosan, tovar-moddiy zaxiralar va kreditorlik qarzlaridan iborat; “Quyma-prokat majmuasini qurish” loyihasini qurish hisobiga kapital qo‘yilmalar hajmini oshirish, bu esa ishlab chiqarish quvvatlarini ikki baravar oshirish imkonini beradi.




**2- rasm. 2014–2022-yillarda po‘lat va xom ashyo narxlarining o‘zgarishi [11]**

2022-yilning 9-oyida kompaniyaning jami aktivlari 2021-yilga nisbatan – 14,05 foizga kamayib, 847,65 milliard so‘mni tashkil qildi, 689,83 mlrd.so‘mi (2021-yilga nisbatan – 13,60%) yoki barcha aktivlarning 81,38%i uzoq muddatli aktivlar, qolgan 157,82 mlrd.so‘mi (-15,99%) aylanma mablag‘lardir. 9M22 yakunlari bo‘yicha kompaniya balansida 18,63 mlrd.so‘mlik uzoq muddatli investitsiyalar kiritilgan. Shundan 16,31 mlrd.so‘m sho‘ba korxonalarga, jumladan, «Quvasoy Quartz Agro» MChJga 3,37 mlrd.so‘m (ustav kapitalining 100 foizi), «O‘zqurilishLITI» MChJga 50,00 mln so‘m (10,8%), 15,14 mlrd so‘m (100%) investitsiyalarga yo‘naltirilgan. “Vodiy tulporlari” MChJda. 2021-yil oxiri holatiga ko‘ra, kompaniya yuqorida sanab o‘tilgan sho‘ba korxonalarga uzoq muddatli investitsiyalari bo‘yicha dividendlar olgani yo‘q. 2022-yil yakuni bo‘yicha kompaniyaning o‘z mablag‘lari 419,47 mlrd.so‘mni tashkil etdi, bu 2021-yilning mos davriga nisbatan 24,35 foizga ko‘pdir. Taqsimlanmagan foyda shu davrda 51,57 foizga o‘sgan holda 82,89 mlrd. so‘mni yoki o‘z kapitalining 19,76 foizini tashkil etdi. Kompaniyaning 2022-yilning 9-oyida majburiyatlari 2021-yilga nisbatan 15,91 foizga oshib, 648,93 milliard so‘mni tashkil etdi. Kompaniyaning daromadi 2021-yildagi 423 milliard so‘mdan 2022-yilning 9-oyida 466,30 milliard so‘mgacha o‘sdi. 2022-yil davomida quvvati 200 dona bo‘lgan silliq shisha ishlab chiqarish kompaniyasi kuniga tonnalab shisha ishlab chiqarmadi. Deyarli barcha daromad yangi float liniyasidan keladi. Kompaniyaning sof foydasi shu davrda 51,49 foizga oshib, 54,71 milliard so‘mdan 82,89 milliard so‘mga yetdi. Bundan tashqari, sof foyda marjasi va yalpi marja mos ravishda 17,78% (12,92% – 2021) va 38,43% (35,14%) gacha ko‘tarildi.

**Xulosa**

Korxonalarning kapital koeffitsiyentlari, birinchi navbatda, moliyaviy natijalarni aks ettiradi va uning samaradorligini baholash imkonini beradi; ikkinchidan, xorijlik investorlarning kompaniyalar uchun jozibadorligini oshiradi; uchinchidan, moliyaviy tavakkalchiliklarning oldini olishga va kelajak uchun to‘g‘ri rejalar

tuzishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital koeffitsiyentlaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Birinchidan, u aksiyadorlik jamiyatining kutilayotgan daromadini aniqlaydi va natijada uning investitsion salohiyatini namoyish etadi.

Ikkinchidan, bu aksiyadorlik jamiyatlariga diskontlangan pul oqimlarini prognoz qilish imkonini beradi. Aksiyadorlik jamiyatlari byudjetini tuzishda va investitsiya loyihalarini baholashda yordam beradi.

Uchinchidan, korporativ boshqaruv amaliyoti samaradorligini oshiradi, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, bu aksiyadorlik jamiyatlarining kapitali bilan bog‘liq risklarni aniqlashga yordam beradi. Natijada investorlar o‘zlarining vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini aksiyadorlik jamiyati kapitaliga kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi” bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5635- son, 2018 yil 17 yanvar.
2. Roberto Moro Visconti. Corporate Profitability: Return on Equity, Return on Investment, Modigliani & Miller Proposition II, and Economic Value Added. SSRN E-Journal Article March 2018. -2-3- bet
3. Sometimes James Sunday. Effective Working Capital Management in Small and Medium Enterprises, International Journal of Business and Management, Vol. 6, No. 9; September 2011. Pp-271-279
4. Ruth and Wallace and Nasser. Return on assets and against the unique effect of profit // Article in the International Journal of Social and Humanities, 2018. - p. 105-116..
5. A.U.Burhanov, M.M.Eshmamatova. 2021. Raqamli iqtisodiyot davrida investitsiya strategiyasini takomillashtirish yo‘llari. Kelajakdagi tarmoqlar va taqsimlangan tizimlar bo‘yicha 5-xalqaro konferensiyada (ICFNDS 2021) Hisoblash mashinalari assotsiatsiyasi, Nyu-York, AQSh, 655–662. https://doi.org/ 10.1145/3508072.3508202
6. B.Usmonov. Aksiyadorlik jamiyatini samarali boshqarish yo‘llari. Xalqaro moliya va buxgalteriya hisobi. 2021, 4(5).
7. R.F.Magomedov Soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni hisobga olish, innovatsion tadqiqotlar: nazariya, metodologiya, amaliyot // XVII xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalari to‘plami, 2019-yil 27-may, 17-bet. 30-33.
8. A.A.Zaitseva. O‘z kapitali rentabelligining omilli tahlilini baholash masalasiga, fundamental va amaliy tadqiqotlar: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar // XXIV Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plami, 2019-yil 15-iyun - 17-bet. 43-46.
9. Vaxabov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. - Toshkent 2012. – 230-232- betlar.
10. Nikolayeva T.P Moliya va kredit. O‘quv-uslubiy majmua. -Moskva 2009.-198-199-betlar.
11. https://kapdepo.uz/storage/analytics/
12. https://www.qizilqumsement.uz/uz/news/view/73\
13. https://uzse.uz/analytics/

UDK 339.7:336

**Abduvosidova Gulandon Abdurashid kizi.**
*The teacher of the Department of "International finance-credit"*
*Tashkent Institute of Finance*

# FORMATION OF PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC FINANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Абдувосидова Гуландон Абдурашид қизи,**
*Тошкент молия институти*
*"Халқаро молия-кредит" кафедраси ўқитувчси*

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИСЛОМ МОЛИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

**Абдувосидова Гуландон Абдурашид кизи,**
*Преподаватель кафедры «Международные финансы-кредит»*
*Ташкентский финансовый институт*

# ФОРМИРОВАНИЕ ПРИОРИТЕТНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Annotation.** *The article discusses the fundamentals and trends of the development of the system of Islamic finance, the principles of Islamic financial institutions, as well as financial instruments that are used within the Islamic financial system. The distinctive features of Islamic and traditional banks are analyzed. Special attention is paid to the problems and prospects of the development of the Islamic finance system. The factors that influence the integration of Islamic finance into the financial system of the Republic of Uzbekistan are identified.*

**Key words:** *Islamic finance, islamic banking, islamic financial instruments, takaful, murabaha, riba, sukuk.*

**Аннотация.** *Мақолада ислом молия тизимининг ривожланиш асослари ва тенденциялари, Ислом молия институтлари тамойиллари, шунингдек, Ислом молия тизимида қўлланиладиган молиявий воситалар муҳокама қилинади. Исломий ва анъанавий банклар ўзига хос хусусиятлар таҳлил қилинади. Ислом молия тизимининг муаммолари ва ривожланиш истиқболларига алоҳида еътибор қаратилмоқда. Ислом молиясининг Ўзбекистон Республикаси молия тизимига интеграциялашувига таъсир этувчи омиллар аниқланди.*

**Таянч сўзлар:** *исломий молия, исломий банк, ислом молия маҳсулотлари, такафул, мурабаҳа, риба, сукук.*

**Аннотация.** *В статье рассмотрены основы и тенденции развития системы исламских финансов, принципы деятельности исламских финансовых институтов, а также финансовые инструменты, которые применяются в рамках исламской финансовой системы. Проанализированы отличительные особенности исламских и традиционных банков. Особое внимание уделяется проблемам и перспективам развития системы исламских финансов. Выявлены факторы, которые оказывают влияние на интеграцию исламских финансов в финансовую систему Республики Узбекистан.*

**Ключевые слова:** *исламское финансирование, исламский банкинг, исламские финансовые инструменты, такафул, мурабаха, риба, сукук.*

## Introduction

The modern financial system, generating crises on a global scale, requires the need to diversify national financial markets based on the introduction of new principles and tools. Today, Islamic finance is such an effective alternative, which has proved not only its viability, but also turned out to be the least susceptible to crisis phenomena.

Islamic Finance is one of the fastest growing industries in the world. Legislation on Islamic finance has been introduced in about 60 countries around the world, including three Central Asian states: Kazakhstan, Kyrgyzstan and Tajikistan. Total assets of more than 1500 Islamic financial institutions operating around the world exceed 3.5 billion US Dollars.

Nowadays the demand of Islamic banking services is rising day by day especially in our country. Uzbekistan has all the ingredients for the introduction of Islamic finance – great Islamic heritage and roots, sizeable population, deep interest in Islamic finance, potential to disseminate successful Islamic finance experience to other countries of the region, political stability, good infrastructure, 100% literacy as well as real economic challenges and financial exclusion for a considerable stratum of society driven by faith motives.

In this regard, currently the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the strategy "Uzbekistan-2030"" was adopted. In this strategy, the task was set to introduce criteria and procedures for Islamic financing in at least 3 commercial banks, as well as the formation of the legislative framework for Islamic financing. The adoption of this Decree will first of all help to interest the population in Islamic finance, as well as the introduction and development of Islamic financial products in financial organizations of the Republic of Uzbekistan [1].

## Literature review

World-renowned scientist Muhammad Taqi Usmoni noted in his scientific publications, that Islamic finance refers to how businesses and individuals raise capital in accordance with Sharia, or Islamic law. It also refers to the types of investments that are permissible under this form of law. Islamic finance can be seen as a unique form of socially responsible investment [2].

Gambeeva Yulia Nikolaevna and Medvedeva Svetlana Nikolaevna in their scientific article noted the foundations and trends in the development of the Islamic finance system, the principles of Islamic financial institutions, as well as financial instruments that are used within the Islamic financial system. This paper also analyzes the distinctive features of Islamic and traditional banks [3].

In the research carried out by O.Astanakulov, we see that in Islamic finance, priority is paid to the Institute "bank". The following points were expressed

in these studies: "Islamic finance system - Islamic law, in other words, is a banking system with the principle of organization and functioning under Sharia law, that is, all practices of this type of bank, such as deposit or financing, will also be in accordance with Sharia guidelines [4].

Scientist Tursunov Anvar noted in his dissertation, that Islamic Finance is a term that includes a wide range of financial products and services. In many ways Islamic Finance products resemble conventional products. This is not surprising because their basic objectives are the same: to facilitate investment by someone who has money, used by someone who needs money [5].

### Methodology research

Islamic finance plays an important role in the development of the country's national financial sector. In particular, an important place is occupied by the introduction in Uzbekistan of new promising directions for the development of the securities market, alternative instruments of the Islamic financial securities market, increasing the investment attractiveness of the state, as well as Islamic financing of banking products. Therefore, the scientific article widely uses induction and deduction, systematic and comparative analysis, graphical presentation and economic and statistical methods in the development of scientific conclusions and recommendations based on the study of Islamic finance and the formation of the main directions of development of Islamic finance in the Republic of Uzbekistan.

### Analysis and results

The issue of introducing Islamic finance and Islamic banking services into commercial banks has been raised for many years. It is necessary to introduce additional legislation for the comfortable operation of the Islamic finance system in the country's banking system. This procedure diversifies the list of banking services for clients. Many residents of the country would like to use the services of Islamic finance. The issue of increasing the financial literacy of the population is also on the agenda.

"The fact is that the level of financial literacy among the population of the country is rather low. Majority of people know something about ordinary banking services, but practically nothing about Islamic finance. This topic is especially relevant in the context of the development of financial technology. It is necessary to create a certain potential and increase the financial literacy of the population. With an increase in the financial literacy of the population, it will be much easier to introduce Islamic banking,"

The total volume of Islamic Banking and Finance assets grew to $US 3.5 billion globally. Iran, Saudi Arabia and Malaysia were the largest markets of the 60 countries that reported Islamic financial assets, with all three recording more than $US 500 billion in assets (figure 1).




**Figure 1. Islamic Finance Assets Growth (2015-2021, US$ Billion) [6].**

The Global Islamic Finance market can be segmented by Financial Sector into Islamic Banking, Islamic Insurance 'Takaful', Islamic Bonds 'Sukuk and Islamic Funds. By Geographic region Islamic Finance market can be segmented into Gulf Co-operation Council (Saudi Arabia, Kuwait, UAE, Qatar, Bahrain, and Oman), the Middle East and North Africa ( Iran, Egypt, Rest of MENA), South Asia, and Asia-Pacific (Malaysia,

Indonesia, Brunei, Pakistan, Rest of South Asia and Asia-Pacific), Europe (United Kingdom, Ireland, Italy, Rest of Europe).

The growth of Islamic finance industry in CIS countries is slower than other but it is attracting the attention of the global international banking industry due to the rising opportunities in this region. Islamic banking will grow substantially in CIS countries in the next five years from a low base, if their governments took initiatives to boost this sector. Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan can be main players to lead this expansion of Islamic banking & finance in CIS. Uzbekistan is not only enriched with gas, oil and other natural resources but, along with this, it has been the center of knowledge and Islam for a long time. Uzbekistan has very low penetration of Islamic finance, despite a large Muslim population and 100% literacy rate.(figure 2).




**Figure 2. The role of Islamic finance in the economy of countries [7].**

The interest for Islamic finance is gradually growing in Uzbekistan. 93% of Uzbekistan's population is Muslims but no local bank nor any foreign institutions offering Islamic banking and capital markets services other than the IDB and ICD. Although more than 9 banks get grant from ICD on Mudarabah base to start Islamic Banking but still waiting for legislation to be passed which allow them to work under Shariah. Foreign institutions are not prevented from engaging in the market without being registered in Uzbekistan provided they satisfy requirements contained in CBU Regulation. In May 2019 the Government of Uzbekistan issued a draft resolution to create infrastructure for Islamic banking and finance in order to foster alternative financing opportunities, expand the range of banking, financial services and to open the doors for Islamic investors from the Middle East. The Government of Uzbekistan is also planning to introduce the issuance of different tenure Sukuk (Islamic Bonds) to address the long-term and short-term liquidity and investment requirements of Islamic finance industry. Many educational institution start offering Islamic Finance education to its senior students. Many Insurance and leasing companies are also working to start Takaful and Ijarah operations to meet the need of the Islamic financial market in the country [8].

The promotion of Islamic finance industry in Uzbekistan will also attract the Foreign Direct Investment (FDI) in the country which will strengthen the economic growth of the country and will reduce the headcounts living under the poverty line.

For Islamic finance to gain an institutional position following actions need to be taken:

-It must be acknowledged at the legislative level.

-An awareness campaign among people to promote the perception of Islamic finance and Islamic banking as interest-free alternatives to conventional banking and financial services must be started.

- Amendments would also be required to the Civil Code, the Tax Code and the major banking and investment laws to address this matter systemically.

-Commercial banks should be allowed to open Islamic windows or Islamic banking institutes should be allowed to set up independently from conventional banking

-To introduce Islamic banking and Islamic finance instruments, new rules must

be formulated or amendments in existing ones should be done to accept the Islamic laws and procedures.

-Some Islamic Finance education and training courses at national level should be introduced to increase the basic and practical knowledge of people so that they can adopt this new change [9].

One of the basic assumptions is that Islamic financial services should mainly attract Muslims, who represent about 93 percent of the Uzbekistan population or about 32 million in number. Other communities may also be marginally interested. This is particularly true in the early stages of development of Islamic finance in a country. Later, with an increase in awareness of Islamic finance, non-Muslims also tend to patronise Islamic banks. This has certainly been a trend in countries like Malaysia where an increasing number of Chinese are using Islamic financial services, after an initial reluctance for over 15 years.

Despite the fact that Islam is a major religion, the Islamic financial sector in Uzbekistan is still relatively underdeveloped compared to its neighbors, although the country has great potential for development. This has been acknowledged by experts from major international financial institutions (Islamic Development Bank Group (IsDB), Islamic Corporation for the Development of the Private Sector (ICD), Asian Development Bank, etc.). However, in recent years, some work has been done in this direction in cooperation with international financial institutions.

Small and medium-sized businesses provide 81% of employment in Uzbekistan, and over the past 10 years, they have contributed to the country's gross domestic product (GDP) growth at an average annual rate of more than 5%. Uzbekistan is becoming the fastest growing economy in Central Asia. The mutually beneficial relationship between these organizations and the government has paved the way for Islamic finance to enter the Uzbek market and has taken the first step in this area [10].

According to a survey conducted by the United Nations Development Program in early 2020 on the analysis of Islamic financial products in Uzbekistan and a relevant survey, the main reasons for not using bank loans are religious beliefs, high-interest rates and the complexity of lending. If Islamic financial institutions are established in the country, the majority of respondents in the above survey noted that they can use the services of these institutions. Even traditional banks have expressed their views on the establishment of Islamic financial institutions in Uzbekistan, the emergence of fair and transparent competition in the financial sector, which will lead to an increase and diversification of investment flows into the country.

As a result of this work, Uzbekistan will undoubtedly become a leader in the field of Islamic finance among the CIS countries. The Islamic financial services sector will be an important factor, and foundation for the bright future of Uzbekistan, which will increase the interest of foreign investors in the country, which reflects the deep roots of Islam in its culture, and the government will take full advantage of this opportunity.

## Conclusion

Summarizing the above analysis, it can be pointed out that the establishment of Islamic finance is an important factor in the development of the Uzbek economy. Islamic finance is a new direction for the economy of Uzbekistan.

The emergence of alternative financial products contributes to the expansion of the population's access to financial services. However, existing expectations can be significantly distorted due to the lack of knowledge and experience of potential clients

in the field of Islamic finance, imperfections in banking and financial legislation.

There must be a legal basis for the Islamic banks to start operating and carry out their activities at their fullest in Uzbekistan. Hence, as mentioned above, the activities of Islamic finance have their own characteristics and differ from traditional banks. At the same time, it should be noted that after the address of the President Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis (Parliament) and laments that it is the high time to create a legal framework of Islamic finance and the President informed that from 2022 year the new law "On non-bank credit institutions" will include the concept of Islamic finance. We can say that with the adoption of this long-awaited law in Uzbekistan, Islamic banks will have the opportunity to fully implement their activities. At present, officials should also keep in mind that the introduction of Islamic financial services in Uzbekistan will be carried out by parallelly solving a number of problems related to the lack of human resources, and the need on increasing literacy among prominent consumers.

## REFERENCES

1. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan "On the strategy of Uzbekistan — 2030" dated September 11, 2023 No. 158 DP-158
2. Muhammad Taqi Usmani "an Introduction to Islamic finance" Study guide. 2021 y. page 6
3. https://www.internationalinvestor.com/chile/sectors/metals-mining/ps_if_projected-growth-of-islamic-finance-assets-to-2021/
4. Astanakulov O. Islom moliya asoslari: taraqqiyot bosqichlari, istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2021 y.
5. https://cyberleninka.ru/article/n/islom-moliyasi-va-banki
6. ICD-REFINITIV Islamic Finance Development Report 2022
7. https://www.researchgate.net/figure/Shares-of-Global-Islamic-Banking-Assets_fig2_332487706
8. https://alhudacibe.com/pressrelease
9. https://www.isdb.org/uzbekistan
10. https://m.kun.uz/en/news/2020/08/04/uzbekistan-can-become-a-cis-leader-in-islamic-finance

UO‘T 339.727/658

**Alimardonov Elshod Dilshodovich,**
*Toshkent moliya instituti "Xalqaro moliya-keredit" kafedrasi dotsenti, i.f.n.*
*e-mail:* alimardonov_elshod@inbox.ru

# XALQARO MOLIYAVIY MARKAZLARNI SHAKLLANTIRISHDA O‘ZBEKISTONNING XALQARO REYTINGLAR VA INDEKSLARDAGI O‘RNINI YAXSHILASH

**Алимардонов Элшод Дилшодович,**
*К.э.н., доцент кафедры «Международные финансы и кредит» Ташкентского финансового института,*
*e-mail: alimardonov_elshod@inbox.ru*

# УЛУЧШЕНИЕ ПОЗИЦИЙ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖДУНАРОДНЫХ РЕЙТИНГАХ И ИНДЕКСАХ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ЦЕНТРОВ

**Alimardonov Elshod Dilshodovich,**
*PhD, Associate Professor of the Department «International Finance and Credit» of the Tashkent institute of finance,*
*e-mail:* alimardonov_elshod@inbox.ru

# IMPROVING THE POSITION OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RATINGS AND INDEXES IN THE FORMATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL CENTERS

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish uchun mamlakatdagi investitsion muhitni belgilovchi omillar, baholovchi metodologiyalar, yuqori suveren kredit reytingiga ega bo‘lishning ahamiyati, mamlakatimiz xalqaro reyting va indeks ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan harakatlar, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit va uni baholovchi metodologiya, suveren kredit reytingi, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy indekslar.*

**Аннотация.** *В статье выявлены определяющие факторы методологии оценки инвестиционного климата страны для широкого привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику, значение приобретающее высокий суверенный кредитный рейтинг страны и действия, направленные на улучшение международного рейтинга и индексных показателей нашей страны, а также даны научно-обоснованные предложения в целях дальнейшего улучшения благоприятного инвестиционного климата Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *иностранные инвестиции, инвестиционный климат и его оценка методологии, страновой риск, суверенный кредитный рейтинг, международные экономические и финансовые индексы.*

**Annotation:** *In this article defining factors of methodology an evaluation of an investment climate of the country for wide attracting foreign investments into national economy, the importance of acquiring the highest sovereign credit rating of the country, actions aimed at improving the international rating and index indicators of our country, and also the scientifically-proved offers with a view of the further improvement of a favorable investment climate of Uzbekistan are given.*

**Key words***: foreign investment, the investment climate and its evaluation methodology , country risk , sovereign credit rating, international economic and financial indices.*

**Kirish**

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning xarqaro raqobatbardoshligini, shuningdek, eskport salohiyatini oshirish, yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni ko‘paytirish, modernizatsiya qilish jarayoni sohaga yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etishni talab etadi. Bunda, xorijiy investitsiyalarning o‘rni kattadir. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish uchun mamlakatdagi investitsion muhit, chet ellik investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan innovatsion rivojlanish, farovon turmush tarzi turli munosabatlar bilan bog‘liq moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, albatta. Ayni paytda, yurtimiz shaharlarini kompleks rivojlantirish dasturlarining hayotga tatbiq etilishi natijasida bir qator shaharlar xususan, Toshkent shahri qiyofasi tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu esa, mamlakatimiz shaharlarini iqtisodiy-moliyaviy qudrati va infratuzilmasini rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan katta e’tibor berilayotganligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 92-maqsadi “An’anaviy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo‘shilish [1]” hisoblanadi. Shunday ekan, xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirishda O‘zbekistonning xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

*Sh.Sh.Davirova* tomonidan suveren kredit reytingini modelining nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, “Suveren reyting” tushunchasining mohiyatini ochib bergan, “Uchta kit” uslubiyotini o‘rgangan, mazkur uslubiyotlar asosida model ishlab chiqqan, O‘zbekistonda reyting bozorini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tadqiq etgan. [2]

*A.U.Burxanov va F.Q.Sindarov* tadqiqotlarida suveren kredit reytinglarida O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash imkoniyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan O‘zbekistonning suveren kredit reytingidagi o‘rnini mustahkamlash, bu orqali esa mamlakatimizning xalqaro imijini oshirgan holda mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, byudjet taqchilligini xorijiy manbalar hisobidan moliyalashtirish kabi davlat moliyasining bugungi kundagi dolzarb masalalariga e’tibor qaratishgan [3].

*N. Karimov* hozirgi davrda xalqaro fond birjalari xorijiy investitsiyalarni jalb etish va moliyalashtirishning asosiy markazlariga aylanganini o‘z ilmiy tadqiqotlarida ta’kidlagan. Lekin shu bilan birga, xalqaro fond birjalaridagi moliyaviy operatsiyalarning umumiy hajmida rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog‘i

pastligicha qolayotgani, ularda rivojlangan davlatlar emitentlarining depozitar tilxatlari orqali o‘z xalqaro fond birjalaridagi faoliyatini kuchaytirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatgan[4].

London, Nyu-York, Tokio va Singapur bitimlar hajmi bo‘yicha pasayib borish tartibiga ko‘ra valyuta savdosining asosiy markazlari hisoblanadi, deb ta’kidlangan *A.V. Vahobov va T.S. Rasulov* ilmiy ishlarida. Ularning fikricha, London muhim moliyaviy markaz sifatida butun bozorning uchdan bir qismini egallaydi, katta markazlar, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham joylashgan, masalan, Germaniyada, Shveysariyada, Gonkong (Syangan)da va Fransiyada[5].

T.Narbayeva va B.Xidirova tomonidan o‘rganilgan materiallar asosida xalqaro reyting va indekslar jahon miqyosida O‘zbekiston nufuzini oshiradi, mavqeyini mustahkamlaydi, shaffoflikni ta’minlaydi degan natijaviy xulosaga kelingan[6].

## Tadqiqotlar metodologiyasi

Mavzuni ilmiy o‘rganish, tahlil va tadqiq etish jarayonida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya kabi usullaridan atroflicha foydalanilgan. Maqolada, ilmiy abstraksiya usulidan foydalanish zamirida mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirishda O‘zbekistonning xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash yuzasidan xulosalar chiqarildi va xulosalarga mos ravishda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berildi.

## Natija va muhokama

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, ayni paytda mamlakatlarda yaratilgan investitsion muhitni baholovchi bir qator jahonda keng tarqalgan metodologiyalar mavjud bo‘lib, ularning qatorida BERI (Business Enviromental Risk Intelligence (BERI)) indeksi, xalqaro agentliklar tomonidan mamlakatlarga beriladigan “Suveren kredit reytingi”ni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq mamlakat riski va suveren kredit riski o‘rtasida bir qator o‘xshashliklar bilan birga, o‘ziga xos farqli jihatlarni ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Xususan, mamlakat riski tushunchasida pul mablag‘larini transchegaraviy joylashuvi va xalqaro faoliyat bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda yuzaga keluvchi moliyaviy xavf-xatarlar aks etadi. Mazkur risk mamlakatning joriy va istiqboldagi moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlari va ularning mijozlar yoki kontragentlarning xalqaro majburiyatlarini bajarishiga ta’sir etish darajasi orqali aniqlanadi. Suveren kredit riski esa, mamlakat riskiga nisbatan tor tushuncha bo‘lib, unda moliya-kredit tashkilotlarining tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan kredit va qarz berish, xorijiy hamkorlar oldida moliyaviy majburiyatlarni bajara olish, chet el investitsiyalarini moliyalashtirish operatsiyalarida hamda xalqaro to‘lovga qobilligi bo‘yicha yuzaga keladigan moliyaviy xavf-xatarlar namoyon bo‘ladi.

Mamlakatning bir yoki bir nechta xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan, yuqori baholangan suveren kredit reytingiga ega bo‘lishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga turli shakldagi xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish, xususan, yevroobligatsiyalarni emissiya qilish imkoniyatini taqdim etadi, natijada milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari ko‘payib, mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi tezlashadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda bir qator imtiyozlarni ham beradi.

Shuni alohida ko‘rsatib o‘tish kerakki, bugungi kunda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan suveren kredit reytingi

bo‘yicha investitsion darajaga ega bo‘lgan rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti qaror topayotgan mamlakatlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kirib kelish hajmining ortib borishi kuzatilmoqda.

2023-yilda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda yetakchilik qilgan rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarining suveren kredit reytingi mos ravishda, ya’ni Xitoy – AA, Gongkong – AA, Braziliya – BB, Singapur – AAA, Hindiston – BBB, Indoneziya – BBB, Qozog‘iston – BBB, O‘zbekiston - BB bo‘lgan [7].

MDH mamlakatlaridan xalqaro reyting agentliklarining suveren kredit reytingiga ega bo‘lgan davlatlar xalqaro moliya bozoridan milliy iqtisodiyotga investitsion resurslarni faol jalb etmoqdalar.

Xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan reytinglar muddatiga ko‘ra uzoq va qisqa mudatli reytinglarga bo‘linib, mamlakatga berilgan uzoq muddatli reyting emitent o‘zining qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish qobiliyatini ko‘rsatadi va ular “A”dan “D” gacha bo‘lgan toifalarga ajratilgan. Tadqiqotlarimizga asoslanib, xalqaro reyting agentliklari tomonidan mamlakatlarga beriladigan suveren kredit reytingi bo‘yicha ularda yaratilgan investitsiya muhitini 3 ta asosiy guruhga bo‘lish mumkin, ya’ni ular qulay, spekulyativ va defolt holatidagi investitsiya muhitlaridir. Suveren kredit reytingi bo‘lmagan mamlakatlardagi investitsiya muhiti spekulyativ investitsiya muhiti bilan tenglashtiriladi. Shuningdek, “Standard & Poor’s” xalqaro reyting agentligi tomonidan mamlakatning suveren kredit reytingini kelgusi 2 yoki 3 yil ichida o‘zgarishining prognozi 4 ko‘rsatkich asosida aniqlab ko‘rsatiladi, ya’ni ular “Ijobiy” – reyting ortishi mumkin, “Salbiy” – reyting tushishi mumkin, “Barqaror” – reytingi o‘zgarmas, “O‘zgaruvchi” – oshishi yoki tushishi mumkin bo‘lgan suveren kredit reytinglaridir.

Qayd etish lozimki, mamlakat suveren kredit reytingini aniqlashning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida YIM, inflyatsiya, aholining ish bilan bandligi, yalpi tashqi qarz va xorijiy investitsiyalarga xizmat ko‘rsatish, davlat byudjeti samaradorligi, mamlakat to‘lov balansi natijalari hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining mamlakat (suveren) kredit reytingini olishga va oshirishga qaratilgan turli iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirdi hamda oshirmoqda. Xususan, bunday chora-tadbirlar majmuasi ma’lum bir qismini 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Yana, alohida ko‘rsatish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoning 3-ilovasida O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari (KPI) belgilangan bo‘lib, unda 2030 yilga kelib mamlakatimizning suveren kredit reytingini BBB olib chiqish maqsad qilib qo‘yilgan (2-jadvalga qarang).

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-son Qarorini qabul qilinishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘sini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini xolis va haqqoniy baholashni ta’minlash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ko‘rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emasligini ko‘rsatadi.

*1-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi etakchi xalqaro reyting agentliklarining mamlakat (suveren) kredit reytingini olishga va oshirishga qaratilgan turli iqtisodiy chora-tadbirlari [8]**

| Bosqichlar | Qonuniy-me'yoriy hujjatlar |
|---|---|
| ***1-bosqich***<br><br>O'zbekiston Respublikasi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining mamlakat (suveren) kredit reytingini **olishga** doir huquqiy-iqtisodiy harakatlari | 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori.<br>2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.<br>3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3877-son qarori. |
| ***2-bosqich***<br><br>O'zbekiston Respublikasi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining mamlakat (suveren) kredit reytingini **oshirishga** doir huquqiy-iqtisodiy harakatlari | 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5635-son Farmoni.<br>5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-son Farmoni. |

*2-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI)** [9]

| T/r | Reyting va indekslar hamda tarkibiy indikatorlarning nomlanishi | Mas'ul davlat organlari | Joriy holat | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2030-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Suveren kredit reytinglar** (Sovereign Credit Ratings) | **Moliya vazirligi** *(T.Ishmetov)* | | | | | |
| 1.1 | Fitch Ratings | Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* | "BB-" (barqaror) | "BB-" (barqaror) | "BB-" (barqaror) | "BB-" (ijobiy) | "BBB-" (ijobiy) |
| 1.2 | S&P Global Ratings | | "BB-" (barqaror) | "BB-" (barqaror) | "BB-" (barqaror) | "BB-" (ijobiy) | "BBB-" (ijobiy) |

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashni ta’minlash maqsadida:

– O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Adliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimini (keyingi o‘rinlarda — Milliy monitoring tizimi) yaratildi;

– Boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o‘lchash, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishga yordam beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismi etib belgilandi.

Milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichi sifatida respublikadagi tadqiqot institutlariga alohida jahon amaliyotida keng ommasi tomonidan tan olingan 17 turli xalqaro reytinglar biriktirilgan [10] va ularga qator vazifalar yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul bo‘lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari bilan birgalikda 2019-yil 1-aprelga qadar Internet tarmog‘ida quyidagilarni o‘z ichiga olgan “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portali [11] yaratildi:

– xalqaro reytinglar bo‘yicha yillik hisobotlar, shuningdek, hisobotlarni o‘rganish va e’lon qilish muddatlarini ko‘rsatgan holda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning tavsiyalari;

– xalqaro reytinglar indikatorlari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasiga oid axborotlar;

– tegishli reytinglar yo‘nalishlari bo‘yicha jamoatchilik fikri so‘rovnomalari, shuningdek, ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari;

– xalqaro reytinglar savolnomalari shaklida har bir indikator kesimida to‘liq va aniq ma’lumotlar, shu jumladan, statistik ma’lumotlar;

– tegishli reytinglar bo‘yicha turli ijtimoiy so‘rovlarni o‘tkazish imkoniyati;

– tegishli xalqaro reyting metodologiyasi bo‘yicha onlayn o‘qitish resursi;

– respondentlar tomonidan joylarda qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni taqdim etish imkoniyati.

Alohida reytinglar uchun mas’ul bo‘lgan tadqiqot institutlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmonida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul vazirlik va idoralarga vazifalar berilgan.

*3-jadval*

**Global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI) da Toshkent shahriga tegishli baholash ko‘rsatkichlarining o‘zgarish holati**

| **Ko‘rsatkichlar** | **2022-yil sentyabr (32 sonli nashr)** [12] | **2023-yil mart (33 sonli nashr)** [12] | **2023-yil sentyabr (34 sonli nashr)** [12] |
|---|---|---|---|
| Oxirgi 24 oy ichida baholash ko‘rsatkichlari soni | 13 | 31 | 46 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| O‘rtacha baholash | 562 | 555 | 539 |
| Uyushayotgan 10 ta moliyaviy markaz ichida turgan o‘rni (pozitsiyasi) | 10 | 9 | 7 |

2007-yildan boshlab e’lon qilinib kelayotgan global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI)[1] da 2022, yildan boshlab Toshkent shahri ham uyushayotgan moliyaviy markaz sifatida qayd etildi. Bugungi kundagi holat esa 3-jadval ma’lumotlarida keltirilgan. GFCI to‘la maqomda indeksatsiya qilinishi, reytingi aniqlanishi uchun avvalo uning uyushgan (associate) markaz maqomini oshirib borish lozim. Xususan, unga beriladigan baholar (baho ko‘rsatkichlari) sonini 150 ga yetkazish lozim.

Fikrimizcha, mamlakatimizda investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, jahon amaliyotida umumqabul qilingan biznesni yuritish sharoitlarini baholash mezonlari tizimini joriy etish, xalqaro reyting agentliklarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga beradigan “qulay investitsiya muhiti” bahosini olish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

*Birinchidan,* aholi jon boshiga nisbatan hisoblanadigan YIMning qiymatini kamida 1100 AQSH dollaridan, sanoat ishlab chiqarishidagi inqirozlar hisobiga YIM hajmini esa 20%dan pastga tushirmaslik, oxirgi 10 yil davomida doimiy o‘sishini ta’minlash choralarini ko‘rib borish.

*Ikkinchidan,* milliy valyutani xalqaro pul sifatidagi maqomi (zaxira valyuta (reserve currency) sifatida XVF asosidagi zaxira valyutalarning kamida 3%ini, likvidligi yuqori valyuta (actively traded currency) sifatida kunlik jahon valyuta savdosining 1%ni tashkil etishi)ni xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish darajasini oshirish, Yalpi tashqi moliyaviy ehtiyojlarning xalqaro moliyaviy tushumlar va foydalanish mumkin bo‘lgan valyuta zaxiralari yig‘indisiga nisbati (Gross external financing needs (% of CAR plus usable reserves)ni, shuningdek, tor doiradagi sof tashqi qarz (aktivlar) ning xalqaro moliyaviy tushumlarga nisbati(Narrow net external debt/CAR (%))ni 100%dan, tashqi savdo balansi taqchilligining xalqaro moliyaviy tushumlarga nisbatini 10% oshirmaslik zarur.

*Uchinchidan,* umumiy davlat qarzining YIMga nisbatan salmog‘ini o‘sib borishini 4%-7%dan, davlatning sof qarzining YIMga nisbati (Net debt/GDP (%))ni 80%dan, davlatning umumiy daromadlariga nisbatan foiz xarajatlarini 15%dan oshirmaslik, mahalliy bank tizimining davlat aktivlariga ta’sir etish darajasi 20%dan kam bo‘lishini, 3 yil ichida so‘ndiriladigan chet el valyutasidagi davlat qarzlari yalpi davlat qarzlarining 40%dan, norezidentlar tomonidan davlat qarzlariga egalik qilishni, shuningdek, fond bozori indekslari 60%ga pasayganda, ishsizlik 15%ga oshganda, YIM 6%ga tushganda davlat tomonidan beriladigan turli shartli kafolatlar, ya’ni davlatning majburiyatlari hajmini YIMga nisbatan 60%dan ortmasligini ta’minlash.

*To‘rtinchidan,* valyutani tartibga soluvchi monetar organlar tomonidan qat’iy belgilangan valyuta kurslari rejimiga qaytmaslik, ularning mamlakat pul muomalasini tartibga solishdagi mustaqilligini, uning sohaga ta’sir etish mexanizmi va vositalaridagi oshkoralikni, davlat aralashuvi darajasi borasidagi siyosatidagi aniqlikni saqlab qolish, markaziy bankning moliya tizimidagi so‘nggi kreditor funksiyalarini cheklab qo‘ymaslik, monetar organlar tomonidan e’lon qilinadigan statistik

[1] Dastlab, global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI) 2007-yil mart oyida “Z/Yen Group” tashkiloti tomonidan e’lon qilingan bo‘lib, har 6 oyda yangilanib kelinmoqda. 2023-yil martda “GFCI”ning 33 nashri e’lon qilingan.

ma'lumotlar to'g'riligini yoki ishonchliligini saqlash, yillik iste'mol narxlari indeksini 10%dan oshirmaslik lozim.

**Xulosa**

Umuman olganda, mamlakatimizga global investitsiya bozoridan moliyaviy resurslarni keng jalb etish uchun jahonda yetakchi xalqaro reyting agentliklarining yuqori darajadagi suveren kredit reytingi bahosini olishi, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur.

Mamlakatimizda milliy moliya bozorining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash va taraqqiyotini tezlashtirish hamda zamonaviy xalqaro standartlarni joriy etish asosida xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirishda ichki imkoniyatlar bilan ilg'or xorij tajribalarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash borasida qator ijobiy ishlar olib borilmoqda. Bunda, milliy moliya bozori infratuzilmasini modernizatsiyalash maqsadida milliy valyuta kursi o'zgarishining barqarorligini ta'minlash, raqamli boshqaruv va axborotlar bilan ishlash imkoniyatini, shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori va obligatsiya bitimlari hajmini oshirish, fond bozorini yanada erkinlashtirish va baynalmilallashtirish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son.
2. Sh.Sh.Davirova, Suveren kredit reytingini modeli: nazariy va amaliy jihatlari, "UzBridge" elektron jurnali IV –son, dekabr, 2020-yil, 21 – 30 sahifalari.
3. A.U.Burxanov, F.Q.Sindarov. Suveren kredit reytinglarida O'zbekistonning o'rnini yaxshilash imkoniyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021-yil.
4. N.G'. Karimov. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalar faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2007. 204 – 215-b.
5. Vahobov A.V., Rasulov T.S. Valyuta munosabatlari nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. 280-b. 68-b.
6. «Yangi O'zbekiston» va «Pravda Vostoka» gazetalari tahririyati» DUK, https://yuz.uz/news/xalqaro-reyting-va-indekslar
7. Mamlakatlarning "Standard & Poor's" xalqaro reyting agentligi tomonidan aniqlangan suveren reyting ko'rsatkichlari (2023-yil 10-aprel holati bo'yicha) https://disclosure.spglobal.com/sri/
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi rasmiy sayti https://lex.uz/uz ma'lumotlar bazasi asosida muallif ishlanmasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmonining 3-ilovasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son qarori ilovasi.
11. http://ratings.gov.uz/ - "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" yagona portali
12. Z/Yen Group Limited tashkiloti tomonidan 2022-yil sentyabr, 2023-yil mart va sentyabr oylarida e'lon qilingan "Global moliyaviy markazlar indeksi" hisobotining 32, 33, 34 sonlari, https://www.zyen.com/publications/

UO‘T 338.12/338.5

**Arifjanova Yayraxon Usmonxo‘jayevna,**
*Toshkent moliya instituti katta o‘qituvchisi*
*ariya7@mail.ru*

# AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYALASHTIRISHDA YASHIL OBLIGATSIYALARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

**Арифжанова Яйрахан Усмонходжаевна,**
*Ташкентский финансовый институт*
*Старший преподаватель*
*ariya7@mail.ru*

# ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕЛЕНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В ФИНАНСИРОВАНИИ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ

**Arifjanova Yayrakhan Usmonkhojayevna,**
*Tashkent Institute of Finance*
*Senior teacher*
*ariya7@mail.ru*

# PROSPECTS OF USING GREEN BONDS IN FINANCING JOINT-STOCK COMPANIES

**Annotatsiya.** *Mazkur ilmiy maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, moliya bozorida zamonaviy moliyaviy instrumentlar yashil obligatsiyalar tushunchasi va yashil obligatsiyalar bozorining bugungi kundagi holati o‘rganilgan. Shuningdek, yashil obligatsiyalar bozori emitentlar, yo‘naltirilgan moliyaviy mablag‘lar sohalar kesimida tahlil qilingan. Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda yashil obligatsiyalardan foydalanishning imkoniyat va istiqbollari yoritilgan.*

**Tayanch so‘zlar***: aksiyadorlik jamiyati, yashil obligatsiyalar, yashil iqtisodiyot, iqlim obligatsiyalari, ko‘k obligatsiyalar, korporativ tuzilma, investitsiya, emitent.*

**Аннотация.** *В научной статье рассматривается концепция зеленой экономики, современные финансовые инструменты на финансовом рынке, концепция зеленых облигаций и современное состояние рынка зеленых облигаций. Также был проанализирован рынок зеленых облигаций с точки зрения эмитентов, секторов направленных финансовых средств. Освещены возможности и перспективы использования зеленых облигаций при финансировании акционерных обществ.*

**Ключевые слова:** *акционерное общество, зеленые облигации, зеленая экономика, климатические облигации, голубые облигации, корпоративная структура, инвестиции, эмитент.*

**Annotation.** *This scientific article examines the concept of green economy, modern financial instruments in the financial market, the concept of green bonds, and the current state of the green bond market. Also, the market of green bonds was analyzed in terms of issuers, sectors of directed financial funds. Opportunities and prospects of using green bonds in financing joint-stock companies are highlighted.*

**Key words:** *joint-stock company, green bonds, green economy, climate bonds, blue bonds, corporate structure, investment, issuer.*

**Kirish**

Bugungi kunda ekologik muammolar hech bir davlatni chetlab o‘tmagan. Kundan kunga iqlim o‘zgarishi natijasida muammolar ko‘lami oshib bormoqda. Ichimlik suvining ifloslanishi, dehqon xo‘jalik resurslaridan samarali foydalanmaslik, ishlab chiqaruvchi korxonalardan atrof-muhitga chiqindilar ajratishning ko‘payishi, issiqxona gazlari emissiyasining oshishi va havoning ifloslanishi jahon aholisining yashash sharoiti va mamlakatlarning iqtisodiy farovonligiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar bo‘lib, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish muhim masalalardan biridir. Shuning uchun ham hozirda ko‘pgina davlatlar “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Yashil iqtisodiyot bu rivojlanishning yangi va zamonaviy hamda zaruriy bosqichi. Nafaqat davlat, balki korxonalar ham yashil investitsiyalarga katta e’tibor qaratishi kerak. Yashil iqtisodiyot bu yashil moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda iqtisodiyotga pul mablag‘larini jalb qilish va bu moliyaviy manbalardan mamlakat ekologik holatini yaxshilash, kutilayotgan salbiy natijalarni kamaytirishga hamda ishlab chiqaruvchi korxonalarning atrof-muhitga ta’sirini qisqartirish choralarni ko‘rishga qaratilgan loyihalarga yo‘naltirishdir. Yashil moliyaviy instrumentlar sifatida yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, yashil investitsiya fondlaridan keng foydalanilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Moliya bozorida zamonaviy moliyaviy instrument sifatida yashil obligatsiyalarga qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Yashil obligatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, yashil obligatsiyalar tamoyillari va yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bozor uchun yashil obligatsiyalar nisbatan yangi tushuncha bo‘lsa-da, barqarorlik obligatsiyalari ichida yashil obligatsiyalar emissiyasi keskin oshib bormoqda.

Osiyo taraqqiyot banki rivojlanayotgan davlatlar uchun yashil obligatsiyalarning emissiya qilish bo‘yicha yo‘riqnoma (Detailed Guidance for Issuing Green Bonds in Developing Countries) ishlab chiqqan bo‘lib, obligatsiya “yashil” deya tan olinishi uchun zarur talablar taqdim etilgan[1].

Juan Antonio Ketterer va Gabriela Andrade o‘z tadqiqotlari davomida yashil obligatsiyalar bozorini kengaytirish imkoniyatlari va mavjud muammolarga to‘xtalib o‘tishgan[ 2].

Julia Jelemensky o‘z tadqiqotida yashil obligatsiyalarning daromadliligi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni taqdim etgan bo‘lib, tahlillar asosan empirik tadqiqotga asoslangan[ 3].

Yashil obligatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini Jahon banki bo‘lim boshlig‘i Heike Reichelt quyidagicha ta’riflagan: “Yashil obligatsiyalar investorlarning daromadlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ekologik, ijtimoiy yoki boshqaruv xatarlarini hal qilishga yordam beradi” [ 4].

2022-yil yakunlarini o‘rganilishi bo‘yicha Enviromental Finance Bond Award-2023 bo‘yicha “Yilning yashil loyihasi” nominatsiyasini Yaponiyaning

Clean Energy Connect kompaniyasi egalladi. Ushbu yashil loyiha Yaponiya bo‘ylab foydalanilmayotgan qishloq xo‘jaligi yerlarida quyosh stansiyalarini ishga tushirish uchun 6,6 milliard dollar qiymatidagi mablag‘ sarflagan [ 5].

Dunyo bo‘ylab investorlar o‘zlarining moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va barqaror kelajakka hissa qo‘shish yo‘llarini izlashadi. Kundan kunga iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va qashshoqlik kabi global muammolarni hal qilish uchun ko‘proq sarmoya talab etiladi- deydi Jahon banki moliyaviy direktori Scott Cantor [ 6]. Shunday ekan, yashil obligatsiyalar bozori yangi imkoniyatlar taqdim etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada nazariy, amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez kabi usullar va yondashuvlardan foydalanilgan.

**Natija va muhokama**

Yashil moliyalashtirishning dastlabki instrumenti sifatida yashil obligatsiyalar bozorga kirib keldi. Yashil obligatsiyalarning birinchi emissiyasi 2007-yil Yevropa investitsiya banki (EIB) tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, bu obligatsiyalar “Climate Awareness Bonds” nomi ostida chiqarilgan va muqobil energiya manbalari hamda energiya samaradorligi sohasidagi loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan edi. Shundan so‘ng institutsional investorlarda atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalarga investitsiya kiritishga qiziqish paydo bo‘lgan, 2008-yilda Jahon banki institutsional investorlar uchun birinchi yashil obligatsiyalar emitentiga aylandi.

Yashil obligatsiyalar iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va ekologik muammolarni hal qilish uchun amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishning muhim vositasiga aylangan bo‘lib, an’anaviy obligatsiyalarga alternativ moliyaviy instrument sifatida investorlarga muntazam va qat’iy daromad olish imkonini berish bilan bir qatorda, atrof-muhitni himoyalashni rag‘batlantirishni anglatadi. Bu turdagi obligatsiyalar bozori, o‘z navbatida, investorlarning iqlim o‘zgarishi muammolari haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishlariga yordam berdi. Bu bozorning jozibadorligi shundaki, investorlar uchun daromadlilik ta’minlangan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ifloslanishning oldini olish, suv va quruqlik ekotizimlarini himoya qilish, ishlab chiqarishdagi zararlarni qisqartirish, chiqindilarni qayta ishlash kabi ekologik muammolarini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlagan holda xavfsiz investitsiya qilish imkonini beradi.

Yashil obligatsiyalar bilan birga iqlim obligatsiyalari va ko‘k obligatsiyalar tushunchalari mavjud bo‘lib, ular bir-biriga o‘xshash va ayni vaqtda bir-biridan farqli tushunchalardir. Iqlim obligatsiyalari asosan issiqxona gazlar emissiyasi, uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirsa, yashil obligatsiyalar atrof-muhitni himoya qilish bilan bog‘liq moliyaviy instrumentdir. Ko‘k obligatsiyalarni esa yashil obligatsiyalarning bir turi sifatida ta’riflash mumkin, “blue bond” bu hukumat, banklar yoki korporativ tuzilmalar tomonidan ekologik, iqtisodiy va iqlimiy manfaatlarga ega bo‘lgan dengiz va okean bilan bog‘liq loyihalarga kapital jalb qilish uchun chiqarilgan qarz vositasidir[7]. Bu barqaror baliqchilikni qo‘llab-quvvatlash, marjon riflari va okean yoki dengiz ekotizimlarni himoya qilish yoki ifloslanish va kislotalanishni kamaytirish loyihalarini o‘z ichiga olishi mumkin. Daromad olish bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy hamda

ekologik samaraga erishish har bir investorni qiziqtiradi. Shu sababli yashil obligatsiyalar bozori keskin o‘sdi. Ko‘pgina individual va institutsional investorlar bu turdagi moliyaviy instrumentlarga qiziqishlari ortib bordi. Bu esa o‘z navbatida, yashil obligatsiyalarni standartlashtirish zaruratini tug‘dirdi. Ya’ni yashil obligatsiya deb e’tirof etilishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak? Yashil investitsiyalar deya amalga oshirilayotgan loyihalar qay darajada samarali degan savollar investorlarni qiziqtirishi tabiiy.

2008-yil Climate Bond Initiative (CBI) xalqaro notijorat tashkiloti tuzilgan bo‘lib, bu tashkilot tomonidan iqlim obligatsiyalarning standartlari ishlab chiqildi[8]. Iqlim obligatsiyalari standarti iqlim obligatsiyalari va yashil obligatsiyalar uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan aktivlar va loyihalar uchun aniq, sektorga xos muvofiqlik mezonlarini taqdim etadi. 2014-yilda esa Xalqaro kapital bozori assotsiatsiyasi (ICMA) tomonidan Yashil obligatsiyalar tamoyillari (Green Bond Principles) nashr etildi [9]. Yashil obligatsiya tamoyillari (GBP) shaffoflik va oshkoralikni tavsiya qiladi va yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Yashil obligatsiyani chiqarishga yondashuvni aniqlaydi. Xalqaro kapital bozori assotsiatsiyasi yashil obligatsiyalarni chiqarishni tartibga soluvchi ko‘rsatmalarni ishlab chiqqan bo‘lib, loyihalarning asosiy bir nechta toifalarini e’lon qildi, lekin loyihalar bular bilan cheklanmagan:

– Qayta tiklanadigan energiya.
– Energiya samaradorligi (shu jumladan, energiya tejaydigan binolar).
– Barqaror chiqindilarni boshqarish.
– Yerdan barqaror foydalanish (shu jumladan, barqaror o‘rmon xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi).
– Biologik xilma-xillikni saqlash.
– Toza transport.
– Barqaror suv boshqaruvi (shu jumladan, toza va/yoki ichimlik suvi).
– Iqlim o‘zgarishiga moslashish.

CBI tomonidan ishlab chiqilgan standartlar va Yashil obligatsiya tamoyillari ixtiyoriy ko‘rsatmalardan tashkil topgan bo‘lib, ular emitentlarga chiqarilgan obligatsiyalarni sertifikatlash majburiyatini yuklamaydi. Yashil obligatsiya tamoyillari ko‘proq emissiya bilan bo g‘liq jarayonlarni tartibga soladi va ularning standartlarini taqdim etadi. Yashil obligatsiya tamoyillari 4 tarkibdan iborat bo‘lib, ular quyidagilar:

1) “yashil” obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishi;
2) loyihani baholash va tanlash jarayoni;
3) moliyaviy mablag‘larni boshqarish;
4) hisobot.

2023-yilgacha yashil obligatsiyalar bozorining umumiy qiymati 2,2 trillion dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2457 ta emitent 85 ta davlatdan bozor ishtirokchisiga aylangan.

2014 va 2022-yillar oralig‘ida Amerika Qo‘shma Shtatlari 380 milliard AQSH dollari bilan yashil obligatsiyalar chiqarish bo‘yicha yetakchi davlat bo‘lib kelgan edi. Xitoy esa ikkinchi, Germaniya uchinchi o‘rinni egalladi. Fransiya to‘rtinchi o‘rinda turgan edi.

2022-yil yakunlari bo‘yicha yashil obligatsiyalar bozorini tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tgan yili 487,1 milliard dollar hajmidagi yashil obligatsiyalar 741 ta emitent tomonidan emissiya qilingan. 2022-yilda eng yirik suveren yashil obligatsiya emitentlari esa Italiya va Germaniya davlatlari bo‘ldi. 2022-yilda esa emissiyaning eng katta hajmi Xitoy davlatiga t o‘g‘ri kelgan bo‘lib, yetakchi uchlik davlatlarining keyingi o‘rinlarida AQSH va Germaniya egallab turibdi. Xitoyda chiqarilgan yashil obligatsiyalar 85 milliard AQSH dollaridan ortiqni tashkil etdi. Reytingda ikkinchi o‘rinni 64,4 milliard dollarlik yashil obligatsiyalar chiqargan AQSH egalladi. Germaniya 2022-yilda 61,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi yashil

obligatsiyalar chiqargan holda reytingda uchinchi va Yevropaning birinchi davlati bo‘ldi.

Yashil obligatsiyalar bozorida yashil sukuklar alohida o‘rin egallagan bo‘lib, yirik yashil sukuk hajmi 2022-yilda Indoneziyaga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 1,5 mlrd dollar miqdorida emissiya qilingan. Bu yashil sukuk emissiyasi orqali qayta tiklanadigan enargiya, transport, qurilish, chiqindilarni qayta ishlash, yerdan unumli foydalanish va iqlim o‘zgarishiga moslashishga mo‘ljallangan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan [10].

2022-yilda yashil obligatsiyalar 67 foizi rivojlangan davlatlarga, 23 foizi esa rivojlanayotgan davlatlarning emissiyasiga to‘g‘ri kelgan.

2023-yilning birinchi yarmida yashil obligatsiyalar sotuvi 2022-yilning shu davriga nisbatan 22,2 foizga oshib, 351,9 dollarni tashkil etdi, bu emissiyaning eng yirik yarim yili bo‘lib, 2021-yilning ikkinchi yarmida 296,6 milliard dollar muomalaga chiqarilgan oldingi rekordni ortda qoldirdi. Italiya hukumati joriy yilning eng yirik yashil obligatsiyasini aprel oyida 10 milliard yevro miqdorida emissiya qildi [11].




**1-rasm. Yashil obligatsiyalar bozorida emitentlar tahlili**[1]

2022-yilda emissiya qilingan yashil obligatsiyalarning emitentlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, jami emissiya hajmining yuqori ulushi ya’ni 29 foizi moliyaviy muassasalar, 25 foizi esa xususiy emitentlar hissasiga t o‘ g‘ri keladi. Taraqqiyot banklari 9 foiz bilan, mahalliy hukumatlar esa 2 foiz bilan yashil obligatsiyalar bozorining nisbatan kamroq ulushini egallagan.




**2-rasm. Yashil obligatsiya mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari**[2]

2022-yilda yashil obligatsiya mablag‘larining nisbatan yuqori ulushlari energiya, qurilish va transport sohalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, umumiy hajmning 77 foizini tashkil etgan. Eng kichik ulushlari esa sanoat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga sarflangan.

[1] Sustainable debt global state of the market. Report-2022 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

[2] Climate Bonds Initiative xalqaro notijorat tashkiloti tomonidan taqdim qilingan hisobotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.




**3-rasm. Yashil obligatsiyalar umumiy qiymati**[3]

Yashil obligatsiyalarning 2014–2021-yillar mobaynida emissiya hajmi yildan yilga keskin oshganini ko‘rish mumkin. 2020-yilga qaraganda emissiya hajmi 2021-yilda 48 foizga oshgan bo‘lsa-da, 2022-yilda 16 foizga, ya’ni 95,3 milliard dollarga kamaygan.

2023-yilning birinchi yarim yilida yashil obligatsiyalar bozori rekord darajada oshdi. 2022-yilning shu davriga nisbatan 22 foizga oshib, 351 milliard dollarni tashkil etdi. Bu esa yashil obligatsiyalar emissiyasining eng yirik yarim yili bo‘lib, 2021-yilgi yarim yillik rekord hajmni ortda qoldirdi[11]. 2023-yilning 6 oyi davomida 935 ta yashil obligatsiya emissiya qilingan bo‘lib, 351 milliard dollar yig‘ib, yilning birinchi yarmini investorlardan jalb qilingan kapital qiymati bo‘yicha rekord darajadagi olti oyga aylantirgan.

## Xulosa

Iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini kamaytirish va atrof-muhitning ifloslanishi bilan kurashish dunyo mamlakatlarining dolzarb masalalaridan biridir. Bir qancha davlatlar kam uglerodli turmush tarzi va barqaror rivojlanishni targ‘ib qila boshladilar. Suv muammolarini hal qilish, yerdan unumli foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash masalalariga hamda cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Yashil loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy instrument sifatida yashil obligatsiyalar bozori kuchli o‘sishni ko‘rsatdi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, yashil moliyalashtirish 2013-yildan beri jadal rivojlanib boryapti. 2021-yil yashil obligatsiyalar bozorida eng yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatgan bo‘lsa, mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, 2023-yil avvalgi rekord ko‘rsatkichni ortda qoldiradi. Global yashil instrumentlar bozorida Xitoy eng tez rivojlanayotgan yashil obligatsiyalar bozoriga ega. Kundan kunga yashil obligatsiyalar bozori ishtirokchisi bo‘lishga harakat qilayotgan va tayyorgarlik bosqichida bo‘lgan davlatlar soni ortib bormoqda.

Investorlar uchun yashil obligatsiyalarga bo‘lgan qiziqishning ortishiga sabab bo‘layotgan omillardan biri investitsiya loyihasida ishtirok etish orqali daromad olish bilan birga, ekologik muammolarni hal qilishga hissa qo‘shish imkoniyati bo‘lsa, ikkinchi tomondan yashil obligatsiyalar shaffoflikni talab qiliadigan moliyalashtirish vositasidir. Yashil obligatsiya emitentlari ma’lum standartlarga javob berishi zarur bo‘ladi. Obligatsiya “yashil” deya e’tirof etilishi uchun talablar ishlab chiqilgan.

Yashil obligatsiyalar yashil iqtisodiyotni rag‘batlantiradi. Shuningdek, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston 2023-yil oktyabr oyida birinchi yashil suveren xalqaro obligatsiyalarni emissiya qildi va London fond birjasiga joylashtirdi. Ushbu emissiya hajmi 4,25 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, muddati 3 yil etib belgilangan. O‘zbekiston yashil obligatsiyalaridan kelib tushadigan mablag‘lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, temiryo‘l transporti va metro transportini rivojlantirish, sanitar tozalash

[3] www.statista.com platformasida taqdim etilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash, shamol eroziyasiga va suv xo'jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish kabi yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi[12]. Shuningdek, Prezidentning "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan joriy yil yakuniga qadar kapital bozorlarida 100 million dollarlik "yashil" obligatsiyalarning chiqarilishi va joylashtirilishi topshirig'i berilgan edi. Shunga ko'ra, bank joriy yilning avgust oyida umumiy qiymati 100 million AQSH dollari bo'lgan 5 yillik xalqaro korporativ obligatsiyalarni joylashtirishdi. Jalb qilingan mablag'larning asosiy qismi "yashil" loyihalar, jumladan, energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, "yashil" qurilish, qayta tiklanadigan energiya hamda suvni tejashga oid loyihalar, shuningdek, kichik va o'rta biznes hamda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishga yo'naltirilishi – ma'lum qilindi [13].

Iqlim obligatsiyalarining turlari ichida yashil obligatsiyalar bozori xususan, bu bozorning ishtirokchilari va umumiy qiymati kengayib bormoqda. Bu, o'z navbatida emitentlar uchun yashil moliyalashtirishning rivojlantirish imkoniyatini taqdim etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Detailed Guidance for Issuing Green Bonds in Developing Countries. Asian Development Bank, 2021
2. Juan Antonio Ketterer, Gabriela Andrade, Maria Netto, Maria Isabel Haro. Transforming Green Bond Markets// Inter-American Development Bank, 2019.
3. Julia Jelemensky. Quantitative Comparison of the Issue Yield of Green Bonds and Conventional Bonds// Springer gabler, 2022.
4. https://treasury.worldbank.org/en/about/unit/treasury/impact/impact-report. The World Bank (ibrd) impact report, 2022.
5. https://www.environmental-finance.com/channels/green-bonds.html. Barqaror investitsiyalar, yashil moliya bozorida faol investor va kompaniyalar haqida hisobot berish uchun tashkil etilgan onlayn yangiliklar va tahlil xizmati.
6. https://blogs.worldbank.org/climatechange/why-green-bonds-matter-it-may-be-more-than-you-think.
7. https://www.worldbank.org/en/news/feature/2018/10/29/sovereign-blue-bond-issuance-frequently-asked-questions. Jahon banki rasmiy sayti.
8. https://www.climatebonds.net/standard/the-standard.
9. https://www.icmagroup.org/sustainable-finance/the-principles-guidelines-and-handbooks/green-bond-principles-gbp/.
10. https://www.climatebonds.net/resources/reports/global-state-market-report-2022.
11. https://www.bloomberg.com/professional/blog/green-bonds-boom-in-first-half-of-2023/.
12. https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post-1621. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
13. https://www.sqb.uz/uz/press-center/news-uz/o-zsanoatqurilishbank-100-million-aqsh-dollarlik-obligatsiyalarni-xususiy-joylashtirishni-muvaffaqiy/ O'zsanoatqurilishbank AJning rasmiy sayti.

UO‘T 658.1 (575.1)

**Jumaboyev Tolibjon G‘olib o‘g‘li,**
*Toshkent moliya instituti*
*mustaqil izlanuvchisi*
**Email:** intel9555@gmail.com

# MOLIYAVIY HISOBOT AUDITI NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH VA BAHOLASH XUSUSIYATLARI

**Джумабаев Толибжон Голиб угли,**
*Научный исследователь*
*Ташкентского финансового института*
*Email: intel9555@gmail.com*

# ОСОБЕННОСТИ ОБОБЩЕНИЯ И ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТОВ АУДИТА ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

**Jumaboev Tolibjon G‘olib o‘g‘li,**
*Tashkent financial institute*
*independent researcher*
**Email:** intel9555@gmail.com

# FEATURES OF SUMMARIZING AND EVALUATING THE RESULTS OF THE AUDIT OF FINANCIAL STATEMENTS

**Annotatsiya.** *Maqolada moliyaviy hisobot auditida qo‘llaniladigan auditorlik usul va amallari, xususan, mazkur jarayonda qo‘llaniladigan tahlil usul va amallari mazmuni hamda ulardan tekshiruvlarda foydalanish xususiyatlari yoritilib, moliyaviy hisobot auditi natijalari bo‘yicha korxonaga taqdim etiladigan xat mazmuni va uning tarkibiy qismlari borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot auditi, audit natijalari, moliyaviy hisobot auditi natijalari bo‘yicha xat, auditorlik xulosasi, auditorlik riski, xato va firibgarlik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, modifikatsiyalashgan auditorlik xulosasi, auditor fikri, birlamchi hujjatlar, buxgalteriya ma’lumotlari.*

**Аннотация.** *В статье описаны методы и операции аудита, используемые при проверке финансовой отчетности, содержание методов анализа и операций, используемых в этом процессе, а также особенности их использования в проверках, а также содержание письма, направленного в компанию по результатам проверки финансовой отчетности и ее составляющих, разработаны рекомендации.*

**Ключевые слова:** *финансовая отчетность, аудит финансовой отчетности, результаты аудита, письмо о проверке финансовой отчетности, аудиторское заключение, аудиторский риск, ошибки и недобросовестные действия, международные стандарты финансовой отчетности, модифицированное аудиторское заключение, мнение аудитора, первичные документы, бухгалтерская информация.*

**Annotation.** *The article describes the audit methods and operations used in the audit of financial statements, in particular, the content of the analytical methods and operations used in this process, as well as the features of their use in audits, as well as the content of the letter submitted to the company based on the results of the audit of the financial statements and its components, recommendations have been developed*

**Key words:** *Financial statement, financial statement audit, audit results, financial statement audit letter, auditor's report, audit risk, error and fraud, international financial reporting standards, modified auditor's report, auditor's opinion, primary documents, accounting information*

## Kirish

Hozirgi paytda auditorlik amaliyotida auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish jarayonida oʻz yechimini kutayotgan qator muammolarni bartaraf etish, ularning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur muammolar buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati boʻyicha qonun va normativ hujjatlarning auditorlik amaliyotida talab darajasida qoʻllanilmayotganligi, auditorlik tekshiruvini tashkil qilish va oʻtkazishning uslubiy jihatlari yetarlicha chuqur tadqiq qilinmaganligi, auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik ish hujjatlarida umumlashtirish va rasmiylashtirishning amaldagi talablarga toʻla javob bera olmasligi, auditorlik riski, muhimlik darajasi, audit ish sifati va auditorlik tashkilotlari faoliyati samaradorligi koʻrsatkichlarini aniqlash hamda uni baholash uslubiyati kabi holatlar zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqilmaganligi kabilarni oʻz ichiga oladi.

Respublikamiz auditorlik faoliyatidagi qator muammo va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga oʻz ta'sirini koʻrsatmoqda. Xususan, "auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keluvchi ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda" [1]. Shu boisdan, mamlakatimizda jahonda umumqabul qilingan zamonaviy normalar, standartlar, shu jumladan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish asosida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etmoqda.

## Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Auditorlik tekshiruvi natijalari auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan xulosada aks ettiriladi va mazkur hujjat auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi rasman oʻz nihoyasiga yetkazilganligini anglatadi. Amaldagi auditga oid qonunga muvofiq "Moliyaviy hisobotning ishonchliligi va buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi toʻgʻrisida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan fikrini oʻz ichiga olgan hujjat auditorlik xulosasidir" [2].

"Buxgalteriya hisobi va soliq solish" jurnali ekspert-mutaxassislarining ta'kidlashicha, "Auditorlik xulosasi auditorlik tekshiruvi natijalari boʻyicha olingan auditorlik dalillari asosida beriladi.

Tegishincha, xulosa berilishi auditorlik tekshiruvining oxirgi bosqichi hisoblanadi" [3].

Auditorlik faoliyati bo'yicha o'zbek iqtisodchisi I.Qo'ziyevning fikricha, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xorij bilan aloqa qilishi va xorijiy investorlarni jalb etishi uchun chop etiluvchi moliyaviy hisobotlari mustaqil auditorlik firmasi tomonidan audit qilingan va auditorlik xulosasi bilan moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishi, odatda xorijiy investorlar tomonidan talab qilinadi" [4]. Yana bir iqtisodchi olim Z.Mamatovning ta'kidlashicha, "Auditorlik tekshirishining yakunlovchi bosqichi quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- tekshirish natijalarini tartibga solish;
- tekshirish natijalarini tahlil qilish;
- auditorlik xulosasini tuzish" [5].

Iqtisodchi olimlar N.Sanayev va R.Narziyevlarning fikrlariga ko'ra, "Auditorlik tekshiruvining yakunlari auditor tekshirish yakuni bo'yicha tuzilgan xulosalar bilan tamomlanadi. Auditor xulosasi audit tekshiruvi o'tkazilayotgan korxona moliya hisobotining obyektivligi va ishonchliligidan guvohlik beruvchi hujjatdir" [6].

Shuningdek, iqtisodchi B.A.Hasanov fikriga ko'ra, "moliyaviy hisobot auditi natijalarini umumlashtirishda boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish zarur" [7].

Iqtisodchi olim B.Q.Hamdamovning ta'kidlashicha, "O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimi va auditorlik nazoratini rivojlantirishda moliyaviy hisobot natijalarini aniq va shaffof umumlashtirish maqsadga muvofiq" [8].

K.R.Hotamov fikricha, "moliyaviy hisobot auditi natijalarini umumlashtirishda bilvosita soliqlar hisobini tuzish va tahlil etish ustuvor masala hisoblanadi" [9].

Iqtisodchi olim I.I.Meliyevning qarashlariga ko'ra, "moliyaviy hisobot auditi natijalarini umumlashtirishda buxgalteriya schyotlari qoldiqlarining to'g'ri hisoblanishini o'rganish muhim hisoblanadi" [10].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida nazariy va amaliy o'rganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida auditorlik tashkilotlari va auditorlik xizmatlari buyurtmachilari faoliyatida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida umumlashtirish usullari, mazkur usullarni qo'llash afzalliklari, kamchiliklari va mazkur usullardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

**Natija va muhokama**

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan auditorlik tekshiruvini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hisobi faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi to'g'risidagi axborotlarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu axborotlar esa nafaqat xo'jalik yurituvchi subyekt ichki faoliyati uchun, balki korxonaga tashqi va ichki moliya bozorlaridan xorijiy investorlar orqali moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari ochilishi mumkin. Ushbu maqsadda davlatimiz tomonidan 2020-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-sonli qarori talablariga muvofiq "aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yildan boshlab hisob yuritish

va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shakllantirish"lari [11] qonun yo'li bilan qat'iy belgilab qo'yildi. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar talablari asosida shakllantirishga bo'lgan e'tiborni davlat darajasiga ko'tarilishining asosiy sababini juda oddiy izohlash mumkin, ya'ni moliyaviy hisobot bu biznes va buxgalteriya tizimining tilidir.

O'z navbatida, tayyorlangan moliyaviy hisobot ma'lumotlarini qanchalik haqiqatdagi amaliy ma'lumotlarga muvofiqligi auditorlik tashkilotlari tomonidan baholanadi va ularning moliyaviy hisobot ishonchliligi to'g'risidagi fikrlari kafolatlanadi. Auditorlik fikri ishonchliligini ta'minlash va auditorlik faoliyatini zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida ишлаб чиқилган O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdаги "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarorida ta'kidlab o'tilgan auditorlik faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammoli jihatlardan biri sifatida "auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida..." [12] qaralayotganligi ta'kidlandi. Mazkur qarorda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan auditorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirilishini qonun yo'li bilan mustahkamlash maqsadida 2021-yil 25-fevralda yangi tahrirda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi 9 bob va 55 moddadan iborat bo'lgan O'RQ-677-son O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ta'kidlash joizki mazkur qonunda 24 marta "moliyaviy hisobot" atamasi ishlatilgan bo'lib, bundan mazkur qonunning asosiy maqsadi moliyaviy hisobot ishonchliligini aniqlash (baholash) jarayoniga bag'ishlanganligini va qonunning moddalarining asosiy qismi moliyaviy hisobot auditini tartibga solishga qaratilganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki O'zbekiston amaliyotida 2021-yil 25-fevraldagi "auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuniga muvofiq korxonalarning 2021 yil natijalari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotlari auditning xalqaro standartlariga muvofiq xulosa shakllantirilishi belgilab qo'yildi va 2022-yilda auditorlik tashkilotlari tomonidan to'liq auditning xalqaro standartlari asosida o'tkazildi. Shuningdek, 2021-yil 1-yanvardan e'tiboran Prezidentning 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611 son Qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchi yuridik shaxslar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishlari majburiy tartib sifatida belgilandi. Biroq, 2022-yilda PQ-4611 son qarorda belgilangan toifadagi sub'ektlarni majburiy auditdan o'tkazishda ayrim muammolar kuzatildi (1-jadval).

*1-jadval*

**Korxonalar moliyaviy hisobot auditida ko'p kuzatiladigan kamchiliklar[1]**

| № | Kamchilik mazmuni |
|---|---|
| 1 | Korxona buxgalteriya xodimlarining buxgalteriya hisobi(MHXS) ni yuritish qoidalarini to'liq o'zlashtirmaganliklari(bilim, malaka va amaliy ko'nikma yetishmasligi (kompetentlik darajasining pastligi) |
| 2 | Korxonada eksport-import operatsiyalarni yuritish qoidalariga rioya etilmasligi(eksport-import bo'yicha valyuta kursini qo'llashdagi nomuvofiqliklar) |

[1] Muallif tomonidan tayyorlangan.

| | |
|---|---|
| 3 | Korxona buxgalterlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishda hisob siyosati qoidalariga rioya etilmasligi yoki buxgalterlarning hisob siyosati qoidalari mazmuni va ahamiyatini tushunib yetmasliklari, korxonada hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruqni amalda ishlab chiqilmasligi oqibatida bu qoidalarni amalda ishlamasligi |
| 4 | Hisob xodimlari tomonidan korxonada amalga oshirilgan muomalalarni buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida to‘g‘ri, to‘liq hamda o‘z muddatida aks ettirilmasligi(dastlabki va yig‘ma hujjatlar ma’lumotlarining o‘zaro nomuvofiqligi, buxgalteriya schyotlari qoldiqlarining noto‘g‘ri hisoblanishi) |
| 5 | Korxona ichki nazorat tizimining samarasiz faoliyat ko‘rsatishi (ichki audit kabi nazorat bo‘linmalari va inventarizatsiya komissiyasi faoliyatining mavjud emaslgi yoki ularni amalda faoliyat ko‘rsatmasligi, auditorlik tashkilotini jalb etishga ichki auditorlar munosabatining pastligi yoki ular fikrining inobatga olinmasligi) |
| 6 | Buxgalteriya bo‘limi faoliyatining mavjud imkoniyatlarga qaramasdan avtomatlashtirilmaganligi, buxgalteriya xodimlarining buxgalteriya hisobini dasturiy ta’minot asosida yuritishda malaka va amaliy ko‘nikmaning yetishmasligi |
| 7 | Korxona rahbariyatining buxgalteriya hisobi jarayoniga nisbatan e’tiborsizligi, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, buxgalteriya bo‘limi roli va ahamiyatini to‘liq anglab yetmasligi, buxgalteriya hisobiga texnik faoliyat sifatida munosabatning shakllanganligi |
| 8 | Buxgalteriya hisobi tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari mezonlarini joriy etilmaganligi, korxonada zamonaviy boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yilmaganligi, buxgalteriya tizimi uchun malakali mutaxassislarni jab etilmasligi (mutaxassislarni moddiy rag‘batlantirish va hisob tizimi moddiy texnik ta’minoti darajasining pastligi) |
| 9 | Korxona rahbariyatining auditorlik tekshiruviga nisbatan ortiqcha va ahamiyatsiz majburiyat sifatida qaralishi oqibatida korxonada auditor fikriga e’tiborsiz munosabatning shakllanganligi |
| 10 | Korxona faoliyat ko‘rsatadigan hududda sifatli va samarali auditorlik xizmatining mavjud emasligi yoki mavjud auditorlik xizmati sifatining pastligi |
| 11 | Korxona rahbariyati(ta’sischilari, kuzatuv kengashi) va hamkorlari (xaridor va buyurtmachilari, mol yetkazib beruvchi va pudratchilari)ning auditorlik xizmatidan manfaatdor bo‘lmasliklari yoki auditorlik xizmatidan amalda yetarlicha foydalanmasliklari |
| 12 | Korxona tashqi moliyaviy hamkorlar bilan aloqasining past darajada ekanligi (reyting tashkilotlari va moliya institutlari bilan hamkorlikning past darajadaligi) |
| 13 | Korxonada korporativ boshqaruv usullarini joriy etilmaganligi (kuzatuv kengashi yoki ta’sischilar kengashining mavjud emasligi,) |
| 14 | Korxona mulkining davlat boshqaruvida ekanligi, mazkur tizim moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan xorijiy investorlar manfaatdorligining pastligi |

Bizningcha, bugungi kunda korxonalar majburiy auditorlik tekshiruvlarida yuqoridagi muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Biroq, bu masalada 700 sonli “Moliyaviy hisobot to‘g‘risida auditorlik xulosasi” nomli auditning xalqaro standartiga ko‘ra, “Auditorlik xulosasida auditni o‘tkazish jarayonida belgilangan tartibda quyidagilarni ko‘rsatilishi belgilangan:

“a) moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini ochib berish va summalar bo‘yicha auditorlik dalillarini olish uchun bajariladigan amallar;

b) tanlangan auditorlik amallari auditor fikriga bevosita ta’sir qilib, firibgarlik va xatolar natijasidagi moliyaviy hisobotdagi muhim chetga chiqishlar bo‘yicha risklarni baholash tartibini belgilaydi.

d) audit jarayonida foydalanilayotgan hisob siyosatiga baho beradi, hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonini baholash tartibini asoslaydi, moliyaviy hisobotning umumiy taqdimotiga baho beradi" [14] deb ko'rsatilgan.

Tekshiruv yakunida auditorlik xulosasidan tashqari, audit natijalari bo'yicha rahbariyatga xat yozilib, unda audit jarayonida aniqlangan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarning sababi hamda bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar aks ettirilishi maqsadga muvofiq. Xulosa qilib aytganda, auditorlik xulosasi – moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sybyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq hujjat hisoblanadi.

Amaldagi 700, 705, 706, 710 va 720 son auditning xalqaro standartlarda auditorlik xulosasida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi to'g'risidagi qat'iy tartibda aks ettirilishi majburiy bo'lgan auditor fikrini tasdiqlovchi quyidagi 1-rasmda keltirilgan jihatlar aniq belgilab qo'yilgan.




**1-rasm. Auditorlik xulosasida moliyaviy hisobot to'g'risida aks ettiriladigan ma'lumotlar[2]**

[2] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Amaldagi auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditorlik xulosasida tekshirilgan subyekt moliyaviy hisoboti to‘g‘risida quyidagilar aks ettirilishi zarurligi belgilangan (1-rasm).

Ta’kidlash joizki, amaldagi auditning xalqaro standartlariga muvofiq tekshiruv yakunida auditor fikrlari faqatgina auditorlik xulosasida aks ettirilishi belgilangan. Biroq, xalqaro standartlarda auditorlik xulosasida tekshiruv natijalari to‘g‘risida batafsil ma’lumot aks ettirilishi bo‘yicha aniq talablar belgilanmagan. Bu esa fikrimizcha, tekshiruv buyurtmachilari tomonidan auditorlik tekshiruvi natijalari to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish imkonini bermaydi. Biroq, amaldagi 200 son “Moliyaviy hisobot auditini tartibga solishning maqsadi va umumiy tamoyillari” nomli standart va 700 son “Moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik hisoboti (xulosasi)” nomli xalqaro standartlarda tekshiruv natijalari quyidagi turkumdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi belgilangan (2-rasm).

Yuqorida ta’kidlanganidek, auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish uchun ilg‘or xorij tajribasiga muvofiq auditor fikrini shakllantirishni taqozo etadi. O‘z navbatida, auditning xalqaro standartlarida tekshiruv natijalari bo‘yicha auditor fikri auditorlik xulosasi va auditorlik tashkiloti tomonidan mustaqil tayyorlanadigan hamda tavsiyaviy xarakterdagi korxona rahbariyatiga yo‘llanadigan xatda aks ettiriladi. Auditorlik xizmati buyurtmachisiga yo‘llanadigan mazkur xat auditorlik tekshiruvi natijalari asosida auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Amaldagi 700, 705, 706, 710 va 720 son auditning xalqaro standartlarida tekshirilayotgan subyekt rahbariyatiga yo‘llanadigan ushbu xatning shakl va mazmuni ko‘rsatilmagan bo‘lib, ushbu xat korxona rahbariyati talabiga ko‘ra yoki auditorlik tashkiloti tomonidan mustaqil ravishda taqdim etiladi. Bizningcha, O‘zbekiston auditorlik amaliyotida aksariyat auditorlik tashkilotlari




**2-rasm. Moliyaviy hisobot ishonchliligini o‘rganish natijalari umumlashtirilgan ma’lumotlar tarkibi[3]**

[3] Muallif tomonidan tayyorlangan.

auditorlik xulosasini yuqoridagi standartlarga muvofiq tayyorlab, korxonalarga taqdim etmoqdalar. Fikrimizcha, korxona faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligi yuzasidan auditorlik xulosasi mazmunini yetarli emas deb hisoblaymiz hamda rasmiy xulosadan tashqari auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiruv natijalari bo‘yicha ma’lumotnoma shaklida xat tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, ushbu xat mazmunida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim (2-jadval).

*2- jadval*

**Moliyaviy hisobot auditi natijalari bo‘yicha korxonaga taqdim etiladigan xat mazmuni va uning tarkibiy qismlari tavsifi** [4]

| Xat tarkibiy qismlari | |
|---|---|
| 1 | 1. Auditni rejalashtirish va buxgalteriya hisobi tahlili to‘risida ma’lumot;<br>2. Korxona ichki nazorat tizimi holati;<br>3. Firibgarlik va moliyaviy hisobotdagi buzib ko‘rsatishlarning moliyaviy hisobotga ta’siri to‘g‘risida ma’lumot;<br>4. Inventarizatsiya;<br>5. Faoliyat uzluksizligi. |
| 2 | Korxona ta’sischilari yoki kuzatuv kengashiga tekshiruv natijalari bo‘yicha jo‘natilayotgan xatning qisqacha mazmuni va uning tarkibi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot |
| 3 | Auditorlik tekshruvini rejalashtirish, qo‘llanilgan auditorlik usullari va amallari, o‘rganilgan moliyaviy ko‘rsatkichlarning ishonchlilik darajasi, mavjud auditorlik riski va muhimlik darajasi, korxona buxgalteriya hisobini o‘rganish natijalari to‘g‘risida tahliliy ma’lumot |
| 4 | Korxona ichki nazorat tizimining amaldagi tarkibi va holati, qo‘llanilgan ichki nazorat usullari, korxona mas’ul shaxslarining o‘z lavozim majburiyatlarini bajarish holati, ichki nazorat tizimi ma’lumotlariga rahbariyat munosabati, ichki nazorat tizimi ma’lumotlarining ishonchlilik darajasi va ulardan amalda foydalanish holati, tizimning amaldagi samaradorlik darajasi to‘g‘risida ma’lumot va tizimni mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar |
| 5 | Korxona moliyaviy hisobotidagi buzib ko‘rsatish va firibgarliklar to‘g‘risida ma’lumot, firibgarlik va buzib ko‘rsatishlarni moliyaviy hisobot ishonchliligiga ta’siri, ularning ehtimoliy darajasi (muhimligi), korxonada ularni kamaytirish bo‘yicha olib borilgan ishlar natijalari (axloq me’yorlari, ularni kamaytirish yuzasidan qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar), moliyaviy hisobotidagi buzib ko‘rsatish va firibgarliklar bo‘yicha aniqlangan risk darajasi, mavjud risk darajasini pasaytirish yo‘llari yoki unga qarshi kurash bo‘yicha korxonaning amaldagi siyosati to‘g‘risida ma’lumot, korxonada firibgarlik va moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatishga yo‘l qo‘yganlarga ko‘rilgan choralar to‘g‘risida ma’lumot, firibgarlik va moliyaviy hisobotni buzib ko‘rsatishlarni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar |
| 6 | Korxonada o‘tkazilgan inventarizatsiya natijalari tahlili, korxona debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili, inventarizatsiya natijalarini umumlashtirish holati, inventarizatsiya natijalarining moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga ta’siri, inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yoki takrorlanmasligi yuzasidan tavsiyalar |

[4] Muallif tomonidan tayyorlangan.

| | |
|---|---|
| 7 | Korxona faoliyat uzluksizligining amaldagi holati, korxona moliyaviy natijalari va majburiyatlari tahlili, aniqlangan uzluksizlik darajasi oqibatlari yoki mavjud uzluksizlik riski, faoliyat uzluksizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar, korxona faoliyat uzluksizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar yoki rejalashtirilgan vazifalar, korxona boshqaruv strategiyasi va boshqalar |

Moliyaviy hisobot auditi natijalari bo'yicha yuqoridagi mazmundagi kabi mijoz-korxonaga xat tayyorlanishi auditorlik xulosasi mazmunini ochib berish hamda moliyaviy hisobot bo'yicha auditor fikrini bayon etish imkonini beradi. Mazkur xatga tekshiruv natijalari bo'yicha to'plangan dalillar hamda ularga auditorlik izohlarni to'liq ilova qilinishi maqsadga muvofiq.

**Xulosa**

1. Auditorlik tekshiruvidan ko'zlangan maqsad moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini baholash bo'lib, bu to'g'risidagi auditor fikri auditorlik xulosasida aks ettiriladi. O'z navbatida, auditorlik xulosasi amaldagi 700, 705, 706, 710 va 720 son auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq shakllantiriladi hamda mazkur standartlarga muvofiq auditorlik xulosasida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi to'g'risidagi qat'iy tartibda aks ettirilishi majburiy bo'lgan auditor fikrini tasdiqlovchi jihatlar aniq belgilab qo'yilgan.

2. Bizningcha, aditorlik xulosasida tekshirilgan subyekt moliyaviy hisoboti to'g'risida quyidagilar aks ettirilishi lozim deb hisoblaymiz:

– Moliyaviy hisobot auditi to'g'risida auditor fikri uchun asos.

– Moliyaviy hisobot auditi natijalari bo'yicha xulosa.

– Auditning muhim masalalari.

– Moliyaviy hisobot uchun rahbariyat va korporativ boshqaruv vakolatiga ega shaxslarning javobgarligi.

– Moliyaviy hisobot auditi uchun belgilangan muhimlik darajasi.

– Moliyaviy hisobot auditi hajmi (o'rganilgan ko'rsatkichlar va hujjatlar).

– Moliyaviy hisobot auditi uchun auditorlar va auditorlik tashkilotlarining javobgarlik va majburiyatlari.

– Moliyaviy hisobotda aks ettirilgan aktivlarning qadrsizlanishi, kredit va moliyaviy risklar darajasi.

– Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyat uzluksizligi to'g'risida auditor fikrlari.

– Yillik moliyaviy hisobotga kiritilgan boshqa ma'lumotlar va boshqalar.

3. Auditorlik tekshiruvlarining sifati va ishonchli auditorlik xulosasi tuzilishi auditorlik tekshiruvini sifatli va puxta rejalashtirilishiga bog'liq. Bu esa, rejalashtirish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi tufayli muhimlik va auditorlik riskining optimal qiymatini aniqlashga hamda xalqaro standartlar me'yorlariga muvofiq tuzilgan umumiy reja va auditorlik dasturi asosida auditni yakunlash imkonini beradi.

4. Fikrimizcha, xalqaro standartlar va chet el tajribasini o'rganish asosida auditor tomonidan auditorlik xulosasini xo'jalik yurituvchi subyektga taqdim qilish muhim hisoblanadi. Shu bois auditorlik tashkilotlarida "modifikatsiyalashgan auditorlik xulosasi" nomli ichki standartni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur ichki standartda modifikatsiyalashgan auditorlik xulosasi, maxsus savollarni tekshirish jarayonida auditorlik xulosasiining o'ziga xos jihatlari va ayniqsa, qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatida tashabbus shaklidagi audit o'tkazishda auditorlik xulosasini shakllantirish xususiyatlari hamda audit o'tkazish ketma-ketligi aniq mazmunda ko'rsatilishi zarur.

5. Audit natijalarini umumlashtirishda "moliyaviy hisobot buzib ko'rsatilishini to'g'rilashda auditor tomonidan xatolarni tuzatishga doir ko'rsatmalar berishi, korrektirovka provodkalari bilan aks ettirish hamda uning shaklini ishlab chiqish maqsadida moliyaviy hisobot buzib ko'rsatilishida auditorning harakatlari" nomli ichki standartini ishlab chiqish hamda mazkur standartda auditor tomonidan tegishli tuzatishlar kiritish tartibi belgilanishi maqsadga muvofiq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3946-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.09.2018-y., 07/18/3946/1955-son.
2. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi 2021-yil 25-fevral Qonuni. https://lex.uz/docs/5307886.
3. R.N.Umarov. "Auditorlik xulosasi"da nimalar ko'rsatilishi kerak. "https://www.bss.uz/article/1166-auditorlik-hulosasida-nimalar-krsatilishi-kerak
4. Z.T. Mamatov. Audit. O'quv qo'llanma,T.: «Fan va texnologiya», 2007, 174 bet.
5. N.Sanayev, R.Narziyev. Audit. Toshkent. Sharq nashriyoti – 2001.
6. B.A. Hasanov. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent, 2004. 33-b.
7. B.Q. Hamdamov. O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent, 2007. 33-b.
8. K.R. Xatamov. Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent, 2016. 30-b.
9. I.I. Meliyev. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uslubiyati: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: "VNESHINVESTPROM", 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. https://lex.uz/docs/4746047
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrda "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son Qarori. https://lex.uz.
12. Жарылгасова Б.Т., Суглобов А.Е. Международные стандарты аудита: учебное пособие. - М.:КНОРУС, 2008. 400 стр.

**УЎТ 339.7(658.1)**

**Матназар Юсупович Раҳимов,**
*Тошкент молия институти*
*“Иқтисодий таҳлил” кафедраси профессори*

# МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШ ВА АХБОРОТЛАРНИ ТАҲЛИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ МУАММОЛАРИ

**Матназар Юсупович Рахимов,**
*Ташкентский финансовый институт*
*Профессор кафедры Экономического анализа*

# ПЕРЕХОД НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ АНАЛИЗА ИНФОРМАЦИИ

**Matnazar Yusupovich Rakhimov,**
*Tashkent of financial institute*
*Professor of the Department of Economic Analysis*

# TRANSITION TO INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS AND SCIENTIFIC AND THEORETICAL PROBLEMS OF INFORMATION ANALYSIS

**Аннатация.** *Ушбу мақолада молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш, уларни таҳлил этиш шакли ва мазмунидаги муҳим ўзгаришлар, муаммоли жиҳатлар ҳамда уларни ҳал этишнинг илмий таклиф, тавсиялари берилган.*

**Таянч сўзлар:** *молиявий ҳисобот, молиявий ҳисобот шакллари, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, молиявий ҳисобот таҳлили, молиявий ҳисобот элементлари, ахборот фойдаланувчилари, таҳлил субъектлари, таҳлил объектлари, таҳлилни ташкил этиш.*

**Аннотация.** *В статье приведены переход на международные стандарты финансовой отчетности, важные изменения в форме и содержании их анализа, проблемные аспекты и предложения по их решению.*

**Ключевые слова:** *финансовая отчетность, формы финансовой отчетности, международные стандарты финансовой отчетности, анализ финансовой отчетности, элементы финансовой отчетности, пользователи информации, субъекты анализа, объекты анализа, организация анализа.*

**Annotation.** *This article describes the transition to international financial reporting standards, important changes in the form and content of their analysis, problematic aspects and proposals for solving them.*

**Key words:** *financial reporting, financial reporting forms, international financial reporting standards, financial reporting analysis, elements of financial reporting, users of information, subjects of analysis, objects of analysis, organization of analysis.*

### Кириш

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига (МҲҲС) ўтиш ва уларни Ўзбекистон амалиётида қўллашнинг иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий асослари юзасидан шуни қайд этиш лозимки, ҳисоб тизимидаги амалдаги ўзгаришлар якунида четда қолаётган асосий масала бу – молиявий ҳисоботни таҳлил қилиш орқали иқтисодий ресурслар, молиявий ҳолат, фойда-зарарлар ва пул оқимларини таҳлил этиш ва уларнинг келгусидаги кутилишларини баҳолаш орқали бошқарувда сифат менежментига эришиш масаласига етарлича аҳамият берилмай келинмоқда. Шу сабабли, мазкур мақолада молиявий ҳисобот таҳлилининг шакли, мазмуни, мақсад ва вазифалари, ташкилий шакли ва муаммоларининг айрим жиҳатлари ёритилган.

### Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

МҲҲСга ўтиш ва уни сифатли жорий этиш иқтисодий адабиётлар ва манбаларда энг кўп мунозора сабаб бўлган мавзу сифатида эътироф этилади. Агар, сўнгги йилларда чоп этилган манбаларни таҳлил қилар эканмиз иқтисодиёт, бизнес, бошқарув соҳасида халқаро талабларга, стандартларга ўтиш масаласига бағишланган ўн мингдан ортиқ расмий манбаларни кузатиш мумкин. Айниқса, илмий тадқиқот ва инновацион жараёнларда ушбу масала иқтисодий ривожланиш ва тараққиётнинг муҳим омили сифатида қаралади. Шунингдек, бизнес бошқарувининг муҳим дастаклари ҳисобланган бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитнинг халқаро тан олинган нормаларга ўтиш масаласи ҳам бугун айтиш мумкинки, миллий ҳисобчилик тизимининг ривожланишида янги бир даврни бошлаб берди. Шу ерда битта савол туғилади. Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит бир маконда пайдо бўлиб, барчага, бир хилда етказилиши билан унинг кейинги шакли ва мазмунида нега бундай тубдан фарқланишлар юзага келди?

Глобал иқтисодиётда халқаро бизнес тиллашувини йўлга қўйишнинг умумий тартибини белгилаб берувчи МҲҲСга ўтиш тадбиркорлик субъектларининг фаолият ва бизнес самарадорлигини баҳолашнинг ахборотлар базасини шакллантиришда муҳим таомил ҳисобланади. Бироқ, йирик бизнесдаги амалиётчи бухгалтерларнинг МҲХС бўйича етарли билим, малака ва кўникмаларга эга бўлмаганлиги соҳада, аналитик ишлар шакли ва мазмунига сезиларли таъсир этмоқда. Шу билан бирга, бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари (БҲМС) ва МҲХС бўйича муқобилликнинг сақланиши соҳада муаммоларнинг аниқ ечимларга келишда бир қатор баҳсларни юзага чиқармоқда.

Бизнесни халқаро нормалар асосида юритиш билан, молия-хўжалик фаолиятининг бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботни тузишдаги ягона андозаларга ўтиш, аудитни халқаро стандартлари, иқтисодий таҳлилни бошқарувнинг жорий ва истиқболдаги талаблари асосида янгича мазмунда ташкил этиш айни бир пайтда кечмаётганлиги ҳам соҳадаги энг ўткир

муаммолардан биттаси бўлиб қолмоқда. Шу сабабли, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори эълон қилинганлиги соҳадаги ишларни жадаллаштиришда муҳим бир даврни бошлаб берди, дейиш мумкин (1).

МҲХСга ўтишда давлат ва нодавлат ташкилотлари томонидан олиб борилаётган ҳуқуқий, ташкилий, методологик, амалий ишларни эътироф этган ҳолда, соҳа вакиллари, олимлар, мустақил тадқиқотчилар томонидан олиб борилаётган илмий ишланмалар кўламидан ҳам кўриш мумкинки, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ўтиш ва миллий ҳисобчилик тизимини тубдан такомиллаштириш масаласига бағишланган нашрлар ва манбалар сони тобора ортиб бормоқда (2).

**Тадқиқот методологияси**

Мақолада, молиявий ҳисоботни таҳлил этишда классик иқтисодий таҳлилнинг шунчаки қиёсий, динамик ва омилли ўзгаришларни аниқлашдан иборат бўлган мазмунидан, бошқарув ва бизнес самарадорлигини комплекс баҳолашнинг янгича мазмундаги замонавий бизнес-таҳлилга айлантиришдаги моделли тизимидан фойдаланиш усулларига аҳамият қаратилди.

**Натижа ва муҳокома**

Молиявий ҳисобот ва унинг таҳлили юзасидан муаммоли жиҳатларни ҳар битта давлатда, амалда бўлган тизимнинг муҳим шартларига (ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий шароитларга)мос тарзда фарқ этишини кўриш мумкин. Иқтисодиётда давлат бошқарувига устунлик берилиши, монетар ва фиксал сиёсатдаги бир ёқламалик, марказлашган буйруқбозлик; директиванинг кучлилиги, тармоқ ва соҳалар бўйича давлат улушининг юқорилиги, Собиқ иттифоқ ва ривожланаётган давлатларга хос бўлган муҳим жиҳатлар эканлигини эътироф этиш мумкин.

Молиявий ҳисобот таҳлилини ривожланиш жараёнларида, ҳисоб тизимида бир-биридан фарқ этувчи жиҳатларнинг пайдо бўлиши билан, ягона қоидалар, тартибларнинг белгиланиши, яъни бухугалтерия ҳисоби, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш зарурияти тобора ортмоқда ва бу жараёндан глабаллашув даврида ҳеч бир давлат четда қола олмайди.

МҲХСга ўтиш орқали, ахборотларнинг манфаатдор томонларга шаффоф ва ишончли тарзда, сифатли етказиб бериш имконияти туғилади.

МҲХС – молиявий ҳисоботларни тузиш учун ҳужжатлар тўплами, молиявий ҳисоботларнинг тузилишини тартибга солувчи регламент бўлиб, ташқи фойдаланувчилар томонидан бирор-бир ташкилотга нисбатан иқтисодий қарор қабул қилиш учун фойдаланилади.

МҲХСга ўтишни комплекс бир жараёнлар тизими сифатида эътироф этилади. Ушбу стандарт фақат бухгалтерия ҳисобини эмас, балки молявий ҳисобот ва унинг ташқи назоратини йўлга қўйишнинг, таҳлил этиш ва иқстиқболли ўрганишнинг муҳим масалаларини ҳам мос равишда, янгича мазмунда ташкил этишни талаб этади.

МҲХСга ўтиш ва уларни таҳлил этишнинг илмий-назарий муаммоларни куйидагилар билан таркиблаш мумкин:

Молиявий ҳисобот шаклларида, номланишида, молиявий ҳисобот элементларининг тукумланишида, уларнинг таърифларида, ҳисобот моддаларининг тан олинишида ҳар хил мезонлардан фойдаланилаётганлиги билан изоҳланади.

Молиявий ҳисобот шакллари гарчи, сони ва умумий тузилиши бўйича тубдан фарқ қилмаса-да уларнинг номланиши, таркибий тузилиши, бирлик қаторлари, ўзаро ўрин алмашишлар бўйича тубдан фарқ этишини кўриш мумкин.

Халқаро стандартларда бизнинг қонунчиликдан фарқ қиладиган тушунчалар ва иш намуналари (пулларнинг вақт қиймати, ҳаққоний қиймат, активларнинг қадрсизланиши) каби тушунчалар мавжуд. Шунингдек, МҲХСда ҳисобни юритишда счётлар режаси регламенти мавжуд эмас. Амалдаги бухгалтерия ҳисобида, счётлар режасига олоҳида урғу берилади ва бу масала марказий ўринга қўйилади. Операцияларни ҳисобда акс эттиришнинг барча тартиби қатъий Йўриқнома асосида йўлга қўйилади.

Миллий ҳисобчилик тизимидаги ҳужжатларни расмийлаштиришдаги талаблар ҳам МҲХСдан фарқ этади. Халқаро амалиётда ҳужжатни расмийлаштиришга, рўй берган ҳолатларга нисбатан иккиламчи сифатида қаралади. Бу борада, бухгалтерларнинг профессионал мулоҳаза масаласига умуман ўрин берилмайди. Шунингдек, инфляциянинг таъсир джаражаси юқори бўлган ҳолатларда бухгалтерия ахборотлари ва уларнинг регулятив шартларини белгилаш амалиёти умуман эътироф этилмайди.

Бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисоботларни тузиш ва тақдим этишдаги тартиблар қачонлардир МҲХС қоидаларига риоя қилиш шарти билан ёзилганлигига қарамасдан амалда кўпроқ давлатнинг фискал шартларини бажарадиган ва кўпроқ солиқ ҳисоботи учун ахборотни таъминлайдиган иқтисодий дастакка айланганлиги ҳам муҳим фарқланишларни юзага келтирмоқда.

Назарий асослари бўйича МҲХСда ҳисоб элементларига, уларнинг таркибий бирликларига берилган таърифлар, миллий қонунчилик ва БҲМСдаги берилган таърифлардан бирмунча фарқ этади.

МҲХСга ўтишдаги муаммоларнинг яна бир жиҳати ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларнинг манфаатлар уйғунлигининг фарқланаётганлиги билан изоҳланади. Одатда, МҲХСга ўтишдан мақсад, хорижий инвесторлар қизиқишлари қаратилган ҳудудлар ва ташкилотлар (компания, корпорация, акциядорлик жамиятлари) бўйича жалб қилинадиган бойликларининг истиқболда ўсиши ёки пасайишини таҳлил қилиши учун зарур бўлган ахборотлар билан таъминлашдан иборат деб қаралади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 4611-сонли қарори билан интеграцион жараённинг муҳим бир босқичи бошланганлигини эътироф этиш зарур. Қарорга кўра, МҲХСга ўтишнинг асосий таркибига, биринчи навбатда, акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига кирувчи юридик шахслар кириши белгиланган. Мазкур таркибга кирувчи корхоналар молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тузиши ва тақдим этиши белгиланган (1).

МҲХСга ўтишда фақат бухгалтерия ҳисоби билангина эмас, балки бошқарувнинг барча (режалаштириш, назорат, баҳолаш ва таҳлил қилиш) дастакларини ҳам ўзгартиришни талаб қилади. Бу масала маълум маънода, очиқ қолмоқда.

Бошқарувнинг энг муҳим дастакларидан биттаси бу молиявий ҳисобот таҳлили масаласидир. Молиявий ҳисобот таҳлили, молиявий ҳисоботлар таҳлили, молиявий ҳолат таҳлили, молиявий таҳлил сифатида этироф этилувчи ушбу дастак ҳам амалда тарихий, классик мазмундаги доирадан чиқиб кета олмаяпти. Молиявий ҳисоботлар бўлиб

ўтган ҳодиса ва битимлар тўғрисида ахборотларни тақдим этишига қарамай, уларнинг асосий вазифаси компаниянинг келажагини прогнозлаш масаласига қаратилганлиги эсдан чиқарилмоқда. Айнан шу таомил, МҲХСга киритилган ёндашув ва услубларни тушунтиради.

Молиявий ҳисоботда акс этган ахборотлар тадбиркорлик субъектининг молиявий аҳволини таҳлил этишни ва унинг келгусидаги кутилишларини прогнозлашни, молиявий натижаларни шакллантирган асосий омиллар ва таъсирлар, субъект фаолият кўрсатадиган муҳитдаги ўзгаришларга жавобан қўллайдиган чоралари, субъектнинг молиявий натижаларини сақлаб қолиш ва кўпайтиришга қаратилган инвестицион сиёсати, дивиденд сиёсати, фаолиятни молиялаштириш манбалари ва мажбуриятларни ўрганишни талаб этади.

МҲХС кўра тадбиркорлик субъеклари молиявий ҳисоботларнинг тўлиқ тўпламида барча молиявий ҳисоботларни тенг даражада тақдим этишлари лозимлигини эмас, балки тадбиркорлик субъектининг раҳбарияти томонидан тайёрланган, унинг молиявий ҳолати ва молиявий натижаларининг асосий жиҳатларини ҳамда у дуч келадиган асосий ноаниқликларни шарҳлайдиган ва тушунтирадиган молиявий таҳлилни ҳам тақдим этишлари шартлиги, ҳам таҳлилий жараёнлар ва уларнинг самарадорлигини баҳолашни талаб этади.

Ўтган йиллардаги тажрибадан келиб чиққан ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, МҲХС асосида тузиладиган бухгалтерия(молиявий) ҳисобот шаклларини таҳлил этишнинг аниқ бир тизими, унинг назарий, ташкилий, ҳуқуқий, методологик ва амалий жиҳатдан мутлақо янги мазмундаги замонавий шаклини яратиш зарурлиги эътироф этилмоқда. Бу бевосита уларнинг ички ва ташқи таҳлилига ҳам боғлиқ жараён ҳисобланади.

МҲХСни қўллаш амалиётида муҳим инфратузилмани шакллантирилмаганлиги, сохада тизимли ишлар бўйича жиддий муаммоларни юзага чиқармоқда. МҲХСга ўтишда инфратузилманинг лозим бўлган асосий бирликларига қуйидагилар киради:

– тадбиркорлик субъектларининг МҲХСга ўтиши юзасидан хатти-ҳаракатларни услубий қўллаб-қувватлаш (амалда, ушбу ҳаракатлар жуда суст кечмоқда);

– молиявий ҳисоботларнинг ахборот бериш даражасини ошириш (имкониятлар чекланганлиги, яъни молиявий ҳисоботларни аниқ шакллари билан кифояланаётганлиги, уларга иловалар, қайдлар ва тушунтиришлар берилмаётганлиги);

– молиявий ҳисобот шакллари ва уларнинг муҳим бирликларини прогнозлаш амалиётини жорий этиш (прогнозлаш бўйича зарурий асосларнинг мавжуд эмаслиги ва уларга инфляциянинг таъсир даражасини баҳолаш имкониятларининг йўқлиги таъсирида қиёсийликнинг бузилиши, молиявий ҳисобот таҳлилида ретроспектив таҳлилга кўпроқ урғу берилиши, тезкор таҳлилнинг йўқлиги, истиқболли таҳлилнинг ахборот манбасининг яратилмаганлиги);

– МҲХС бўйича тузишда кадрлар масаласи(кадрлар салоҳияти, касб маҳорати, профессионал тайёргарлик даражаси, мажбурий талабларнинг қўйилиши);

– халқаро экспертизанинг йўлга қўйилмаганлиги (халқаро жамоат ташкилотларига аъзолик, уларнинг йиғилишларидаги чиқишлар ва уларнинг расмий баёнлари, эътирофлар, ахборот маконининг яратилмаганлиги, уларнинг тор доираси ва ҳ.к.);

– сертификатлаш тизимидаги бир ёқламалик, жамоат ташкилотлари фаоллигига ишонч (имтиҳонларнинг қийинлиги, тил муаммоси, молия-

лаштириш билан боғлиқ муаммолар, турли аттестация ва аккредитация жараёнларидаги баҳсли жиҳатлар);

– молиявий ҳисоботларни таҳлил этишда аниқ услубий таъминотнинг шаклланмаганлиги (классик таҳлилдаги мавзуларнинг кенглиги, таҳлилий кўрсаткичлар тизимининг кўплиги, уларнинг такрорийлиги, ортиқчалиги, таркибий, тузилиши ва даврийлиги, омилли ва қиёсий таҳлили юзасидан ягона услубиётнинг йўқлиги);

– молиявий ҳисоботларнинг сифат даражасига баҳо беришнинг тузилмавий таркибининг шаклланмаганлиги (молиявий ҳисоботларнинг шакли ва мазмунига қўйиладиган, улардаги ахборотлар сифатига қўйиладиган талабларни баҳолаш юзасидан давлат ва нодавлат ташкилотларининг мувофиқлашмаган таркибий тузилмасининг мавжудлиги).

Молиявий ҳисоботларни тузиш ва уларни тақдим этишда халқаро стандартлардан муқобиллик асосида фойдаланиш амалиётини жорий этишда асосий субъектлар сифатида эътироф этиладиган акциядорлик жамиятлари, банклар, суғурта компаниялари, фондлар бозор қонун-қоидалари асосида фаолият юритмаслиги, ривожланишнинг қонун-қоидаларидаги узвийликнинг йўқлиги, мувофиқликнинг таъминланмаганлиги соҳада, бу борадаги ишлар самарадорлигига таъсир этмоқда. Катта маблағлар ва ҳаракатлар билан эришилган натижаларнинг эътироф этилиши, қизиқишлар билдирилиши, манфаатлар уйғунлигини таъминлаш, ривожланиш ва тараққиётнинг истиқболли лойиҳаларини тузиш ва амалга оширишда афсуски мазкур ҳисоботларнинг роли ва ўрни ўзини оқлаши қийин бўлмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг халқаро бозорга интеграцияси кўпроқ яқин Шарқ давлатлари (Хитой, Россия, Қозоғистон, Туркия, Корея давлатлари билан) бўйича боғланганлиги сабабли, тадбиркорлик субъектларининг МҲХСга ўтишдаги жадаллик бирмунча суст кечмоқда. Негаки, ушбу давлатлар иқтисодида кўпроқ амалдаги тартиблардан тубдан фарқ қилмайдиган ёндашувларга устунлик берилиши халқаро стандартларга ўтишда рағбатлантирувчи ҳаракатларни секинлаштирмоқда.

Кейинги муҳим муаммо бу молиявий ҳисобот таҳлилининг ягона методикасининг мавжуд эмаслиги билан изоҳланади. Молиявий ҳисобот таҳлилининг методологик асослари бўйича ҳозирга қадар чоп этилган манбаларида кўпроқ иқтисодий таҳлилдаги амалдаги тартиблар сақлаб қолинган. Уларда, таркибий ўзгаришларни аниқлаш, ўсиш даражаларини баҳолаш, молиявий коэффициентларга урғу берилади. Шунингдек, таҳлилий хулосаларда молиявий ҳолат, фойда ва зарарлар ҳамда пул оқимлари ўзгаришларининг яхши ва ёмон сифатларини қайд этишдан иборат оддий баённома билан чекланилмоқда. Молиявий ҳисоботлар таҳлили орқали бизнесдаги ва бошқарувдаги тизимли муаммолар, уларнинг жорий ва истиқболли ечимларига етарлича аҳамият берилмасдан қолмоқда. Иқтисодий ривожланиш, тараққиётнинг асосли қарорларига келишда тахминларга, фаразларга таянилмоқда. Аслида бу асос, ретроспектив ва истиқболли таҳлил натижаларига таяниши лозим эди.

Молиявий ҳисоботларни ўқиш, горизонтал ва вертикал, теренд таҳлили, молиявий коэффициентлар, омилли ва қиёсий таҳлил этишда ортиқча ҳаракатларнинг, таҳлилий бирликларнинг кўплиги таҳлили характерланади. Буни қандай изоҳлаш мумкин? Яъни, ахборот фойдаланувчиларнинг далилларга таянган, манфаатлар ва қизиқишларига мос таҳлилини йўлга қўйиш масаласи ҳал этилмаган.

Молиявий ҳисоботларда акс этган ахборотлар сифатига таъсир этувчи энг

ўткир муаммо, ахборотларни олишдаги кечикишлардир. Яъни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари бўйича тузиладиган молиявий ҳисоботлар бўлиб ўтган жараёнларнинг натижаларини талаб қилинган вақтда эмас, балки анча кечиккан ҳолда олмоқда. Агарда, “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 4611-сонли ПҚ белгиланган талаблар бўйича руйхатни шакллантирадиган бўлсак, бугунги кунда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишга қизиқиши бор бўлган хўжалик юритувчи субъектларнинг сони (АЖ, суғурта компаниялари, банклар, фондлар, жамғармалар, йирик бизнес субъектлари) бир неча ўн мингтани ташкил этади. Бироқ, ушбу хўжалик юритувчи субъектларнинг асосий таркибида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар бўйича тузиш ва тақдим этиш, шунингдек, кенг оммага ва жамоатчиликка ошкор этиш муддатларининг кечиши, таҳлил субъектларининг манфаатларини кечиккан таҳлили сифатида эътироф этилмоқда.

Кейинги муҳим муаммо бу – муайян қоидаларнинг тўплами ҳисобланган МҲХС ни ўзбек тилига таржима қилишдаги муаммоли жиҳатларнинг мавжудлигидир. Бир мазмундаги сўзларнинг турлича талқин қилиниши ҳам ҳисоб ва таҳлил хизматлари сифатига таъсир этувчи асосий омил ҳисобланади.

МҲХС дунёнинг 166 мамлакатида қўлланилади. Ушбу қоидалар тўплами инглиз тилида қабул қилинган ва ҳозирга қадар расмий бир қанча тилларга (немис, поляк, рус, хитой, чех, фин, япон, македон, румин, словян, украин, испан ва бошқа тилларга) таржима қилинган. Шунингдек, норасмий тартибда 30 дан ортиқ бошқа тилларга ҳам таржима қилинган. Ўзбек тилига таржима қилинган илк МҲХС намуналарини Ўзбекистон Бухгалтерлар ва аудиторлар Ассосиацияси томонидан мувофиқлаштирилган нашрларда ҳам кўриш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун МҲХС ва унга тушунтиришлар матнини тан олиш тўғрисида”ги буйруғи қабул қилинган (09.12.2022 йилда рўйхатга олинган, рўйхат рақами 3400). Ҳужжатга мувофиқ Ўзбекистон ҳудудида 60 дан зиёд МҲХС ва уларга тушунтиришлар матни қўлланилади. Стандартларда хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг айрим йўналишлари бўйича ҳисоб юритиш ва ҳисоботни шакллантириш бўйича қоидалар мужассамлашган.

Ҳозирга келиб, МҲХС бўйича 62 та ҳужжат: жумладан, 25 та БҲХС , 17 та МҲХС  ва 20 та МҲХСга тушунтиришлардан иборат ҳужжатлар тўплами давлат тилига таржима қилинганлиги ва расмий, фойдаланишга тавсия этилганлиги  эътироф этилмоқда.

МҲХСга ўтишда яна бир муҳим жиҳат, амалда бўлган бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитга тегишли бўлган барча қонун ва қонун-ости хужжатлари қайта кўриб чиқилиши лозим. Бу жараён одатда параллел олиб борилгани маъқул. Негаки, МХҲСлари ҳам қотиб қолган қоидалар тўплами эмас ва улар ҳам доимо ўзгаришлар, қўшимчалар билан бойитиб борилади.

Демак, тез кунларда Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун, Солиқ кодекси, БХМСга ушбу жараёнлар таъсирида янгидан қабул қилиниши, ўзгартириш ва қўшимчлар киритилиши талаб этилади.

МҲХС ўтиш бир босқичда тугайдиган жараён эмас. У мураккаб тузилма ва мунтазам жараён ҳисобланади. Чунки унинг ўзи ҳам доимо такомиллашиб боради. МҲХС тизими – бу бутун ишлаш тизимини янгилаш зарурати ва қайта кўриб чиқиш жараёни. Биз, МҲХС ўтишдан кўпроқ қисқа муддатли нафликка эришишни мақсад қилгандек

кўринмоқдамиз. Аслида, мазкур стандартларга истиқболда узлуксиз инвестиция оқимини ва уларнинг давомийлигини таъминлашга хизмат қиладиган стратегик шаклда ёндашув зарур. Бу борада бизга, иқтисодий, молиявий тузилмаси нисбатан яқин ва ўхшаш бўлган Россия, Қозоғистон, Озарбайжон, Туркия давлатларининг тажрибаси қўл келиши мумкин. Ушбу давлатларда МҲХС икки даражада фойдаланиш амалиётидан фойдаланилган. Яъни йирик бизнес ва солиқ тўловчиларда 62 та стандартдан иборат бўлган МҲХСдан фойдаланиш ҳамда кичик ва ўрта бизнес учун битта “Кичик ва ўрта бизнес корхоналари бўйича МҲХС”дан фойдаланиш тажрибаси.

### Хулоса

Юқоридаги фикрларни умумлаштирган ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, МҲХС ўтиш ва у орқали тадбиркорлик субъектлари ресурслари, уларнинг самарадорлиги ва натижавийлигини тўғри баҳолашда моливий ҳолат, фойда ва зарарлар, пул оқимлари ва хусусий капитал билан боғлиқ бўлган ахборотлар оқимини тўғри ва ҳаққоний акс эттириш, таҳлил этишнинг мутлақо янги мазмундаги шаклига ўтиш юзасидан қуйидаги хулосаларга келинди:

1. МҲХС бўйича тузилган молиявий ҳисоботлар амалдаги бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудитни тубдан янги мазмунда ёки шаклда ташкил этиш, йўлга қўйиш ва юритишни талаб этмайди. Аслида, унинг айрим жиҳатларигина халқаро амалиётда тан олинган қоидалар асосида қайта тузиб чиқишни талаб қилади. Содда қилиб айтганда, маъмурий бошқарувга устунлик берилган тизимдаги муаммоларнигина халқаро амалиётга мувофиқлаштириш лозим. Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитда халқаро стандартларга ўтиш тадбиркорлик субъектлари бошқарув субъектларини, улар фаолияти билан боғлиқ бўлган контригентларнинг кенг доирасини, амалда мавжуд бўлган ва бўлғуси инвесторларни, шунингдек, фаолият ва бизнес фаолияти билан қизиқувчиларнинг кенг доирасини ҳаққоний ва ишончли манбалари билан бетарафлик таомилида таъминлашнинг иқтисодий тузилмага мос шаклини эмас, унга мос иқтисодий тузилмани шакллантиришни талаб этади.

2. МҲХСга ўтиш ва унинг амалиётида ижобий натижаларга эришиш юзасидан муҳим инфратузилма шакллантирилмас экан, бу бўйича ҳар қандай ҳатти-ҳаракат анъанавий тизимни ўзгартирмасдан қолишига сабаб бўлаверади. Шу сабабли, биринчи навбатда, юқорида таъкидлангани каби ўзаро мувофиқлик, боғлиқликдаги зарурий инфратузилмани тизимли ишлашини йўлга қўйиш зарур. Унинг амалдаги, макрокўламдаги юкламаларидан кўпроқ микрокўламдаги юкламларига аҳамият қаратиш лозим.

3. МҲХС ўтишда энг муҳим ва ҳал қилувчи мезон бу – ҳуқуқий, ташкилий ва услубий таъминотдаги муаммолар билан изоҳланади. Бу борада, айтиш мумкинки хозирга қадар тавсиявий характердаги расмий тартибни кўрсатиш қийин.

4. МҲХСга ўтиш ва молиявий ҳисобот маълумотлари асосида молиявий ҳолат, фойда ва зарарлар, пул оқимлари ва капитал таркибидаги ўзгаришларни ретроспектив ва истиқболли таҳлил этиш ва баҳолашнинг аниқ тартибини белгилаш, аналитик ишлар мазмунида афсуски ҳеч қандай ўзгаришлар қилинмади. Бу бевосита МҲХС ўтишдаги галдаги вазифа сифатида эътироф этилмоқда, халос.

5. МҲХС бўйича тузилган молиявий ҳисоботлар ва уларнинг таҳлилини йўлга қўйишдаги амалдаги ҳолат, бизнес ва бошқарув самарадорлигини баҳолашда, иқтисодий ҳавфсизликни (солиқ юки, кредит фоизлари катталиги, бонкротлик

каби, инфляция таъсирининг юқорилиги каби вазиятли масалаларни) ўрганишда муаммоли вазиятларни юзага чиқармоқда.

6. Мазкур жараёнда рақамлаштириш масаласи, бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитда дастурий таъминотлардан фойдаланиш масаласи ҳам очиқ қолмоқда. Амалдаги дастурий таъминотлар тўла, миллий ҳисобчилик, классик таҳлил ва назоратнинг ташкилий шартларида тузиб чиқилган.

7.Солиқ оқибатлари билан боғлиқ бўлган жиҳатларнинг ҳалига қадар амалдаги БХМС бўйича маълумотлар базасида қолаётганлиги МҲХС ўтишга ва қўллашга нисбатан қизиқишларни сусайтирмоқда. Солиқ ҳисобини юритиш жараёнида кўрсаткичларни шакллантириш ва солиқ ҳисоботларида уларни акс эттириш бўйича услубий кўрсатмаларни тузиб чиқиш лозим.

8.МҲХС ўтиш бу фақат молиявий ва солиқ ҳисоботларини тўғри шакллантириш билан эмас, балки статистик ҳисоботларни ҳам қайта кўриб чиқиш ва уларнинг сифатини ошириш ҳақида аниқ ечимлар бериш зарур.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Raximov M.Y., Кalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 736-b.
3. Subramanyam K.R. Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2016. - 814 pages.
4. Raximov M.Y.Moliyaviy hisobot tahlili Darslik. - T.:Nihol Print. 2021. 450-b.
5. Raximov M.Y., Astanaqulov O.T., Qalandarova N.N. Iqtisodiyot subektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. - T.: Nihol Print, 2022. 482-b.
6. Pardaev M.K., Abdukarimov I.T., Pulatov M.E., Usmanova D.K. Finansoviy analiz predpriyatiy.-T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi DUK, 2020. 768-bet.
7. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг МҲХС бўйича трансформацияси зарурияти, моҳияти ва босқичлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил.
8. Казакова Н.А. Анализ финансовой отчетности. Консолидированный: бизнес: Учебник. М.:Юрайт, 2020. - 233 с.
9. Кулагина Н.А. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Практикум: Учебное пособие. М.: Юрайт. 2020. 135 с.
10. Кузьмина Е.Е. Кузьмина Л.П. Комплексный анализ хозяйственной | деятельности. В 2 ч. Часть 1: Учебник и практикум. М.: Юрайт, 2020. 225 с.
11. Hasanov V.A., Raximov M.Y., Muqumov Z.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. - T.: IQTISODIYOT. 2020. 736-b.
12. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
13. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
14. www. imv.uz- Иқтисодиёт ва молия вазирлиги расмий сайти.
15. www. buxgalter.uz- «NORMA» МЧЖ расмий сайти материаллари.

**УЎТ 336.01**

**Норбаева Мухлиса Акрам қизи,**
*Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси докторанти*

# ЎЗБЕКИСТОН ВАЛЮТА СИЁСАТИНИНГ ТАШҚИ САВДО БАЛАНСИГА VAR МОДЕЛИ ТАЪСИРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ АҲАМИЯТИ

**Норбаева Мухлиса Акрамовна,**
*докторант Академии банковского дела и финансов Республики Узбекистан*

# ЗНАЧИМОСТЬ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЛИЯНИЯ МОДЕЛИ VAR НА ВНЕШНЕТОРГОВЫЙ БАЛАНС ВАЛЮТНОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

**Norbayeva Muxlisa Akram qizi,**
*The PhD Researcher at the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan*

# THE SIGNIFICANCE OF RESEARCHING THE EFFECT OF THE VAR MODEL ON THE FOREIGN TRADE BALANCE OF UZBEKISTAN'S FOREIGN EXCHANGE POLICY

**Аннотация.** *Илмий мақолада Ўзбекистон мисолида валюта сиёсатининг савдо балансига таъсири ҳамда савдо балансининг валюта курсига акс таъсири VAR модель ёрдамида таҳлил қилинган. Модель натижаларига кўра, миллий валюта алмашинув курсининг импорт ҳажмининг ўзгаришига таъсири аниқланган бўлса-да, аммо миллий валюта алмашинув курсининг экспорт ҳажмига таъсири статистик аҳамиятга эга бўлмаган. Шунингдек, танланган кўрсаткичларнинг кучли автокорреляцияси мавжудлиги ҳам аниқланди. Илмий мақодала модель натижалари интерпритация қилинган.*

**Таянч сўзлар:** *валюта сиёсати, савдо баланси, девальвация, экспорт, импорт.*

**Аннотация.** *В научной статье с использованием модели VAR проанализировано влияние валютной политики на торговый баланс и влияние баланса текущего счета на обменный курс в Узбекистане. По результатам модели определено влияние курса национальной валюты на изменение объема импорта, однако влияние курса национальной валюты на объем экспорта не оказалось статистически значимым. Также было обнаружено, что существует сильная автокорреляция выбранных показателей. Интерпретируются результаты научной модели.*

**Ключевые слова:** *валютная политика, торговый баланс, девальвация, экспорт, импорт.*

**Annotation.** *In the scientific article were analyzed VAR approach of the impact of foreign exchange policy on the trade balance and the impact of the trade balance on the exchange rate in the case of Uzbekistan. According to the results of the model, the influence of the national currency exchange rate on the change in the volume of imports was determined, but the influence of the national currency exchange rate on the volume of exports was not statistically significant. It was also found that there is a strong autocorrelation of the selected indicators. The results of the scientific model are interpreted.*

**Key words:** foreign exchange policy, trade balance, devaluation, export, import.

## Кириш

Юртимизда валюта сиёсатининг асосий мақсади халқаро иқтисодиётдаги ўзгаришларнинг ички иқтисодиётга таъсирини юмшатишдан иборатдир. Валюта сиёсати орқали алмашинув курсидаги кутилмаган ўзгаришларни бартараф этиш орқали савдо балансига салбий таъсирини олдини олади. Валюта сиёсати орқали савдо балансига таъсир этиш билан бир вақтда савдо балансидаги ўзгаришлар ҳам валюта курсларига таъсир кўрсатади.

Ҳар бир давлат учун валюта айирбошлаш курси режимини белгилаш муҳимдир. Чунки, Марказий банклар валюта курслари режимини белгилаш орқали товарлар ва молия бозоларига, ички ва ташқи иқтисодиётга мамлакатда валюта сиёсати қандай юритилиши ҳақида сигнал беради ва шунга кўра иқтисодиётда турли жараёнлар кузатилади.

Марказий банклар томонидан алмашинув курсини корректировка қилиш ва бу орқали иқтисодиётдаги турли жараёнларга таъсир кўрсатиш валюта сиёсати деб аталади. Айнан валюта сиёсатини олиб бориш орқали давлатлар ички ва халқаро иқтисодий вазиятларга таъсир кўрсатиб туришади.

Валюта сиёсати кўп ҳолларда ривожланаётган давлатларда ишлатиладиган терминлардан ҳисобланади. Бунга сабаб, ривожланган давлатлардан фарқли равишда ривожланаётган давлатлар миллий валюталарининг халқаро ҳаракати таъминланмаган. Яъни бу давлатлар миллий валюталарида халқаро қарзлар олинмайди ва тўланмайди. Шундай экан, иқтисодий адабиётларни ўқиганда алоҳида валюта сиёсати деб юритиладиган адабиётларни топиш қийин. Валюта сиёсати монетар сиёсатнинг бир қисми бўлиб, кўп ҳолларда монетар ва валюта сиёсати деб ҳам юритилади.

Алмашинув курси эркин сузиб юрувчи курс режимида бўлганда миллий валютанинг хорижий валютага нисбатан қиймати валюта биржасидаги талаб ва таклифга асосан шаклланади. Аммо бу Марказий банклар умуман алмашинув курси шаклланишига аралашмайди дегани эмас. Иқтисодиётда турли тебранишлар, халқаро иқтисодиётдаги турли “шоклар” юз бериши натижасида миллий валюта курсида кескин тебранишларга олиб келганда, бунинг таъсирини юмшатиш мақсадида Марказий банклар курсни корректировка қилиши мумкин бўлади ва буни амалиётда кўплаб учратсак бўлади.

## Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

Давлатлар учун валюта сиёсатини тўғри олиб бориш ва у орқали иқтисодий барқарорликни таъминлаш муҳим масалалардан биридир. Шу йўлда кўплаб давлатларда иқтисодчи олимлар томонидан пул-кредит ва валюта сиёсатининг самарадорлиги, унинг

иқтисодий ўсишга таъсири ва оптимал валюта курси режимини белгилашга қаратилган талайгина илмий ишлар олиб борилган.

E.Kohlscheen томонидан пул-кредит сиёсати шокларининг Бразилия, Мексика ва Чили валюта курсларига таъсири таҳлил қилинган. Уларнинг фикрича, пул-кредит сиёсатидаги қарорларидан кейин бир кунлик валюта курсининг ўзгариши валюта курсининг сабабли кутилмаган фоиз ставкаларнинг ошиши ўртасида анъанавий боғлиқликлар бор деб фараз қилиш нотўғри ҳисобланади. Уларнинг таъкидлашича, АҚШ долларидан ёки самарали валюта курсларидан фойдаланадими, фоиз ставкаларининг ўзгариши кутиладими ёки йўқми, валюта курсидаги интервенция натижасида юзага келган фоиз ставкаларнинг ўзгаришидан қатъи назар, стандарт очиқ иқтисодиёт моделларини башорат қилиш учун эмпирик асоснинг йўқлиги сақланиб қолинади. Уларнинг хулосаларига кўра, валюта курси кучли тебраниши фискал кенгайиш билан боғлаш қийин, чунки курснинг кутилмаган ўсиши риск мукофотининг ошиши билан боғлиқ эмас ва бу каби натижаларга Чили мисолида ҳам эришилган. Сабаби, Чили давлатининг халқаро қисқа муддатли кредит рейтинги 1997 йилдан бери юқори даражада бўлган ва давлат қарзининг ЯИМ нисбати 10 фоиздан паст бўлган. [1] Улар томонидан олинган фоиз ставка билан валюта курси ўртасида суст боғлиқлик ривожланаётган давлатлар пул-кредит сиёсатида қарорлар қабул қилиш учун муҳим натижа сифатида кўришимиз мумкин.

A.Inoue ва B.Rossi каби иқтисодчилар Марказий банк пул-кредит сиёсатининг валюта курсларига таъсирини ўрганишган ҳамда ноанъанавий пул-кредит сиёсати пул-кредит сиёсатини халқаро молия бозорларига ўтказиш усулини ўзгартиришини таҳлил қилишган. Уларнинг фикрларига кўра, анъанавий пул-кредит сиёсати тамойилларига кўра экспанцион пул-кредит сиёсати шоклари ўша мамлакат валютасининг қадрсизланишига олиб келади. Улар АҚШда пул-кредит сиёсатининг анъанавий ва ноанъанавий даврларида анъанавий тамойилларни қайта кўриб чиққан ва бунда пул-кредит сиёсати шокларини пул-кредит сиёсатининг кутилмаган ўзгаришлари натижасида бутун даромад эгри чизиғидаги ўзгаришлар сифатида белгилайдиган ва пул-кредит сиёсатидаги шокларнинг қандайлигига қараб фарқланишига имкон берадиган янги идентификациялаш процедурасидан фойдаланган. Ушбу янги идентификациялаш процедуралар иқтисодий агентларнинг фоиз ставкаларининг келажакдаги ҳаракати ҳақидаги прогнозларига, шунингдек, иқтисодиётдаги рисклар ва ноаниқликка таъсир қилади, деб ўйлашади. Таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, биринчидан пул-кредит сиёсатини юмшатиш анъанавий ва ноанъанавий даврларда мамлакатнинг спот бозоридаги номинал айирбошлаш курсининг пасайишига олиб келган бўлса, иккинчидан, пул-кредит сиёсатидаги шокларнинг вақт ўтиши билан турли тебранишларда бўлади ва ушбу фоизларнинг таъсири иқтисодий агентларнинг кутишларига қандай таъсир қилишига боғлиқдир. Учунчидан, Дорнбусчнинг (1976) ҳаддан ташқари ошиб кетиш гипотезасига ижобий далиллар топган ва тўртинчидан, кутилаётган реал фоиз ставкаларининг ўзгариши пул-кредит сиёсати шокларини узатишда муҳим роль ўйнайди деган хулосаларга келишган.[2]

[1] Kohlscheen, E. (2014). The impact of monetary policy on the exchange rate: A high frequency exchange rate puzzle in emerging economies. *Journal of International Money and Finance*, *44*, 69-96.

[2] Inoue, A., & Rossi, B. (2019). The effects of conventional and unconventional monetary policy on exchange rates. *Journal of International Economics*, *118*, 419-447.

B.Hofmann, I.Shim ва H.Shin каби иқтисодчилар пандемия даврида ривожланаётган давлатларда валюта сиёсатининг ўзгариши ва унинг маҳаллий қимматли қоғозлар бозорига таъсирини ўрганишган. Таҳлил натижаларига кўра, ривожланаётган бозор иқтисодиётидаги давлатларда миллий қимматли қоғозлар бозоридан қарз олиш ҳам Covid-19 пандемияси натижасида юзага келган молиявий зарбалардан ҳимоя қилмаган. Шунингдек, ривожланаётган давлатларда маҳаллий қимматли қоғозлар бозоридаги тебраниш частотаси миллий валютаниг кескин қадрсизланиши ва капиталнинг чиқиб кетиши таъсирида катта бўлган. Портфел сармоядорлари маҳаллий қимматли қоғозлар бозоридаги тебранишлар ва валюта курсларининг кескин силжиши натижасида кўпайган йўқотишларга дуч келишган ҳамда уларнинг қайта кўриб чиқилган портфел тақсимотлари, ўз навбатида, бу корреляцияни кучайтирган. Олимларнинг фикрларича, валюта курсининг пасайиши ва капиталнинг чиқиб кетиши ўртасидаги корреляцияни камайтиришни ҳал қилиш учун етарлича пул-кредит сиёсати инструмент самарадорлиги мавжуд ривожланаётган давлатларда пандемиянинг молиявий оқибатларини енгиш учун яхши имкониятга эга бўлишади. Шунингдек, ички облигациялар бозорларида қимматли қоғозларнинг катта тебранишларига қарши туриш учун ривожланаётган давлатлар марказий банклари «охирги чора дилери» ролини ўз зиммасига олиш учун ўзларининг инструментлар тўпламини кенгайтиришлари керак, деган хулосага келишган.[3]

A.F.Chaudhry ва бошқалар Покистон давлати мисолида норасмий, яъни параллел бозор курсларининг иқтисодиётга таъсирини эмпирик таҳлиллар қилишган. Хусусан, Покистон ички иқтисодиётида Покистон рупиясининг Япония иенаси (JPY/PKR), Швейцария франки (CHF/PKR), Британия фунт стерлинги (GBP/PKR) ва АҚШ доллари (USD/PKR) билан норасмий валюта бозори эмпирик таҳлил қилинган. Бунинг учун улар 1994M07 ва 2001M06 давр оралиғидаги статистик маълумотлар асосида Ljung Box Q-тестидан, Augmented Dickey-Fuller тестларидан, Phillips and Perron тестларидан, Durbin Watson тестидан, Runs-тестидан, ва Variance ratio тестларидан фойдаланган. Эмпирик таҳлиллар натижаларига кўра, Покистоннинг норасмий валюта бозорининг иқтисодий жараёнларга таъсири заиф деган хулосага олиб келган.[4]

Бизнинг фикримизча, ушбу таҳлиллар Марказий банкнинг расмий валюта сиёсатини ишлаб чиқишда, шунингдек,тижорат банклари ва инвесторларнинг валюта позицияларини ишлаб чиқишда муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, бу Марказий банк валюта интервенциясини ўтказиш орқали параллел бозор курслари таъсирини юмшатиш ҳам мумкин деб қаралади.

Бу ҳолат бизнинг мамлакатимизда ҳам 2017 йилга қадар параллел бозор курсларининг мавжуд бўлганлиги ва унинг иқтисодий жараёнларга таъсири кучли бўлганлигидан хулоса қилишимиз мумкин. 2017 йилдан бугунги кунга қадар эса параллел бозор курсларининг иқтисодий жараёнларга таъсири анча пасайтирилган. аммо давлатимиз томонидан қанчалик валютанинг параллел бозорини йўқотишга ҳаракат қилмасин аммо бугунги кунга қадар сақланиб қолаётганлиги иқтисодий муаммоларга олиб келмоқда.

[3] Hofmann, B., Shim, I., & Shin, H. S. (2021). Emerging market economy exchange rates and local currency bond markets amid the Covid-19 pandemic. *Available at SSRN 3761875.*

[4] Chaudhry, A. F., Hanif, M. M., Hassan, S., & Chani, M. I. (2019). Efficiency of the Black Foreign Exchange Market. *International Journal of Economics and Finance*, *11*(2), 165.

E.Albagli ва бошқалар АҚШ монетар сиёсатидаги ўзгаришларнинг халқаро облигациялар бозорларига таъсирини таҳлил қилишган. Улар панел регрессия усулидан фойдаланган ҳолда, Очиқ бозор қўмитаси қарорларига кўра қисқа муддали давлат қимматли қоғозлари фоизининг ўзгариши натижасида АҚШ монетар сиёсатидаги шокларнинг халқаро облигациялар бозорига таъсирини моделлаштирган. Ушбу боғлиқликни ўзгариш орқали улар учта асосий натижаларни олишган. Биринчидан, глобал молиявий инқироздан кейин АҚШ монетар сиёсатининг узоқ муддатли давлат облигациялари даромадларга таъсири сезиларли даражада ошган. Иккинчидан, монетар сиёсатдаги шокларнинг давлат облигациялар даромадлилигига таъсири 2008 йилдаги иқтисодий инқирозга нисбатан таққослагандан ҳам пандемия натижасида янада катта бўлган. Учинчидан, монетар сиёсатдаги шокларнинг давлат облигациялар даромадлилигига таъсири турли каналлар орқали ўтказилган. Хусусан, ривожланаётган давлатларда, асосий канал сифатида рискларнинг нейтрал ставкалари (келажакдаги монетар сиёсат фоиз ставкаларининг прогнози) орқали бўлса, ривожланаётган давлатларда бозорларда муддатли премия бўйича тарқалган. Илмий тадқиқотларида АҚШ монетар сиёсатидаги ўзгаришларнинг ривожланаётган давлатлар монетар сиёсатига таъсирини ҳам таҳлил қилишган. Хусусан, АҚШ монетар сиёсатидаги ўзгаришлар натижасида ривожланаётган давлатларда монетар қисқариш сиёсатини юритишга мажбур ёки миллий валюталарининг АҚШ долларига нисбатан қадрсизланишига рози бўлиши керак. Ривожланган давлатларда монетар сиёсатдаги шокларга қарши қисман риск нейтрал ставкалари билан ва қисман валюта интервенциялари орқали эркин сузувчи режимларга мос равишда мослашади. Ривожланаётган мамлакатлар валюта курсларининг жавобини юмшатадиган, аммо капитал оқимларини ва уларнинг муддатли премиядаги ҳаракатлар орқали облигациялар рентабеллигига таъсирини кучайтирадиган катта миқдорда валюта интервенциясини ўтказишга мажбур бўладилар. Уларнинг эришган натижаларига кўра, катта миқдорда валюта интервенциясининг узоқ муддатли давлат облигациялар даромадлилигига эндоген таъсирини ҳисоблаганда стандарт харажат фойда таҳлилини ҳам инобатга олиш лозим.[5]

А.Гребенкина ва А.Ляменков томонидан охирги йилдаги иқтисодий ўзгаришларнинг Россия Марказий банки валюта сиёсатига таъсирини таҳлил қилишган. Уларнинг фикрича, сўнгги ўн йилликларда Россияда валюта сиёсати сезиларли даражада ўзгарди ва бу валюта курси режимига қараб маълум монетар сиёсат инструментларидан фойдаланиш ҳажмида ҳам намоён бўлди. Миқдорий таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, инфляцион таргетлаш режими даврида олдинги даврга нисбатан рубл курсининг асосий фоиз ставкасига муносабати яхшиланган ва рубл курсининг жаҳон товар бозорига боғлиқлиги пасайган. Бироқ, 2022 йил февраль ойининг охиридаги глобал иқтисодиётдаги ўзгаришлар пул-кредит сиёсатига ҳам, валюта курсининг ушбу ўзгаришларга сезгирлигига ҳам сезиларли таъсир кўрсатган. Тўлов баланси моддаларининг рубл курсига бетартиб таъсири, ташқи ва ички чекловларнинг трансчегаравий капитал ҳаракатига таъсири, пул-кредит сиёсатининг одатий инструментларининг тўхтатилиши шароитида рубл курси камроқ изоҳланадиган кўрсаткичга айланди. Шунга қарамай, муаллифлар пул-кредит сиёсатининг муҳим параметри

[5] Albagli, E., Ceballos, L., Claro, S., & Romero, D. (2019). Channels of US monetary policy spillovers to international bond markets. *Journal of Financial Economics*, *134*(2), 447-473.

сифатида рубл курсининг қиймати иқтисодий инқирознинг ўткир босқичини енгиб ўтиш билан бир хил даражада қолади, деб ҳисоблашади.[6]

М.Ю.Печалова томонидан геосиёсий кескинликларнинг кучайиши фонида Россия пул-кредит сиёсатининг ўзгариши ўрганилган. Ушбу тадқиқотлар долзарблиги 2014–2022 йилларда дўстона бўлмаган мамлакатларнинг Россия иқтисодиётига мисли кўрилмаган санкциялар босими шароитида пул-кредит органлари томонидан олиб борилаётган пул-кредит сиёсати натижаларини таҳлил қилиш ва баҳолаш зарурати билан боғлиқдир. Ушбу олимнинг илмий тадқиқотлар мақсади геосиёсий омиллар ва Россия банкининг пул-кредит сиёсатининг Россия рубли курсига таъсир даражасини аниқлашдир. Таҳлил натижаларига кўра, махсус ҳарбий операция давомида рубл курсини белгиловчи асосий омиллар экспорт-импорт оқимлари ва геосиёсий мукофотдир. Регрессион таҳлил ёрдамида 2014–2022 йилларда геосиёсий мукофотнинг динамикаси аниқланган ва Россия миллий валютаси ва фонд бозорларида инқирозга қарши чоралар самарадорлиги баҳоланган. 2022 йилда худди 2014–2015 йиллардаги молиявий инқирозда бўлгани каби монетар сиёсат асосий фоиз ставкаси кескин оширилган бўлса-да, аммо ўша даврдан фарқли равишда 2022 йилда регулятор томонидан асосий ставканинг пасайишига нисбатан тез ўтиши таъкидланган. Олимнинг фикрича, геосиёсий можаронинг авж олиши шароитида Россия пул-кредит сиёсатининг ўзгариши содир бўлди. Хусусан, халқаро валюта захираларининг муҳим қисми устидан назоратнинг йўқолиши пул-кредит органларини миллий валютани қўллаб-қувватлашнинг бозор механизмларидан ташқари усулларига мурожаат қилишга мажбур қилди, бу жуда муваффақиятли бўлди.[7]

**Тадқиқот методологияси**

Валюта сиёсатининг ташқи савдо операциялар ҳажмига таъсирини таҳлил қилишда Ўзбекистон Марказий банки ва Статистика қўмитасининг расмий статистик маълумотларидан фойдаланилди. Экономерик таҳлилларни, яъни валюта сиёсатининг савдо балансига таъсирини аниқлашда VAR (Vector autoregression models) моделидан фойдаланганмиз.

Ушбу эмпирик таҳлилларда мамлакат миллий валюта курсининг ўзгариши (), экспорт ҳажми ўзгариши () ҳамда импорт ҳажмининг ўзгариши () танланган. Танланган кўрсаткичларнинг 2005q1–2023q2 оралиғидаги статистик маълумотлари чораклик кесимида ва ўсишда олинган. Таҳлил қилинаётган статистик маълумотлар ўлчамлари турлича бўлганлиги учун барча маълумотлар натурал логарифмланган. Натижада маълумотлар бир маромда текисланади ва бир хил ўлчов бирлигига келади.

Эконометрик таҳлилларни олиб боришда Augmented Dickey-Fuller Test тестини ўтказганмиз. Қуйида биз Augmented Dickey-Fuller Test моделининг кўринишда келтирамиз:

$$\Delta ExRate_t = \alpha_1 + \beta_1 t + \gamma_1 ExRate_{t-1} + \delta_1 \Delta ExRate_{t-1} + \cdots + \delta_{p-1} \Delta ExRate_{t-(p-1)} + \varepsilon_t$$

$$\Delta Export_t = \alpha_2 + \beta_2 t + \gamma_2 Export_{t-1} + \varphi_1 \Delta Export_{t-1} + \cdots + \varphi_{p-1} \Delta Export_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta Import_t = \alpha_4 + \beta_4 t + \gamma_4 Import_{t-1} + \mu_1 \Delta Import_{t-1} + \cdots + \mu_{p-1} \Delta Import_{t-(p-1)} + \sigma_t$$

Бу ерда, $\alpha_1$,$\alpha_2$,$\alpha_3$,$\alpha_4$ лар ўзгармас қиймат, $\beta_1$, $\beta_2$, $\beta_3$, $\beta_4$ лар вақт тренди натижасида ўзгариш коэффициентларидир.

Статистик маълумотлардан фойдаланган ҳолда, валюта курси, экспорт ва импорт ҳажми ўртасида ўзаро боғлиқликни ифодаловчи қуйидаги модель шакллантирдик:

[6] Гребенкина, А. М., & Ляменков, А. К. (2023). Валютная политика России в современных экономических условиях. Экономическое развитие России, 30(1), 4-13.

[7] Печалова, М. Ю. (2023). Трансформация российской валютной политики на фоне обострения геополитической напряженности. Экономика. Налоги. Право, 16(1), 48-57.

$$ExRate_t = \alpha_1 + p_1 e_1 + \sum_{i=1}^{2} \delta_i ExRate_{t-i} + \sum_{i=1}^{2} \beta_i \Delta Export_{t-i} + \sum_{i=1}^{2} \gamma_i \Delta Import_{t-i}$$

$$\Delta Export_t = \alpha_2 + p_2 e_2 + \sum_{i=1}^{2} \delta_i ExRate_{t-i} + \sum_{i=1}^{2} \beta_i \Delta Export_{t-i} + \sum_{i=1}^{2} \gamma_i \Delta Import_{t-i}$$

$$\Delta Import_t = \alpha_3 + p_3 e_3 + \sum_{i=1}^{2} \delta_i ExRate_{t-i} + \sum_{i=1}^{2} \beta_i \Delta Export_{t-i} + \sum_{i=1}^{2} \gamma_i \Delta Import_{t-i}$$

## Натижа ва муҳокама

Эконометрик таҳлилнинг дастлабки босқичида бир қатор статистик ҳисоб-китобларни амалга оширдик. Булар танланган маълумотларнинг тасвирий статистикаси, яъни бунда асосан маълумотларнинг ўртача кўрсаткичлари, максимал ва минимал кўрсаткичлари, ўртачадан четлашиши (стандарт дисперцияси) каби кўрсаткичлари таҳлил қилинган. Шунингдек, илмий ишимизда танланган кўрсаткичларнинг нормал тақсимотини ҳам таҳлил қилганмиз.

Танланган кўрсаткичлар ёрдамида 73 та кузатув амалга оширилди. Қуйида танланган тўққизта кўрсаткичнинг тасвирий статистикасини таҳлил қиламиз.

*1-жадвал*

**Кўрсаткичларнинг тасвирий статистикаси**

| | Exchange Rate | Export | Import |
|---|---|---|---|
| Mean | 0.032466 | 0.018881 | 0.029638 |
| Median | 0.020684 | 0.058526 | 0.052818 |
| Maximum | 0.163780 | 0.431119 | 0.254670 |
| Minimum | -0.024434 | -0.506609 | -0.304973 |
| Std. Dev. | 0.037201 | 0.208250 | 0.132803 |
| Jarque-Bera | 43.80059 | 5.052056 | 4.301899 |
| Probability | 0.000000 | 0.079976 | 0.116374 |
| | | | |
| Sum | 2.370037 | 1.378346 | 2.163575 |
| Sum Sq. Dev. | 0.099640 | 3.122512 | 1.269839 |
| | | | |
| Observations | 73 | 73 | 73 |

Кузатув натижаларига кўра, валюта курсининг ўзгариши, асосан девальвация қилинган бўлиб, унинг натурал логарифмланган ҳолатдаги ўртача кўрсаткичи 0,032 га тенг бўлиб, ушбу кўрсаткич кўрилган даврда максимум 0,164 га ва минимум –0,024 га тенг бўлган. Ушбу кўрсаткичнинг стандарт дисперцияси 0,037 га тенг бўлган.

Шунингдек, кўрилган даврда мамлакатимиз экспорт ҳажми ўзгаришининг логарифмланган ҳолатдаги ўртачаси 0,019 га тенг бўлиб, ушбу кўрсаткич кўрилган даврда максимум 0,431 га ва минимум –0,507 га тенг бўлган. Ушбу кўрсаткичнинг стандарт дисперцияси 0,208 га тенг бўлган.

Мамлакатимиз импорти ҳажмининг ўзгариши натурал логарифмланган ҳолатдаги ўртача кўрсаткичи 0,030 га тенг бўлиб, ушбу кўрсаткич кўрилган даврда максимум 0,255 га ва минимум –0,305 га тенг бўлган. Ушбу кўрсаткичнинг ўртачадан четлашиш даражаси 0,133 га тенг бўлган. Таҳлил натижаларидан кўриладики, кўрсаткичлар ичида ўртачадан оғиш даражаси бўйича импорт ҳажми катта кўрсаткичга эга бўлмоқда.

Қуйида танланган мамлакат миллий валюта курсининг ўзгариши, экспорт ҳажми ўзгариши ҳамда импорт ҳажмининг ўзгаришлари ўртасида корреляцион боғлиқлиги таҳлил қилинган.

*2-жадвал*

**Танланган кўрсаткичлар ўртасида корреляцион матрица**

| | **Exchange Rate** | **Export** | Import |
|---|---|---|---|
| **Exchange Rate** | 1 | | |
| **Export** | -0.1615 | | |
| **Import** | -0.3195 | 0.4830 | 1 |

Ривожланаётган давлатларда савдо балансининг ўзгариши ва унинг валюта курсига таъсир этган ҳолда ички иқтисодиётга кенг таъсир қилиши мумкин. Юқоридаги жадвал маълумотларига кўра, валюта курси ўзгаришининг

экспорт ҳажмининг ўзгариши билан корреляцияси –0,16 га тенг бўлиши улар ўртасида мантиқан нотўғри боғлиқлик борлигидан далолат беради. Чунки, валюта курси девальвацияси экспорт товарларининг ташқи бозорда нархга асосан рақобатбардошлигини ошириши ва бу экспорт ҳажмини оширишга олиб келиши керак.

Шунингдек, валюта курси ўзгаришининг импорт ҳажми ўзгариши билан корреляцияси –0,32 га тенг бўлиши улар ўртасида мантиқан тўғри боғлиқлик мавжудлигидан далолат беради. Чунки, валюта курси девальвацияси импорт товарлари нархларини ички бозорда ошириш орқали импорт ҳажмининг қисқаришига сабаб бўлади.

Албатта валюта курси девальвацияси қисқа муддатда импорт товарлари ҳажмини камайтирса-да, аммо экспорт ошиши ҳисобига миллий даромаднинг ошиши ўрта муддатда импорт товарлари ҳажмини ҳам ошириши лозим. Яъни экспортнинг кўпайиши ҳисобига хориждан олинган миллий даромаднинг бир қисми импорт шаклида чиқиб кетади, аммо савдо баланси олдингига қараганда ижобий томонга ўзгаради. Бу боғлиқликни жадвалдаги экспорт ва импорт ҳажмлари ўртасидаги корреляциядан ҳам кўришимиз мумкин. Яъни мамлакатимиз иқтисодиётида экспорт ҳажмининг ўзгариши билан импорт ҳажмининг ўзгариши ўртасидаги корреляция 0,48 га тенг бўлмоқда.

*3-жадвал*

**Импорт ҳажмининг ўзгаришига таъсир этувчи омилларнинг энг кичик квадрат моделида ҳисобланган параметрлари**

Dependent Variable: **Import**
Method: Least Squares
Sample (adjusted): 2005Q2 2023Q2
Included observations: 73 after adjustments

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| **Export** | 0.282482 | 0.064934 | 4.350318 | 0.0000 |
| **Exchange Rate** | -0.885167 | 0.363500 | -2.435121 | 0.0174 |
| **C** | 0.053042 | 0.017919 | 2.960094 | 0.0042 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| R-squared | 0.293195 | Mean dependent var | 0.029638 |
| Adjusted R-squared | 0.273000 | S.D. dependent var | 0.132803 |
| S.E. of regression | 0.113234 | Akaike info criterion | -1.478501 |
| Sum squared resid | 0.897529 | Schwarz criterion | -1.384372 |
| Log likelihood | 56.96528 | Hannan-Quinn criter. | -1.440989 |
| F-statistic | 14.51859 | Durbin-Watson stat | 2.843142 |
| Prob(F-statistic) | 0.000005 | | |

Таҳлил натижаларига кўра 5% ли эҳтимоллик билан текширганда, экспорт ҳажмининг бир фоизга ошиши импорт ҳажмини 0,28 фоизга оширмоқда. Шунингдек, миллий валютанинг бир фоизга девальвация бўлиши импорт ҳажмини –0,88 фоизга пасайтирмоқда. Аммо бу таъсир маълум бир даврдан кейин амалга ошишини ва энг кичик квадрат усулида эса танланган кўрсаткичларнинг маълум бир лаг билан таъсири кўрилмаслигини инобатга олганда ушбу таъсир натижаларининг ишончлилиги пастдир (4-жадвал).

Таҳлил натижаларига кўра, 5% ли эҳтимоллик билан текширганда, фақатгина импорт ҳажмининг ўзгариши экспорт ҳажмининг ҳам ўзгаришига таъсири кўрилмоқда. Хусусан, импорт ҳажмининг бир фоизга ўсиши экспорт ҳажмининг 0,75 фоизга ошишига олиб келмоқда. Ушбу таъсирни икки мамлакат Кейнс моделидан тушунтирсак бўлади. Яъни бизга қилинган импорт натижасида асосий ҳамкор давлатларимиз миллий даромадларининг ошиши бизнинг экспортимизни ҳам оширмоқда.

Экспорт ҳажмини ўзгаришига таъсир этувчи омилларнинг энг кичик квадрат моделида ҳисобланган параметрларида валюта курси ўзгаришининг экспорт ҳажмига таъсири кўрилмаганлигининг сабаби, экспорт таркибида давлат корхоналарининг ҳам улуши мавжуддир.

*4-жадвал*

**Экспорт ҳажмининг ўзгаришига таъсир этувчи омилларнинг энг кичик квадрат моделида ҳисобланган параметрлари**

Dependent Variable: **Export**
Method: Least Squares
Sample (adjusted): 2005Q2 2023Q2
Included observations: 73 after adjustments

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| **Exchange Rate** | -0.045222 | 0.618249 | -0.073145 | 0.9419 |
| **Import** | 0.753402 | 0.173183 | 4.350318 | 0.0000 |
| **C** | -0.001980 | 0.031041 | -0.063777 | 0.9493 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| R-squared | 0.233379 | Mean dependent var | 0.018881 |
| Adjusted R-squared | 0.211475 | S.D. dependent var | 0.208250 |
| S.E. of regression | 0.184924 | Akaike info criterion | -0.497515 |
| Sum squared resid | 2.393784 | Schwarz criterion | -0.403387 |
| Log likelihood | 21.15930 | Hannan-Quinn criter. | -0.460003 |
| F-statistic | 10.65487 | Durbin-Watson stat | 2.846011 |
| Prob(F-statistic) | 0.000091 | | |

Яъни миллий валюта девальвациясидан қаъи назар давлат корхоналарининг экспорти ҳажми ўзгармаган. Шунингдек, валюта курсининг экспорт ҳажмига таъсири кўрилмаганлигига сабаблардан яна бири бу административ ричаклар орқали чет эл валютасининг тушумини оширишга қилинган ҳаракатлар бўлса, яна бир сабаб иқтисодиётимизда монопол ҳолатларнинг мавжудлигидир.

Таҳлил натижаларига кўра, 5% ли эҳтимоллик билан текширганда, фақатгина импорт ҳажмининг ўзгариши миллий валюта алмашинув курсига таъсири сезиларли бўлмоқда. Яъни импорт ҳажмининг бир фоизга ошиши миллий валюта алмашинув курсини –0,09 фоизга оширмоқда. Экспорт ҳажмининг ўзгариши миллий валюта алмашинув курсига таъсири статистик аҳамиятга эга бўлмади.

Танланган кўрсаткичларнинг бир-бирига таъсирини энг кичик усул орқали аниқлай олмаганимизга сабаб ҳам ушбу моделда “лаг”дан фойдаланилмайди. Демак, таҳлилимизни бошқа моделлардан фойдаланган ҳолда олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Хусусан, таҳлилимизнинг кейинги босқичида векторли авторегрессия (VAR) моделидан фойдаланамиз. Чунки, ушбу моделда биз танланган кўрсаткичларнинг бир-бирига таъсирини аниқлашда маълум бир “лаг”дан фойдаланамиз. VAR модельдан фойдаланишда, дастлаб танланган кўрсаткичлар асосида Augmented Dickey-Fuller Test ўтказишимиз лозим.

Ушбу Augmented Dickey-Fuller Test модели орқали кўрсаткичларни бирлик илдизга текширамиз ва ушбу кўрсаткичлар стационар ёки ностационар эканлиги юзасидан хулоса қилишимиз мақсадга мувофиқдир.

*5-жадвал*

**Ташқи савдо операцияларининг алмашинув курсига таъсирининг энг кичик квадрат моделида ҳисобланган параметрлари**

Dependent Variable: **Exchange Rate**
Method: Least Squares
Sample (adjusted): 2005Q2 2023Q2
Included observations: 73 after adjustments

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| **Export** | -0.001690 | 0.023105 | -0.073145 | 0.9419 |
| **Import** | -0.088227 | 0.036231 | -2.435121 | 0.0174 |
| **C** | 0.035113 | 0.004289 | 8.186302 | 0.0000 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| R-squared | 0.102171 | Mean dependent var | 0.032466 |
| Adjusted R-squared | 0.076518 | S.D. dependent var | 0.037201 |
| S.E. of regression | 0.035749 | Akaike info criterion | -3.784358 |
| Sum squared resid | 0.089460 | Schwarz criterion | -3.690230 |
| Log likelihood | 141.1291 | Hannan-Quinn criter. | -3.746847 |
| F-statistic | 3.982913 | Durbin-Watson stat | 1.199782 |
| Prob(F-statistic) | 0.023003 | | |

*6-жадвал*

**Augmented Dickey-Fuller Test натижаси**

| | Кўрсаткичлар | t-Statistic | Proba-bility | Хуло-са |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **Exchange Rate** | -4.990892 | 0.0001 | I(0) |
| 2 | **Export** | -7.762945 | 0.0000 | I(0) |
| 3 | **Import** | -3.521756 | 0.0102 | I(0) |

Юқоридаги жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, танланган кўрсаткичларнинг барчаси бирлик илдизга текширилганда стационар ҳолатида бўлмоқда. Бундан хулоса қилишимиз мумкинки, стационар ҳолатидаги кўрсаткичларнинг қолган кўрсаткичлар билан мантиқий боғлиқлиги мавжуд ва VAR моделидан фойдаланиш мумкин.

Таҳлилимизнинг кейинги босқичидан VAR модель учун оптимал “лаг”ни танлаб олишимиз лозим. Бунинг учун Lag Length Criteria усулидан фойдаланамиз.

Таҳлил маълумотларидан кўриниб турибдики, валюта сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳоловчи VAR модели учун оптимал “лаг”лар сони Schwarz information criterion ва Hannan-Quinn information criterion асосида 1 тани, аммо Final prediction error ва Akaike information criterion асосида 2 тани ташкил этмоқда. Демак, танланган кўрсаткичларнинг бир-бирига таъсирини ифодаловчи VAR моделимиз учун оптимал “лаг”лар сонини 2 та қилиб белгилашимиз мантиқан нотўғри бўлмайди.

Валюта сиёсатининг савдо балансига таъсирини танланган “лаг” асосида шакл-лантирилган VAR модель натижаларини қуйидаги жадвалдан кўришимиз мумкин.

*7-жадвал*

**Танланган кўрсаткичларнинг бир-бирига таъсирини ифодаловчи VAR модель учун оптимал “лаг” танлаш (Lag Length Criteria) усули**

**VAR Lag Order Selection Criteria**
Endogenous variables: Exchange Rate, Import, Export
Exogenous variables: C
Sample: 2005Q1 2023Q2
Included observations: 71

| Lag | LogL | LR | FPE | AIC | SC | HQ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 0 | 199.0446 | NA | 8.02e-07 | -5.522382 | -5.426776 | -5.484362 |
| 1 | 223.6196 | 46.38112* | 5.17e-07 | -5.961116 | -5.578692* | -5.809038* |
| 2 | 232.8342 | 16.61226 | 5.15e-07* | -5.967162* | -5.297919 | -5.701025 |

*8-жадвал*

**Танланган кўрсаткичларнинг бир-бирига таъсирини ифодаловчи VAR модели**

**Vector Autoregression Estimates**
Sample (adjusted): 2005Q1 2023Q2
Included observations: 71 after adjustments
Standard errors in ( ) & t-statistics in [ ]

| | **Exchange Rate** | **Import** | **Export** |
|---|---|---|---|
| **Exchange Rate (-1)** | 0.506599 | -1.081295 | -1.668100 |
| | (0.13140) | (0.48238) | (0.74417) |
| | [ 3.85551] | [-2.24157] | [-2.24157] |
| **Exchange Rate (-2)** | 0.080688 | 0.270821 | 0.748830 |
| | (0.12702) | (0.46630) | (0.71936) |
| | [ 0.63526] | [ 0.58078] | [ 1.04097] |
| **Import (-1)** | 0.019571 | -0.565076 | 0.018668 |
| | (0.04006) | (0.14706) | (0.22686) |
| | [ 0.48858] | [-3.84253] | [ 0.08229] |
| **Import (-2)** | 0.059562 | -0.331316 | 0.043589 |
| | (0.03946) | (0.14486) | (0.22348) |
| | [ 1.50947] | [-2.28713] | [ 0.19505] |
| **Export (-1)** | -0.000750 | 0.049595 | -0.503978 |
| | (0.02439) | (0.08956) | (0.13816) |
| | [-0.03075] | [ 0.55378] | [-3.64782] |
| **Export (-2)** | 0.014265 | 0.093756 | -0.228459 |
| | (0.02462) | (0.09038) | (0.13943) |
| | [ 0.57943] | [ 1.03736] | [-1.63856] |
| **C** | 0.010607 | 0.079935 | 0.062239 |
| | (0.00693) | (0.02543) | (0.03924) |
| | [ 1.53112] | [ 3.14291] | [ 1.58629] |
| R-squared | 0.272488 | 0.226456 | 0.248443 |
| Adj. R-squared | 0.204284 | 0.153937 | 0.177984 |
| Sum sq. resids | 0.072447 | 0.976425 | 2.323775 |
| Akaike AIC | -3.852520 | -1.251477 | -0.384427 |
| Schwarz SC | -3.629439 | -1.028396 | -0.161346 |
| Mean dependent | 0.032613 | 0.029390 | 0.021149 |
| S.D. dependent | 0.037717 | 0.134285 | 0.210168 |




**1-расм. Валюта сиёсатининг ташқи савдо операцияларга таъсирининг импульси[8]**

[8] Модель натижалари асосида шакллантирилди.

Модель натижаларига кўра, миллий валюта алмашинув курсининг импорт ҳажмининг ўзгаришига таъсири аниқланган бўлса-да, аммо миллий валюта алмашинув курсининг экспорт ҳажмига таъсири статистик аҳамиятга эга бўлмаган. Шунингдек, танланган кўрсаткичларнинг кучли автокорреляцияси мавжудлиги ҳам аниқланди. Илмий мақолада модель натижалари интерпритация қилинган.

## Хулоса

Хулоса қилишимиз мумкинки, миллий валюта алмашинув курсининг импорт ҳажмининг ўзгаришига таъсири кўринди. Унга кўра, миллий валюта алмашинув курсининг бир фоизга ошиши кейинги чоракда импорт ҳажмини 1,08 фоизга пасайтириши аниқланди. Аммо миллий валюта алмашинув курсининг экспорт ҳажмига таъсири мантиқан тўғри шаклланмади. Унга биноан, бир чорак олдинги миллий валюта алмашинув курсининг бир фоизга ошиши экспорт ҳажмини 1,67 фоизга пасайтирмоқда. Бу билан кўришимиз мумкинки, валюта сиёсатининг экспорт ҳажмини оширишдаги ўрни бошқа сабабларга кўра йўққа чиқарилмоқда.

Таҳлил натижаларига кўра, икки чорак олдинги алмашинув курсидаги ўзгаришнинг савдо балансига таъсири сезилмади. Аммо VAR модель натижасига кўра, танланган кўрсаткичларнинг автокорреляцияси мавжудлиги аниқланди. Унга кўра, миллий валюта алмашинув курсининг бир фоизга ошиши кейинги чоракда ушбу кўрсаткични 0,51 фоизга ошириши аниқланди. Шунингдек, импорт ҳажмининг бир фоизга ошиши кейинги чоракда ушбу кўрсаткични 0,57

фоизга пасайтирса, икки чорак олдинги ўзгаришнинг таъсири –0,33 фоиз бўлмоқда. Ташқи савдо операцияларида экспорт ҳажми ўзгаришидаги автокорреляцияга назар солсак, унда экспорт ҳажмининг бир фоизга ошиши кейинги чоракда ушбу кўрсаткични 0,50 фоизга пасайтирмоқда.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**


1. Albagli, E., Ceballos, L., Claro, S., & Romero, D. (2019). Channels of US monetary policy spillovers to international bond markets. Journal of Financial Economics, 134(2), 447-473.
2. Chaudhry, A. F., Hanif, M. M., Hassan, S., & Chani, M. I. (2019). Efficiency of the Black Foreign Exchange Market. International Journal of Economics and Finance, 11(2), 165.
3. Hofmann, B., Shim, I., & Shin, H. S. (2021). Emerging market economy exchange rates and local currency bond markets amid the Covid-19 pandemic. Available at SSRN 3761875.
4. Inoue, A., & Rossi, B. (2019). The effects of conventional and unconventional monetary policy on exchange rates. Journal of International Economics, 118, 419-447.
5. Kohlscheen, E. (2014). The impact of monetary policy on the exchange rate: A high frequency exchange rate puzzle in emerging economies. Journal of International Money and Finance, 44, 69-96.
6. Гребенкина, А. М., & Ляменков, А. К. (2023). Валютная политика России в современных экономических условиях. Экономическое развитие России, 30(1), 4-13.
7. Печалова, М. Ю. (2023). Трансформация российской валютной политики на фоне обострения геополитической напряженности. Экономика. Налоги. Право, 16(1), 48-57.
8. https://data.worldbank.org
9. https://imf.org
10. https://cbu.uz
11. https://stat.uz

УЎТ 336.71

**Мирзиёев Аброр Аҳрорович,**
*Тошкент молия институти*
*мустақил тадқиқотчиси*

# ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

**Мирзиёев Аброр Ахророович,**
*Ташкентский финансовый институт*
*соискатель*

# ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Mirziyoev Abror Ahrorovich**
*Tashkent Institute of Finance*
*independent researcher*

# WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL SECURITY OF COMMERCIAL BANKS

**Аннотация.** *Тижорат банкининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш унинг ликвидлилиги ва молиявий барқарорлигини таъминлашнинг зарурий шарти ҳисобланади. Мақолада тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш йўллари ҳамда мазкур йўналишда мавжуд муаммолар ва уларнинг ечимлари юзасидан тегишли илмий-назарий ва амалий тадқиқотлар натижалари ўз ифодасини топган.*

**Таянч сўзлар:** *тижорат банки, молиявий хавфсизлик, ликвидлилик, молиявий барқарорлик, риск, кредит, капитал, депозит, захира, фоиз ставкаси.*

**Аннотация.** *Обеспечение финансовой безопасности коммерческого банка является необходимым условием обеспечения его ликвидности и финансовой устойчивости. В статье представлены результаты актуальных научно-теоретических и практических исследований способов обеспечения финансовой безопасности коммерческих банков, а также существующие проблемы и пути их решения.*

**Ключевые слова:** *коммерческий банк, финансовая безопасность, ликвидность, финансовая устойчивость, риск, кредит, капитал, депозит, резерв, процентная ставка.*

**Annotation.** *Ensuring the financial security of a commercial bank is a necessary condition for ensuring its liquidity and financial stability. The article presents the results of relevant scientific-theoretical and practical research on ways to ensure the financial security of commercial banks, as well as existing problems and their solutions.*

**Key words:** *commercial bank, financial security, liquidity, financial stability, risk, credit, capital, deposit, reserve, interest rate.*

## Кириш

Халқаро банк амалиётида тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш мамлакат банк тизимининг барқарорлигини таъминлашнинг зарурий шартларидан бири ҳисобланади. Шу сабабли, тараққий этган мамлакатларда тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини тавсифловчи кўрсаткичлар мажмуи шакллантирилган бўлиб, мажмуадаги бир қатор кўрсаткичлар пруденциал банк назоратининг объекти ҳисобланади. Бу эса, банкларнинг молиявий хавфсизлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади. Чунончи, АҚШнинг Bank of America банкида соф фоизли маржанинг даражаси 2022 йилда 2021 йилга нисбатан 0,4 фоизли пунктга ошгани ҳолда, ICBC (Industrial and Commercial Bank of China) банкида соф фоизли даромадларнинг миқдори мазкур даврда 10,2 фоизга ошди[4]. Мазкур ҳолатлар тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш амалиётини такомиллаштиришни тақозо этмоқда.

## Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

Тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш масаласи ғарб иқтисодий адабиётида илмий асосда тадқиқ қилинган ва тегишли илмий хулосалар, амалий тавсиялар шакллантирилган.

В. Гапоненконинг фикрига кўра, молиявий хавфсизлик – бу молия-кредит соҳасининг ташқи ва ички салбий таъсирларга нисбатан барқарор ва мувозанатлашган ҳолатидир[5].

Ю.Платонованинг хулосасига кўра, тижорат банкининг молиявий хавфсизлигига стратегик ва тактик режалаштириш ҳамда молиявий мазмунга эга бўлган бўлғуси таҳдидларни олдини олишга қаратилган тадбирлар орқали эришилади. Бунда молиявий хавфсизликни таъминлашнинг асосий тадбирлари бўлиб, юқори даражадаги тўловга қобилликка, ликвидлиликка ва молиявий барқарорликка эришиш ҳамда капиталнинг самарали таркибини шакллантириш ҳисобланади[6].

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан Б.Бердияров, С.Гадоев, Т.Бобақулов, О.Саттаров, Ш.Рўзметов, У. Тўхтабаевларнинг илмий ишларида тижорат банклари молиявий хавфсизлигининг алоҳида олинган назарий ва амалий жиҳатлари тадқиқ қилинган[7]. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, мамлакатимиз иқтисодчи олимлари томонидан тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари тўлиқ ёритилмаган. Шу жиҳатдан ҳам, мазкур мавзу доирасида илмий, услубий ва амалий масалаларнинг ҳал этилишини бугунги куннинг ўзи шарт қилиб қўймоқда.

## Тадқиқот методологияси

Ушбу мақолада тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлашнинг илмий-назарий, амалий асосларини вербал шарҳлаш, кузатув, индукция ва дедукция, илмий абстракциялаш каби усуллардан фойдаланилган.

## Натижа ва муҳокама

Фикримизча, республикамиз тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммоларни ҳал қилиш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

1. Тижорат банклари пассивларининг умумий ҳажмида регулятив капиталнинг пасайишига йўл қўймаслик мақсадида, биринчидан, биринчи даражали асосий капиталнинг биринчи даражали капиталнинг умумий ҳажмидаги салмоғининг барқарор даражасини таъминлаш керак; иккинчидан, банк акцияларининг инвестицион

жозибадорлигини таъминлаш орқали қўшилган капиталнинг регулятив капитал ҳажмидаги салмоғининг барқарорлигига эришиш зарур; учинчидан, бошқа банклардан жалб қилинган кредитларнинг пассивлар ҳажмидаги салмоғини кескин ошиб кетишига йўл қўймаслик мақсадида муддатли депозитларнинг пассивлар ҳажмидаги салмоғининг барқарорлигини таъминлаш керак.

Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, республикамиз тижорат банклари пассивларининг умумий ҳажмида хорижий банклардан жалб қилинган кредитлар нисбатан юқори салмоқни эгаллайди. Бу эса, тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигига нисбатан маълум таҳдидни юзага келтиради. Чунки, биринчидан, миллий валютанинг қадрсизланиши нисбатан юқори бўлган шароитда хорижий банклардан жалб қилинган кредитлар ҳисобидан берилган валютавий кредитларнинг қайтмаслик эҳтимоли юқори бўлади, иккинчидан, хорижий кредит линиялари орқали жалб қилинган кредитларнинг асосий қисми сузувчи ставкада олинган кредитлардир. Бу эса, хорижий кредит линияларини жалб қилган мамлакат банклари фаолиятидаги фоиз риски даражасининг ошишига олиб келади.

Тижорат банкларининг биринчи даражали асосий капитали барқарор молиялаштириш манбаларидан (банкнинг тўлиқ тўланган оддий акциялари, оддий акциялар бўйича қўшилган капитал, тақсимланмаган фойда, озчилик улуш эгаларининг банк йиғма балансига бирлашадиган корхоналардаги улушлари) ташкил топганлиги сабабли биринчи даражали асосий капиталнинг биринчи даражали капиталнинг умумий ҳажмидаги салмоғининг барқарор даражасини таъминлаш тижорат банкининг молиявий хавфсизлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади.

Бироқ, республикамиз тижорат банклари акцияларининг инвестицион жозибадорлиги таъминланмаганлиги сабабли қўшилган капиталнинг регулятив капитал ҳажмидаги салмоғи кичиклигича қолмоқда.




**1-расм. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида қўшилган капиталнинг регулятив капитал ҳажмидаги салмоғи, фоизда**[1]

Юқоридаги расм маълумотларидан кўринадики, республикамиз тижорат банкларининг регулятив капиталининг ҳажмида қўшилган капиталнинг салмоғи 2017–2021 йилларда жуда кичик бўлган. Бу эса, тижорат банклари акцияларининг инвестицион жозибадорлиги таъминланмаганлиги билан изоҳланади.

2. Тижорат банкларида соф фойданинг меъёрий даражасини таъминлаш мақсадида пассивларни бошқариш амалиётини такомиллаштириш орқали фоизли харажатларнинг фоизли даромадларга нисбатан барқарор даражасини таъминлаш, соф фойданинг ўсиш суръати билан брутто активларнинг ўсиш суръати брутто активларнинг рискка тортилган суммасининг ўсиш суръати ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш лозим.

Биз томонимиздан амалга оширилган таҳлиллар кўрсатадики, тадқиқот объекти бўлган тижорат банкларида 2018–2022

[1] Тижорат банклари жамланма баланси//www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки).

йилларда соф фойданинг меъёрий даражаси (2,0%) таъминланмаган. Бу эса, биринчидан, мазкур даврда фоизли харажатларнинг фоизли даромадларга нисбатан даражасининг ошганлиги билан; иккинчидан, соф фойданинг миқдорини активларнинг рискка тортилган суммасига нисбатан жуда кичиклиги билан; учинчидан, соф фойданинг ўсиш суръати билан активларнинг рискка тортилган суммасининг ўсиш суръати ўртасида мутаносибликни таъминланмаганлиги билан изоҳланади.

*1-жадвал*

**АТ "Асакабанк" ва АТ "Алоқабанк" да соф фойданинг миқдори, млрд. сўм[2].**

| | 2018й. | 2019й. | 2020й. | 2021й. | 2022й. |
|---|---|---|---|---|---|
| "Асакабанк" | 857 | 166 | 340 | 100 | 73 |
| "Алоқабанк" | 137 | 200 | 170 | 107 | 228 |

Ушбу жадвал маълумотларидан кўринадики, Асакабанкда соф фойданинг миқдори 2020–2022 йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлган. Бунинг устига, соф фойданинг миқдори 2019 йилда 2018 йилга нисбатан кескин камайган, Алоқабанкда эса соф фойданинг миқдори 2018–2022 йилларда беқарор бўлган.

Соф фойданинг меъёрий даражасини таъминланмаслиги тижорат банкининг молиявий барқарорлигини таъминланмаганлигини кўрсатади. Бунинг сабаби шундаки, биринчидан, соф фойданинг миқдори банкнинг молиявий барқарорлигини тавсифловчи асосий кўрсаткичлардан бири ҳисобланади; иккинчидан, юқори рискли активлар юқори даромадли активлар ҳисобланади. Демак, соф фойданинг меъёрий даражасини таъминланмаганлиги активларнинг рисклилиги ва даромадлилиги ўртасидаги мутаносибликни таъминланмаганлигидан далолат беради.

3. Муддатсиз активлар ва муддатсиз мажбуриятлар ўртасидаги миқдорий мутаносибликни таъминлаш, барқарор молиялаштириш манбаларининг мавжуд суммаси билан зарур суммаси ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш йўли билан тижорат банкининг тўловга қобиллигини таъминлаш зарур.

Амалга оширилган таҳлиллар муддатсиз активлар ва муддатсиз мажбуриятлар ўртасида мутаносибликни мавжуд эмаслигини кўрсатди. Ушбу муаммонинг долзарблиги шундаки, муддатсиз активлар ликвидлилик даражаси юқори бўлган, лекин даромад келтирмайдиган активлардир. Трансакцион депозитлар эса, баҳоси паст бўлган, аммо беқарор мажбуриятлар ҳисобланади. Шу сабабли, трансакцион депозитлардан ресурс сифатида фойдаланиш тижорат банкининг ликвидлилигига нисбатан кучли салбий таъсирни юзага келтиради.

Ўзбекистон давлат мустақиллигининг илк даврларида тижорат банкларида ресурс етишмаслиги муаммоси жуда кескин эди. Шу сабабли, Марказий банк тижорат банкларига мижозларнинг трансакцион депозит ҳисобрақамларидаги пул маблағларидан кредит ресурси сифатида фойдаланишга рухсат берди. Аммо Марказий банк кейинчалик ҳам ушбу рухсатни бекор қилмади. Бу эса, тижорат банкларининг ликвидлилигига нисбатан кучли салбий таъсирни юзага келтирди. Ўша пайтда Марказий банк тижорат банкларига нисбатан лаҳзали ликвидлилик коэффициенти бўйича пруденциал меъёр ўрнатмаган эди. Тижорат банкларига нисбатан лаҳзали ликвидлилик коэффициенти бўйича пруденциал меъёр 2017 йилнинг август ойига келиб ўрнатилди.

[2] Жадвал муаллиф томонидан АТ "Асакабанк" ва АТ "Алоқабанк"нинг молиявий ҳисоботлари маълумотлари асосида тузилган.

Шунингдек, республикамизнинг тижорат банкларида барқарор молиялаштиришнинг мавжуд суммаси билан зарур суммаси ўртасида миқдорий мутаносибликнинг мавжуд эмаслиги тадқиқот жараёнида маълум бўлди. Бу эса, республикамиз тижорат банклари кредитларининг асосий қисмини узоқ муддатли кредитлардан иборат эканлиги билан, банклар мажбуриятларининг асосий қисмини қисқа муддатли мажбуриятлардан иборат эканлиги билан изоҳланади. Мамлакат Президенти Ш.Мирзиёев айтганларидек, “банкларга қўйилган депозитларнинг 70 фоизи қисқа муддатли бўлгани ҳолда, кредитларнинг 90 фоизи узоқ муддатга берилган”[3].

Эътироф этиш жоизки, республикамизда узоқ йиллар мобайнида давлат банкларини давлат дастурларини молиялаштириш жараёнларига жалб этилганлиги ва уларни узоқ муддатли ресурслар билан таъминланманганлиги давлат банкларида трансформация рискининг чуқурлашиб кетишига олиб келди. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 ноябрдаги ПҚ-1438-сон «2011–2015 йилларда республика молия-банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва барқарорлигини ошириш ҳамда юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишнинг устувор йўналишлари тўғрисида»ги қарорида тижорат банклари томонидан бериладиган узоқ муддатли кредитларнинг миқдорини 2015 йилга бориб 2011 йилга нисбатан 2,8 бобарбарга ошириш вазифасининг қўйилганлиги[2] тижорат банкларидаги трансформация рискини янада чуқурлашишига олиб келди.

Банкларда трансформация риски чуқурлашган шароитда барқарор молиялаштиришнинг мавжуд суммаси билан зарур суммаси ўртасида миқдорий мутаносибликни таъминлашнинг иложи йўқ. Бунинг учун олдин банклардаги трансформация риски муаммосини ҳал қилиш керак.

Таъкидлаш жоизки, республикамизнинг йирик тижорат банкларида, шу жмладан, Асакабанк ва Ташқи иқттисодий фаолият Миллий банкида, ресурсларнинг умумий ҳажмида нисбатан юқори салмоқни хорижий банклардан ва халқаро молия институтларидан жалб қилинган халқаро кредитлар эгаллайди. Бу эса, яхши ҳолат эмас. Бундай шароитда мамлакат банк тизимидаги долларлашув муаммосини ҳал қилиб бўлмайди.

4. Тижорат банклари кредит портфелининг даромадлилиги ва рисклилигини тавсифловчи кўрсаткичларнинг меъёрий даражасини таъминлаш йўли билан банклар кредитлаш амалиётининг молиявий хавфсизлик даражасини ошириш керак.

Маълумки, республикамиз тижорат банклари кредитларининг даромадлилиги ва риск даражалари ўртасидаги мутаносибликни таъминланмаганлиги уларнинг молиявий хавфсизлигига нисбатан кучли салбий таъсирни юзага келтирмоқда. Хусусан, тадқиқот объекти бўлган тижорат банкларида 2018–2022 йилларда кредитларининг даромадлилик даражасини пасайиш тенденцияси кузатилди, таҳлил даврида улар кредит портфелининг диверсификация даражасини паст эканлиги маълум бўлди, кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг даражасини ушбу кўрсаткичнинг умумэътироф этилган чегаравий даражасидан (1,0 %) юқори эканлиги кузатилди ва тижорат банклари томонидан берилган кредитларнинг умумий ҳажмида муаммоли кредитларнинг салмоғи таҳлил қилинган давр мобайнида юқори бўлди.

Шунингдек, таҳлил даврида кредитлар республикамиз тижорат банклари активларининг умумий ҳажмида энг юқори салмоққа эга бўлди.

5. Юқори ликвидли қимматли қоғозларга қилинган инвестициялар ҳажмини ошириш, соф пул оқимининг барқарорлигини таъминлаш ва трансакцион депозитларнинг брутто депозитлар ҳажмидаги салмоғини пасайтириш йўли билан тижорат банкларининг жорий ликвидлилик даражасини ошириш лозим.

Фикримизча, тижорат банклари депозитларининг умумий ҳажмида трансакцион депозитларнинг салмоғини пасайтириш учун, биринчидан, тижорат банклари трансакцион депозитларнинг камаймайдиган қолдиғидан ортиқ бўлган суммадан кредит операциялари ва инвестиция операцияларини молиялаштириш учун манба сифатида фойдаланишни тақиқлаш керак; иккинчидан, Марказий банк томонидан тижорат банкларининг хорижий валютадаги муддатли депозитларига нисбатан ўрнатилган мажбурий захира ставкасини (18%) миллий валютадаги депозитларга нисбатан ўрнатилган мажбурий захира ставкаси даражасига (4%) тушириш керак.

*2-жадвал*

**Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг мажбурий захира ставкалари**[3]

| Мажбурият тури | Мажбурий захира ставкалари | |
|---|---|---|
| | 2019 йил 1 июлдан 2021 йил 4 августгача | 2021 йил 5 августдан |
| Юридик шахсларнинг миллий валютадаги депозитлари | 4 | 4 |
| Юридик шахсларнинг чет эл валютасидаги депозитлари | 14 | 18 |
| Жисмоний шахсларнинг миллий валютадаги депозитлари | 4 | 4 |
| Жисмоний шахсларнинг чет эл валютасидаги депозитлари | 14 | 18 |

Юқоридаги жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриш мумкинки, Марказий банкнинг тижорат банкларининг хорижий валютадаги депозитларига нисбатан, шу жумладан, хорижий валютадаги муддатли депозитларига нисбатан белгилаган мажбурий захира ставкаси нисбатан юқоридир.

6. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган эмиссион операцияларини ривожлантириш мақсадида, биринчидан, тижорат банклари томонидан муомалага чиқариладиган қимматли қоғозлар – депозит сертификатлари, жамғарма сертификатлари ва облигацияларнингинг инвестицион жозибадорлигини таъминлаш учун уларга қилинган инвестициялар қийматини инфляция ва девальвация таъсирида пасайган қисмини компенсация қилиш тартибини жорий қилиш лозим (тадқиқот жараёнида маълум бўлдики, республикамизда миллий валютада ёзилган қимматли қоғозларга қилинган инвестицияларнинг қиймати инфляция ва девальвация таъсирида сезиларли даражада пасаймоқда); иккинчидан, банкларнинг нокумулятив имтиёзли акцияларини муомалага чиқариш ва инвесторларнинг нокумулятив имтиёзли акциялардан оладиган даромадларини фойда солиғидан озод қилиш керак.

[3] Пул-кредит сиёсати//www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки).

Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган эмиссион операцияларини ривожлантириш, биринчидан, банклар ресурсларининг барқарорлик даражасини ошириш имконини беради; иккинчидан, тижорат банкларининг актив операцияларининг ҳажмини оширишга шароит яратади.

**Хулоса**

Тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган қуйидаги долзарб муаммолар аниқланди:

– тижорат банклари регулятив капиталининг уларнинг пассивлари ҳажмидаги салмоғининг пасаяётганлиги (таҳлил натижалари кўрсатдики, Асакабанкнинг регулятив капиталининг пассивлар ҳажмидаги салмоғи 2019–2022 йилларда, Алоқабанкнинг регулятив капиталининг пассивлар ҳажмидаги салмоғи 2020–2022 йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлган);

– тижорат банкларида соф фойданинг меъёрий даражасини таъминланмаганлиги (2018-2022 йилларда Асакабанкда соф фойданинг меъёрий даражаси (2,0%) таъминланмаган);

*трансакцион депозитларнинг брутто депозитлар ҳажмидаги салмоғи юқори бўлган шароитда, юқори ликвидли қимматли қоғозларга қилинган инвестицияларнинг юқори ликвидли активлар ҳажмидаги салмоғини кичиклиги сабабли тижорат банкларининг жорий ликвидлилигига нисбатан кучли босимни юзага келаётганлиги (республикамиз тижорат банклари депозитларининг умумий ҳажмида трансакцион депозитларнинг салмоғи 2018–2022 йилларда сезиларли даражада юқори бўлган);

– активларнинг рентабеллик даражасини паст ва беқарорлиги (таҳлиллар кўрсатдики, Асакабанкда 2018–2022 йилларда активларнинг рентабеллик даражаси паст ва беқарор бўлган);

– тижорат банклари кредитларининг даромадлилиги ва рисклилиги ўртасидаги мутаносибликнинг таъминланмаганлиги (Асакабанк кредитларининг даромадлилик даражаси 2019–2021 йилларда камайиш тенденциясига эга бўлган ва ушбу кўрсаткич 2022 йилда 2018 йилга нисбатан сезиларли даражада пасайган; кредитлардан кўриладиган зарарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг даражаси ушбу кўрсаткичнинг умумэътироф этилган чегаравий даражасидан (1,0 % юқори бўлди);

– тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган инвестицион операцияларини ривожланмаганлиги;

– тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган эмиссион операцияларининг ривожланмаганлиги.

Республикамиз тижорат банкларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммоларни ҳал қилишда қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ:

Тижорат банклари пассивларининг умумий ҳажмида регулятив капиталнинг пасайишига йўл қўймаслик мақсадида, биринчидан, биринчи даражали асосий капиталнинг биринчи даражали капиталнинг умумий ҳажмидаги салмоғининг барқарор даражасини таъминлаш керак; иккинчидан, банк акцияларининг инвестицион жозибадорлигини таъминлаш орқали қўшилган капиталнинг регулятив капитал ҳажмидаги салмоғининг барқарорлигига эришиш зарур; учинчидан, бошқа банклардан жалб қилинган кредитларнинг пассивлар ҳажмидаги салмоғини кескин ошиб кетишига йўл қўймаслик мақсадида муддатли депозитларнинг пассивлар ҳажмидаги салмоғининг барқарорлигини таъминлаш керак.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли "Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги Фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 ноябрдаги ПҚ-1438-сон «2011-2015 йилларда республика молия-банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва барқарорлигини ошириш ҳамда юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишнинг устувор йўналишлари тўғрисида»ги Қарори//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 48-сон, 442-модда; 2013 й., 20-сон, 250-модда, 36-сон, 477-модда.
3. Мирзиёев Ш.М. Банклар энди «ўз аравасини ўзи тортиши керак». https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075.
4. Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income. Annual Report 2022// www.bankofamerica.com.; Consolidated Statement of Profit or Loss. ConsolidatedStatementofFinancialPosition//www.icbc-ltd.com.
5. Гапоненко В.Ф., Маргиев З.В. Экономическая и финансовая безопасность как важнейшая функция государства в современных условиях // Вестник Московского университета МВД России. – 2013. – № 12. – С. 165-169.
6. Платонова Ю.Ю. Финансовая безопасность банковской деятельности, как один из важнейших аспектов обеспечения стабильности коммерческих банков//Экономика и бизнес. – Москва, 2019. - №7. – С. 130-133.
7. Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлилиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари//И.ф.д. илм. дар. ол. уч. такд. эт. дисс. автореф. Тошкент, 2020. - 73 б.
8. Гайлук В.И., Вороков А.Л., Гайдук Н.В. Финансовая безопасность банков: критерии и индикаторы//Научный журнал КубГАУ. Кубань, 2015. №114. С. 1-22.
9. Аверьянова Ю.Г. Теоретические аспекты финансовой безопасности коммерческого банка//Экономические науки. М., 2011. №4. С. 220-225.
10. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. М.:АльпинаПаблишер, 2017. С.651-661.
11. Асакабанк. Баланс ҳисоботи. 2018, 2019, 2020, 2021. www.asakabank.uz.
12. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. http://www.bis.org.publications.
13. Тижорат банкларининг жамланма баланси. www.cbu.uz.
14. Қимматли қоғозларга қилинган инвестициялар бўйича ҳисобот. www.asakabank.uz.

УДК 330.1

**Бердиев Жахонгир Маннонович,**
*Германское общество по международному сотрудничеству, советник по противодействию коррупции*
berdievj@mail.ru

# ПОНЯТИЕ КОМПЛАЕНС КОНТРОЛЯ И ИСТОКИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ

**Бердиев Жаҳонгир Маннонович,**
*Германия халқаро ҳамкорлик жамияти, коррупция бўйича маслаҳатчи*
berdievj@mail.ru

# КОМПЛАЕНС НАЗОРАТНИНГ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ КЕЛИБ ЧИҚИШ МАНБАЛАРИ

**Berdiev Jahongir Mannonovich,**
*German Society for International Cooperation, Advisor for anti-corruption*
berdievj@mail.ru

# THE CONCEPT OF COMPLIANCE CONTROL AND ITS ORIGINS

**Аннотация.** *В статье анализируется понятие комплаенс контроля и его значение, история возникновения, как в частном секторе, так и в системе государственного управления. Дается обобщенное понятие комплаенс контроля, в рамках которого проводится изучение актуальности и целесообразности комплаенс контроля как новой науки, рассматриваются основные проблемы и заблуждения о понятии комплаенс контроля, методы и способы их решения и улучшения.*
**Ключевые слова:** *комплаенс, комплаенс контроля, история комплаенса, истоки комплаенса, определение комплаенса, значение комплаенса, что такое комплаенс.*

**Аннотация.** *Ушбу мақолада комплаенс назоратни тушунчаси, унинг маъноси, хусусий секторда ҳамда давлат бошқаруви тизимида тарихий пайдо бўлиши таҳлил қилинади, комплаенс назоратнинг умумлаштирилган концепцияси берилган бўлиб, унинг доирасида комплаенс назоратнинг янги фан сифатида долзарблиги ва мақсадга мувофиқлиги, асосий муаммолар ва тушунчалар ўрганилади, уларни такомиллаштириш ва қайта кўриб чиқиш усуллари қайд этилади.*
**Таянч сўзлар:** *комплаенс, комплаенс назорат, комплаенса тарихи, комплаенса пайдо бўлиш манбалари, комплаенса таърифи, комплаенса маъноси, комплаенс ўзи нима.*

**Annotation.** *This article analyzes the concept of compliance control, its meaning, the history of its emergence both in the private sector and in the public administration system, gives a generalized concept of compliance control, within which the relevance and expediency of compliance control as a new science is studied, the main problems and misconceptions about the concept of compliance control, methods and ways of solving and improving them are considered.*

**Key words:** *compliance, compliance control, the history of compliance, the origins of compliance, the definition of compliance, the meaning of compliance, what is compliance.*

### Введение

В нашем все более регулируемом и сложном деловом мире, соблюдение требований и стандартов является актуальной проблемой сегодняшнего дня, особенно в последние десятилетия, когда осознание того, что ошибки в работе и не соответствие требованиям часто меняющегося законодательства могут быть чрезвычайно дорогостоящими, как для репутации, так и для бюджета хозяйствующих субъектов. Соблюдение требований регулирующих инстанций и контроль за качеством выполняемой работы стали гораздо более актуальными для руководителей высшего звена. Возросшая сложность бизнеса привела к возникновению новых проблем с соблюдением требований, которые были дополнены официальными нормативными требованиями.

### Обзор литературы по теме

Современная мировая экономика представляет для предпринимателей много возможностей, но вместе с этим, она имеет и ряд своих высоких требований, которыми бизнес не должен пренебрегать. В случае не следования данным требованиям предпринимателю грозит банкротство, потеря активов, снижение прибыли и т.д. Для успешной и плодотворной деятельности субъекты рыночной экономики должны учитывать все эти риски. Организовать систему по идентификации и предупреждению экономических и правовых рисков.

На сегодняшний день в развитых странах уже давно существует практика внедрения специальной системы внутреннего комплаенс контроля за финансовыми и экономическими рисками.

Нам всем известно, как закончилось дело манипулирования отчётностью компании Enron Corporation, которое привело к ликвидации аудиторской компании Arthur Andersen. Любая компания независимо от отрасли своей деятельности должна управлять, а ещё лучше устранять свои всевозможные риски.

Правовые и регулирующие документы становятся всё многообразнее и сложнее, в связи с чем, в больших компаниях для соблюдения их и осуществления комплаенс контроля создаются целые управления, так как при наступлении риска цена за несоблюдение всех нормативных актов может в разы превысить стоимость затрат на соблюдение всех требований.

### Методология исследования

Наличие системы комплаенс контроля предполагает два основных положительных момента. Первый фактор это значительный эффект от предотвращения возможных крупных финансово-экономических рисков ликвидации или банкротства. Второй фактор является важным для контрагентов организации, то есть для потребителей услуг и  товаров данной организации. Так как вследствие внедрения комплаенс контроля у контрагентов появляется

уверенность во взаимодействии, с такой организацией они уверены, что организация не нарушает нормы и стандарты, не нарушает какие либо законы и ведёт добропорядочный бизнес.

**Результаты и обсуждение**

Основной целью применения в деятельности предприятия системы комплаенс контроля является, прежде всего, экономический эффект от такой системы, так как расходы на ее создание весьма незначительны, даже можно сказать, минимальны, а вот финансовый результат может быть весьма ощутимый и значительный. Кроме этого, система комплаенс контроля формирует в организации культуру порядочного ведения и управления бизнеса. Следовательно, пренебрежение системой комплаенс контроля влечет за собой множество финансовых, экономических и проблем с репутацией и осложнений, о чем свидетельствует статистика.




**Рис. 1. Разница между затратами при наличии и отсутствии комплаенса**

Комплаенс (англ. compliance – согласие, соответствие; от to comply – исполнять) означает действие в соответствии с запросом или указанием, повиновение.

Первая информация о комплаенсе датируется началом XX века, а именно, 1906 годом, тогда в США было создано Управление по санитарному надзору за качеством пищевых продуктов и медикаментов (Food and Drug Administration – FDA). Агентство было создано при Министерстве здравоохранения и социальных служб США и основной деятельностью агентства было регулирование деятельности предприятий в сфере фармацевтической и пищевой промышленности; оно создавало правила, которые должны были соблюдаться всеми субъектами рынка.

Ещё одной датой в истории комплаенса эксперты называют 1963 г., тогда Верховный суд штата Делавэр (США) в своём решении отменил принцип, по которому руководители компаний являлись ответственны за внедрение отдела, который следил бы за исполнением требований нормативных актов. «Руководитель организации может рассчитывать на честность своих сотрудников до тех пор пока не возникнет какие-либо сомнения или чрезвычайные ситуации. Если нет никаких сомнений, то руковдитель не обязан внедрять в организации какие-либо системы идентификации нарушений.» В итоге, в США опредилось законное обоснование в соотвествии с которым руководители организаций могли бы не беспокоится о том, что суды или регулирующие органы вмешиваются во внутрение структуры организаций, обеспечивающих соблюдения правил и требований законов. В дальнейшем в законодательстве США эта формулировка была изменена и пересмотрена, так уже в 1996 г. Канцлерский суд штата Делавэр издал решение о том, что теперь руководители организаций должны нести полную ответственность за то, что происходит внутри их организаций. Следует отметить, что данное решение Канцлерского суда

Верховный суд одобрил только в 2006 г., вот это и стало серьезным стимулом к внедрению в организациях внутренней службы по комплаенсу.

Далее прилагается более подробная таблица с детальным описанием истории развития комплаенс систем в мировой истории[1].

| События, повлиявшие на развитие комплаенс систем | Результаты даных событий |
|---|---|
| Финансовые и коррупционные скандалы в США 60-70 гг. XX века, по результатам проверок Комиссии по ценным бумагам США более 400 компаний признались, что делали противозаконные платежи иностранным госслужащим в сумме более 300 млн долл. США | Раследованы все нарушения, от взяток иностранным должностным лицам до «стимулирующих выплат», которые были сделаны иностранным госслужащим |
| В 1972 году Уотергейтский скандал, октрывший случаи коррупции, даже и в частных компаниях | В итоге этих всех скандалов был принят Закон о коррупции за рубежом 1977 года (FCPA – Foreign Corrupt Practices Act). Закон ввёл жесткие правила и требования для финансовой документации, а также общение с госчиновниками |
| Коррупционные скандалы в США 80-х годов, а именно, касающиеся закупок оружия для армии США | Развитие комплаенса пошло не только по императивным нормам права, но также по этическим стандартам бизнеса. Далее в 90-х годах была принята Federal Sentencing Guidelines, в 2004 году в неё были внесены изменения о необходимости основных комплаенс программ |
| Банкротство в 2001 году крупнейшей энергетической компания в США ENRON, а следом и её аудитора компании Arthur Andersen | Стали результатом ещё одного события в истории комплаенса – принятию Закона Сарбейнза-Оксли (Sarbanes-Oxley Act, SOX) |
| В 2006 году дело компании Siemens, расследовавшей коррупционный скандал о взятках в ряде государств, для получения заказов | В результате появляется комплаенс службы почти во всех транснациональных компаниях, а также начинается его внедрение даже в компаниях, работающих на рынках одной страны |
| Сокрытие убытков и завышение прибыли в 2003 году в компании Parmalat. Утечка 10 млрд евро через оффшорный фонд Epicurum | Комплаенс стал инструментом для достижения соответствия нормам и законам. Внедрение комплаенс систем помогает предотвратить уголовную ответственность, штрафы или ущерб для репутации компаний |

1 Схема подготовлена автором статьи.

| | |
|---|---|
| Акции банка Deutsche Bank (DB) со 100 евро упали ниже 10 евро, являсь символом немецкой финансовой надежности, против которого Департамент юстиции США начал дело о «грязных» ценных бумагах Далее последовали Фармацевтическая компания Valeant Pharmaceuticals, автомобильный гигант Volkswagen, Международ-ная федерация футбола (ФИФА) и т.д. | В итоге, одним и основных вех в истории комплаенс становится 2010 год, когда в Великобритании после длительных дебатов был принят Закон о борьбе со взяточничеством (UK Bribery Act), в соответсвии с которым становится обязательным создание комплаенс служб, не только в Англии, но и для всех стран, так как закон имеет экстерриториальное действие |

Большинстов из перечисленых выше законов имеют подробные рекомендации для создания эффективной системы комплаенс службы, включая требования к сотрудникам комплаенс службы, структуры комплаенс службы, управления рисками и т.д. Помимо этих НПА, имеется ряд документов, таких как:

- ➢ Руководство ОЭСР о лучших практиках по внутреннему контролю, этике и комплаенс;
- ➢ Руководство для международных компаний Конвенции ОЭСР против коррупции;
- ➢ Международный стандарт ISO 37001:2016 – Система менеджмента противодействия коррупции;
- ➢ Комплаенс и комплаенс-функция в банках (документ Базельского комитета по банковскому надзору);
- ➢ Federal Sentencing Guidelines Manual и др.




**Основные международные и региональные документы по борьбе с коррупцией[2]**

[2] Схема подготовлена автором статьи.

Таким образом, не только США принимает законы, имеющие экстерриториальное действие, но и Великобритания, страны Европейского союза и др. Все компании и хозяйствующие субъекты этих стран, а также организации Республики Узбекистан подподают под действия данных экстерриториальных нормативных актов.

В результате этого, мировая система комплаенс контроля непрерывно развивается и совершенствуется. Следовательно, в современном мире комплаенс риск рассматривается как несоответствие регулирующему законодательству, локальным нормативным актам, в том числе, кодексы этики, влекущие к разным рискам, например:

1. Риск подпадания под санкции – юридических (пени, штрафы) регулирующих органов (СРО, регулятор – например, отзыв лицензии и т.д.);

2. Риск значительных финансовых убытков;

3. Риск потери репутации.

## Заключение

Внедрение системы комплаенса в коммерческих организациях играет важную роль в обеспечении соблюдения законодательства и этических норм. Эта система помогает контрольным органам эффективно контролировать и надзирать за деятельностью организации, а также способствует смягчению ответственности в случае нарушений. Внедрение системы комплаенса является важным шагом в направлении создания прозрачной и этичной рабочей среды, что благоприятно сказывается на репутации и успехе организации.

Комплаенс – это не только средство административного контроля, но и инструмент саморегулирования для предпринимателей, которые постоянно учитывают риски, связанные с их деятельностью. В мировой практике придерживаются принципа добровольности внедрения комплаенса, то есть решение о его использовании принимается компаниями по своему усмотрению. Однако есть определенные сферы деятельности, где внедрение системы комплаенса может быть обязательным, например, в банковской, страховой и других отраслях, связанных с системными экономическими рисками.

Основополагающими принципами в структуре комплаенс контроля должны быть:

- ➢ соразмерность системы контроля основным видам деятельности организации;
- ➢ прямая обязанность руководства за координацию и эффективное управление комплаенс рисками;
- ➢ пропорциональность комплаенс процесов возможным рискам;
- ➢ прозрачность и результативность комплаенс процессов;
- ➢ ответственность и неотвратимость наказания;
- ➢ постоянность комплаенс контроля.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Бородин А.Г. Проблематика внедрения комплаенс контроля в бюджетных организациях. https://elibrary.ru/download/elibrary_24397438_48482034.pdf
2. Бортников Г.П. Комплаенс риск (риск несоблюдения): международные стандарты и их применимость в странах СНГ. http://www. iiaru.ru/public/zarsmi/bortnikov.

3. Буянский С.Г., Трунцевский Ю.В. Корпоративное управление, комплаенс и риск-менеджмент: Учебное пособие для магистрантов. М.: Русайнс, 2016. 342 с.
4. Коррупционные скандалы с участием топ-менеджеров крупных компаний. https://www.rbc.ru/photoreport/16/01/2017/587caeb39a7947b1d2bb842c.
5. П.Г. Перерва, Д. Коциски, М. Верешне Шомоши, Т.А. Кобелева. Комплаенс программа промышленного предприятия: Учебник. Харьков-Мишкольц: НТУ «ХПИ», 2019. 689 с. https://core.ac.uk/download/pdf/211066459.pdf
6. Попондопуло В. Ф., Петров Д.А. Комплаенс как правовой инструмент минимизации рисков и профилактики правонарушений// Вестник Санкт-Петербургского государственного университета. Право 1: 2020. С.102-114. https://doi.org/10.21638/spbu14.2020.107
7. Программа антикоррупционных этических норм и обеспечения соблюдения антикоррупционных требований для деловых предприятий: Практическое руководство Управления ООН по наркотикам и преступности. 2013. Ноябрь. https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/2013/13-86791_Ebook.pdf.
8. Тенденции и перспективы развития комплаенса и профилактики правовых рисков: Сб. по итогам межрегиональной научно-практической конференции. М.: Юриспруденция, 2023. 120 с.
9. Стоимость комплаенса. Исследование института Ponemon и Globalscape. 2017. https://static.fortra.com/globalscape/pdfs/guides/gs-true-cost-of-compliance-data-protection-regulations-gd.pdf
10. Филиппович А.А. Комплаенс в предпринимательской деятельности: История становления, общие положения, проблемы формирования в Российской Федерации// Вестник Университета имени О.Е.Кутафина (МГЮА). 2018. 225 с. https://cyberleninka.ru/article/n/komplaens-v-predprinimatelskoy-deyatelnosti-istoriya-stanovleniya-obschie-polozheniya-problemy-formirovaniya-v-rossiyskoy-federatsii/viewer
11. International Chamber of Commerce (ICC). Практические меры по соблюдению антимонопольного законодательства для малых и средних предприятий и крупных компаний. 2014. http://www.iccbooks.ru/upload/iblock/ 9fc/9fc52916a12f5bb7f2007d529c659f3e.pdf.
12. A Resource Guide to the U.S. Foreign Corrupt Practices Act / the Criminal Division of the U.S. Department of Justice and the Enforcement Division of the U.S. Securities and Exchange Commission. https://www.sec.gov/spotlight/fcpa/fcpa-resource-guide.pdf.
13. UK Bribery Act of 2010. http://www.legislation.gov.uk /ukpga/2010/23/ contents.

UDC 330.33(07)

**Rakhimov Rustamjon Karimovich,**
*Docents of Andijan institute of Machine building, c.e.s.*
*E-mail: rrahimov@mail.ru*

# THE IDEAS ABOUT INCREASING THE EFFICIENCY OF AGRARIAN SPHERE OF JADIDS

**Raximov Rustamjon Karimovich,**
*Andijon mashinasozlik instituti dotsenti*
*E-mail: rrahimov@mail.ru*

# JADIDLARNING AGRAR SOHA SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDAGI G‘OYALARI

**Рахимов Рустамжон Каримович,**
*Доцент Андижанского машиностроительного института*
*E-mail: rrahimov@mail.ru*

# ИДЕИ ДЖАДИДОВ О ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ АГРАРНОЙ СФЕРЫ

**Annotation:** *This article analyzes the theories and ideas of Uzbek scientists on improving the efficiency of the agricultural sector. It follows from the analysis that the land in our country is regarded as an invaluable benefit, advanced ideas are also given about the intensification of farming and the expansion of agricultural areas, the use of agricultural machinery in the agricultural sector of the economy, increasing yields, as well as ways for the efficient use of land.*

**Key words:** *economy, national economy, capital, technique, technology, market relations, Jadid, investment, industry, handicraft, agrarian field (sphere) , planting machines, intensive, the school of farming.*

**Аннотация:** *Ушбу мақолада ўзбек маърифатпарварларининг аграр соҳа самарадорлигини ошириш ҳақидаги ғоялари ва назариялари таҳлил қилинган. Таҳлиллардан кўринадики, қадимдан мамлакатимизда ер бебаҳо неъмат эканлиги, ердан самарали фойдаланиш, ҳосилдорликни ошириш, қишлоқ хўжалиги соҳасида экин машиналаридан фойдаланиш, экин майдонларини кенгайтириш ва деҳқончиликни интенсивлаштириш тўғрисидаги ғоялар илгари сурилган.*

**Таянч сўзлар:** *аграр соҳа, иқтисодиёт, миллий иқтисодиёт, сармоя, техника, технология, бозор муносабатлари, жадид, инвестиция, саноат, экин машиналари, интенсив, деҳқончилик мактаби.*

**Аннотация:** *В статье проведен анализ теорий и идей узбекских ученых по повышению эффективности аграрного сектора. Из анализа следует, что земля в нашей стране рассматривается как неоценимое благо, даны передовые идеи об интенсификации дехканства и расширении сельскохозяйственных площадей, использовании сельскохозяйственной техники в аграрном секторе экономики, повышении урожайности, а также определены пути по эффективности использования земли.*

**Ключевые слова:** *аграрная сфера, экономика, национальная экономика, капитал, техника, технология, рыночные отношения, джадид, инвестиция, промышленность, посевная техника, интенсивность, дехканские школы.*

**Introduction**

For thousands of years of human history, humanity has come a long way in the path of great economic and social development. At any given time, some people (scholars or governors) in one or another country have made and implemented such economically important ideas, ideas, theories, and concepts that, at the same time, have led to the development of states and peoples, and sometimes to their downfall. The profound study, analysis and analysis of these economic ideas and their implementation in the socio-economic life of the modern world are both theoretical and practical. The national ideas that unite the people under the flag of common goals and aspirations have a strong place in the hearts and souls of each person, especially for the new generation of the people of Uzbekistan, who are making independent progress and building a new state, new society and new economy important.

Our president Sh.M. Mirziyoyev insists that we should thoroughly study the Jadid movement and the heritage of our enlightened ancestors. In particular, "… we need to study the Jadid movement and the heritage of our enlightened ancestors. The more we learn about this spiritual treasure, the better the answers it will be to the many questions that still concern us today. The more we actively promote this priceless wealth, the more our people, especially our youth, will realize the value of today's peaceful and free life." [1] Jadid's movement is one of the most important scientific sources in the formation of national ideology, national ideas and national economy. However, there is no serious research on the fundamental views of Jadids' economic views and their scientific and practical significance in securing national independence.

It is worth noting that the scientific heritage of Jadids and its historical, cultural, educational and socio-political significance are being studied by historians, literary critics and lawyers, and their economic views and the importance of their economic ideas for our present-day national development.

From this point of view, it is very important to study the economic heritage of the Jadids who are dedicated to our independence.

Economic laws and categories are common to all industries, sectors and sectors of the economy, but they also have specific characteristics, depending on their natural and socio-economic conditions. This is especially true in the agricultural sector. The agrarian sector is an important part of the national economy. It produces the essential foodstuffs and raw materials for industries. Therefore, it is necessary to develop agricultural sectors in order to fill the consumer goods market. As in other areas, in agriculture, there is a certain economic relationship and relationship between people in the reproduction process.

Jurisprudence of large socio-political and economic streams that contributed to the formation and development of the national

liberation ideology in Turkestan were well aware of the agrarian sector, which is one of the main factors of Turkestan economic development. That is why they put forward their ideas and ideas for the development of this sphere.

In this regard, the study of the economic heritage of the Jadids, who are devoted to our independence, is a scientific and relevant research today.

**Literature Review**

There are a number of scholarly works and literary scholars dedicated to the jihadist movement. An important role in clarifying the essence of the Jadid movement is the scientific research of our literary scholars O.Sharafiddinov, B.Kosimov, Sh.Rizayev, A.Aliyev, D.Kuronov and others. [2]

Our lawyers and historians have done much to cover the history of Turkestan national liberation movement in the late 19th and early 20th centuries, in particular, the Jadid movement. It should be noted that S.Azamkhodjaev, D.Alimova, R.Abdullaev, H.Ziyoev, R.Shamsuddinov, H.Uzoqov, S.Kholboyev and others conducted serious research. [3]

Works, memorials and articles created by foreign scientists play a great role in studying the Jadid movement. Some of them have also been published in our country today. [4] These sources are also valuable in reflecting historical reality without political pressures or ideologies.

It should be noted that up until now, most of the Jihadist studies have been written by literary scholars, historians, and lawyers who have analyzed only cultural, educational, social, and political aspects of Jadid's activities. There is no serious study whose economic views have been scientifically investigated. The insufficient study of current problems, such as the influence of Jadids' economic views on the renewed economic thinking and worldview, their role in addressing conceptual theoretical issues in the development of the national economy, has led to the need to explore this topic as a new area of economic research and research.

**Research methodology**

This article uses methods such as verbal interpretation, observation, induction and deduction, and scientific abstraction of the historical, scientific-theoretical, and practical foundations of the views of modernists on the development of the agrarian sector.

**Analysis and Results**

Jadids understood that agrarian production was the basis of Turkestan economy. That is why they put forward their ideas and ideas for the development of this sector (see Figure 1). Abdulhamid Cholpon in his article "Crop and Farming in Turkestan": "In Turkestan, our country is well-known. And even if the first one in the world is Amriqah, our Turkestan is second only."[5] The essence of the article is that the people who inhabited so many fertile lands wondered why so much ruin was happening.

The plight of Turkestan peasants is due to the fact that, according to the author, the use of "sowing machines" is poor and therefore labor productivity is low. In fact, Cholpon paints why our country, being the richest country in terms of soil, water and air, cannot use it ourselves and does not use agricultural machines.

We can also see the ideas that are in line with the ideas of A. Cholpon in Mahmudkhoja Behbudi's work. During his short and meaningful life M.Behbudi has done many good things for the people of Turkestan.

Throughout his life, he traveled to many countries and cities and talked with




**Figure 1. Ideas of improving the efficiency of the agrarian sector**

people of various nationalities on a variety of subjects. The opinions of other nations about our Turkistan are mentioned in his travel memoirs.

One Jew says, “Turkistan is an American of the old world. There is cotton, ore, grain, in conclusion, whatever. Turkestan is gold. If the Russian government was not an obstacle, I would sell all my possessions and farm in Turkestan for money. I would give gold and take land and then raise a diamond” [6]. From the above sentences it is clear that

As Turkestan is the oldest American in the world, it is fertile, and it is possible to grow cotton, ore, grain, and other crops. The land and climate of Turkestan are the same as gold. If the Russian government does not oppose the idea that the Jew will sell all his property and farm the land from Turkestan for money, the soil of our country is indeed worth gold. But it is sad that our people cannot use such fertile land effectively.

Abdurauf Fitrat also noted that the socio-economic situation in the Bukhara villages was very sad and that it was too far behind

modern requirements and development of agriculture. The reason for its ineffective use of land is as follows: "... they do not work to the extent that their land yields, that is, they do not receive as much crop as possible" [7]. The above sentences show that the reason for the inefficient use of land is that the land is not harvested at the level of fertility, that is, the land is not harvested as much as possible. A. Fitrat examined the reasons of inefficiency in meeting the needs of Turkestan agriculture and found that there were three main reasons:

The first reason is the unfair treatment of real estate agents. This injustice is manifested in the collection of tax from the rhyme;

The second reason is the use of low-performance equipment (tools) in agriculture. This is reflected in the fact that the income does not cover the costs of using the equipment;

The third reason is the inadequate use of industrial power supplies (mineral fertilizers, herbicides, chemicals) to power the Earth.

The first reason why Turkestan agriculture was inefficient in meeting its agricultural needs was that Bukhara officials were able to estimate the government's fees based on the type of farmer. For example, if a farmer had some wheat, the official at his own discretion estimated the amount of wheat and demanded royalty. Back then (in the early twentieth century), officials were not paid by the government, but were collecting all their expenses at the expense of farmers.

The first reason was the injustice of the officials, the second and the third reason was the farmers themselves. The tools used by farmers to cultivate the land were not the same as the cultivation of Adam. At the time, European countries opened farming schools in their big cities, and they taught their children about agriculture. Farmers in our country have never even dreamed of the "school of farming". While Europeans produced amazing drugs that could add energy to the earth, Bukhara farmers were still in the same style. European peasants had machines for plowing the land, which were capable of cultivating a few acres of land a day. Farmers in Bukhara, plowing two oxen, plowed the fields all day long.

The French peasants had a special machine for milling wheat, but the Bukhara farmers needed some oxen and donkeys to do this work. Therefore, Turkestan could not use land effectively.

Fayzulla Khodjaev said that agricultural development should start with irrigation. The climate and geographical conditions of Bukhara do not allow the development of agriculture without artificial irrigation of lands. For this reason, irrigation is a key and primary issue. Most of the land is irrigated in western Bukhara, Zarafshan, Kashkadarya and Amudarya valleys. In eastern Bukhara, Surkhandarya oasis and the upper Amudarya river, the percentage of irrigated land is high. However, the irrigated areas are in poor condition and therefore large areas of land remain unused. This is because, on the one hand, there is very little water in the water sources (Kashkadarya) and in the upper part of Zarafshan and the Samarkand region. As a result, when Zarafshan comes to Bukhara, it becomes less discriminating. On the other hand, irrigated land is severely affected by irrigated land due to poor irrigation facilities and lack of technical facilities; Without technical facilities, it is not possible to use the Kashkadarya water flowing about 1,000 miles across the country, where more than 90% of water is not used for irrigation. The Zarafshan and Kashkadarya valleys have a sufficient amount of irrigated land to meet the needs of local farmers, with a particular emphasis on the technical improvement of irrigation facilities. In the Amudarya valleys, especially in Turkmenistan, the population suffers because of the lack of irrigated land, which is caused by natural difficulties in the

use of Amudarya water. In order to use the Amudarya river, several technical facilities and equipment are required. Therefore, first of all it is necessary to implement the following measures:

a) construction and improvement of water distribution ditches in the main ditches;

b) repair of old wells and construction of new ones in appropriate areas; If this is not done, the livestock sector cannot be restored;

c) Construction of irrigation canals in the Turkmen district, which suffers from water shortages and, therefore, land shortages;

d) technical improvement of all water bases for the rational distribution of water and ensuring that water users conserve water;

d) accounting for all irrigation systems and their points, and full regulation of water bodies by periodic cleaning, deepening and expansion [8].

Between 1913 and 1914, artificial irrigated land in Bukhara was about 5.98 million acres, or about 1.5 million desyatines; The cost of one working day may be set at 1 soum 50 tiyin. Consequently, if we exclude the cost of building new technical facilities, it will cost the Bukhara population nearly a year of gold in irrigation, even if it is just the maintenance of irrigation facilities.

It will cost 9 million soums. Even if we take into account the decline in cropland in 1921-1922, we can only assume that the population spent only half a working day a year on irrigated land, due to the general conditions of the economic collapse, even if labor costs were falling. at least annually to meet the population's obligations

At the same time, the government's subsidies for irrigation amounted to 3 million sums, and in 1921 it was 6.4 million sums in gold and 3,300 sums in gold in 1922, which is about 2.1% in 1921; In 1922, it was 1.1 percent. It is clear from the above that in the early 20th century, poor irrigation and artificial irrigation in our country led to a decline in agricultural productivity due to the lack of technical facilities and poor distribution of water. And the impact of the state on this area is also diminishing. Activities developed by the statesman Fayzulla Khodjaev played an important role in improving agricultural productivity.

F.Khodzhaev drew attention to the need to develop a state program for the development of agriculture in Bukhara. The economic activities of the program included the following:

1) complete implementation of the entire irrigation program;

2) Intensification of land development through the introduction of new methods of land management, agricultural tools, seed selection, the establishment of agricultural schools, the distribution of theoretical knowledge among the population;

3) providing large-scale and long-term agricultural loans to dehkan farms;

4) a gradual transition to the cultivation of these varieties by expanding the areas under cotton and comprehensive stimulation of American cotton;

5) Providing large-scale loans to tax bearers along with tax exemptions;

6) Take measures to revitalize cocoons by distributing worm seeds to the population and establishing worm seed production stations [9].

In view of the above, F.Khodzhaev spoke on the development of irrigation and reclamation, which is a factor in the development of agriculture in Bukhara, by promoting the development of karakul sheep-breeding by providing them with extensive credit and exemption from taxation to European markets. , saying that this would end the smuggling of precious commodities. He also made suggestions for the development of silkworm breeding in the country by improving the production of silkworm seeds.

A.Fitrat's "Reform Project" also plays an important role in improving the efficiency of the agricultural sector in our country.

The project pays much attention to agriculture and agriculture. According to the project, all arable land will be divided into three categories: foundations, private property and public lands. Lands owned by the state and owned by the state are united under the name of "Khiroj" (these lands are state-owned and leased on special terms). Ownership lands are in full ownership of the owners, with the exception of arable land. A separate body will be set up to manage the waqf lands.

The draft tax regime is rigid, and several rules for tax collection have been developed. This is evident from the fact that the Jadids' leaders were particularly interested in the sphere of arbitrariness and disorder. The project envisages a reduction of the tax on workers and state-owned land.

The project will reduce the amount of land tax on public lands and "property tax" (taxable land), while at the same time a number of indirect taxes, such as "khsan" (amen, elder, etc.). Farmers' taxes, "special" (alms), "equipment money" (money paid for various trees), "hay" ("pasture use tax"), and "hasher" costs.

At the same time, the bill calls for a significant increase in the tax on "land" ("private lands") and "property". Land owned by the Emir, but privately owned by the emir, is called "property".

All of these changes to the land taxation regime, as the project implies, provide a tax deduction for the working population and the realization of the idea of increasing land tax on landowners.

The second, main objective of the project in Land and Agriculture is to increase agricultural production, expand crop areas, and intensify farming.

Specific actions proposed in the project include: equalizing the tax on cultivated and non-sown lands; This would allow those farms who could not cultivate more land or use all of their land, to give up and sell it. The project also included irrigation measures, regulation of Zarafshan irrigation system - fair distribution of water between Bukhara and Samarkand regions.

The project also proposed to use the Amudarya river for irrigation purposes. At the same time, the project proposes to ban the hashar in other ways, in full accordance with its progressive liberal spirit, but even points out that it is necessary to use hashar for irrigation purposes.

It offers mechanization of agricultural credit and farming as a measure to intensify agriculture. The project outlines in detail the activities that should be taken. In this regard, the project is so sharp and practical that it is necessary to set up an agricultural bank in Bukhara and expand its branches in the provinces (such bank should release Bukhara farmers from the hands of a large number of villagers), and bring agricultural machines to Bukhara. It has been shown that you need to learn how to operate these machines. The establishment of agricultural schools and the dissemination of agronomic knowledge - all this was envisaged in the project[10].

We can also see the testimonies in the agriculture of the country in the article by Abdulsami-kori Ziyoboev "Our soil is gold". In particular, Abdulsami-kori Ziyabaev's article argued that the deterioration of the population was due to the fact that farmers were selling good, productive land to foreigners for trivial reasons, and urged them to retain their lands under any circumstances.

Noting that Turkestan lands are priceless, foreigners who understand this are happy to say that they are trying to buy land, and that it may eventually be turned over to foreigners. He also emphasized that Turkestan lands are the main economic backbone of our people and that they can benefit greatly if they work hard [11].

Sayidnosir Mirjalilov's article "Cotton" refers to cotton, which is the main asset of Turkestan, and believes that cotton was such a place in the life of the country that without it Turkistan could not even imagine the Russian industry. Cotton is also a major part of both industry and trade.

Sayid Ahmed Siddiqui in his article draws the attention of Turkestan to the plight of the peasants and tries to explain their reasons. According to the author, the reason for the deterioration of farmers' lives is the fact that they sell their produce at a low price and buy what they need.

In our opinion, the author cites in his article the factors that have led to the deterioration of the social life of not only farmers but also Turkestan population at that time. This is also evidenced by the author's view that food shortages and poverty are the main reason why almost all grain, the main food item, is being exported. Syed Ahmed Siddiqui argues that "the world is prosperous with knowledge and crops", trying to explain that agriculture has always played an important role in the life of the country and people and that their wellbeing is inextricably linked to the development of agriculture. From his point of view, it should be noted that from the author's point of view, the improvement of agriculture in the country depends on the income received, and the selling price of the produce produced by the farmer should be commensurate with the prices of other goods in the market. The products produced in the country must first satisfy the needs of the population and then be exported.

In addition, the collapse of trade in the country has seriously damaged farming. In particular, as a result of the closure of the cotton market and trade in some areas, thousands of tons of cotton were not sold [12]. This means there is no remuneration for the farmer's labor during the year, and his annual income flies in the air. The farmer was not ready for work the following year.

**Conclusions and Suggestions**

In summary, during the colonial period, the agricultural sector of our country has become difficult. Downward sloping was accelerated in both the agricultural and livestock sectors. By that time, the level of agricultural production had been falling sharply behind both its technical equipment and natural population growth rates.

After gaining independence, the country began a period of profound reforms in agriculture. The Government of the Republic is focusing on the formation of market relations in the most important sector of the country's economy, the transition to non-state ownership, the denationalization and privatization of property, the establishment of dehkan farms. At the same time, the focus is on improving the efficiency of agricultural production, radical reforming of ownership and forms of ownership, developing and strengthening farms, improving rural incomes and living standards.

The main purpose of agricultural reform is to increase the role and importance of the human factor, its interest and responsibility to increase production outputs.

Reflecting on the foregoing, it is clear that the ideas put forward by our Jadids are in line with the current market economy reforms in our independent country. The activities and program of Jadids are a model for the future. The fact that the Jadids have solved the social and economic problems of the society on the basis of evolutionary-reform principles, their ability to choose formally-institutional changes and the most effective ways to completely eradicate the colonial system is undoubtedly their historical service.

Based on these conclusions, the following research proposals were developed in the study:

- Conducting a comprehensive study on economic ideas of Jadids;

- publication of separate literature on Jadids' economic ideas;

- To conduct further fundamental research on the scientific-theoretical analysis of socio-economic situation of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, the deeper study of the material and economic factors that led to the activities of intensive enlighteners on the basis of historical evidence, their role and significance in the national economy. display;

- to use the ideas of Jadids to improve the effectiveness of the agricultural sector in the country to improve the efficiency of the agricultural sector;

- Introduce intensive economic ideas and teach students in exemplary programs and lectures on the subject "Economic theory", "History of economic teachings", "The theory of economic education";

- It is expedient to use the works of Jedid as scientific sources to reveal the deeper meaning of several economic categories and terms studied in the formation of market relations in our economy.

## REFERENCES


1. Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis The newspaper // "Halk Suzi", January 25, 2020. №19. 1-4.
2. Sharafiddinov O. Independence Sacrifices.-T.: East, 1993. 144 p., Kuronov D. Life and creative legacy of Cholpon. –T .: Instructor, 1997. 80 p.
3. Azamkhodjaev S. Turkestan autonomy: Experience of building a democratic statehood - T .: Spirituality, 2000. 168 p., Alimova D. Fayzulla Khodjaev and Jadid // "Literature and Art of Uzbekistan". –T .: 1996.-June 7.
4. Chulpon A. Crop and Farming in Turkestan.// "Sadoi Ferghana". April 29, 1914.
5. Behbudie M. Selected works. - T .: Spirituality, 1999. - B. 69.
6. Fitrat A. Selected works. Volume I - T .: Spirituality, 2000. -B.144.
7. Khodjaev F. Selected works. Volume I - T .: Science, 1976. - B. 373–374.
8. Khojaev F. Selected works. Volume I - T .: Science, 1976. -B. 378.
9. Khodjaev F. Selected works. Volume I - T .: Science, 1976.-B. 132-133-134.
10. Ziyoboev A. Our soil is golden // "Sadoi Turkiston". April 4, 1914
11. Siddiqui Sayed Ahmad. Farming // "Hurriyat".1917 May 11.
12. News of Turkestan and Ferghana Cotton market closed // "Sadoi Ferghana" April 16, 1914

УЎТ 1331.33(04)

**Ҳабибуллаев Иброҳим,**
*Тошкент молия институти*
*“Статистика ва эконометрика”кафедраси профессори*

# ИҚТИСОДИЙ ОБЪЕКТЛАРНИ КЛАССИФИКАЦИЯЛАШНИНГ СТАТИСТИК УСУЛИ ВА ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ

**Хабибуллаев Иброхим,**
*Ташкентский финансовый институт*
*Профессор кафедры “Статистика и эконометрика”*

# СТАТИСТИЧЕСКИЙ МЕТОД И ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ КЛАССИФИКАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ

**Khabibullayev Ibrokhim,**
*Tashkent Finansial Institute*
*Professor of the “Statistics and Ekonometrics”*

# CLASSIFY ECONOMIC OBJECTS STATISTICAL METHOD AND SOFTWARE

**Аннотация.** *Мақолада турли объектларни бирор-бир кўрсаткичи бўйича классификациялашнинг статистик усули ва унинг дастурий таъминоти ҳамда ундан фойдаланиш учун кўрсатма баён қилинган.*

**Таянч сўзлар:** *классификация, программа, объект, тўплам, гуруҳ, ўхшашлик, фарқ, миқдор, сифат, замон, макон, ҳодиса, кўрсаткич, ранг.*

**Аннотация.** *В статье изложены статистический метод классификации объектов по какому либо одному признаку и его программное обеспечение, а также инструкция по использованию программы.*

**Ключевые слова:** *классификация, программа, объект, множества, группа, сходство, разница, количество, качество, пространство, явления, показатель, свет.*

**Annotation.** *This article describes the statistical method of classifying various objects according to some indicator, its software support and instructions for its* use.

**Key words:** *Classification, program, object, collection, group, similarity, difference, quantity, quality, time, place, event, indicator, color.*

## Кириш

Турли объектлар жумладан, иқтисодий объектларнинг ҳолатларини таққослаш ва баҳолашда кўпроқ классификациялаш усулларидан фойдаланилади. Классификация ибораси объектлар (предметлар, ҳодисалар, жараёнлар ва бошқалар) тўпламини маълум бир мақсадни кўзлаган ҳолда уларни муҳим белгилари бўйича бўлакларга, гуруҳларга бўлиш, ажратишни англатади.

Классификациянинг мақсади: ўрганилаётган объектларни тизимлаштириш, объектларни ўхшашликлар ва улар орасидаги фарқларни, ҳодиса ва жараёнларда юзага келадиган қонуниятларни аниқлаш, динамик жараёнларни бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга ўтишини тадқиқ қилиш ва бошқалардан иборат.

Классификациялаш объектларнинг миқдорий ва сифат кўрсаткичлари бўйича амалга оширилиши мумкин. Объектларни миқдорий кўрсаткичлар асосида классификациялаш, уларнинг ҳажми, миқдори, сони бўйича ўхшашликлари ва фарқланишларини ифодалайди. Сифат кўрсаткичлари бўйича классификациялаш эса уларнинг кўриниши, тезлиги, ҳолатидаги ўхшашликлар ва фарқланишларни ифодалайди. Сифат кўрсаткичлари бўйича классификациялаш миқдорий кўрсаткичлар асосида амалга оширилиши мумкин.

## Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

Масаланинг мазмун-моҳияти, классификациялаш мақсадига қараб тўпланган маълумотлар асосида ишлаб чиқариш объектлари тўплами ўрганилаётган кўрсаткич бўйича турли усулларда классификация қилинади[3-7]. Объектларни классификациялаш назарияси ва уларни амалиётга қўллаш усуллари Lombacher Jekob [3], Ito, Satoshi [4], Kharitonov A. ва бошқалар [5], P.N. Drushkov ва V.D. Kustikova [6] илмий ишларида ёритилган. Ишлаб чиқариш корхоналари иқтисодий самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичларини классификациялаш масалалари Безрукова Т.Л., Шанин И.И. мақоласида берилган [7].

“Pyton” дастурлаш тили, унинг имкониятлар ва амалий масалаларни ечишда қўлланиши Eric Matthes [9], Krishna Rungta [10], Narasima Krumanchi [11], М.В. Сысова [12], Д.Ю. Федоров [13] ва А.Н. Василев [14] ларнинг асарларида ёритиб берилган.

## Тадқиқот методологияси

Тадқиқот жараёнида илмий абстракциялаш, статистик кузатиш, тасвирий статистика, статистик маълумотларни таҳлил қилиш, классификациялаш, статистик баҳолаш, алгоритмлаштириш, дастурлаш каби усуллардан фойдаланилди.

## Натижа ва муҳокама

Бир жинсли иқтисодий объектлар тўпламини классификациялаш объектларнинг маълум бир томонини ифодаловчи кўрсаткичлар (масалан, ЯИМда бизнесни, саноат ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ва бошқаларни улуши)ни макон ва замонда ўзгариши бўйича ҳам бажарилиши мумкин. Иқтисодий объектларнинг маълум бир кўрсаткичини маконда ўзгаришини классификациялашда уларнинг аниқ бир вақтдаги ҳолатлари ифодаланади. Замонда ўзгаришини классификациялаш эса бир объектнинг ўша кўрсаткичини вақт бўйича ўзгаришини тавсифлайди.

Иқтисодий объектларнинг ялпи ишлаб чиқариш(ЯИЧ)ида саноат соҳасининг улуши кўрсаткичи бўйича ҳолатларини маконда ўзгаришини тадқиқ қилиш натижасида кўрсаткичнинг объектларга мос қийматларидан иборат

дискрет стационар вариацион қатор ҳосил бўлиб, ушбу қатор объектларни ўрганилаётган кўрсаткич – ЯИЧ ҳажмида саноат соҳасининг улуши бўйича ўзаро таққослаш имконини беради. Объектлар ҳолатини замонда тадқиқ қилиш натижасида эса кўрсаткичнинг ҳар бир вақт(йил)га мос қийматларидан ташкил топган вақтли қатор юзага келади ва бу қатор аниқ бир объектнинг ўрганилаётган кўрсаткич бўйича турли вақтдаги ҳолатларини таққослашда қўлланиши мумкин. Маконда жойлашган объектлар тўпламининг ўрганилаётган кўрсаткичларини турли замондаги ҳолатини тадқиқ қилиш натижасида "панель маълумотлари" деб номланган маълумотлар тўплами ҳосил бўлади[1,2]. Бу турдаги маълумотлар объектлар ҳолатини ҳам макон, ҳам замонда бир пайтнинг ўзида таққослаш имконини беради.

Классификация қилиш (гуруҳлаш) объектни бирор бир томонини ифодаловчи кўрсаткичнинг қийматлари асосида гуруҳларга ажратиш ва уларга ном беришдан иборат. Бундай усулда миқдорий кўрсаткичлардан сифат кўрсаткичларига ўтилади, яъни объектнинг ҳолати, масалан, яхши, ўртача, ёмон классларга ажратилади.

Объектни маълум бир томонини ифодаловчи кўрсаткичнинг тўпланган қийматларидан тузилган сонли тўплам ёки вариацион қатор дискрет статционар қатор бўладими ёки вақтли қатор бўладими маълумотларни бир нечта, жумладан, уч гуруҳга: объектни ҳолати яхши, ўртача, ёмон гуруҳларга ажратишда "Статистика назарияси" дан маълум бўлган ўртачани ҳисоблаш усулларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ [8]. Ўртача: кўрсаткичнинг қийматлари тўпламини (қаторни) иккига бўлувчи қийматидир. Тўплам бирликларининг ярмиси ўртачадан юқорида, ярмиси эса пастда жойлашади.

Бу усулни қўллаш кўрсаткичнинг қийматларини тенг оралиқли уч гуруҳга ажратишдан бошланади. Кўрсаткич, яъни ЯИЧда саноат маҳсулотлари улушининг қийматлари тўплами $X = \{x_i\}$ бўлсин. Тўплам элементлари ($n$ та) – $x_i$ лардан энг катта – $x_{max}$ ва энг кичик – $x_{min}$ ларни аниқлаб маълумотларни гуруҳлаш учун оралиқ катталиги аниқланилади:

$$\Delta x = \frac{x_{max} - x_{min}}{m}$$

бу ерда: $\Delta x$ – оралиқ катталиги, m – гуруҳлар сони, бизнинг ҳолатда у 3га тенг.

Гуруҳлаш амалларини тизимли ва тасаввур қилиш онсон бўлиши учун ишчи жадвал тузиб оламиз.

Амаллар кетма-кетлиги қуйидагича бажарилади.

1. Ҳар бир гуруҳнинг оралиғини аниқланади:

I – гуруҳ: $x_{min} + \Delta x = x1$:

II – гуруҳ: $x_1 + \Delta x = x2$:

III – гуруҳ: $x2 + \Delta x = x_{max}$.

2. Учта оралиқдан иборат қатор ҳосил қилинади (1-жадвал 2- устун).

*1-жадвал*

| т/р | Гуруҳлар | Кўрсаткичнинг гуруҳлардаги элементлари | Элементлар сони (частота-лари) |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1 | $x_{min} \div x1$ | $x_1, x_2, x_3 \dots x_k$ | k |
| 2 | $x1 \div x2$ | $x_{k+1}, x_{k+2}, \dots x_p$ | p |
| 3 | $x2 \div x_{max}$ | $x_{p+1}, x_{p+2}, \dots x_q$ | q |
| Жами | - | - | n |

1. Кўрсаткичнинг ҳар бир гуруҳга тушадиган элементларни аниқлаб ёзиб чиқилади (1-жадвал 3-устун).

2. Гуруҳларга тушган элементлар сони аниқланади (1-жадвал 4-устун).

Уларнинг йиғиндиси тўплам элементлари сонига тенг бўлиши керак.

3. Оралиқ қаторда кўрсаткичнинг ўртача қиймат ва ўртача қиймат жойлашган оралиқ аниқланилади. Қаторда кўрсаткичнинг ўртача қиймати оддий ёки тортилган ўртачаларни ҳисоблаш усулларидан фойдаланиб аниқланилади:

$$\overline{x} = \sum x_i/n \text{ ёки } \overline{x} = (\sum x_i \cdot f_i)/\sum f_i$$

бу ерда $x_0$: $x_i$ – қаторда кўрсаткичнинг қийматлари; $n$ – объектлар сони; $f_i$ – қаторда $i$ – элемент частотаси.

Сўнгра ҳисобланган ўртача қиймат қайси оралиқда эканлиги аниқланилади. Ўртача қиймат тушган оралиқ ўртача оралиқ деб олинади.

Ўрганилаётган кўрсаткичнинг қиймати шу оралиққа тушган объектларнинг ҳолати "ўртача" (ранги сариқ, шартли белгиси BB) деб олинади. Медиана оралиғидан пастдаги (1-жадвалда III гуруҳ) оралиққа тушган объектларнинг ҳолати "яхши" (ранги яшил, шартли белгиси AA), медиана оралиғидан юқоридаги (I гуруҳ) оралиққа тушган объектларнинг ҳолати "ёмон" (ранги пушти, шартли белгиси CC) деб олинади (рангларга шартли белгиларни киритилишининг сабаби, натижа қоғозга чиқарилганда рангларни ажратиб олиш учун).

Яна шундай ҳолатлар ҳам бўлиши мумкин, ўртача қиймат I ёки III гуруҳга тушиши мумкин. Бундай ҳолатларда, яъни ўртача қиймат I гуруҳга тушганда кўрсаткичнинг қиймати ўртачадан кичик бўлган объектлар ҳолати "жуда ёмон"(ранги қизил, шартли белгиси DD), шу гуруҳнинг ўзида кўрсаткичининг қиймати ўртачага тенг ва ундан катта бўлган объектлар ҳолати "ёмон", II гуруҳга тушган объектлар ҳолати "ўртача" ва III гуруҳга тушган объектлар ҳолати "яхши" деб баҳоланади. Ўртача қиймат III гуруҳга тушганда кўрсаткичининг қиймати ўртачадан катта бўлган объектлар ҳолати "жуда яхши", шу гуруҳнинг ўзида кўрсаткичнинг қиймати ўртачага тенг ва ундан кичик бўлган объектлар ҳолати "яхши", II гуруҳга тушган объектлар ҳолати "ўртача" ва I гуруҳга тушган объектлар ҳолати "ёмон" деб баҳоланади.

Шу тариқа объектлар ўрганилаётган кўрсаткичнинг сифат томони бўйича классификация қилинади. Классификациялаш натижалари биринчидан, объектнинг, ўрганилаётган кўрсаткич бўйича ҳолатини вақт бўйича ўзгаришини кўрсатса, иккинчи томондан, бошқа объектлар ҳолати билан таққослаш имконини беради.

Иқтисодий объектларни бирор-бир кўрсаткичи бўйича юқоридаги алгоритм асосида классификациялашни амалга ошириш учун дастурлашнинг "Python" тилида "KLASSIFIKATOR1" деб номланган пакет дастури яратилди [9-14]. Пакет дастур иккита қисмдан иборат: KLASSIFIKATOR1 дастури ва EXCEL файлдаги маълумотлар – объектлар кўрсаткичининг қийматлари.

Дастурдан фойдаланиш учун объектларнинг ўрганилаётган кўрсаткичини замон (ой, чорак, йил) ёки макон (ҳудудлар) бўйича қийматлари EXCEL дастурида жадвал кўринишида тайёрланади. EXCEL дастурида маълумотлар иккита листга (Sheet1, Sheet2) ёзилади. "Sheet1" лист (1-расм) да объектлар ва унинг кўрсаткичларини қийматлари, "Sheet2" лист (2-расм)да ечилаётган масаланинг номи ёзилади.

14та иқтисодий объектнинг ЯИЧда саноатнинг улуши кўрсаткичи бўйича 10 йиллик шартли маълумотлари асосида классификациялаб кўрамиз. Объектларни ўрганилаётган кўрсаткичининг маълумотлари Sheet1 листда (1- расм) ва масаланинг номи Sheet2 листга ёзилган (2-расм).



| Ob'ektlar nomi | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| OB1 | 45,5 | 44,6 | 49,8 | 53,6 | 45,5 | 49,8 | 53,6 | 45,5 | 42,3 | 42,3 |
| OB2 | 24,1 | 29,5 | 29,5 | 29,5 | 35,7 | 29,5 | 29,5 | 35,7 | 44,6 | 39,6 |
| OB3 | 43,1 | 42,6 | 42,6 | 42,6 | 43,1 | 42,6 | 42,6 | 43,1 | 42,6 | 42,6 |
| OB4 | 43,1 | 45,5 | 46 | 45,5 | 43,1 | 45,5 | 39,6 | 43,1 | 45,5 | 44,6 |
| OB5 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 | 53,6 |
| OB6 | 40,9 | 42,2 | 42,2 | 42,2 | 40,9 | 42,2 | 42,2 | 40,9 | 42,2 | 42,2 |
| OB7 | 16,2 | 13,8 | 13,8 | 13,8 | 16,2 | 24,1 | 13,8 | 16,2 | 39,6 | 45,5 |
| OB8 | 36,2 | 42,3 | 42,3 | 42,3 | 43,1 | 42,3 | 42,3 | 39,6 | 42,3 | 42,3 |
| OB9 | 44,6 | 45,5 | 45,5 | 45,5 | 44,6 | 45,5 | 45,5 | 44,6 | 45,5 | 45,5 |
| OB10 | 49,8 | 48,4 | 48,4 | 48,4 | 49,8 | 48,4 | 48,4 | 49,8 | 48,4 | 48,4 |
| OB11 | 43,1 | 39,6 | 39,6 | 39,6 | 43,1 | 39,6 | 39,6 | 43,1 | 39,6 | 39,6 |
| OB12 | 24,1 | 23,3 | 23,3 | 23,3 | 24,1 | 23,3 | 23,3 | 24,1 | 23,3 | 23,3 |
| OB13 | 36,2 | 35,7 | 35,7 | 35,7 | 36,2 | 35,7 | 35,7 | 36,2 | 35,7 | 35,7 |
| OB14 | 45,9 | 47,2 | 47,2 | 47,2 | 35,7 | 47,2 | 39,6 | 45,9 | 47,2 | 47,2 |

**1-расм. Йиллар бўйича иқтисодий объектларнинг ЯИЧда саноатнинг улуши кўрсаткичининг қийматлари**




**2-расм. Масаланинг номи**

Сўнгра “KLASSIFIKATOR1” папкасини юклаб (3-расм) “Klassificator Python” exe файлга – дастурга кирилади(4-расм) ва “EXCEL FAYILNI YUKLASH” тугмачаси босилади, натижада объектларнинг маълумотлари жойлашган EXCEL файлларнинг номлари чиқади (5-расм).




**3-расм. Klassifikator Python дастурига мурожаат қилиш ойнаси**




**4-расм. Klassifikator Python дастури ойнаси**

Сўнгра тадқиқ қилинаётган объектга мос файл номига сичқончани босиб файл юкланади ва “Открыт” тугмачаси босилади (5-расм)

Бу билан “Klassifikator Python” дастури ишга тушиб, объектларни 10 йил давомидаги ҳолати классификацияланади ва натижавий жадвал ҳосил бўлади(6-расм). Натижавий жадвалнинг юқори қаторида қўйилган масаланинг номи ва иккинчи қаторида 5та класснинг номи, ранги ва шартли белгиси чиқади. Масалан, тўртинчи класс: номи “яхши”, ранги “кўк” ва шартли белгиси “АА”.




**5-расм. Ечилаётган масаланинг маълумотларини юклаш**

## Хулоса

Натижа таҳлил қилинадиган бўлса, биринчи объект (ОБ1) 2014 йилдан 2021 йилгача “яхши” ҳолатда бўлиб келган, 2022 йилга келиб “ўрта” ҳолатга тушиб қолган , 2023 йилда эса шу ҳолатда қолиши кутилмоқда. Бешинчи объект ўрганиш даврида фақат “яхши” ҳолатда бўлган. Еттинчи объект 2014–2021 йиллар давомида ёмон ҳолатда бўлган, 2022 йилда ҳолати ўртачага кўтарилган, 2023 йилга келиб ҳолати яхшиланиши мумкин. Ўн иккинчи объект эса ўрганиш даврида “ёмон” ҳолатда қолмоқда.

Олинган натижалар объектларни бундай ҳолатларда

бўлишининг сабабларини аниқлаш, ривожлантиришнинг оптимал вариантларини ишлаб чиқишда асос бўлиб ҳизмат қилади ҳамда объектлар ҳолатини мониторингини олиб бориш имконини яратади.




| Ob'ektlar non | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 20 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| OB1 | 45.5 - AA | 44.6 - AA | 49.8 - AA | 53.6 - AA | 45.5 - AA | 49.8 - AA | 53.6 - AA | 45.5 - AA | 42.3 - BB | 42.3 |
| OB2 | 24.1 - CC | 29.5 - BB | 29.5 - BB | 29.5 - BB | 35.7 - BB | 29.5 - CC | 29.5 - BB | 35.7 - BB | 44.6 - AA | 39.6 |
| OB3 | 43.1 - AA | 42.6 - AA | 42.6 - AA | 42.6 - AA | 43.1 - AA | 42.6 - BB | 42.6 - AA | 43.1 - AA | 42.6 - BB | 42.6 |
| OB4 | 43.1 - AA | 45.5 - AA | 46.0 - AA | 45.5 - AA | 43.1 - AA | 45.5 - AA | 39.6 - BB | 43.1 - AA | 45.5 - AA | 44.6 |
| OB5 | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 - AA | 53.6 |
| OB6 | 40.9 - BB | 42.2 - AA | 42.2 - AA | 42.2 - AA | 40.9 - BB | 42.2 - BB | 42.2 - AA | 40.9 - BB | 42.2 - BB | 42.2 |
| OB7 | 16.2 - CC | 13.8 - CC | 13.8 - CC | 13.8 - CC | 16.2 - CC | 24.1 - CC | 13.8 - CC | 16.2 - CC | 39.6 - BB | 45.5 |
| OB8 | 36.2 - BB | 42.3 - AA | 42.3 - AA | 42.3 - AA | 43.1 - AA | 42.3 - BB | 42.3 - AA | 39.6 - BB | 42.3 - BB | 42.3 |
| OB9 | 44.6 - AA | 45.5 - AA | 45.5 - AA | 45.5 - AA | 44.6 - AA | 45.5 - AA | 45.5 - AA | 44.6 - AA | 45.5 - AA | 45.5 |
| OB10 | 49.8 - AA | 48.4 - AA | 48.4 - AA | 48.4 - AA | 49.8 - AA | 48.4 - AA | 48.4 - AA | 49.8 - AA | 48.4 - AA | 48.4 |
| OB11 | 43.1 - AA | 39.6 - BB | 39.6 - BB | 39.6 - BB | 43.1 - AA | 39.6 - BB | 39.6 - BB | 43.1 - AA | 39.6 - BB | 39.6 |
| OB12 | 24.1 - CC | 23.3 - CC | 23.3 - CC | 23.3 - CC | 24.1 - CC | 23.3 - CC | 23.3 - CC | 24.1 - CC | 23.3 - CC | 23.3 |
| OB13 | 36.2 - BB | 35.7 - BB | 35.7 - BB | 35.7 - BB | 36.2 - BB | 35.7 - BB | 35.7 - BB | 36.2 - BB | 35.7 - BB | 35.7 |
| OB14 | 45.9 - AA | 47.2 - AA | 47.2 - AA | 47.2 - AA | 35.7 - BB | 47.2 - AA | 39.6 - BB | 45.9 - AA | 47.2 - AA | 47.2 |

**6-расм. ЯИЧда саноатнинг улуши кўрсаткичи бўйича объектларни классификациялаш натижалари**

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Мангус Я.Р., Катышев П.К., Пересецкий А.А. Эконометрика. Начальнқй курс: Учеб. -6-е изд., -М.: Дело, 2004. -576с.
2. Habibullayev I.H. Ekonometrika 2: ekonometrik modellashtirish. Darslik. –T. “Taxririy Nashriyot”. 2022.-250 b.
3. Lombacher, Jakob et al. “Potential of radar for static object classification using deep learning methods.” 2016 IEEE MTT-S International Conference on Microwaves for Intelligent Mobility (ICMIM). IEEE, 2016.
4. Ito Satoshi and Susumu Kubota. “Object classification using heterogeneous co-occurrence features.” Computer Vision–ECCV 2010: 11th European Conference on Computer Vision, Heraklion, Crete, Greece, September 5-11, 2010, Proceedings, Part V 11. Springer Berlin Heidelberg, 2010.
5. Kharitonov A. A., Ershova N. V. and Vikin S.S.. “The improvement of conceptual and categorical framework for the classification of objects of cadastral registration.” IOP conference series: earth and environmental science. Vol. 272. No. 2. IOP Publishing, 2019.
6. Druzhkov Pavel Nikolaevich and Kustikova Valentina Dmitrievna. “A survey of deep learning methods and software tools for image classification and object detection.” Pattern Recognition and Image Analysis 26 (2016): 9-15.
7. Безрукова Татьяна Львовна и Шанин Игорь Игоревич. «Классификация показателей оценки эффективности экономической деятельности промышленного предприятия.» Общество: политика, экономика, право 1 (2012): 73-80.
8. Shodiyev X.A., Habibullayev I.H.. Statistika: daslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. 448-b.
9. Eric Matthes. Python Crash Course Paperback.England 2015.205p.
10. Krishna Rungta. Learn Python in 1 Day: Complete Python Guide with Examples. India 2016. -182 p.
11. Narasimha Karumanchi. Data Structure and Algorithmic Thinking with Python Paperback. India 2015. 170p.
12. Сысоева М.В., Сысоев И. В. Программирование для «нормальных» с нуля на языке Python Москва. 2018. -180с.
13. Федоров Д. Ю.Основы программирования на примере языка Python. Санкт-Петербург 2018. -167 с.
14. Василев А. Н. Python на примерах. Практичекий курс по программированию. — SPb. Наука и техника, 2016. — 432 с.

**УЎТ 63:311**

**Хўжақулов Хаитмурат Джавлиевич,**
*Тошкент молия институти фахрий профессори.*
khaitmurat_kh@mail.ru

## ЎЗБЕКИСТОНДА АГРАР СОҲАНИНГ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШИНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ

**Хужакулов Хаитмурат Джавлиевич,**
*Ташкентский финансовый институт почетный профессор*
*khaitmurat_kh@mail.ru*

## СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И РАЗВИТИЯ АГРАРНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА

**Xujakulov Xaitmurat Djavliyevich,**
*Tashkent institute of finance honorary professor.*
khaitmurat_kh@mail.ru

## STATISTICAL ANALYSIS OF THE STATE AND DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR IN UZBEKISTAN

**Аннотация.** *Мақолада аграр соҳанинг ҳозирги даврдаги ҳолати ҳамда кейинги йилларда ривожланиш даражаси ва динамикасининг батафсил таҳлили амалга оширилган. Шунингдек, аграр соҳанинг ЯИМдаги ва тармоқларнинг ЯҚҚидаги улуши ҳамда унинг ўзгариши чуқур таҳлил қилинган. Қишлоқ хўжалиги тармоғи ва фермер хўжаликларида қўшилган қийматни аниқлаш усули баён қилинган.*
**Таянч сўзлар:** *аграр соҳа маҳсулоти, ЯИМ, ЯҚҚ, қишлоқ хўжалиги маҳсулоти, деҳқон хўжаликлари, фермер хўжаликлари, амалдаги ва таққослама баҳолар, ўсиш суръати.*

**Аннотация.** *В статье проведен детальный анализ современного состояния аграрного сектора, а также уровня и динамики его развития в последующие годы. Также подробно анализируется доля аграрного сектора в ВВП и ВДС отраслей и ее изменения. Изложена методика определения добавленной стоимости в отрасли сельского хозяйства и в фермерских хозяйствах.*
**Ключевые слова:** *продукция сельского хозяйства, ВВП, ВДС, продукция сельского хозяйства, дехканские хозяйства, фермерские хозяйства, текущие и сравнительные цены, темпы роста.*

**Annotatin.** *The article provides a detailed analysis of the current state of the agricultural sector, as well as the level and dynamics of its development in subsequent years. The share of the*

*agricultural sector in GDP and GVA of industries and its changes are also analyzed in detail. The methodology for determining added value in the agricultural sector and on farms is outlined.*

**Key words:** *agricultural products, GDP, GVA, agricultural products, dekhko farms, private farms, current and comparative prices, growth rates.*

**Кириш**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон[1]“2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ва 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон[2] “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги Фармонларида “Қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камида 2 баравар ошириш, қишлоқ хўжалигининг йиллик ўсишини камида 5 фоизга етказиш, мавсумий тақчилликни бартараф этиш, экспортбоп маҳсулотлар етиштириш, илм-фан ва инновацияга асосланган агрохизматлар кўрсатиш тизимини такомиллаштириш, аграр соҳада илм-фан ва амалиёт интеграциясини чуқурлаштириш” ва 2030 йилгача “Бир гектардан олинадиган ўртача даромадни 5 минг долларга, қишлоқ хўжалиги соҳасида экспорт ҳажмини йилига 10 миллиард долларга, ҳосилдорлик кўрсаткичларини пахта бўйича ўртача 45–50 центнерга, ғалла бўйича 80–85 центнерга етказиш” каби қатор вазифалар белгиланган.

Ушбу вазифаларнинг ижросини самарали тарзда таъминлаш учун кенг кўламли иқтисодий-статистик таҳлилни амалга ошириб, илмий таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқиш талаб этилади.

Айни пайтда глобал иқлим исиши, унумдор ерларнинг деградацияга учраши, қурғоқчилик ва бошқа табиий офатлар натижасида экин ерларига ва етиштирилаётган маҳсулотларга зарар етиши жаҳон миқёсида озиқ-овқат хавфсизлигига путур етказувчи омиллардан ҳисобланади. Бу муаммога ечим топишда халқаро ҳамкорликни янада ривожлантириш, илғор мамлакатлар тажрибасини ўзлаштириш, қишлоқ хўжалигига замонавий технологияларни кенг жорий этиш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда иқтисодиётнинг ҳақиқий “драйвери” бўлган аграр соҳа (қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги) да иқтисодиётда банд ишчи кучининг қарийб 27 фоизи фаолият юритади ва 2022 йилда ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) нинг 23,5 фоизи ва ялпи қўшилган қиймат (ЯҚҚ) нинг 25,2 фоизи ушбу сектор ҳиссасига тўғри келади.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**

Мамлакатимиз иқтисодиётининг барқарор ривожланишини таъминлашда аграр соҳанинг ўрни беқиёсдир. Шунинг учун унинг иқтисодиётини ўрганиш ва аграр соҳа фаолиятини макроиқтисодий кўрсаткичлар билан боғлаб статистик таҳлил қилиш масалалари хорижий олимлардан А.В.Афанасива, Б.И.Смагин, И.И.Леньков ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган бўлсалар, маҳаллий олимлардан А.Абдуғаниев[5], Н.Х.Рашидова[6], Б.К.Утанов[7], Х.Д.Хўжақулов[8], М.Х.Матмақулов[9] ва бошқа олимлар томонидан бир қатор илмий изланишлар олиб борилган.

Бироқ юқоридаги тадқиқотларда мамлакатимиз аграр сектори макро ва мезо даражада чуқур таҳлил қилиниб, ундаги ўзгариш тенденцияларини аниқлаш асосида соҳанинг ҳолати ва ривожланишининг асосий йўналишлари бўйича тадқиқотлар етарли даражада амалга оширилмаган.

**Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот жараёнида илмий абстракциялаш, мутлақ, нисбий ва ўртача миқдорлар, статистик баҳолаш, жадвал ва график, иқтисодий индекслар, динамика қаторларини таҳлил қилиш кўрсаткичлари каби усуллардан файдаланилган.

**Натижа ва муҳокама**

Республикамизда 2022 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми жорий баҳоларда 345,2 трлн. сўмни ташкил этиб, унинг 51,6 фоизи деҳқончиликда, 48,4 фоизи эса чорвачилик тармоғида яратилган. 2010–2022 йиллар мобайнида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ўсиш суръати 169,1 фоизни, шундан деҳқончилик ва чорвачилик махсулотларининг ўсиш суръати мос равишда 155,1 ва 185,4 фоизни ташкил қилиб, ўртача йиллик қўшимча ўсиш суръатлари 4,5; 3,7 ва 5,3 фоизга тенг бўлган. Чорвачилик маҳсулотлари ўзгариш даражасининг нисбатан юқори эканлиги асосан нархлар таъсири туфайли юз берган. Шунга кўра деҳқончилик соҳасига нисбатан чорвачиликда махсулот ишлаб чиқариш ҳажми қарийб 1,2 мартага (1,854:1,551) жадаллашган (1-жадвал).

Аммо айни дамда қишлоқ хўжалигида таълим, илм-фан, инновацион фаолият ва ишлаб чиқаришнинг чуқур интеграциясини таъминлаш ҳамда ушбу тизимнинг самарали бошқарув бўғинларини шакллантириш зарурати пайдо бўлмоқда.

Мамлакатнинг асосий макроиқтисодий кўрсаткичи бўлган ЯИМ ҳажмига тармоқ ва соҳаларда яратилган ялпи қўшилган қиймат (ЯҚҚ) нинг қўшимча ўсиш суръати ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

*1-жадвал*

**Ўзбекистон Республикасида асосий макроиқтисодий кўрсаткичларнинг ҳажми ва динамикаси**

| Йиллар | ЯИМ ва ЯҚҚ ҳажми 2020 йил баҳосида, трлн.сўм | | | Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги ҚҚ улуши, % | | Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажми, трлн.сўм | | | | Ўсиш суръати, % | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ЯИМ | Тармоқларнинг ЯҚҚ | | ЯИМда | Тармоқлар ЯҚҚда | 2020 йил баҳосида | Амалдаги баҳода | Шу жумладан, % | | Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти | Шу жумладан | |
| | | жами | шундан қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигида | | | | | деҳқончиликда | чорвачиликда | | деҳқончиликда | чорвачиликда |
| А | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| 2010 | 338,9 | 311,3 | 97,4 | 27,0 | 30,6 | 160,2 | 30,9 | 58,7 | 41,3 | 106,3 | 105,9 | 106,9 |
| 2011 | 364,4 | 335,3 | 103,3 | 29,7 | 33,5 | 170,1 | 45,3 | 57,1 | 42,9 | 106,2 | 104,9 | 108,0 |
| 2012 | 390,2 | 360,4 | 110,5 | 28,9 | 32,6 | 182,4 | 55,7 | 54,9 | 45,1 | 107,2 | 107,1 | 107,4 |
| 2013 | 418,7 | 387,1 | 117,6 | 27,8 | 31,0 | 194,4 | 66,4 | 54,5 | 45,5 | 106,6 | 106,1 | 107,3 |
| 2014 | 447,6 | 414,2 | 124,7 | 28,7 | 31,8 | 206,7 | 81,8 | 52,8 | 47,2 | 106,3 | 105,9 | 106,7 |
| 2015 | 479,8 | 444,4 | 132,3 | 29,2 | 32,1 | 219,3 | 99,6 | 55,6 | 44,4 | 106,1 | 105,5 | 106,9 |
| 2016 | 508,1 | 471,1 | 140,5 | 29,3 | 32,1 | 233,1 | 115,6 | 53,4 | 46,6 | 106,3 | 105,7 | 107,0 |
| 2017 | 530,5 | 491,3 | 142,2 | 28,7 | 32,2 | 235,4 | 148,2 | 56,2 | 43,8 | 101,0 | 98,2 | 104,1 |
| 2018 | 559,1 | 517,4 | 142,6 | 26,8 | 30,0 | 235,9 | 187,4 | 52,5 | 121,8 | 100,2 | 95,8 | 105,7 |
| 2019 | 591,0 | 547,4 | 147,0 | 24,6 | 26,9 | 243,7 | 216,3 | 51,7 | 48,3 | 103,3 | 104,8 | 101,6 |
| 2020 | 602,2 | 557,8 | 151,3 | 25,1 | 27,1 | 250,3 | 250,3 | 49,5 | 50,5 | 102,7 | 103,2 | 102,1 |
| 2021 | 646,8 | 599,8 | 157,3 | 25,0 | 26,9 | 260,0 | 303,4 | 50,1 | 49,9 | 103,9 | 104,3 | 103,5 |
| 2022 | 683,6 | 637,0 | 163,0 | 23,5 | 25,2 | 269,4 | 345,2 | 51,6 | 48,4 | 103,6 | 103,8 | 103,3 |

**Манба:** *Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ҳисобланмаси.*

Ўзбекистонда 1-жадвал маълумотларига кўра, 2010 йилда ЯИМнинг 27,0 фоизи аграр соҳада яратилган бўлса, 2022 йилда бу кўрсаткич 3,5 фоиз бандга пасайган. Шу даврда ЯИМ ҳажми 2,017 мартага, тармоқларнинг ЯҚҚи эса 2,046 баробарга кўпайгани ҳолда, аграр соҳада яратилган қўшилган қиймат (ҚҚ) 1,673 мартага ўсиб, ЯҚҚнинг илгарилаш коэффициенти 1,223 мартани ёки 122,3 фоизни (2,046: 1,673) ташкил этган. Бу кўрсаткичлар аграр соҳанинг ривожланиш суръати орқада қолаётганлигидан далолат беради.

Таҳлил амалга оширилаётган даврларда фермер хўжаликлари томонидан ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажми 40,4 фоизга (78749,4:56400,5) кўпайиб, 2022 йилда жорий баҳоларда 108390,2 млрд. сўмни ёки барча тоифадаги хўжаликлардаги ҳиссаси 31,4 фоизни ташкил этиб, 2010 йилга нисбатан 4,9 фоиз бандга пасайган. Чунки, фермер хўжаликларининг кўп тармоқли соҳага айланиши натижасида улар томонидан қайта ишланган саноат характеридаги маҳсулотлар ҳажмининг кўпайиши бу кўрсаткичга ўз таъсирини кўрсатган, деб изоҳлаш мумкин (2 ва 4-жадваллар).

Амалга оширилган муҳимислоҳотлардан бири соҳага бозор муносабатларининг тизимли жорий этилгани ҳамда қишлоқ хўжалигида қўшимча қиймат занжирини яратиш, замонавий ва самарали усул агрокластер ва кооперациянинг йўлга қўйилгани бўлди.

Аграр соҳада яқин келажак ва истиқболда амалга ошириладиган дастурий вазифаларни ўзида мужассам этган Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегияси қабул қилиниши мамлакатимиз аграр ва озиқ-овқат саноати равнақида ўзига хос янги солнома очди. Ушбу ҳужжатда аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, қулай агробизнес муҳитини яратиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, соҳада инвестициявий жозибадорликни ошириш сингари устувор мақсадларни назарда тутган ҳолда ички бозорни тўлиқ таъминлаш билан бирга қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш ҳажмини икки баробар ошириш ва экспорт ҳажмини кўпайтириш вазифалари белгиланган[3].

Аграр секторда маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръати 2021 йилга қараганда 2022 йилда 0,4 фоиз бандга секинлашиб, 103,6 фоизни ташкил этгани ҳолда жорий баҳоларда 362,9 трлн. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилган (3-жадвал).

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасидаги иқтисодийислоҳотлар туфайли аниқ-равшан силжишларга эришиб, қишлоқда кўп укладли хўжалик шаклланди. Бироқ бу соҳада ишлаб чиқаришни ташкил қилиш жараёни ниҳоясига етгани йўқ, хўжалик юритишнинг янги мақбул шаклларини қидириш давом этмоқда. Кейинги йилларда Президентимиз ташаббуси билан кластер ва кооперация тизими иш бошлади, лекин ҳали бутун бўйи-басти билан ўзини кўрсата олгани йўқ.

Аграр иқтисодиётдаги муҳим муаммолар жумласига экинлар ҳосилдорлигини ва чорва молларининг маҳсулдорлигини ошириш мақсадида селекция ва уруғчилик, наслчилик ишларини кучайтириш, қишлоқ хўжалиги зараркунандаларига қарши кураш, экологик тоза маҳсулот етиштириш, атроф-муҳитга зарарни камайтириш, қишлоқ инфратузилмасини ривожлантириш ва бу мақсадларга инвестицияларни жалб қилишни кўпайтириб боришни киритиш мумкин.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиётимизнинг тўртдан бир қисмини ташкил этиб, унинг замирида халқимиз фаровон-

лиги, нарх-наво барқарорлиги, янги иш ўринларининг захираси ётади .

Аграр соҳада эътиборга алоҳида лойиқ масалалардан бири бўлиб, ишлаб чиқариш жараёнларида рақамлаштириш технологиясидан кенгроқ фойдаланиш ҳисобланади. Бу борада Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Рақамлаштириш бўлмаса, соҳада ҳаққоний статистика бўлмайди. Тўғри маълумот бўлмагач, агрохизматлар ривожланмайди, фермер қачон нима экса, кўпроқ даромад олишини билмайди. Шунинг учун бу жараённи тезлаштириш керак”[4].

Иқтисодиётнинг тармоқ ва соҳаларида энг муҳим масалаларидан бири қўшилган қиймат занжирини шакллантириш ва унинг ҳажмини аниқлаш ҳисобланади.

Маълумки, миллий иқтисодиётнинг барча хўжалик юритувчи субъектларида қўшилган қиймат яратилиб, уларнинг йиғиндиси тармоқлар ва соҳаларнинг ялпи қўшилган қиймат(ЯҚҚ) кўрсаткичини ташкил этади. Агар ушбу кўрсаткичга маҳсулотларга соф солиқлар суммасини қўшиб ҳисобласак, мамлакатнинг асосий макроиқтисодий кўрсаткичи – ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ҳажми ҳосил бўлади. ЯИМ таркибида соф солиқлар улуши 2010 – 2022 йилларда ўртача 9,5 фоиз атрофида бўлиб, 2010 йилда 12,0 фоизни, 2022 йилда эса 6,8 фоизни ташкил этган.

*2-жадвал*

**Ўзбекистон Республикасида аграр сектор ривожланишининг асосий кўрсаткичлари**

| Йиллар | Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажми ва ўсиш суръати | | | Аграр соҳада яратилган ҚҚнинг аграр соҳа* маҳсулотидаги улуши, % | Қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг аграр соҳа маҳсулотидаги салмоғи, % | Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг умумий ҳажмида хўжалик юритувчи субъектларнинг улуши, % | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020 йил баҳоларида, трлн. сум | амалдаги баҳоларда, трлн. сум | ўсиш суръати, % | | | фермер хўжаликларида | деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларида | Қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларда |
| А | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 2010 | 168,3 | 32,7 | 106,0 | 57,9 | 94,2 | 36,3 | 61,6 | 2,1 |
| 2011 | 178,9 | 48,1 | 106,3 | 57,7 | 94,2 | 34,7 | 63,0 | 2,3 |
| 2012 | 191,2 | 58,5 | 106,9 | 57,8 | 95,2 | 33,0 | 64,6 | 2,4 |
| 2013 | 203,6 | 69,4 | 106,5 | 57,7 | 95,7 | 32,1 | 65,5 | 2,4 |
| 2014 | 216,0 | 85,1 | 106,1 | 57,7 | 96,1 | 30,1 | 67,5 | 2,4 |
| 2015 | 229,2 | 103,3 | 106,1 | 57,7 | 96,4 | 30,7 | 66,9 | 2,4 |
| 2016 | 243,2 | 119,7 | 106,1 | 57,8 | 96,6 | 29,7 | 68,0 | 2,3 |
| 2017 | 246,1 | 154,4 | 101,2 | 57,8 | 96,0 | 29,3 | 68,4 | 2,3 |
| 2018 | 246,9 | 195,1 | 100,3 | 57,7 | 96,1 | 26,0 | 71,2 | 2,8 |
| 2019 | 254,5 | 224,3 | 103,1 | 57,8 | 96,4 | 27,9 | 68,3 | 3,8 |
| 2020 | 261,9 | 261,9 | 102,9 | 57,8 | 95,6 | 28,2 | 67,4 | 4,4 |
| 2021 | 272,4 | 317,8 | 104,0 | 57,7 | 95,2 | 29,3 | 65,5 | 5,2 |
| 2022 | 281,4 | 362,9 | 103,3 | 57,5 | 95,1 | 31,4 | 61,7 | 6,9 |

**Манба:** *Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ҳисобламаси.*

**Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги тушунилади.*

Республикамиз статистика амалиётида 2016 йилдан бошлаб иқтисодий фаолият турлари халқаро андозаларга мувофиқ келувчи умумдавлат таснифлагич ИФУТ – 2 га ўтилиши муносабати билан қишлоқ хўжалиги тармоғига ўрмончилик ва баликчилик соҳалари ҳам қўшилиб, натижада “Қишлоқ, ўрмон ва балиқ” хўжалиги деб ном олган “А” секция вужудга келди.

Мамлакатимиз статистика тизимида халқаро таснифлашларнинг қўлланилиши туфайли тармоқ ва соҳаларнинг улуши ЯИМ га нисбати билан бирга тармоқларнинг ялпи қўшилган қийматига нисбатан ҳам аниқланмоқда. Аммо алоҳида хўжалик юритувчи субъектларда қўшилган қиймат кўрсаткичини мавжуд статистик маълумотлар асосида бевосита аниқлаш мумкин эмас. Жумладан, 2022 йилда “А” секциянинг салмоғи тармоқларнинг ЯҚҚда 25,2 фоизни ташкил этган бўлса, унда қишлоқ хўжалигининг ва айниқса фермер хўжаликларининг улуши қанча эканлиги тўғрисида маълумотлар статистик тўпламларда келтирилмаган. Бироқ, фермер хўжаликлари қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи асосий хўжалик юритувчи субъектлар ҳисобланиши уларда яратилаган қўшилган қийматни аниқлашни тақозо этади. Шунинг учун уларда яратилган қўшилган қиймат кўрсаткичини қуйидаги усулда аниқлашни тавсия этамиз. Дастлаб “А” секцияда қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг улушини, сўнгра “А” секциянинг ҚҚ ҳажмини аниқланган улушга кўпайтириб, қишлоқ хўжалигида

*3-жадвал*

**Ўзбекистонда қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги (аграр соҳа) маҳсулотларининг ҳажми ва динамикаси**

| Йиллар | Аграр соҳада яратилган қўшилган қиймат, млрд, сўм | | Аграр соҳа маҳсулоти ҳажми, млрд, сўм | | Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажми, млрд сўм | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | жорий баҳода | 2020 йил баҳосида | жорий баҳода | 2020 йил баҳосида | жорий баҳода | аграр соҳа маҳсулотидаги улуши, % |
| А | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| **2010** | 21251,3 | 96867,1 | 32746,5 | 168252,0 | 30856,7 | 94,2 |
| **2011** | 30658,6 | 102776,0 | 48068,3 | 178851,9 | 45285,9 | 94,2 |
| **2012** | 36954,7 | 109970,3 | 58549,3 | 191192,7 | 55750,0 | 95,2 |
| **2013** | 42636,8 | 117008,4 | 69391,3 | 203620,2 | 66435,3 | 95,7 |
| **2014** | 53613,2 | 124028,9 | 85101,7 | 216041,1 | 81794,3 | 96,1 |
| **2015** | 64680,3 | 131594,7 | 103302,0 | 229219,6 | 99604,6 | 96,4 |
| **2016** | 74779,0 | 139753,5 | 119726,7 | 243202,0 | 115599,2 | 96,6 |
| **2017** | 90983,9 | 141430,6 | 154369,4 | 246120,4 | 148199,3 | 96,0 |
| **2018** | 113327,4 | 141854,9 | 195095,6 | 246858,7 | 187425,6 | 96,1 |
| **2019** | 129885,0 | 146252,4 | 224265,9 | 254511,4 | 216283,1 | 96,4 |
| **2020** | 150493,7 | 150493,7 | 261892,2 | 261892,2 | 250250,6 | 95,6 |
| **2021** | 181787,7 | 156513,4 | 317027,6 | 272367,9 | 303415,5 | 95,2 |
| **2022** | 208452,9 | 162147,9 | 362898,0 | 282173,1 | 345191,7 | 95,1 |

**Манба:** *Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ҳисобланмаси.*

яратилган қўшилган қиймат ҳажмини аниқлаймиз. Олинган натижани фермер хўжаликларининг қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотидаги салмоғига кўпайтириб, уларда яратилган қўшилган қиймат кўрсаткичини ҳисоблаб чиқамиз(4-жадвал). Қайд қилинганларнинг алгоритмини 2022 йил маълумотлари бўйича қуйидагича аниқлаш мумкин:

а) аграр соҳада яратилган қўшилган қиймат ҳажми = 208452,9 млрд. сўм;

б) аграр соҳанинг маҳсулоти ҳажми = 362898,0 млрд. сўм, шу жумладан, қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажми = 345191,7 млрд. сўм;

в) аграр соҳанинг маҳсулотида қишлоқ хўжалиги маҳсулоти улуши = 345191,7: 362898,0 = 0,951 ёки 95,1%;

г) қишлоқ хўжалигида яратилган қўшилган қиймат ҳажми = 208452,9*0,951=198238,7 млрд. сўм;д) қишлоқ хўжалиги маҳсулотида фермер хўжаликлари улуши = 31,4%;

е) фермер хўжаликларида яратилган қўшилган қиймат ҳажми =198238,7*0,314 = 62246,9 млрд. сўм.

Кейинги йилларда бу кўрсаткичларнинг ҳажми, салмоғи ва динамикаси 4-жадвалда келтирилган бўлиб, “А” секциянинг ҚҚи занжирида фермер хўжаликларида яратилган қўшилган қиймат улуши 2010, 2015, 2020 ва 2022 йилларда 2020 йил баҳоларида мос равишда 33,1; 29,8; 26,8 ва 27,7 фоизни, барча тармоқларнинг ЯҚҚида эса 10,3; 8,9; 7,3 ва 7,1 фоизни ташкил қилган.

*4-жадвал*

**Республика фермер хўжаликларида яратилган маҳсулот ҳажми ва динамикаси**

| Йиллар | Фермер хўжаликлари маҳсулоти хажми, млрд. сўм | | Қишлоқ хўжалиги маҳсулотида фермер хўжаликлари ҳиссаси, % | Қишлоқ хўжалигида яратилган қўшилган қиймат, млрд. сўм | | Фермер хўжаликларида яратилган қўшилган қиймат, млрд. сўм | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | жорий баҳода | 2020 йил баҳосида | | жорий баҳода | 2020 йил баҳосида | жорий баҳода | 2020 йил баҳосида |
| А | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** |
| **2010** | 11201,0 | 56100,5 | 36,3 | 20018,7 | 92099,7 | 7266,8 | 32229,9 |
| **2011** | 15714,2 | 57895,7 | 34,7 | 28880,4 | 97809,8 | 10021,5 | 33261,3 |
| **2012** | 18397,5 | 61485,3 | 33,0 | 35180,9 | 104852,1 | 11609,7 | 35323,5 |
| **2013** | 21325,7 | 64190,6 | 32,1 | 40803,4 | 111772,4 | 13097,9 | 36877,7 |
| **2014** | 24620,1 | 66244,7 | 30,1 | 51522,3 | 118814,0 | 15508,2 | 38057,8 |
| **2015** | 30620,8 | 68563,3 | 30,7 | 62351,8 | 126061,7 | 19142,0 | 39389,8 |
| **2016** | 34271,1 | 70277,4 | 29,7 | 72236,5 | 134003,6 | 21454,2 | 40374,6 |
| **2017** | 43358,1 | 65006,6 | 29,3 | 87344,5 | 135343,6 | 25591,9 | 37346,5 |
| **2018** | 48667,0 | 60521,1 | 26,0 | 108907,6 | 135614,3 | 28316,0 | 34769,6 |
| **2019** | 60394,7 | 66875,8 | 27,9 | 125209,1 | 140089,6 | 34933,3 | 38420,4 |
| **2020** | 70620,9 | 70620,9 | 28,2 | 143872,0 | 143872,0 | 40571,9 | 40571,9 |
| **2021** | 88761,5 | 74999,4 | 29,3 | 173061,9 | 149483,0 | 50707,1 | 43087,4 |
| **2022** | 108390,2 | 78749,4 | 31,4 | 198238,7 | 154864,4 | 62246,9 | 45241,8 |

**Манба:** *Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ҳисобланмаси.*

Барча кўрсаткичларнинг динамикасини 2020 йил баҳоларида аниқлашда уларнинг йиллар бўйича ўсиш суръатлари асос қилиб олинган.

Албатта, бундай тузилмавий силжишларнинг содир бўлишида бошқа тармоқ ва соҳаларнинг ривожланиши ўз таъсирини кўрсатган, деб изоҳлаш мумкин.

Таҳлил қилинаётган 2010–2022 йилларда аграр секторда яратилган маҳсулот ҳажмининг ўсиш суръати 167,7 фоизни, шундан қишлоқ хўжалиги тармоғида эса 168,2 фоизни ташкил этиб, унинг аграр сектор маҳсулотидаги ҳиссаси йиллар кесимида 94,2–96,4 фоизга тенг бўлганлиги ўрмон ва балиқ хўжалиги маҳсулотининг улуши камлигидан далолат беради. Ҳозирги даврда (2022 йил) қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 31,4 фоизи фермер хўжаликларида, 6,9 фоизи қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларда, 61,7 фоизи деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларида ишлаб чиқарилмоқда. Бу эса кейинги хўжалик юритувчи субъектларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш зарурлигини билдиради (2-жадвал).

Бу борада Президентимиз қишлоқ аҳлини иш билан бандлигини ва қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажмини кўпайтиришни инобатга олган ҳолда 2023 йилда 200 минг гектар ер майдонларини томорқа хўжалиги шаклида аҳолига бўлиб бериш таклифини киритди.

Таъкидлаш жоизки, 2010–2022 йилларда аҳолининг ўсиш суръатига қараганда айрим турдаги маҳсулотларнинг, жумладан, жами дон, шундан буғдой етиштиришнинг ўсиш суръати орқада қолмоқда. Агар шу йиллар мобайнида аҳолининг ўртача йиллик сони 24,8 фоизга кўпайган бўлса, аҳоли жон бошига жами дон ва буғдой етиштириш 13,5 ва 25,5 фоизга камайган. Бошқа турдаги қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ўсиш суръати аҳолининг ўсиш суръатига нисбатан анча юқори бўлган. Бу эса аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашнинг асосий омили ҳисобланади (5 ва 6-жадваллар). Қайд қилиш лозимки, муҳим сифат кўрсаткичи ҳисобланадиган айрим экинлар ҳосилдорлигининг ўзгариш суръати кейинги йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлган. Жумладан, 2021 йилда 2010 йилга нисбатан донли ва дуккакли экинлар ҳосилдорлиги 16,2 фоизга, сабзавотники 16,5 фоизга пасайган. Бу эса ҳозирги шароитга мос келадиган навлар яратишни тақозо этади.

Жаҳон иқтисодиётида қишлоқ хўжалиги муҳим ўрин эгаллаб, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган моддий эҳтиёжлари ва талабларини муайян даражада қондириб келмоқда. Статистик маълумотларга кўра, бугунги кунда жаҳон қишлоқ хўжалиги иқтисодий фаол аҳолининг 1 млрд. кишидан зиёдининг бандлигини таъминламоқда, шунингдек, жаҳонда ишлаб чиқарилган жами маҳсулотнинг 5 фоизига яқини мазкур тармоқ ҳиссасига тўғри келади. Статистик прогноз маълумотларига кўра, “2050 йилга бориб, жаҳон аҳолиси 9,1 млрд. кишига етиши мумкин. Бу ҳолатда жаҳон аҳолисининг гўшт ва сут маҳсулотларига бўлган талаби ҳозирги кунга нисбатан 2,5–3,0 баробарга ортиши кутилмоқда”[1]. Бу эса ўз навбатида, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришга бўлган талабни кучайтиради.

Тадқиқотларимиз шундан далолат бермоқдаки, аграр секторда қўшилган қиймат (ҚҚ) занжирини шакллантиришда сусткашлик юз бермоқда.

[1] http://mex.ru

*5-жадвал*

**Аҳоли жон бошига қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш динамикаси**

| Йиллар | Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти 2020 йил баҳосида, минг сум | Дон ва дуккакли дон, кг | Картошка, кг | Сабзавот, кг | Озиқабоп полиз, кг | Мева ва резаворлар, кг | Узум, кг | Гўшт (тирик вазнда), кг | Сут, кг | Тухум, дона |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 5608,8 | 259,2 | 59,3 | 219,3 | 41,4 | 58,7 | 34,3 | 51,2 | 216,0 | 107,2 |
| 2011 | 5797,7 | 240,4 | 63,5 | 238,4 | 44,1 | 64,0 | 37,2 | 53,3 | 230,6 | 117,3 |
| 2012 | 6126,0 | 252,5 | 69,1 | 260,9 | 47,6 | 68,9 | 40,5 | 56,2 | 245,5 | 130,1 |
| 2013 | 6427,9 | 258,2 | 74,4 | 281,7 | 51,5 | 74,8 | 43,7 | 59,1 | 260,7 | 145,1 |
| 2014 | 6720,3 | 261,7 | 79,7 | 301,9 | 55,1 | 81,0 | 46,9 | 62,0 | 274,1 | 160,9 |
| 2015 | 7006,6 | 261,1 | 82,6 | 300,0 | 59,2 | 78,9 | 48,5 | 65,0 | 288,4 | 176,9 |
| 2016 | 7319,2 | 259,4 | 87,6 | 319,8 | 64,2 | 82,0 | 50,7 | 68,2 | 304,7 | 193,2 |
| 2017 | 7268,0 | 225,0 | 86,3 | 315,5 | 62,7 | 80,7 | 50,2 | 70,6 | 310,2 | 195,5 |
| 2018 | 7158,0 | 198,3 | 88,4 | 296,2 | 55,7 | 82,1 | 48,2 | 73,7 | 317,6 | 226,0 |
| 2019 | 7257,2 | 221,5 | 92,0 | 304,2 | 61,6 | 82,0 | 47,7 | 73,7 | 319,1 | 231,0 |
| 2020 | 7311,9 | 221,0 | 91,0 | 301,8 | 61,8 | 81,4 | 46,5 | 73,6 | 320,7 | 227,0 |
| 2021 | 7446,6 | 218,7 | 94,1 | 310,8 | 65,5 | 81,7 | 48,6 | 75,5 | 322,9 | 223,0 |
| 2022 | 7557,2 | 224,1 | 96,6 | 313,1 | 67,9 | 84,1 | 49,4 | 76,5 | 326,2 | 228,0 |
| 2022 йил 2010 йилга нисбатан,% | 134,7 | 86,5 | 162,9 | 142,8 | 164,0 | 143,3 | 144,0 | 149,4 | 151,0 | 212,7 |

**Манба:** *Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ҳисобламаси.*

*6-жадвал*

**Ўзбекистан Республикасида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми ва динамикаси**

| № | Маҳсулот турлари | Ўлчов бирлиги | **2010 й.** | **2015 й.** | **2020 й.** | **2022 й.** | **2022 йилда** нисбатан ўзгариш суръати, фоизда | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | **2010 й.** | **2015 й.** | **2020 й.** |
| 1. | Дон – жами *) | минг т. | 7465,6 | 8097,1 | 7234,4 | 7194,8 | 96,4 | 88,9 | 99,5 |
| 2. | ш.ж.: а) буғдой | минг т. | 6745,0 | 6964,7 | 6157,8 | 5984,8 | 88,7 | 85,9 | 97,2 |
| 3. | б) дон учун маккажўхори | минг т. | 231,7 | 439,6 | 475,3 | 590,0 | 254,6 | 134,2 | 124,1 |
| 4. | в) шоли | минг т. | 249,8 | 425,7 | 293,5 | 334,2 | 133,8 | 78,5 | 113,9 |
| 5. | Пахта хом ашёси | минг т. | 3404,0 | 3361,3 | 3064,0 | 3372,9** | 91,1 | 100,3 | 110,1 |
| 6. | Картошка | минг т. | 1694,8 | 2586,8 | 3143,8 | 3285,6 | 193,9 | 127,0 | 104,6 |
| 7. | Савзавот | минг т. | 6262,4 | 9390,0 | 10431,4 | 10850,2 | 173,3 | 115,6 | 104,0 |
| 8. | Озиқабоп полиз | минг т. | 1182,4 | 1853,6 | 2134,4 | 2285,3 | 193,3 | 123,3 | 107,1 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. | Мева ва резаворлар | минг т. | 1676,3 | 2467,9 | 2812,6 | 2852,6 | 170,2 | 115,6 | 101,4 |
| 10. | Узум | минг т. | 979,3 | 1518,2 | 1606,9 | 1695,3 | 173,1 | 111,7 | 105,5 |
| 11. | Гўшт (тирик вазнда) | минг т. | 1461,4 | 2033,4 | 2519,6 | 2635,1 | 180,3 | 129,6 | 104,6 |
| 12. | Сут | минг т. | 6169,0 | 9027,8 | 10976,9 | 11274,2 | 182,8 | 124,9 | 102,7 |
| 13. | Тухум | млн. дона | 3061,2 | 5535,4 | 7781,2 | 7788,4 | 254,4 | 140,6 | 100,1 |

* дуккакли донсиз

**2021 йил маълумоти

**Манба:** *Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ҳисобланмаси.*

Бу борада Президентимиз қўшимча қиймат яратишнинг узоқ ва самарасиз занжирлари борасида Марказий Осиё раҳбарларининг маслаҳат учрашувида ўз таклифларини илгари сурди[2].

Республикамизда ЯИМнинг қўшимча ўсиш суръати 2022 йилда 2021 йилга нисбатан 5,7 фоизга тенг бўлиб, бунга аграр секторнинг қўшган ҳиссаси 0,8 фоизни, саноат, қурилиш ва хизматлар соҳалариники тегишли равишда 1,3; 0,4 ва 3,3 фоизни ташкил этиб, қайд қилинган тармоқ ва соҳаларнинг ЯИМнинг қўшимча ўсиш суръатига таъсири даражаси 14,0; 22,8; 7,0 ва 57,8 фоизга тенг бўлган. Шундай қилиб, ЯИМнинг қўшимча ўсиш суръатига аграр соҳанинг таъсири паст бўлганлигини таъкидлаш жоиз.




**1-расм. ЯИМнинг қўшимча ўсишида тармоқларнинг ҳиссаси, фоизда[3]**

Бошқа тармоқларга қараганда 2022 йилда 2017 йилга нисбатан ЯИМнинг қўшимча ўзгаришида аграр секторнинг 1,6 баробарга (0,8:0,5) ўсганлигини кўришимиз мумкин. Бундай ўсиш заминий салмоқнинг кичик, яъни 0,5 га тенг бўлганлиги билан изоҳланади(1-расм).

### Хулоса

Ўртача муддатли истиқболда ер ва сув ресурслари тақчиллиги шароитида аграр соҳани барқарор ривожлантиришнинг устувор йўналишлари, фикримизча, қуйидагилардан иборат:

– аграр секторда таркибийислоҳотларни чуқурлаштириш ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини диверсификация қилиш;

– қишлоқ хўжалигини, инфратузилма объектларини ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлайдиган тармоқларни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш жараёнларини жадаллаштириш;

– қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш;

– қишлоқ озиқ-овқат бозори инфратузилмасини ривожлантириш ва такомиллаштирши;

– фермер хўжаликларнинг молиявий барқарорлигини ошириш

[2] Kun.uz/ 80424665. 14.09.2023й.

[3] Манба: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида ҳисобланган.

мақсадида қишлоқ хўжалиги сиёсатини либераллаштириш ва хусусий қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари ҳуқуқларини кучайтириш чора-тадбирларини кўриш;

– аграр иқтисодиётни ривожлантиришда экинлар ҳосилдорлигини ва чорва молларининг маҳсулдорлигини ошириш мақсадида замон талабларига мос селекция ва уруғчилик, наслчилик ишларини кучайтириш зарур.

Хулоса тарзида шуни таъкидлаш жоизки, аграр соҳа фаолиятини замонавий иқтисодий-статистик кўрсаткичлар асосида комплекс баҳолаш замон ва маконнинг турли шароитларида соҳа маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва истеъмол қилишнинг ҳолати, ривожланиши ва барқарорлигини акс эттириш имконини беради.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” [Lex.uz].
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида [Lex.uz].
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон Фармони. “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”(Lex.uz).
4. Мирзиёев Ш. Аграр соҳадаги вазифалар . Янги Ўзбекистон, 2022 йил 19 октябрь.
5. Абдуғаниев А. Қишлов хўжалиги иқтисодиёти – Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007. 340-б.
6. Рашидова Н.Х. Аграр секторда тузилмавий силжишларни статистик ўрганиш усуллари. Иқт. фан. ном. илм дар. олиш учун ёзил.дисс.-Т.:ТДИУ,2010.-159 б.
7. Утанов Б.К. Кўп тармоқли фермер хўжаликлари фаолияти самарадорлигини эконометрик моделлаштириш PhD дар. олиш учун ёзиш. дисс.-.: Ўз.стат. қошидаги КМОВСТИ, 2020.-136 б.
8. Хўжақулов Х.Д. ва бошқалар. Иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилиш шароитида таркибий ўзгаришларининг самарали йўлларини статистик методлар асосида ишлаб чиқиш. Монография. – Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2018. 206-б.
9. Маматқулов Б.Х . Фермер хўжаликларининг иқтисодий қўллаб- қувватлаш механизмлари самарадорлигини статистик баҳолаш усулларини такомиллаштириш. DSc дар. олиш учун ёзил.дисс.-Т.; ТДИУ, 2023. 185-б.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги расмий сайти маълумотлари(www.stat.uz).

UO‘T 339.9(31)

**Hayitova Nigora Ilxomovna,**
*Toshkent moliya instituti, “Statistika va ekonometrika” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi*

# TASHQI SAVDO INDIKATORLARINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINING STATISTIK TADQIQI

**Хайитова Нигора Ильхомовна,**
*независимый исследователь кафедры «Статистика и эконометрика» ТФИ*

# СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

**Khayitova Nigora Ilkhomovna,**
*independent researcher of the Department “Statistics and Econometrics” Tashkent institute of finance*

# STATISTICAL RESEARCH OF THE EFFECT OF FOREIGN TRADE INDICATORS ON ECONOMIC GROWTH

**Annotatsiya.** *Maqolada tashqi savdoning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va yalpi ichki mahsulotga ta’siri ko‘rsatkichlari bayon qilingan. Shu bilan birga, tashqi savdo rivojlanishining hozirgi holati, eksport va import hajmi hamda ularning tashqi savdo aylanmasidagi salmog‘i va dinamikasi ko‘rsatkichlari indeks metodi yordamida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tegishli xulosalar qilingan va takliflar berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *tashqi savdo, eksport, import, iqtisodiy o‘sish, YIM, indeks, ilgarilash koeffitsiyenti.*

**Аннотация.** *В статье излагается роль внешней торговли в экономике страны и показатели ее влияния на валовой внутренний продукт, при этом анализируется текущее состояние развития внешней торговли, объемы экспорта и импорта и их вес во внешнеторговом обороте, а также показатели динамики с помощью индексного метода. На основании результатов исследования делаются соответствующие выводы и даются предложения.*

**Ключевые слова:** *внешняя торговля, экспорт, импорт, экономический рост, ВВП, индекс, коэффициент продвижения.*

**Annotation.** *The role of foreign trade in the country’s economy and the indicators of its influence on the gross domestic product are described in the article, while the current state of*

*foreign trade development, the volume of exports and imports, their weight in the foreign trade turnover, and their dynamics are analyzed using the index method. Based on the results of the research, relevant conclusions are presented and suggestions are made.*

**Key words:** *Foreign trade, export, import, economic growth, GDP, index, development rate.*

**Kirish**

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida tashqi savdo aylanmasi muhim o‘rin egallashi, mazkur ko‘rsatkichning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini statistik tadqiq etishni taqozo etadi. Qayd qilingan ikkita ko‘rsatkichning o‘zaro bir-biri bilan qanday bog‘langanligi to‘g‘risida xulosalar chiqarish bo‘yicha turli ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Iqtisodiy o‘sish mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishda qo‘shilgan qiymat hajmini muttasil ko‘paytirib borish jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatib, mamlakatning real yalpi ichki mahsulot (YIM)ining oshishiga xizmat qiladi. Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdorini ifodalaydi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki olib chiqish (eksport) natijasida mamlakatda moddiy resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi[1]. Respublikamizda dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda iqtisodiy o‘sish o‘tgan yilga nisbatan 105,7 foizni, tashqi savdo aylanmasi 118,7 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash natijasida tashqi savdo mamlakatninig iqtisodiy o‘sishiga qaraganda tezlashgan, deb xulosa qilish bilan birga, eksport va import o‘rtasidagi nisbatlarga razm solish darkor. Shu sababli fikrimizcha, yalpi ichki mahsulotga tashqi savdoning ta’sirini o‘rganishda ijobiy va salbiy ko‘rsatkichlarni aniqlab olish zarur bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Mazkur mavzuga doir ko‘pgina ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, mualliflar o‘zlarining tadqiqot yo‘nalishidan kelib chiqqan holda tegishli xulosa va takliflar taqdim etgan. Tashqi savdoning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siriga, xususan, iqtisodiy o‘sishga qaratilgan empirik tadqiqotlar ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirildi. Bunda tadqiqotlarning aksariyati statistik yoki ekonometrik usullardan foydalanish jarayonida tashqi savdoning mamlakat yalpi ichki mahsulot (YIM)iga ijobiy ta’sir qiladi degan fikrlarni ilgari surishgan. Jumladan, Belloumi va Alshehry[5] o‘zlarining tadqiqot ishida ko‘p yillik ma’lumotlar asosida xalqaro savdo mamlakatning iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini isbotlagan bo‘lsa, Frankel va Romer[6] o‘z tadqiqotlarida 63 mamlakat misolida tashqi savdoning rivojlanishi YIMga ta’siri ijobiy bo‘lganligini aniqlab, vektor xato tuzatish modeli yordamida eksportning YIMga ta’sirini o‘rganish modelini taklif qilgan. Andrea Sujova[7] hammuallifdagi ilmiy ishda tashqi savdodagi eksportning mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga ta’sirini isbotlab bergan. Respublikamiz tadqiqotchilaridan E.Yuldashev[8] va X.Xo‘jaqulov[9]lar o‘zining ilmiy ishlarida statistika va ekonometrikaning usullaridan foydalanib, umumiy xulosalar taqdim etgan. Biroq, ko‘pchilik tadqiqotchilarning mavzuga oid ilmiy ishlarida statistik usullardan, jumladan indeks usulidan kam foydalanilgan. Shunga ko‘ra ilmiy ishimizda ayrim statistik usullardan kengroq foydalanishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to‘g‘risida" va 2000-yil 26-maydagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida" gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4796-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019-yil 18-yanvardagi 1-son "Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo‘llanmasi" asosida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyatda o‘rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qamrab olishni kengaytirishga qaratilgan statistik ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashda zamonaviy statistik uslublarni keng joriy etish, maqsadida tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, statistik jadval va grafiklar, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, dinamika qatorlari, statistik indekslar kabi usullardan keng foydalanildi.

Natija va muhokoma

Respublikamizda pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy o‘sish borasida ijobiy siljishlar yuz bermoqda. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 888341,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan qo‘shimcha o‘sish sur’ati 5,7 foizga teng bo‘ldi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda, tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tashqi savdo aylanmasi 2022-yilda 50,0 mlrd. AQSH dollariga yetishi va 2021-yilga nisbatan 18,7 foizga oshishini ta’minladi[2]. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat tarixida eng yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Yaqqolroq tasavvurga ega bo‘lish uchun ma’lumotlarni grafikda aks ettiramiz (1-rasm). Eksportni rag‘batlantiruvchi omillar qatoriga turli huquqiy va iqtisodiy omillarni qo‘shish mumkin. Huquqiy omillar eksportyorlarning erkin faoliyat ko‘rsatishini ta’minlasa, iqtisodiy omillar, ya’ni turli soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiya va dotatsiyalar eksport qilishga bo‘lgan manfaatdorlikni oshiradi. Import o‘rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish mamlakatdan valyuta chiqib ketishining oldini oladi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda bugungi kunda eksportchi korxonalarni qo‘llab- quvvatlash maqsadida eksportga chiqayotgan mahsulotlari uchun yagona soliq va foyda solig‘idan ozod etilishi, ular qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘lishi eksport salohiyatining yuksalishiga zamin yaratadi.




**1-rasm. O‘zbekistonda 2010–2022-yillarda yalpi ichki mahsulot va tashqi savdo aylanmasining o‘zgarish sur’ati ko‘rsatkichlari (oldingi yilga nisbatan, foizda)[1]**

Mamlakatimizda 2010–2022-yillarda YIM hajmi o‘tgan davrga nisbatan muntazam ravishda o‘sib borgan bo‘lsa-da, ayrim yillarda jadallashish sur’ati pasaygan (1-rasm). Grafikdagi ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda 2010-yilga nisbatan iqtisodiy o‘sish 2,06 barobarga, tashqi savdo aylanmasi 2,25 martaga ortgan bo‘lib,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ayrim yillarda tashqi savdo aylanmasi o‘sish sur’atining pasayishi kuzatilgan. Umuman olganda 2010–2022-yillarda iqtisodiy o‘sishga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 1,09 barobarga (2,25:2,06) ilgarilagan. Bu natija salbiy yoki ijobiy deyishimiz uchun tashqi savdo aylanmasi tarkibini bilish muhimdir. Savdo balansida eksportning ulushi 2010-yilda 58,7 foizni, 2022-yilda esa 38,5 foizni tashkil etib, 2010-yilda mazkur ko‘rsatkich ijobiy holatni ifodalagan bo‘lsa, 2016-yildan boshlab tashqi savdo balansida defitsit vujudga kelib, uning miqdori oshib borgan. Xuddi shunday holat tashqi savdo aylanmasining MDH va boshqa davlatlar bilan aloqasida ham namoyon bo‘lmoqda (1-jadval). MDH davlatlarining tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi 2010-yilda 60,3 foizini, import hissasi esa 39,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa xorijiy davlatlar bo‘yicha mos ravishda 57,5 va 42,5 foizga teng bo‘lgan. 2022-yilga kelib MDH davlatlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasida eksport hissasi 39,4 foizga, import hissasi esa 60,6 foizga, boshqa davlatlar bo‘yicha esa mos ravishda 38.0 va 62.0 foizga teng bo‘lgan. Fikrimizcha, bunday holatda aniqroq xulosa chiqarish uchun eksport va import hajmining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish talab etiladi.

*1-jadval*

**O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyati ko‘rsatkichlari, mln.AQSh dollarida**[2]

| Ko‘rsatkichlar | YILLAR | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2010 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
| **Tashqi savdo aylanmasi** | **22 199,2** | **24 924,2** | **24 232,2** | **26 566,1** | **33 429,9** | **41 751,0** | **36 256,1** | **42 170,5** | **50 061,5** |
| eksport | 13 023,4 | 12 507,6 | 12 094,6 | 12 553,7 | 13 990,7 | 17 458,7 | 15 102,3 | 16 662,8 | 19 293,7 |
| import | 9 175,8 | 12 416,6 | 12 137,6 | 14 012,4 | 19 439,2 | 24 292,3 | 21 153,8 | 25 507,7 | 30 767,8 |
| *savdo balansi saldosi* | 3 847,6 | 91,0 | -43,0 | -1 458,7 | -5 448,5 | -6 833,6 | -6 051,5 | -8 844,9 | -11 474,0 |
| **shu jumladan: MDH davlatlari bilan** | **9 369,2** | **9 548,9** | **8 388,1** | **9 084,6** | **12 144,4** | **14 461,8** | **11 826,4** | **15 920,4** | **19 954,8** |
| eksport | 5 647,7 | 5 230,3 | 4 338,3 | 4 080,1 | 5 003,1 | 6 234,0 | 4 106,4 | 5 433,8 | 7 867,0 |
| import | 3 721,5 | 4 318,6 | 4 049,8 | 5 004,5 | 7 141,3 | 8 227,8 | 7 720,0 | 10 486,6 | 12 087,7 |
| *savdo balansi saldosi* | 1 926,2 | 911,7 | 288,5 | -924,4 | -2 138,2 | -1 993,8 | -3 613,6 | -5 052,8 | -4 220,7 |
| **Boshqa davlatlar bilan** | **12 830,0** | **15 375,3** | **15 844,1** | **17 481,5** | **21 285,5** | **27 289,2** | **24 429,6** | **26 250,1** | **30 106,7** |
| eksport | 7 375,7 | 7 277,3 | 7 756,3 | 8 473,6 | 8 987,6 | 11 224,7 | 10 995,8 | 11 229,0 | 11 426,7 |
| import | 5454,3 | 8 098,0 | 8 087,8 | 9 007,9 | 12 297,9 | 16 064,5 | 13 433,8 | 15 021,1 | 18 680,0 |
| *savdo balansi saldosi* | 1 921,4 | -820,7 | -331,5 | -534,3 | -3 310,3 | -4 839,9 | -2 437,9 | -3 792,1 | -7 253,4 |

Mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasida 2022-yilda 2010-yilga nisbatan eksportning hajmi 1,48 martaga, import hajmi esa 3,35 martaga oshganligi yoki importning eksportga nisbatan qariyb 2,3 barobarga ziyod bo‘lgani, mamlakat byudjeti defitsitiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Tashqi savdoning statistik ko‘rsatkilari tizimi ushbu faoliyatni yaxlit holda o‘rganish, tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi. Ushbu ko‘rsatkichlarning natijalariga qarab, mamlakat

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tashqi savdoda qaysi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi lozimligi va eksportni rivojlantirishning istiqboldagi holatlari bo'yicha iqtisodiy qarorlar qabul qilishi mumkin.

Eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar miqdor va narx omili bo'lib, ushbu omillar mamlakat eksportining kelajakdagi holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ikki xil holatda mamlakat eksportdan keladigan valyuta tushumlarini oshirish mumkin:

– eksport qilinayotgan mahsulot miqdorini oshirish;

– tovarlarni tashqi bozorga yuqori narxlarda sotish.

Yuqoridagi har ikki omil ham jahon bozoridagi talab va taklifga bog'liq bo'ladi.

Eksport salohiyati rivojlanishini o'rganishning ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, eksportga ixtisoslashuv indeksi hisoblanadi. U muayyan tovarning bir birlik importiga mazkur tovarning qancha eksporti mos kelishligini anglatadi. Masalan, 2022-yilda oziq- ovqat mahsulotlarining O'zbekiston eksportidagi ulushi 8,5 foizni, importdagi ulushi esa 11,0 foizni tashkil qilgan. U holda eksportga ixtisoslashuv indeksi 2021-yilda 0,773 ga (8,5:11,0), 2010-yilda 0,924 ga teng bo'lganligi va uning qiymati 2022-yilda 16,4 foiz bandga pasayganligi, O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha eksporga emas, balki importga ixtisoslashganligidan dalolat beradi.

Tashqi savdo eksportining to'liq samaradorligi indeksini aniqlash ham muhimdir. Agar eksportdan tushgan valyuta tushumlari eksport tovarlarini ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlardan ko'p yoki aksincha kam bo'lsa, mamlakatning tashqi savdo faoliyati samarali yoki samarasiz hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, mamlakat tashqi savdosida eksport va importning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

*2-jadval*

**2010–2022-yillarda mamlakat tashqi savdo aylanmasining o'zgarish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan, foizda)**[3]

| Ko'rsatkichlar | YILLAR | | | | | | | | | 2022-yilda 2010- yilga nisbatan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2010 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | |
| **Tashgi savdo aylanmasi** | **104,7** | **90,5** | **97,2** | **109,6** | **125,8** | **124,9** | **86,8** | **116,3** | **118,7** | **225,2** |
| eksport | 110,6 | 92,3 | 96,7 | 103,8 | 111,4 | 124,8 | 86,5 | 110,3 | 115,8 | 147,9 |
| import | 97,2 | 88,8 | 97,8 | 115,4 | 138,7 | 125,0 | 87,1 | 120,6 | 120,6 | 335,5 |
| *Savdo balansi saldosi* | *113,8* | *103,9* | *98,9* | *89,9* | *80,3* | *99,9* | *99,3* | *91,5* | *96,0* | *44,1* |
| **Shu jumladan MDH davlatlari bilan** | **117,0** | **79,0** | **87,8** | **108,3** | **133,7** | **119,1** | **81,8** | **134,6** | **125,3** | **212,8** |
| eksport | 144,0 | 77,2 | 82,9 | 94,0 | 122,6 | 124,6 | 65,9 | 132,3 | 144,8 | 139,1 |
| import | 91,0 | 81,2 | 93,8 | 123,6 | 142,7 | 115,2 | 93,8 | 135,8 | 115,3 | 324,7 |
| Savdo balansi saldosi | 97,2 | 99,6 | 103,0 | 110,3 | 121,8 | 128,2 | 89,5 | 107,5 | 114,7 | 234,6 |
| **Boshqa davlatlar bilan** | **94,0** | **107,4** | **106,6** | **109,2** | **106,1** | **124,9** | **98,0** | **102,1** | **101,8** | **159,6** |
| eksport | 102,0 | 93,5 | 99,9 | 111,4 | 136,5 | 130,6 | 83,6 | 111,8 | 124,4 | 339,3 |
| import | 120,4 | 79,3 | 85,2 | 98,2 | 109,8 | 92,9 | 91,3 | 125,3 | 109,3 | 90,7 |
| Savdo balansi saldosi | 153,2 | 71,9 | 77,8 | 86,1 | 115,6 | 99,8 | 67,2 | 129,6 | 142,3 | 87,2 |

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlillarimiz shundan dalolat bermoqdaki, so‘nggi yillarda import hajmining oshishi iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir doirasi kuchayotganligidan darak beradi. Shu o‘rinda yurtimizda import o‘rnini bosuvchi tovar va xizmatlarni ko‘proq ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish lozim deb hisoblaymiz.

## Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmonida qo‘shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali tashqi savdo aylanmasining hajmini ko‘paytirib, iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini oshirish hamda tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish natijasida eksport hajmlari va geografiyasini kengaytirish maqsadlari qo‘yilgan. Mazkur maqsadlarga erishishda davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar bilan birgalikda mavjud holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurdir.

Mazkur ilmiy maqolada keltirilgan tahlil va natijalardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

– mamlakat iqtisodiy o‘sishida tashqi savdoning o‘rnini to‘g‘ri baholash uchun empirik ma’lumotlardan keng foydalangan holda ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish;

– tashqi savdo va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda statistik va ekonometrik usullardan keng foydalanib xulosalar chiqarish;

– respublikada tashqi savdo siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlab olish;

– tashqi savdo to‘g‘risidagi axborotlar bazasini takomillashtirish;

– tashqi savdo faoliyatiga ta’sir etuvchi keng qamrovli ko‘rsatkilari tizimini ishlab chiqish;

– tashqi savdoning tarmoq tarkibini statistik baholash;

– Xerfindal – Xirshman indeksi yordamida tashqi savdoda hududlar raqobatbardoshligini baholash;

– tashqi savdoning samaradorlik ko‘rsatkilarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash kabilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to‘g‘risida" gi qonuni, O‘RQ-707-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4796-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" gi PF-60-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019-yil 18-yanvardagi "Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo‘llanmasi", 1-son.
5. Belloumi, Mounir, and Atef Alshehry. 2020. The Impact of International Trade on Sustainable Development in Saudi Arabia. Sustainability 12: 5421.
6. Andrea Sujova, Lyubica Simanova, Vaclav Kupcak, Jarmila Schmidtova and Adriana Lukacikova. 2021. Effects of Foreign Trade on the Economic Performance of Industries—Evidence from Wood Processing Industry of Czechia and Slovakia. Economies 2021, 9, 180. https://doi.org/10.3390/economies9040180
7. Yuldashev E. O‘zbekistonda tovar va xizmatlar tashqi savdosi dinamikasining statistik tahlili. Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining "O‘zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2022-yil, 4-son.
8. Xo‘jaqulov X. Hududlarning eksport salohiyatini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. T.:Navruz, 2018.
9. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.

**UO‘T 63:311:630;636/03**

**Mamatqulov Baxtiyor Xalmuradovich,**
*Toshkent moliya instituti*
*“Statistika va ekonometrika” kafedrasi professori v.b.,*
*iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*
*elektron pochta:* bmamatkulov@gmail.com

**Mo‘minova Maxbuba Abduvafoyevna,**
*Toshkent Moliya Instituti*
*“Statistika va ekonometrika” kafedrasi dotsenti v.b.,*
**elektron pochta:** maxbubaabduvafoyevna@gmail.com

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI FAOLIYATINI STATISTIK BAHOLASH

**Маматкулов Бахтиёр Халмурадович,**
*Ташкентский финансовый институт профессор кафедры*
*«Статистика и эконометрика», доктор экономических наук*
*электронная почта:* bmamatkulov@gmail.com

**Муминова Махбуба Абдувафоевна,**
*Ташкентский финансовый институтстарший преподаватель*
*кафедры «Статистика и эконометрика»,*
*электронная почта: maxbubaabduvafoyevna@gmail.com*

# СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОТРАСЛИ СЕЛЬСКОГО, ЛЕСНОГО И РЫБНОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Mamatkulov Bakhtiyor Khalmuradovich,**
*Tashkent Institute of Finance*
*Professor of the Department of “Statistics and Econometrics”,*
*doctor of economik sciences*
*email:* bmamatkulov@gmail.com

**Muminova Maxbuba Abduvafoyevna,**
*Tashkent Institute of Finance Assistant of the Department of*
*“Statistics and Econometrics”*
*e-mail:* maxbubaabduvafoyevna@gmail.com

# STATISTICAL EVALUATION OF THE ACTIVITY OF THE AGRICULTURAL, FORESTRY AND FISHERIES NETWORK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Annotatsiya.** *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida agrar soha (qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi) faoliyatini statistik baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, mamlakatimiz hududlari kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash masalalari yoritilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, xo‘jalik toifalari, metodologiya, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi statistikasi, tendensiyalar, statistik tahlil, ma’lumot manbalari, bozor narxlari, ma’lumotlar ko‘lami, fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi kuzatuvlari.*

**Аннотация.** *В статье описаны особенности статистической оценки сельскохозяйственного, лесного и рыбного хозяйства Республики Узбекистан, охвачены и обработаны статистические данные по деятельности сельскохозяйственных, лесных и рыбных хозяйств в регионах нашей страны.*

**Ключевые слова:** *сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, категории ферм, методология, статистика сельского, лесного и рыбного хозяйства, тенденции, статистический анализ, источники данных, рыночные цены, объем данных фермерского хозяйства, наблюдения за сельскими хозяйствами.*

**Annotation.** *The article describes the peculiarities of improving statistical assessment of the agricultural, forestry and fishing industry in the Republic of Uzbekistan, statistical data on the activity of the agricultural, forestry and fishing industry in the regions of our country. Issues of data collection and processing are covered.*

**Keywords:** *agriculture, forestry and fishery, farm categories, methodology, agriculture, forestry and fisheries statistics, trends, statistical analysis, data sources, market prices, data scope, farms, rural farm observations.*

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i bo‘yicha statistik ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish bo‘yicha bir qator chora -tadbirlar ko‘rilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz agrar sohasida iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan sharoitda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini statistik tahlil qilish, jumladan, statistika kuzatishlarini o‘tkazish, rasmiy statistikaning ma’lumotlarini shakllantirish va statistik tahlil qilish, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati idoralarining axborot tizimlari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirishni talab etadi.

Hozirgi davrda agrar sektorda statistika ma’lumotlarining sifatini yanada yaxshilash, statistik ko‘rsatkichlarning keng qamrovli ma’lumot bazalarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarlarda milliy statistikaning zamonaviy uslublarini joriy etish zarurati maqolaning bugungi kunda dolzarbligini belgilab beradi.

Respublikamizning mahsulot yetishtirish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri – qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hisoblanib, o‘zining qo‘shilgan qiymat yaratishi, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan mahsulot yetishtirish imkoniyatlari bilan boshqa tarmoqlardan o‘z afzalligi bilan tubdan farq qiladi. “Mamlakatimizda statistika ma’lumotlarining sifati va ishonchliligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan, xalqaro tashkilotlarning maxsus nashrlari va ma’lumotlar bazalarida xolis va ishonchli aks ettirishni ta’minlash choralari ko‘rilmoqda” [3,1-bet]. Shu sababli,

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatining statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli, “Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi” [2, 4-bet].

Shu bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ichki bozorda aholi talabini ta’minlash va narxlar barqarorligini saqlash hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” [4, 7-bet] maqsad qilib qo‘yilgan.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ini jadal va barqaror rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini oshirish, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta’minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmonining 30-maqsadida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish” vazifasi qat’iy belgilab qo‘yildi [1, 6-bet].

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirish masalalariga oid ko‘p ilmiy ishlar qilinganligiga qaramay, uning mohiyati, tarkibi, vazifalari, iqtisodiyotdagi roli xususida yagona, yaxlit umum qabul qilingan yondashuv shakllanmagan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatini statistik baholashning metodologik asoslari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Muallif A.Abdug‘aniyev, A.A.Abdug‘aniyevlarning fikricha, “Qishloq xo‘jaligi asosiy maqsadga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlarni yetishtiradi, ish va xizmatlarni bajaradi, ular yordarnida talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Korxonalar, birIashmalar, tarmoqlar (tuman, viloyat, respublika) miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikada tub islohotlarni amalga oshirish zarur. Ular bozor iqtisodiyoti munosabatlarining huquqiy, me’yoriy - uslubiy hamda amaliy asoslarini yaratib berishi lozim” [9, 17-bet].

H.Nabiyev, M.Ahmedovaning qayd etishicha “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarkibiga bu yilgi hosildan olingan dehqonchilik va chorvachilik mollari va qushlarini o‘stirishaan olingan mahsulotlar qiymati ham kiritiladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaming ishlab chiqargan mahsuloti hajmi ularning barcha elementlarini qiymatini qo‘shish usuli bilan hisoblanadi” [6, 193-bet].

N.M.Soatov, G.N.Tillaxo‘jayevaning fikricha, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish indekslari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Sanoat ishlab chiqarish indekslaridan farqli o‘laroq, ular bir yilda bir marotaba yillik yakun asosida

hasoblanadi. Shu bilan birga, bu indekslar iqtisodiy jarayon kechishida kuzatiladigan mavsumlik ta'siri ostida yil sayin sezilarli darajada tebranish jihatiga ega. Shu sababli agrobiznes rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilishda uzoqroq davrlarga tegishli 3–5 yillik o'rtacha ndekslar hisoblanib keng qo'llanadi" [8, 418-bet].

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraktsiyalash, statistik kuzatish, mutlaq, nisbiy miqdorlar, statistik baholash, grafik, dinamika qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari, dinamika qatorlarini trend tenglamasi asosida analitik tekislash, vaqt omili bo'yicha prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

### Natija va muhokama

Mustaqillikka erishgan dastlabki davridagi mamlakatimizning milliy xo'jaligi, jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarkibi yuqori texnologiyaga asoslanmaganligi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishga yetarli darajada yo'nalmaganligi va ekstensiv omillarga asoslanganligi bilan tavsiflansa, hozirda intensiv omillarga tayangan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarayotgan, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari ko'paydi.

"Qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, uning turmush darajasi va farovonligini oshirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil qilish va e'lon qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi" [5, 2-bet].

*1-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o'zgarish dinamikasi (2022-yilgi taqqoslama baholarda, trln. so'm)**

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | 2022-yilda 2018-yilga nisbatan | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | (+;-) | % |
| **Jami** | 319,2 | 329,7 | 338,6 | 351,8 | 362,9 | 43,7 | 113,7 |
| shu jumladan: | | | | | | | |
| dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar | 308,4 | 318,5 | 327,1 | 339,9 | 352,1 | 43,7 | 114,2 |
| shundan: | | | | | | | |
| qishloq xo'jaligi mahsuloti | 304,4 | 314,4 | 322,9 | 335,5 | 347,6 | 43,2 | 114,2 |
| o'rmon xo'jaligi | 8,0 | 8,3 | 8,5 | 8,9 | 9,2 | 1,2 | 115,0 |
| baliqchilik xo'jaligi | 2,8 | 2,9 | 3,0 | 3,1 | 3,2 | 0,4 | 114,3 |

***Manba:*** *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2018–2022-yillik ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

O‘zbekiston Respublikasining 2018–2022-yillar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o‘zgarish dinamikasini tahlil qilganimizda, jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022-yilda 362,9 trln. so‘mni, ya’ni 2018-yilga nisbatan 13,7 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).




– o‘rmon xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari
– dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
– baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari

**1-diagramma. O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da**

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ini iqtisodiy barqarorlikka erishish, bozor iqtisodiyotining tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratishdan iborat bo‘ldi. Chunki, agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish hamda eksportni kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Kam ta’minlangan fuqarolarni ish bilan ta’minlashga va qo‘shimcha daromad manbayini oshirishga xizmat qiladi.

2022-yilda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,6 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar (2021-yilda 96,8 %), 2,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi (2,4 %) va 0,9 % i – baliqchilik xo‘jaligi (0,8 %) hissasiga to‘g‘ri keldi (1-diagramma).

O‘zbekiston Respublikasida 2010–2022-yillar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i qo‘shilgan qiymati dinamikasining o‘zgarishini tahliliy ko‘rsatkichlarini keltiramiz.

*2-jadval*

**O‘zbekiston Respublikasida 2010-2022-yillar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati dinamikasining o‘zgarishi**

| Yillar | Qishloq , o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati, mlrd.so‘m, (Y) (2022-yil bo‘yicha taqqoslama baholarda) | Mutlaq qo‘shimcha o‘sish, mlrd.so‘m. | | O‘sish sur’ati, % | | Qo‘shimcha o‘sish sur’ati, % | | 1 %li qo‘shimcha o‘sish (yoki kamayish)ning mutloq mohiyati, mlrd.so‘m. | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Bazisli | Zanjirli | Bazisli | Zanjirli | Bazisli | Zanjirli | $[Y_i - Y_{i-1}]/$ | |
| | | $Y_i - Y_0$ | $Y_i - Y_{i-1}$ | $Y/Y_0)$ x100 | $(Y_i/Y_{i-1})$ x 100 | $[(Y_i/Y_0)$ x 100]-100 | $[(Y_i/Y_{i-1})$ x 100]-100 | $[(Y_i/Y_{i-1})$ x 100]-100 | $(Y_{i+1})/_{100}$ |
| **2010** | 120470,7 | - | - | - | - | - | - | - | - |
| **2011** | 128060,3 | 7589,6 | 7589,6 | 106,3 | 106,3 | 6,3 | 6,3 | 1204,707 | 1204,707 |
| **2012** | 136000,1 | 15529,4 | 7939,8 | 112,9 | 106,2 | 12,9 | 6,2 | 1280,603 | 1280,603 |
| **2013** | 145792,1 | 25321,4 | 9792 | 121,0 | 107,2 | 21,0 | 7,2 | 1360,001 | 1360,001 |
| **2014** | 155414,4 | 34943,7 | 9622,3 | 129,0 | 106,6 | 29,0 | 6,6 | 1457,921 | 1457,921 |
| **2015** | 165205,5 | 44734,8 | 9791,1 | 137,1 | 106,3 | 37,1 | 6,3 | 1554,144 | 1554,144 |
| **2016** | 175283,0 | 54812,3 | 10077,5 | 145,5 | 106,1 | 45,5 | 6,1 | 1652,055 | 1652,055 |
| **2017** | 186325,8 | 65855,1 | 11042,8 | 154,7 | 106,3 | 54,7 | 6,3 | 1752,83 | 1752,83 |
| **2018** | 188189,1 | 67718,4 | 1863,3 | 156,2 | 101,0 | 56,2 | 1,0 | 1863,258 | 1863,258 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **2019** | 188565,5 | 68094,8 | 376,4 | 156,5 | 100,2 | 56,5 | 0,2 | 1881,891 | 1881,891 |
| **2020** | 193656,7 | 73186 | 5091,2 | 160,8 | 102,7 | 60,8 | 2,7 | 1885,655 | 1885,655 |
| **2021** | 201209,3 | 80738,6 | 7552,6 | 167,0 | 103,9 | 67,0 | 3,9 | 1936,567 | 1936,567 |
| **2022** | 208452,9 | 87982,2 | 7243,6 | 173,0 | 103,6 | 73,0 | 3,6 | 2012,093 | 2012,093 |

**Manba:** *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridadgi Statistika agentligining 2010–2022-yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

O'zbekiston Respublikasida 2010–2022-yillar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining qo'shilgan qiymati 2022-yilda 208452,9 mlrd. so'mni, 2010 yilda 120470,7 mlrd.so'm (taqqoslama bahoda)ni tashkil etgan yoki 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 87982,2 mlrd.so'mga yoki 73,0 foizga oshgan (2-jadval).

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishining iqtisodiy ahamiyati, asosan, uning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, qo'shilgan qiymat yaratish va milliy bozorni investitsion va iste'mol tovarlari bilan to'ldirishdagi roli bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymatining prognozini trend tenglamasi orqali aniqlaymiz.

*3-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining qo'shilgan qiymatini analitik tekislash va prognoz darajasi**

| Yillar | Qishloq , o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining qo'shilgan qiymati, mlrd. so'm, (Y) (2022-yil bo'yicha taqqoslama baholarda | Shartli yillar, t | $t^2$ | Yt | $Y_t$ | Yillar | Shartli yillar, t | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ini qo'shilgan qiymatining prognoz darajasi, mlrd. so'm |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **2010** | 120470,7 | -6 | 36 | -722824,2 | 124512,2 | **2023** | 7 | 220173,3 |
| **2011** | 128060,3 | -5 | 25 | -640301,5 | 131870,8 | **2024** | 8 | 227531,8 |
| **2012** | 136000,1 | -4 | 16 | -544000,4 | 139229,3 | **2025** | 9 | 234890,4 |
| **2013** | 145792,1 | -3 | 9 | -437376,3 | 146587,9 | **2026** | 10 | 242248,9 |
| **2014** | 155414,4 | -2 | 4 | -310828,8 | 153946,4 | **2027** | 11 | 249607,4 |
| **2015** | 165205,5 | -1 | 1 | -165205,5 | 161305,0 | | | |
| **2016** | 175283 | 0 | 0 | 0 | 168663,5 | | | |
| **2017** | 186325,8 | 1 | 1 | 186325,8 | 176022,0 | | | |
| **2018** | 188189,1 | 2 | 4 | 376378,2 | 183380,6 | | | |
| **2019** | 188565,5 | 3 | 9 | 565696,5 | 190739,1 | | | |
| **2020** | 193656,7 | 4 | 16 | 774626,8 | 198097,7 | | | |
| **2021** | 201209,3 | 5 | 25 | 1006046,5 | 205456,2 | | | |
| **2022** | 208452,9 | 6 | 36 | 1250717,4 | 212814,7 | | | |
| **Jami** | **2192625,4** | **0** | **182** | **1339254,5** | **2192625,4** | | | |

**Manba:** *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridadgi Statistika agentligining 2010–2022-yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Olingan ma’lumotlar asosan:

“Qator darajalari o‘rtasidagi mutlaq farqlar (mutlaq o‘sishlar) deyarli o‘zgarmas miqdor (konstanta) bo‘lsa yoki bir-biridan juda kam tafovutlansa, ya’ni darajalar arifmetik progressiya yoki unga yaqin shaklda o‘zgarsa, ularni vaqtini to‘g‘ri chiziqli funksiyasi deb qarash mumkin:

$$Y_t = a_0 + a_1 t$$

Bundan: $a_0 = \frac{\Sigma У}{N} = \overline{У}$ ва $a_1 = \frac{\Sigma У t}{\Sigma t^2}$” [8, 316-bet].

O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati uchun:

Bunda:

$$a_0 = \frac{\sum Y}{n} = \frac{2192625{,}4}{13} = 168663{,}5 \text{ mlrd. so‘m}$$

$$a_1 = \frac{\sum Yt}{\sum t^2} = \frac{1339254{,}5}{182} = 7358{,}5 \text{ mlrd. so’m}$$

Ma’lumotlarning tahlili natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati bo‘yicha 2010–2022-yillardagi statistik hisobotlar ma’lumotlari, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra 2027-yilda O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati 249607,4 mlrd.so‘mni tashkil etadi (3-jadval).

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida mahsulot yetishtirishda mamlakatimizning hududlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Respublikamiz hududlarida mineral-xomashyo resurslarining notekis joylashganligi, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, tadbirkorlik va xususiy sektorning taraqqiyot darajalariga ko‘ra qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish turlicha rivojlanmoqda.

**Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish – respublikamiz hududlarida ushbu tarmoqni kelgusida yanada rivojlantirish, ijtimoiy mehnat taqsimoti hamda ishlab chiqarishni chuqur ixtisoslashuvi prinsiplariga amal qilinish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lgani bois ishonchli va keng qamrovli qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi statistikasiga ehtiyoj katta hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimiz qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatini statistik baholash hamda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohot natijalarini statistik hisobini takomillashtirish uchun, avvalo, quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi statistikasi tizimini ishonchli va keng qamrovli bo‘lishini ta’minlash;

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatini statistik kuzatuvlarining tashkiliy va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish;

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida kuzatilayotgan tendensiyalarni doimiy statistik tahlil qilish;

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining tarkibiy holatini statistik baholash, sohani xalqaro tajribalarda foydalaniladigan statistik ma’lumotlar bilan taqqoslash imkoniyatini yaratish, qishloq xo‘jaligi sohasida tanlanma kuzatuvlarni amalga oshirish uchun statistik ma’lumotlar bazasini yaratish maqsadida qishloq xo‘jaligi sohasida yalpi ro‘yxatga olishni o‘tkazish;

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida ro‘yxatga olish natijalarining to‘liqligini ta’minlash, ularni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani yaratish va yangi texnologiyalarni

(masalan, mobil qurilmalar, geomanzilli axborot tizimlari va boshqalar) joriy qilish;

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘i faoliyatini ro‘yxatga olishda ishtirok etuvchilarning salohiyati va malakasini oshirish maqsadida ishchi-xodimlarni tayyorlash sohasida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi statistikasi ko‘rsatkichlarining ishonchliligi va shaffofligini yanada oshirish maqsadida ma’lumotlarni choraklar bo‘yicha hisoblash usulini joriy qilish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohot natijalari tezkor, aniq va haqqoniy statistik raqamlarda o‘z ifodasini topadi. Statistik raqamlarning haqqoniy va shaffof bo‘lishi hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi respublikamiz iqtisodiyotida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining raqobatbardoshligining oshishiga, rivojlanishiga imkon yaratadi va bundan keyingi davrlarda ham barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlab beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. // https://lex.uz/docs/5841063.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” gi O‘RQ - 707 – sonli qonuni. 2021-yil 11-avgust. . www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-113-sonli Qarori. www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi sohasida statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 104-son Qarori. 2021-yil 26-fevral. www.lex.uz.
6. H Nabiyev, M.Ahmedova. Iqtisodiy statistika. Darslik. - T.: N 47 «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. 380-b.
7. N.M Soatov, G.N.Tillaxo‘jayeva. Statistika. Darslik. T: -TDIU. 2011, 535-bet.
8. N.M. Soatov, N.G‘. Nabiyev, A.H. Ayubjonov. Amaliy statistika. Darslik. Toshkent, 2020-yil, 593-bet.
9. A.Abdug‘aniyev, A.A.Abdug‘aniyev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yonalishi talabalari uchun darslik // ma’sul muhanir S.S.G‘ulomov; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot un-ti.-T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011. 400-b.
10. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti ma’lumotlari.

УЎТ 517.958:336

**Рўзиев Алишер Иброимович,**
*Тошкент молия институти, “Статистика ва эконометрика” кафедраси доц.*
alisherruziev1986@mail.ru

## ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА КЎРСАТИЛГАН ХИЗМАТЛАР ҲАЖМИНИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАШТИРИШ

**Рузиев Алишер Иброимович,**
*Ташкентский финансовый институт, кафедра «Статистика и эконометрика» доц.*
alisherruziev1986@mail.ru

## ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ОБЪЕМА ОКАЗЫВАЕМЫХ УСЛУГ В ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

**Ruziyev Alisher Ibroimovich,**
*Tashkent institute of finance, Department of «Statistics and Econometrics» Assoc.*
alisherruziev1986@mail.ru

## ECONOMETRIC MODELING OF THE VOLUME OF SERVICES PROVIDED IN TASHKENT REGION

**Аннотация.** *Мақолада Тошкент вилоятида кўрсатилган хизматлар ҳажмига таъсир этувчи асосий хизмат турлари бўйича эконометрик моделлаштириш амалга оширилган. Шу билан бирга, вилоятда хизматлар ҳажмининг истиқболдаги прогноз қийматлари юзасидан таклифлар берилган.*

**Таянч сўзлар:** *хизматлар ҳажми, статистик маълумотларни тўплаш, жадвал ва графиклар, ўзгариш суръатлари, динамика қаторлари, эконометрик модель, детерминация коэффициенти, Стьюдент мезони, прогноз кўрсаткичлари.*

**Аннотация.** *В статье проведено эконометрическое моделирование основных видов услуг, влияющих на объем предоставляемых услуг в Ташкентской области. При этом были высказаны предложения относительно будущих прогнозных значений объема услуг в регионе.*

**Ключевые слова:** *объем услуг, сбор статистических данных, таблицы и графики, темпы изменения, ряды динамики, эконометрическая модель, коэффициент детерминации, критерий Стьюдента, прогнозные показатели.*

**Annotation:** *in the article, econometric modeling of the main types of services that affect the volume of services provided in Tashkent region is carried out. At the same time, proposals were made regarding the future forecast values of the volume of services in the region.*

**Key words:** *volume of services, collection of statistical data, tables and graphs, rates of change, dynamics series, econometric model, coefficient of determination, Student criterion, forecast indicators.*

**Кириш**

Ҳозирги кунда мамлакатимизда хизматлар соҳаси ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишини баҳолашнинг асосий мезони бўлиб қолмоқда. Бу борада, мамлакатимизда хизматлар соҳасининг тезкор ўсиш суръатларини таъминлаш, мазкур йўналишда тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш ва аҳоли учун янги иш ўринларини яратиш мақсадида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” ПФ-60-сон Фармонига кўра “Ҳудудларнинг муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма тизимини ҳамда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш”[1] кераклиги мақсад қилиб белгилаб қўйилган.

Хусусан, мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиши иқтисодий ўсишни, аҳоли (айниқса ёшлар) бандлигини таъминлашда, пировардида турмуш фаровонлигини оширишда катта аҳамиятга эга бўлиб, 2022 йил якунларига кўра, Ўзбекистонда хизматлар соҳаси ЯҚҚнинг 41,5 фоизини ташкил этди ва 2017–2022 йилларда соҳанинг реал ўсиш кўрсаткичи 1,9 маротаба ошди[2].

Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5113-сон[3] ва 2022 йил 27 январдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104 сон[4] қарорларида хизматлар соҳасининг мамлакатимиз иқтисодиётидаги салмоғини ошириш, жойларда хизматлар соҳасидаги мавжуд имкониятларни тўлиқ ишга солиш, хизматлар турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш бўйича ўз ечимини кутаётган муаммоли масалаларни ҳал қилиш, мазкур вазифаларни бажаришда ривожланган давлатлар илғор тажрибасини ўрганиш, уларнинг ижобий натижаларини республикада қўллаш мақсадга мувофиқлиги алоҳида қайд қилинган.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**

Мавзуга оид илмий ишлар борасида бир қатор индикаторлар ишлаб чиқилган бўлиб, улардан эконометрик моделлаштиришларда кенг фойдаланилади. Улардан бири детерминация коэффициенти бўлиб, кесмада [0;1] қийматларни қабул қилади. Коэффициент қиймати қанчалик 1 га яқинлашиб борса, боғлиқлик шунчалик кучли ҳисобланади. Моделларни турли миқдордаги омиллар билан таққослаш имконияти бўлиши ва ушбу миқдордаги омиллар $R^2$ статистикага таъсир этмаслиги учун, одатда, корректлашган детерминация коэффициентидан фойдаланилади[5], яъни:

$$R^2_{\text{òåêèñ}} = 1 - \frac{s^2}{s_y^2}$$

Тузилган кўп омилли эконометрик моделнинг статистик аҳамиятлилиги ва ўрганилаётган жараёнга мос келишини аниқлаш учун Фишернинг F-мезонидан фойдаланамиз. F-мезоннинг ҳақиқий қиймати қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$F_{\text{õèñîá}} = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-m-1}{m},$$

Бу ерда: $R^2$ – детерминация коэффициенти;

$n$ – кузатувлар сони;

$m$ – омиллар сони.

Агар ҳақиқий қиймат жадвалдаги қийматдан катта бўлса, у ҳолда тузилган

кўп омилли эконометрик модель статистик аҳамиятли ёки ўрганилаётган жараёнга адекват дейилади.

Кўп омилли эконометрик модель параметрлари ва корреляция коэффициентларининг ишончлилигини текширишда Стьюдентнинг *t*-мезонидан фойдаланилади. Бунда уларнинг қиймати тасодифий хатолар қийматлари билан таққосланади[6].

Стьюдентнинг *t*-мезони ҳисобланган ($t_{ҳисоб}$) ва жадвал ($t_{жадвал}$) қийматларини таққослаб, $H_0$ гипотезани қабул қиламиз ёки рад этамиз. Бунинг учун *t*-мезоннинг жадвал қийматини танланган ишончлилик эҳтимоли ($\alpha$) ва озодлик даражаси ($\mathrm{d.f.} = n - m - 1$)ни шартлар асосида топамиз. Бу ерда $n$ –кузатувлар сони; $m$ – омиллар сони.

### Тадқиқот методологияси

Илмий мақолада кўрсатилган хизматлар ҳажмига таъсир этувчи асосий хизмат кўрсатувчи соҳалар бўйича эконометрик моделни тузишда Dickey-Fuller(DF) тестидан, Фишернинг F-мезонидан, Стьюдентнинг *t*-мезонидан фойдаланилди ва истиқболдаги прогноз қийматлари аниқланиб, муаллиф томонидан хулоса ва таклифлар берилган.

### Натижа ва муҳокама

Тошкент вилоятида кўрсатилган хизматлар ҳажмининг ўзгаришига таъсир этучи ўн учта хизмат турлари омил кўрсаткичлар сифатида танлаб олинди. Шунга кўра, натижавий белги кўрсатилган хизматлар ҳажми*(Y),* омил белгилар ахборот ва алоқа соҳасидаги хизматлар$(X_1)$, молия хизматлар $(X_2)$, транспорт хизматлари $(X_3)$, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар $(X_4)$, савдо хизматлари $(X_5)$, кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар $(X_6)$, таълим соҳасидаги хизматлар $(X_7)$, соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматлар $(X_8)$, ижара ва лизинг бўйича хизматлари $(X_9)$, компьютерлар, шахсий фойдаланиш буюмлари ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар $(X_{10})$, шахсий хизматлар $(X_{11})$, меъморчилик, муҳандислик изланишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар $(X_{12})$ ҳамда бошқа хизматлар $(X_{13})$ни таъсирини ўрганиш мақсадида эконометрик таҳлил ва моделлар тузиб чиқилди.

*1-жадвал*

**Тошкент вилоятида иқтисодий фаолиятнинг асосий турлари бўйича хизматлар ҳажмининг ўзгариш суръатлари (ўтган йилга нисбатан, %)**[1]

| Йиллар | Y | $X_1$ | $X_2$ | $X_3$ | $X_4$ | $X_5$ | $X_6$ | $X_7$ | $X_8$ | $X_9$ | $X_{10}$ | $X_{11}$ | $X_{12}$ | $X_{13}$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **2010** | 126,7 | 132,5 | 128,2 | 134,2 | 122,5 | 119,2 | 168,8 | 98,7 | 137,0 | 115,2 | 113,9 | 118,3 | 132,8 | 120,6 |
| **2011** | 113,8 | 122,7 | 124,2 | 111,3 | 134,4 | 112,4 | 116,8 | 113,2 | 118,5 | 117,9 | 118,1 | 124,2 | 81,8 | 131,9 |
| **2012** | 115,6 | 168,5 | 103,2 | 111,6 | 127,4 | 112,6 | 128,1 | 103,5 | 138,5 | 115 | 123,5 | 124,3 | 114,0 | 158,3 |
| **2013** | 118,4 | 124,9 | 185,1 | 115,3 | 125,9 | 112 | 112,2 | 103,7 | 130,7 | 114,2 | 116,0 | 123,0 | 133,0 | 106,7 |
| **2014** | 117,2 | 129,6 | 122,3 | 117,0 | 120,5 | 117,2 | 116,6 | 108,2 | 126,8 | 117,3 | 112,3 | 122,6 | 82,3 | 119,5 |
| **2015** | 113,2 | 119,9 | 128,7 | 107,5 | 124,3 | 113,0 | 119,7 | 118,6 | 128,3 | 111,9 | 123,2 | 105,9 | 125,5 | 108,5 |
| **2016** | 116,9 | 117,8 | 116,3 | 121,9 | 119,9 | 113,3 | 115,6 | 106,5 | 105,9 | 119,4 | 111,8 | 118,6 | 109,3 | 113,5 |
| **2017** | 105,1 | 129,8 | 127,1 | 101,4 | 106,3 | 100,2 | 103,5 | 115,5 | 122,3 | 104,2 | 102,2 | 102,5 | 142,5 | 106,4 |
| **2018** | 107,0 | 123,8 | 127,6 | 100,5 | 99,5 | 104,0 | 106,1 | 116,8 | 128,4 | 102,2 | 101,8 | 102,5 | 175,1 | 104,9 |
| **2019** | 113,4 | 107,9 | 141,2 | 104,0 | 111,0 | 117,2 | 106,4 | 139,1 | 114,4 | 102,5 | 103,8 | 103,4 | 104,0 | 98,8 |
| **2020** | 102,0 | 143,1 | 131,5 | 102,0 | 87,5 | 99,4 | 89,3 | 71,6 | 77,0 | 99,6 | 92,7 | 90,8 | 78,9 | 121,2 |
| **2021** | 117,8 | 130,9 | 114,5 | 117,5 | 123,2 | 109,7 | 122,5 | 119,6 | 165,4 | 123,4 | 119,7 | 127,1 | 155,0 | 122,1 |
| **2022** | 113,2 | 128,0 | 128,6 | 107,1 | 108,9 | 112,2 | 115,9 | 127,5 | 126,8 | 115,3 | 112,9 | 108,8 | 60,1 | 149,9 |

[1] Манба: Тошкент вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида ҳисобланган. https://www.toshvilstat.uz/uz/

Ушбу кўрсаткичлар асосида Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш ҳажмининг ўсишига таъсир кўрсатучи хизматлар соҳаларининг ўзгариш суръати тўғрисида 2010–2022 йилги маълумотлар 1-жадвалда келтирилган.

Юқоридаги жадвалда келтирилган кўрсаткичлардан кўриш мумкинки, Тошкент вилоятида хизматлар соҳаси 2020 йилгача ўсиш тенденциясига эга бўлган ва 2020 йилда пандемия сабабли барча соҳаларда хусусан, хизмат кўрсатиш соҳаларида пасайиш динамикаси кузатилган. 2021 йилдан бошлаб ушбу соҳаларда яна ўсиш тенденцияси юз бера бошлади.

1-жадвалда келтирилган кўрсаткичларнинг бир-бири ўртасида ва ушбу кўрсаткичларнинг хизмат кўрсатиш ҳажмига таъсири бўйича корреляцион таҳлил амалга оширилди.

*2-жадвал*

**Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш соҳаларини хизматлар умумий ҳажми билан корреляцион боғлиқлиги[2]**

| | Y | x1 | x2 | x3 | x4 | x5 | x6 | x7 | x8 | x9 | x10 | x11 | x12 | x13 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Y | 1.0 | -0.0 | 0.0 | 0.9 | 0.7 | 0.9 | 0.9 | 0.1 | 0.6 | 0.7 | 0.7 | 0.8 | 0.1 | 0.2 |
| x1 | -0.0 | 1.0 | -0.4 | 0.0 | 0.0 | -0.2 | 0.2 | -0.5 | 0.1 | 0.1 | 0.2 | 0.2 | -0.1 | 0.7 |
| x2 | 0.0 | -0.4 | 1.0 | -0.1 | -0.0 | 0.0 | -0.2 | -0.0 | -0.1 | -0.2 | -0.2 | -0.1 | 0.1 | -0.5 |
| x3 | 0.9 | 0.0 | -0.1 | 1.0 | 0.6 | 0.7 | 0.8 | -0.2 | 0.4 | 0.7 | 0.5 | 0.7 | 0.0 | 0.1 |
| x4 | 0.7 | 0.0 | -0.0 | 0.6 | 1.0 | 0.7 | 0.6 | 0.2 | 0.6 | 0.8 | 0.9 | 0.9 | 0.0 | 0.2 |
| x5 | 0.9 | -0.2 | 0.0 | 0.7 | 0.7 | 1.0 | 0.7 | 0.4 | 0.4 | 0.6 | 0.6 | 0.6 | -0.2 | 0.1 |
| x6 | 0.9 | 0.2 | -0.2 | 0.8 | 0.6 | 0.7 | 1.0 | 0.0 | 0.6 | 0.5 | 0.6 | 0.5 | 0.2 | 0.3 |
| x7 | 0.1 | -0.5 | -0.0 | -0.2 | 0.2 | 0.4 | 0.0 | 1.0 | 0.5 | 0.1 | 0.3 | 0.1 | 0.1 | -0.2 |
| x8 | 0.6 | 0.1 | -0.1 | 0.4 | 0.6 | 0.4 | 0.6 | 0.5 | 1.0 | 0.6 | 0.7 | 0.7 | 0.5 | 0.2 |
| x9 | 0.7 | 0.1 | -0.2 | 0.7 | 0.8 | 0.6 | 0.5 | 0.1 | 0.6 | 1.0 | 0.8 | 0.9 | -0.1 | 0.4 |
| x10 | 0.7 | 0.2 | -0.2 | 0.5 | 0.9 | 0.6 | 0.6 | 0.3 | 0.7 | 0.8 | 1.0 | 0.8 | 0.0 | 0.4 |
| x11 | 0.8 | 0.2 | -0.1 | 0.7 | 0.9 | 0.6 | 0.5 | 0.1 | 0.7 | 0.9 | 0.8 | 1.0 | 0.1 | 0.4 |
| x12 | 0.1 | -0.1 | 0.1 | 0.0 | 0.0 | -0.2 | 0.2 | 0.1 | 0.5 | -0.1 | 0.0 | 0.1 | 1.0 | -0.5 |
| x13 | 0.2 | 0.7 | -0.5 | 0.1 | 0.2 | 0.1 | 0.3 | -0.2 | 0.2 | 0.4 | 0.4 | 0.4 | -0.5 | 1.0 |

Юқоридаги жадвал маълумотларининг таҳлили натижаларига кўра, омилларнинг корреляцион боғланиш жадвали маълумотларига кўра, натижавий белгига (кўрсатилган хизматлар ҳажми – *Y*) нисбатан кучли боғланган омиллар транспорт хизмат($X_3$)лари, яшаш ва овқатланиш бўйича хизмат($X_4$)лар, савдо хизмат($X_5$)лари ва кўчмас мулк билан боғлиқ хизмат ($X_6$)лардир.

Шунга кўра, кўрсаткичлар ўртасидаги муносабатни янада яққолроқ ифодалаш учун қуйидаги графикни ҳосил қиламиз.




**1-расм. Тошкент вилоятида 2010–2022 йилларда хизматлар соҳаси ўзгаришининг кўрсатилган хизматлар ҳажмига таъсири[3]**

$$Y_{service} = \beta_0 + \beta_1 \sum_{i=1}^{n=13} X_i + \varepsilon$$

Бунинг учун Dickey-Fuller(DF) тестидан фойдаланилади[7]. Мазкур тест Диккей ва Фуллер томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, (1) ва (2) тенгликка асосланади ва “Бирлик илдиз тести” номи билан ишлатилади:

$$\Delta Lny_t = \delta Lny_{t-1} + u_t \quad (1),$$

ёки

$$Lny_t = (1 + \delta) Lny_{t-1} + u_t \quad (2),$$

Мазкур ўн учта хизматлар умумий хизматлар ҳажмига турлича таъсир қилар экан. Улардан энг асосий ҳамда статистик аҳамиятга эга бўлган тўртта хизмат турини танлаб олдик.

[2] Манба: Тошкент вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида ҳисобланган. https://www.toshvilstat.uz/uz/

[3] Манба: Тошкент вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида ҳисобланган. https://www.toshvilstat.uz/uz/

*3-жадвал*

**Тошкент вилоятида хизматлар умумий ҳажмининг ўсишига 2010–2022 йилда юқори таъсир кўрсатган хизмат турлари[4]**

| | Кўрсатчилар | Коэффициент | $R^2$ | t test | F test | Дарбир Уотсин | Брош Паган |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Савдо хизматлари | 0.88<br>0.15 | 0.74 | 5.64<br>0.000 | 31.87<br>0.00 | 1.96 | 0.11 |
| 2 | Транспорт хизматлари | 0.603<br>0.08 | 0.82 | 7.13<br>0.00 | 50.85<br>0.000 | 2.4 | 0.15 |
| 3 | Яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар | 0.36<br>0.09 | 0.55 | 3.70<br>0.0004 | 13.69<br>0.0035 | 2.16 | 0.19 |
| 4 | Кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар | 0.29<br>0.05 | 0.73 | 5.45<br>0.000 | 29.76<br>0.0002 | 2.35 | 0.45 |

Моделнинг статистик ва иқтисодий аҳамиятлилигини белгилаб берувчи Гаус Марков шартлари бўйича барча тестларга мос келувчи моделлар танланиб олинди. Илмий тадқиқотга асосан танланиб олинган моделлар умумий хизмат кўрсатишга таъсир этиш бўйича тизимлаштирилди. Унга кўра, савдо хизматлари, транспорт хизматлари, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар, кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар мос равишда тартиблаштирилган.

2-расмни таҳлил қилганимизда бизга шу нарса маълум бўлдики, вилоятда савдо, транспорт, яшаш ва овқатланиш ҳамда кўчмас мулк билан боғлиқ хизматларнинг бир фоизга ортиши мос равишда умумий хизматларнинг 0,88; 0,603; 0,36 ва 0,29 фоизга ўсишига олиб келиши аниқланган. Бундай хулоса чиқаришимиз учун, коэффициентнинг статистик аҳамиятлилиги асос бўлди, эҳтимоллик қиймати 0.000 га тенг. F-test эҳтимоллиги ҳам 0.000 бўлиб, альтернатив гипотезани қабул қиламиз.




**2-расм. Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш соҳаларининг умумий хизматлар ҳажмига таъсири[5]**

Истиқболни прогнозлаш иқтисодий ривожланиш вариантларини аввалги ривожланиш омиллари ва йўналишлари прогноз қилиниш даврида ҳам сақланиб қолади, деган гипотеза келиб чиқади деб аниқлаганмиз. Бундай гипотеза қилишга иқтисодий ҳолат ва жараёнларнинг етарлича инертлиги сабаб бўлади.

Тошкент вилояти иқтисодиётини ривожлантириш учун келгусида мавжуд салоҳият ва имкониятларни тўлиқ сафарбар этган ҳолда, келгуси йилларда кўрсатиладиган хизматлар ҳажмининг ўсиши бўйича аниқ режалар ва ҳисоб-китоблар ишлаб чиқиш лозим.

Тадқиқот натижаларидан Тошкент вилоятида хизматлар ҳажмининг прогноз вариантлари 4 - жадвалда келтирилган.

*4-жадвал*

**Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш ҳажмининг прогноз кўрсаткичлари[6]**

| Йиллар | Пессимистик | Ўртача | Оптимистик |
|---|---|---|---|
| 2023 | 102,6 | 112,2 | 120,0 |
| 2024 | 103,0 | 112,9 | 122,5 |
| 2025 | 103,8 | 113,5 | 122.9 |
| 2026 | 104,1 | 113,7 | 123,2 |
| 2027 | 104,9 | 114,0 | 123,8 |

STATA дастури асосида муаллиф томонидан ҳисоблаб чиқилди.

[5] STATA дастури асосида муаллиф томонидан ҳисоблаб чиқилди.

[6] Муаллиф ҳисобланмаси.

Шунга кўра, Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш ҳажми 2022 йилдаги 13,2 фоиздан 2027 йилга бориб, оптимистик прогноз бўйича 23,8 фоизгача ўсиши аниқланган. Бунинг учун эса ҳудудда савдо хизматлари, транспорт хизматлари, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳамда кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар турларининг улушини ошириш талаб қилинади.

### Хулоса

Вилоятда савдо, транспорт, яшаш ва овқатланиш ҳамда кўчмас мулк билан боғлиқ хизматларнинг бир фоизга ортиши мос равишда умумий хизматларнинг 0,88; 0,603; 0,36 ва 0,29 фоизга ўсишига олиб келиши аниқланган. Бундай хулоса чиқаришимиз учун, коэффициентнинг статистик аҳамиятлилиги асос бўлди, эҳтимоллик қиймати 0.000 га тенг. F-test эҳтимоллиги ҳам 0.000 бўлиб, алтергатив гипотезани қабул қиламиз.

Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш ҳажми 2022 йилдаги 13,2 фоиздан 2027 йилга бориб 23,8 фоизгача ўсиши аниқланган. Бунинг учун эса ҳудудда савдо, транспорт, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳамда кўчмас мулк билан боғлиқ хизматларнинг улушини ошириш талаб қилинади.

Шундай қилиб, Тошкент вилоятида хизмат кўрсатиш соҳаларининг ривожланишини таъминлашда, фикримизча, қуйидаги вазифаларни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

– хизмат кўрсатишни амалга ошириш мақсадида ҳудудларда кадрлар салоҳиятини ошириш;

– ушбу соҳага инновацион технологияларни йўналтириш орқали аҳоли турмуш даражасини оширишга эришиш;

– ички ва ташқи бозорларда хизматларга бўлган талабни кенгайтириш, шу орқали аҳоли бандлик даражасини таъминлаш;

– ҳудудларда ушбу соҳани ривожлантириш орқали туристлар оқимини оширишга эришиш зарурдир;

Вилоятда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш орқали меҳнат бозорида ишсизлик даражасининг пасайишига ва аҳоли турмуш даражасининг йилдан - йилга яхшиланиб боришига ҳамда ялпи ҳудудий маҳсулотнинг ўсишига эришилади.

Юқорида зикр этилган фикр ва мулоҳазаларни амалиётга татбиқ этилиши хизматлар соҳасини такомиллаштириш ва ривожлантиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. www.lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги ПҚ-5113-сон “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.// “Халқ сўзи”, 2021 йил 12 май.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПҚ-5113-сон “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. https://lex.uz.
4. Прогнозлаштириш ва макроиқтисодий тадқиқотлар институти (ПМТИ) экспертлари 2017–2022 йилларда Ўзбекистонда хизмат турларини ривожлантириш бўйича қилинган ишлар натижасини таҳлил қилди. http://www.uzdaily.uz/uz/post/7898
5. DimitriosAsteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.397
6. Эконометрика. Учебник. /Под ред. И.И.Елисеевой. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 51-53 с.:
7. Dickey D.A. and Fuller W.A. (1981). Likelihood Ratio Statistics for Autoregressive Time Series with a Unit Root. Econometrics, 49, pp. 1057-72.

УЎТ 241.02.339

**Умаров О.С.,**
*и.ф.ф.д., доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги масъул ходими*

**Ходжаев Абдулхай Ҳасанбоевич,**
*мустақил изланувчи*

# МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ БАҲОЛАШДА ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАВСИФЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

**Умаров О.С.,**
*д.ф.э.н., доцент, уполномоченный сотрудник Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан*

**Ходжаев Абдулхай Хасанбоевич,**
*самостоятельный соискатель*

# ЗНАЧЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИХ ЭКОНОМИЧЕСКУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ ПРИ ОЦЕНКЕ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

**Umarov O.S.,**
*PhD in Economics, Associate professor Authorized employee of Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan*

**Khodjayev Abdulhay Khasanboyevich,**
*independent researcher*

# THE IMPORTANCE OF INDICATORS CHARACTERIZING ECONOMIC SECURITY IN ASSESSING THE ECONOMY OF COUNTRY

**Аннотация.** *Мақолада иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари тушунчаси, иқтисодий хавфсизликнинг ички таҳдид омиллари, мамлакат иқтисодиётини баҳолашда иқтисодий хавфсизликни тавсифловчи кўрсаткичларнинг аҳамияти, давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги, иқтисодий хавфсизликнинг ташқи таҳдид омиллари, давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини турли усуллар ёрдамида баҳолаш, иқтисодий хавфсизлик мезонлари, Ўзбекистоннинг иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичларининг таҳлили ҳамда хорижий ва маҳаллий амалиётда иқтисодий хавфсизлик ҳолатини баҳолаш кўрсатиб берилган.*

**Таянч сўзлар:** *иқтисодий хавфсизлик, ички таҳдид, иқтисодиётни баҳолаш, хавфсизлик мезонлари, хавфсизлик кўрсаткичлари, ялпи ички маҳсулот, миллий иқтисодиёт, турмуш даражаси, инфляция, ишсизлик, иқтисодий ўсиш, бюджет дефицити, ташқи қарз.*

**Анотация.** *В статье рассмотрены понятие показателей экономической безопасности, внутренние факторы угрозы экономической безопасности, значение показателей экономической безопасности в оценке экономики страны, экономическая безопасность государства, внешние факторы угрозы экономической безопасности, оценка экономической безопасности страны с использованием различных методов, критериев экономической безопасности, анализ показателей экономической безопасности Узбекистана и зарубежья, и оценка экономической безопасности в местной практике.*

**Ключевые слова:** *экономическая безопасность, внутренняя угроза, экономическая оценка, критерии безопасности, показатели безопасности, валовой внутренний продукт, национальная экономика, уровень жизни, инфляция, безработица, экономический рост, бюджетный дефицит, внешний долг.*

**Annotation.** *The article discusses the concept of indicators of economic security, internal factors of threat to economic security, the importance of indicators of economic security in assessing the country's economy, economic security of the state, external factors of threat to economic security, assessment of the economic security of the country. state using various methods, criteria of economic security, analysis of indicators of economic security in Uzbekistan and abroad and assessment of economic security in local practice.*

**Keywords:** *economic security, internal threat, economic assessment, security criteria, security indicators, gross domestic product, national economy, standard of living, inflation, unemployment, economic growth, budget deficit, external debt.*

## Кириш

Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг долзарблиги унинг миллий иқтисодиётнинг аҳоли учун нормал ҳаёт кечириш шароитларини, уни барқарор тарзда ресурслар билан таъминлаш, миллий давлат манфаатларини рўёбга чиқара олишга қодирлиги билан ҳам белгиланади. Иқтисодий хавфсизликни баҳолаш кўрсаткичлари тизимини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, бугунги кунда мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлигини баҳолашнинг ягона модели ва усули мавжуд эмас. Мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлиги даражасини аниқлашда уни битта универсал кўрсаткич (иқтисодий ўсиш суръати, аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулот) асосида ҳам, жуда кенг доирада ҳам бир маънода баҳолаш қийин кўрсаткичлардир. Иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари тизими ва уларнинг чегаравий қийматлари маълум бир иқтисодий тизимнинг ҳозирги ҳолатидан келиб чиққан ҳолда, унинг ривожланишининг асосий тенденциялари ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда асосланиши керак.

Иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари – бу мамлакат иқтисодиёти ривожланишининг реал статистик кўрсаткичлари бўлиб, улар иқтисодий соҳадаги ҳодисалар ва тенденцияларни энг тўлиқ тавсифлайди. Иқтисодий хавфсизлик иқтисодий кўрсаткичларнинг етарлича юқори ва барқарор ўсишини таъминлайдиган иқтисодиётнинг ҳолати ўрганиладиган илмий билимлар соҳаси бўлиб, иқтисодий эҳтиёжларни самарали қондириш ҳамда миллий ресурслар ҳаракати ва улардан фойдаланиш устидан давлат назоратидир. Шунингдек, иқтисодий хавфсизлик – бу жамиятнинг босқичма-босқич ривожланишини, унинг молиявий, ижтимоий-сиёсий барқарорлигини, салбий ташқи ва ички омиллар таъсирида юқори мудофаа қобилиятини, самарали бошқарувни, ички

иқтисодий манфаатларни таъминлашга қодир бўлган миллий иқтисодиётнинг глобал даражадаги ҳолати ҳисобланади [1].

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**

Россиялик иқтисодчи-олимлардан А.Прохожев ва М.Корниловлар мазкур тушунчани иқтисодиётнинг прогрессив ривожланиши ва нормал даражада амал қилишининг муҳим шарти, иқтисодиёт соҳасида шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатларининг ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимояланиши деб тавсифлайдилар. Уларнинг фикрича, иқтисодий хавфсизликни таъминлаш ҳаётий муҳим манфаатлар, шахс, жамият ва давлат мавжудлиги ҳамда уларнинг прогрессив ривожланиш имкониятларини ишончли тарзда таъминлайдиган эҳтиёжларнинг қондирилиши демакдир [2].

Т.Е.Кочергина "иқтисодий хавфсизлик" тушунчасига иқтисодий тизимнинг ўзини ўзи ўзгармас ҳажмларда, доимий миқдорий ва сифат тавсифларда такрор ишлаб чиқариш имкониятларига эга бўлган ҳолати, деб таъриф беради [3].

Д.В.Гордиенконинг фикрича, иқтисодий хавфсизлик миллий хўжаликнинг ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимояланиш ҳолати бўлиб, бу ҳолат жамиятнинг изчил ривожланишини, ички ва ташқи салбий омиллар таъсир кўрсатаётган шароитда ҳам иқтисодий ва ижтимоий барқарорлигини таъминлайди [4].

Ушбу фикрларга асосланган ҳолда "иқтисодий хавфсизлик" тушунчасини миллий иқтисодиёт мустақиллиги, унинг барқарорлиги, мустаҳкамлиги, доимо янгиланишга ва ўз-ўзидан такомиллашиб боришга қодирлигини таъминловчи шарт-шароитлар ва омиллар йиғиндиси, деб таърифлаш мумкин.

**Тадқиқот методологияси**

Мақолада абстракт-мантиқий фикрлаш, умумлаштириш, гуруҳлаш, индукция ва дедукция, қиёсий таҳлил, тадқиқот усулларидан кенг фойдаланилган.

**Натижа ва муҳокама**

Иқтисодий хавфсизлик мамлакатимиз хавфсизлигининг асосий, тизимини ташкил этувчи элементи ҳисобланади. Хавфсизликнинг бошқа турлари соҳасида ўзини намоён қилиб, мамлакат ўз навбатида ўзгаришларни бошдан кечирмокда. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги – бу моддий ишлаб чиқаришнинг доимий ўзгарувчан шароитларини акс эттирувчи ва ташқи ва ички омилларга таъсир қилувчи мураккаб ижтимоий-иқтисодий ҳолатидир.

Иқтисодий хавфсизликнинг моддий базасига қуйидагилар киради: такрор ишлаб чиқаришни кўпайтиришни кафолатлашга қодир ишлаб чиқарувчи кучларни шакллантириш, аҳолининг юқори турмуш даражаси, мамлакатнинг иқтисодий мустақиллиги ва иқтисодиётнинг барча даражаларида самарали бошқарув (шу жумладан, ҳукумат).

Иқтисодий хавфсизликнинг ички таҳдид омиллари қуйидаги 1-расмда келтирилган. Бунда иқтисодий хавфсизликнинг ички таҳдид омиллари бирма-бир кўрсатиб ўтилган.

Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги миллий иқтисодиёт фаолиятининг ўзига хос хусусияти бўлиб, унинг қобилиятини ифодалайди:

– иқтисодиётнинг барқарор, изчил ривожланишини ва аҳоли эҳтиёжларини қондиришни таъминлаш;

– юзага келаётган нокулай омилларни доимий мониторинг қилиш, ўз вақтида таҳлил қилиш ва уларга тезкор жавоб бериш ҳамда аҳоли фаровонлиги




**1-расм. Иқтисодий хавфсизликнинг ички таҳдид омиллари[5]**

ва миллий иқтисодиётга таҳдид соладиган ташқи ва ички таҳдидларни зарарсизлантириш;

– узоқ муддатли истиқболда мамлакат иқтисодий манфаатларининг жорий сиёсий босим ва дивидендлардан устунлигини таъминлаш;

– ички ва ташқи бозорда мамлакатнинг иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш.

Тадқиқотларимиз натижасида иқтисодий хавфсизликнинг ташқи таҳдид омилларини таҳлил қилдик(2-расм).

Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги мураккаб ва кўп қиррали тузилмадир. Миллий иқтисодиётнинг изчил ва барқарор ривожланиши шахс (жумладан, хусусий капитал) манфаатларига ҳам, бутун давлат манфаатларига ҳам жавоб бериши керак. Бундай ривожланиш билан нафақат иқтисодий тизимнинг ҳозирги босқичда эришган ютуқларини сақлаб қолиш, балки унинг янада барқарор олдинга силжиши ҳам таъминланади.

Аҳоли фаровонлиги хавфсизлиги иқтисодий тизим ва давлатнинг ҳам




**2-расм. Иқтисодий хавфсизликнинг ташқи таҳдид омиллари[6]**

мамлакат ичидан, ҳам ташқаридан келиши мумкин бўлган салбий ташқи таъсир ва таҳдидларга қарши туриш қобилиятига боғлиқ. Улар иқтисодий тизимнинг тўғри ишлаши туфайли автоматик равишда енгиб ўтишлари мумкин ёки қўлда бошқаришга ўтишни талаб қилади, яъни давлат иқтисодиётига ёки унинг алоҳида тармоқларига жиддий таъсир кўрсатадиган норматив-ҳуқуқий базадаги камчиликларни аниқлашда назорат қилувчи органларни (давлат қуйи тизимлари) ўз вақтида жалб қилиши керак [7].

Иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари икки гуруҳга бўлинади:

1.Умумий миллий иқтисодий даражадаги иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари.

2. Ҳудудий даражадаги иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари.

Биринчи гуруҳдаги умуммиллий иқтисодий даражадаги иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичларига қуйидагилар киради:

– турмуш даражаси ва сифати – бу аҳолини ҳаёт кечириши учун зарур бўлган моддий ва маънавий неъматлар билан таъминланиши ҳамда кишилар эхтёжининг бу неъматлар билан қондирилиш даражаси тушунилади. Бу неъматлар жуда кўп эҳтиёжларни ўз ичига олади, масалан, меҳнат шароити, таълим соҳаси, соғлиқни сақлаш, озиқ-овқат ва уй-жой сифати каби кўплаб эҳтиёжларни айтиш мумкин;

– инфляция суръати, инфляция-лотинча “inflation” сўзидан олинган бўлиб, шишиш, бўртиш, кўтарилиш деган маъноларни англатади, мамлакатдаги товар ва хизматлар баҳоси умумий даражасининг ошиши (ўсиш) тушунилади;

– ишсизлик даражаси – бу меҳнат бозорининг ҳозирги пайтдаги аҳволи ҳақида ва унда муайян вақт мобайнида рўй берган ўзгаришлар тўғрисида

тасаввур берадиган асосий кўрсаткичдир. Ишсизлик даражаси ишсизлар сонини иқтисодий фаол аҳоли сонига бўлиш орқали аниқланади;

– иқтисодий ўсиш – бу тўлиқ бандлик билан мужассамлашган ишлаб чиқариш реал ҳажмининг узоқ муддат мобайнида ўсишидир. Иқтисодий ўсиш ЯИМ, давлат иқтисодий қудрати ва инсон фаровонлигининг ўсишида ўз ифодасини топади;

– бюджет дефицити ва давлат қарзи; бюджет дефицити – бу бюджет ҳаражатларининг унинг даромадларидан ошиб кетишидир. Давлат қарзи – бу эса давлатнинг аҳоли, фирма, ташкилот, банклар, хорижий молия-кредит муассасалари олдидаги қарз мажбуриятларидир. Давлат ўз даромадлари билан харажатларини қоплай олмай қолганда бюджет тақчиллиги пайдо бўлади ва у қарз кўтариш йўли билан қопланади;

– ташқи қарз – бу маҳаллий иқтисодиётнинг хорижликлар (хорижий давлатлар, халқаро молиявий институтлар ва бошқалар) олдидаги амалдаги, (яъни ҳали тўловлари амалга оширилмаган) келажакда маълум бир муддатда қайтарилиши талаб қилинадиган мажбуриятларини ўзида акс эттирилишидир;

– жаҳон иқтисодиётига кириб борганлик мамлакатнинг ташқи алоқалар билан мукаммал даражада олиб бораётган сиёсати самарасида жаҳон бозорига ўз махсулотлари билан қатнашиши экспорт салоҳиятининг юқорилиги тушунилади;

– “хуфёна иқтисодиёт” фаолияти – давлат статистика органларида ҳисобга олинмаган, ғайриқонуний ва иқтисодий фаолиятга тескари бўлган ҳаракатлар йиғиндиси. Хуфёна иқтисодиёт – бу жамият томонидан назорат қилинмайдиган товар моддий бойликлар ва хизматларнинг харажати. Алоҳида фуқаролар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги давлат бошқарув органларидан яширинадиган ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ҳам ифодалайди;

– мулк таркиби – мулкий комплекс бўлган корхона таркибига унинг фаолияти учун мўлжалланган ҳамма мулк турлари, шу жумладан, ер участкалари, бинолар, иншоотлар, ускуна, инвентар, хом ашё, маҳсулот, талаб қилиш ҳуқуқи, қарзлар, шунингдек, корхонани, унинг маҳсулоти, ишлари ва хизматларини акс эттирувчи хусусий аломатларга (фирма номи, товар белгилари, хизмат кўрсатиш белгилари) бўлган ҳуқуқлар ва бошқа мутлақ ҳуқуқлар, агар қонун ёки шартномада бошқача тартиб назарда тутилган бўлмаса, киради;

– солиқ тизими – солиқ солишнинг умумбелгиланган тизими, буларга фойда солиғи, ҚҚС ва бошқалар киради. Солиқ солишнинг соддалаштирилган тизимига эса айланмадан олинадиган солиқ ва бошқалар киради.

Иккинчи гуруҳдаги ҳудудий даражадаги иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичларига қуйидагилар киради:

– аҳоли даромадлари – бу барча аҳолига тегишли пул ва натурал (маҳсулот шаклида) тушумлар ҳамда кўрсатилган бепул хизматлар суммаси, аҳолининг миллий даромаддаги ҳиссаси тушунилади. Аҳолининг жами турдаги даромадлари манбаи — иш ҳақи, пенсия, стипендия, нафақалар, мукофот, фойда, дивиденд, заём ва лотерея ютуғи, банк тўлаган фоиз пули, кўчмас мулкдан келган рента тўлови ва ижара пули, суғурта қопламалари ва бошқалардан иборат бўлади;

– чакана нархлар даражаси;

– уй-жой билан таъминланганлик, 2023 йил 1 январь ҳолатига республикада аҳолининг уй-жой билан таъминланганлик кўрсаткичи ҳар бир аҳолига умумий яшаш майдонидан ўртача 18,5 квадрат метрни ташкил этган. Статистика агентлиги маълумотларига кўра, бу кўрсаткич 2022 йилнинг мос даврига нисбатан 0,3 квадрат метрга ошган;

– қочоқ ва эмигрантларнинг сони. Бунда қочоқ деб ҳисобланганлар учун

қочоқлик статуси берилади ва бу халқаро тан олинган статус бўлиб, БМТ қочоқлар конвенцияси ва Европа Иттифоқи қонунларига асосланади. Ирқи, миллати, диний ёки сиёсий қарашлари, жинси, бирор-бир муайян ижтимоий гуруҳга тегишлилигига асосланиб, тазйиқ остида қолиши мумкинлигига кўра, хавотирда бўлган инсонлар қочқин ҳисобланади.

– ҳудуднинг мамлакат ЯИМдаги улуши;

– тўлов баланси – бу маълум бир вақт мобайнида (чорак, ярим йил, бир йил ва ҳ.к.) бир мамлакат ва унда рўйхатдан ўтган корхоналар, жисмоний шахслар ва давлат идораларининг бошқа мамлакатлардаги корхоналар, жисмоний шахслар ва давлат идоралари билан амалга оширган барча иқтисодий операцияларини ўзида акс эттирувчи статистик ҳисоботдир;

– экспорт-импорт сальдоси.

Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини турли усуллар ёрдамида баҳолаш мумкин, уларни бир неча гуруҳлар шаклида тақдим этиш мумкин:

1) асосий макроиқтисодий кўрсаткичларни кузатиш ва уларни чегаравий қийматлар билан таққослаш;

2) хавф даражаси бўйича ҳудудларни баҳолаш учун эксперт баҳолаш усули;

3) асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар ва уларнинг ўзгариш динамикаси асосида мамлакат иқтисодий ўсиш суръатларини баҳолаш;

4) йўқотишлар миқдорини аниқлаш орқали хавфсизликка таҳдидларнинг оқибатларини баҳолашда иқтисодий воситалардан фойдаланиш;

5) амалий математика усуллари, хусусан, кўп ўлчовли статистик таҳлил;

6) баҳолашнинг аралаш усуллари.

Иқтисодий хавфсизлик мезонлари – бу мамлакат иқтисодиётининг ҳолати унинг барқарор ривожланишини таъминлаш нуқтаи назаридан баҳоланадиган реал статистик кўрсаткичлар. Иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичлари – бу мамлакат иқтисодиёти ривожланишининг реал статистик кўрсаткичлари бўлиб, улар иқтисодий соҳадаги ҳодисалар ва тенденцияларни энг тўлиқ тавсифлайди. Кўрсаткичлар мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлиги даражасини очиб берувчи муҳим ахборот функциясини бажаради. Иқтисодий хавфсизликни таҳлил қилишда кўрсаткичларни блокларга ажратиш мақсадга мувофиқдир, уларнинг ҳар бири алоҳида кўрсаткичлар тўплами билан тавсифланади.

Хорижий ва маҳаллий амалиётда иқтисодий хавфсизлик ҳолатини баҳолаш учун иқтисодий хавфсизликнинг интеграл коэффициентлари, шунингдек, алоҳида кўрсаткичларнинг чегаравий қийматлари кўрсаткичлари қўлланилади. Давлат ва жамиятнинг иқтисодий хавфсизлигини баҳолаш учун мамлакат ривожланишининг миқдорий ва сифат кўрсаткичларининг чегаравий қийматлари муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уларга риоя қилмаслик иқтисодиётда салбий, бузғунчи тенденцияларнинг шаклланишига олиб келади. Шуни таъкидлаш керакки, иқтисодий хавфсизликнинг юқори даражасига барча кўрсаткичлар тўплами унинг чегара қийматларининг мақбул чегараларида бўлиши шарти билан эришилади [9].

Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда экспорт таркибига алоҳида эътибор қаратиб, тайёр маҳсулотларни кўпайтириш ва фойдали қазилмалар экспортини камайтириш керак. Шунингдек, Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда тўлов баланси ва мамлакат ҳолатини тавсифловчи кўрсаткичларга алоҳида эътибор берилади, улардан 4 таси асосий кўрсаткичларга киради: ташқи қарз, давлат қарзига хизмат кўрсатиш харажатларининг улуши, олтин-валюта захиралари ҳажми ва ташқи қарз бўйича тўловларнинг йиллик экспорт ҳажмига нисбати орқали баҳоланади [6].

Тадқиқотларимиз натижалиридан келиб чиққан ҳолда, иқтисодий хавфсизликни таҳлил қилиш ва прогноз қилишнинг индикатив тизимини яратиш керак, унинг асосий элементи иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичларининг чегаравий қийматлари, жами ишда иқтисодий ривожланишнинг турли соҳаларини тавсифловчи 150 га яқин кўрсаткичлар қўлланилади. Иқтисодий хавфсизлик кўрсаткичларининг ҳақиқий ва прогнозли даражаларини таққослаш мамлакат иқтисодиётининг ривожланиш векторини ва унинг асосий ҳаётни таъминлаш тизимларининг ҳолатини кўрсатади. Кўрсаткичларнинг чегаравий қийматларини айниқса, ЯИМ ҳажмини аниқлаш учун асосий асос сифатида ижтимоий кўрсаткичлар гуруҳидан фойдаланиш тавсия этилади. Ушбу методологиядан мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг қисқа ва узоқ муддатли прогнозларини ҳамда давлат бюджети лойиҳаларини баҳолашда фойдаланилади.

### Хулоса

Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги деганда ҳар қандай ташқи ва ички беқарорлаштирувчи омиллар ва хавфларни таҳлил қилиш ва уларга тезкор жавоб бериш, мамлакатнинг иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш қобилиятига эга бўлган миллий иқтисодиётнинг барқарор динамик мувозанат позицияси тушунилиши керак. Жаҳон миқёсида, шунингдек, мамлакатлар иқтисодий барқарор ривожланиши аҳоли эҳтиёжларини қондиришни кафолатлайди. Шундай қилиб, мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш механизмини шакллантириш иқтисодий хавфсизликни бир қатор мезонлар бўйича ҳар томонлама баҳоламасдан туриб таъминлаб бўлмайди. Мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлигини барча муҳим белгиловчи хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иқтисодий хавфсизликни таъминлаш механизмини шакллантириш, давлатнинг хавфсиз ривожланишига эришиш мақсадларини аниқлашга ёрдам беради ва ривожланишнинг кейинги, сифат жиҳатидан янги босқичига олиб келади. Хавфсизликни миллий манфаатлар призмасидан ўтган ҳолда унинг иқтисодий салоҳиятидан тўлиқ ва оқилона фойдаланиш билан тавсифланган мамлакатни иқтисодий ривожланишининг маълум бир ҳолати сифатида белгилаш мумкин.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Митин Л. Общероссийский «Реестр надежных партнеров» ТПП РФ – первый выпуск. – URL: http://www.psj.ru
2. Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, №4, 2003.
3. Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. -С.6.
4. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. –М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. –С.8.
5. Козаченко А.В., Пономарев В.П., Ляшенко А.Н. Экономическая безопасность предприятия: сущность и механизм обеспечения. – К.: Либра, 2003.
6. Ярочкин В.И. Система безопасности фирмы. – М, 1997.
7. https://stat.uz расмий веб сайти.
8. Тамбовцев В.Л. Экономическая безопасность хозяйственных систем: структура проблемы // Вестник МГУ. Сер. 6. Экономика. – 1995. – №3. – С.3.
9. Gilad, Ben. Industry Risk Management: CI’s Next Step // Competitive Intelligence Magazine. – 4 (3), May-June. – URL: http://www.academyci.com
10. Scott, D. Anthony. What’s next for innovation? //Chief Executive Magazine, The. – July/August 2009. – URL: www.chiefexecutive.net

**УДК 330/656.1**

**Касымова Нозима Омиловна,**
*докторант 3-курс*
*Ташкентский государственный технический университет*
Nozima050@inbox.ru

# ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННО-ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

**Kasimova Nozima Omilovna,**
*3-bosqich tayanch doktoranti,*
*Toshkent Davlat Texnika Universiteti,*
Nozima050@inbox.ru

# O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL SANOATIDA INVESTITSION-INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Kasimova Nozima Omilovna,**
*3-year PhD student,*
*Tashkent State Technical University,*
Nozima050@inbox.ru

# PRIORITY DIRECTIONS FOR MANAGING INVESTMENT AND INNOVATION PROCESSES IN THE AUTOMOTIVE INDUSTRY OF UZBEKISTAN

**Аннотация.** *Статья посвящена изучению приоритетных направлений управления инвестиционно-инновационными процессами в автомобильной промышленности Узбекистана. Одним из результатов исследования является механизм инвестирования в систему управления инновационными процессами автомобильных предприятий.*

**Ключевые слова:** *концепция развития, инвестиционно-инновационный процесс, инвестиционная привлекательность, конкурентоспособность, локализация, автомобильная промышленность.*

**Annotatsiya.** *Maqola O‘zbekiston avtomobil sanoatida investitsion va innovatsion jarayonlarni boshqarishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalaridan biri bu avtomobil korxonalarining innovatsion jarayonlarini boshqarish tizimiga investitsiya qilish mexanizmi hisoblanadi.*

**Tayanch so'zlar:** *Rivojlanish konsepsiyasi, investitsion-innovatsion jarayon, investitsion jozibadorlik, raqobatbardoshlik, mahalliylashtirish, avtomobil sanoati.*

**Annotation.** *The article examines innovative indicators of industrial growth reserves. Activation of innovative factors is the most difficult, but the most promising way to increase industrial production. The analysis made it possible to identify significant reserves in increasing the level of capacity utilization, increasing labor productivity, modernizing fixed assets, as well as diversifying and increasing the competitiveness of industry.*

**Keywords:** *Development concept, investment and innovation process, investment attractiveness, competitiveness, localization, automotive industry.*

## Введение

Автомобильная промышленность Узбекистана, созданная в годы независимости с «нуля», является одновременно и гордостью Узбекистана.

В разработанной Концепции развития автомобильной промышленности Республики Узбекистан до 2025 г. предусмотрен широкий ряд мер по развитию отрасли. Однако достижение поставленных в данном направлении целей может быть затрудненно в связи с негативными тенденциями на мировом рынке автомобильной промышленности.

Согласно недавно опубликованным статистическим материалам, главным фактором сокращения автомобильного спроса в мире является замедление китайского экономического роста, поскольку на Китай приходится более четверти мирового автомобильного производства. В Концепции развития автомобильной промышленности проработка вопроса об организации производства электромобилей и формирование необходимой инфраструктуры для их широкого распространения является актуальной.

## Обзор литературы по теме

Теоретические и практические аспекты использования инновационных процессов и привлечения инвестиций в экономике, их влияние на экономику страны рассмотрены во многих научных работах.

Анализ работ в данной области показал, что одним из ключевых моментов развития любого социально-экономического направления, является привлечение инвестирования, размер и доступность которого напрямую зависит от инвестиционного климата страны. Об этом пишут, в частности, З.А.Авласко и П.В.Авласко, последовательно раскрывая показатели эффективности инвестиций, в том числе внутренние затраты на исследования и разработки, индикаторы стратегии инновационного развития, обороты предприятий, износ основных фондов и другие.

Ученые нашей страны такие, как Г.А.Саматов, Т.Ю.Кадыров, М.Н.Равшанов, М.Н.Ирисбекова, М.Б.Калонов, Г.А.Абдилакимов, Е.А.Камалова, З.К.Усманов, А.М.Мерганов, Р.Г.Саматов, Т.Р.Рахимов проводили научные исследования в области организации инновационных и инвестиционных процессов в промышленности республики. По мнению Т.Р.Рахимова, анализ регионального инвестиционного климата представляет собой актуальную задачу при планировании, организации и совершенствовании региональных инвестиционных программ. Его совершенствование является основой повышения объемов привлечения инвестиций в основной капитал в экономике региона.

### Методология исследования

С целью повышения эффективности финансово-хозяйственной деятельности промышленных предприятий и организаций большое применение находит факторный анализ. Существуют следующие типы факторного анализа: 1) детерминированный (функциональный) – результативный показатель представлен в виде произведения, частного или алгебраической суммы факторов; 2) стохастический (корреляционный) – связь между результативным и факторными показателями является неполной или вероятностной; 3) прямой (дедуктивный) – от общего к частному; 4) обратный (индуктивный) – от частного к общему; 5) одноступенчатый и многоступенчатый; 6) статический и динамический; 7) ретроспективный и перспективный.

Инновация (нововведение) – это внедренное (а, следовательно, практически необходимое и используемое) новшество, которое обеспечивает качественный рост эффективности процессов, продукции или обновление действующей системы, востребованных на рынке.

Инвестиции – это один из наиболее важных аспектов финансово-экономической деятельности корпорации, руководство которой нацелено на сохранение рентабельности в долгосрочный период времени.

Согласно новой концепции развития инвестиционно-инновационными процессами в промышленности Узбекистана, если анализировать текущие проблемы автомобильной промышленности республики, то, согласно новой концепции промышленного развития АО «Узавтосаноат», уровень локализации считается очень низким, так как чистая прибыль составляет 6,8%. В частности, средняя чистая локализация, то есть уровень локализации, составляет 32% для легковых автомобилей и 20% для грузовых автомобилей и автобусов.

Кроме того, простым и необходимым нововведением в системе является обеспечение прозрачности, функционирования единого портала закупок, продаж и локализации и «BOM» (Bill ofMaterials), единой системы планирования производства. Кроме того, следует отметить, что на предприятиях автомобильной системы предусматривается достижение уровня локализации не менее 50%, перемещение оборудования за счет введения простой и прозрачной локализации, максимальное использование мощностей. В целях развития инжинирингового потенциала автомобильной промышленности желательно постоянно обучать сотрудников, привлекая инвестиции в научно-технические достижения и постоянно внедряя их в производство.

### Результат и обсуждения

В современных экономических условиях возрастает роль инвестиционной деятельности корпораций. Усиление корпоративных структур – одна из важнейших тенденций развития национальной экономики. Корпорация в настоящее время представляет собой сложную адаптивную систему, которая состоит из целого ряда элементов, является открытой и соответственно взаимодействует с окружающей средой, приспосабливается к изменениям и одновременно изменяет внешние условия.

Процесс инвестиционной деятельности корпорации представляет собой целенаправленную последовательную совокупность взаимосвязанных действий, способствующих повышению уровня экономической эффективности инвесторов и корпорации в целом. Процесс инвестиционной деятельности корпорации, его основные стадии и их характеристика представлены на рис. 1.




**Рис. 1. Процесс инвестиционной деятельности корпорации**

Необходимость выделения стадий позволяет более детально изучить предложенное направление инвестиционной деятельности корпорации, обеспечить возможность корректировок показателей эффективности, минимизировать финансовые риски инвесторов на каждой стадии процесса инвестиционной деятельности. Таким образом, способствует сохранению структуры капитала корпорации в положительной динамике и максимизации экономического эффекта для инвесторов. Существенное влияние на процесс инвестиционной деятельности корпорации оказывают как внешние, так и внутренние факторы, сказывающиеся на продолжительности процесса, затратах на создание и реализацию объекта инвестирования, конечном экономическом эффекте. Всестороннее изучение и мониторинг позволят определить положительные тенденции и выявить их негативные последствия, что в дальнейшем предоставит возможность при положительной динамике повысить эффективность инвестиционной деятельности корпорации, а при отрицательной – своевременно принять меры по преодолению негативных последствий и снижению инвестиционных рисков. Поэтому эффективность

реализации процесса инвестиционной деятельности корпорации невозможна без систематизации и анализа внешних и внутренних факторов.

**Предложения**

Таким образом, анализ инвестиционно-инновационных процессов автомобильных предприятий показал основные направления их совершенствования. Следующие методологические компоненты станут основой для развития направлений совершенствования:

1.Модель прогнозирования развития инвестиционно-инновационного потенциала сети;

2.Методы мотивации работников в процессе формирования инвестиционно-инновационной системы управления предприятием;

3.Механизм инвестирования в систему управления инновационными процессами автомобильных предприятий. Важнейшим приоритетом для развития автомобильной промышленности Узбекистана в будущем является запуск производства электромобилей и создание необходимой инфраструктуры для обеспечения их популярности среди потребителей в регионах.

**Заключение**

В результате вышеупомянутых мероприятий производительность труда на предприятиях АО «Узавтосаноат» увеличится до 50%, доля добавленной стоимости – до 25-50%, рентабельность – до 5%, объем производства и количество занятых людей – в 1,4 раза, объем экспорта – до 5%, в 5 раз, а цены на продукцию упадут до 30%, а уровень обеспеченности населения автомобилями в Узбекистане достигнет 116 на каждого из 1000 жителей.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. Тарахтиева Г.К., Жахонов Х.Н. Анализ проблем современного состояния автомобильной промышленности Республики Узбекистан // Экономика и финансы (Узбекистан). 2018. №6. С. 32-36.
2. Шакирова Ф.Б. Развитие экономики Узбекистана на основе инновационной деятельности // Проблемы современной экономики. 2015. №3(55). С. 299-302.
3. Sobirov B. Innovative development of tourism in Uzbekistan // American Journal of Economics and Business Management. 2018. V. 1. №1. P. 60-74.
4. Jakhongirov I. The importance of investments in modernizing indusry of Uzbekistan // International Journal of Research in Social Sciences. 2019. V. 9. №2. P. 711-729.
5. Dodgson M., Gann D. M., Salter A. The management of technological innovation: strategy and practice. Oxford University Press on Demand, 2008.
6. Megoran N., Raballand G., Bouyjou J. Performance, representation and the economics of border control in Uzbekistan // Geopolitics. 2005. V. 10. №4. P.740.
7. Kurpayanidi K.I., Makhmudova N. Current trends establishment of innovation infrastructure in the industrial sector of Uzbek economy // European Journal of Natural History. 2016. №2. P. 44-48.
8. Kurpayanidi K. Innovation component of the business environment as a factor enhancing economic growth // Economics. 2015. №1. P. 6-9.

УЎТ 338.2(575.1)
330.322(575.1)

**Умирзоқов Жаъсур Артиқбой ўғли,**
*Тошкент молия институти доценти в.б, PhD.*
*jasur_umirzokov@bk.ru*

# ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИ ХАВФСИЗЛИК ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШ МЕТОДОЛОГИЯСИ

**Умирзоков Жаъсур Артикбой угли,**
*Доцент Ташкентского финансового института, Ph.D.*
*jasur_umirzokov@bk.ru*

# МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ УРОВНЯ БЕЗОПАСНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ

**Umirzokov Jasur Artikboy ugli,**
*Associate Professor of Tashkent institute of finance, Ph.D.*
*jasur_umirzokov@bk.ru*

# METHODOLOGY FOR ASSESSING THE SECURITY LEVEL OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT

**Аннотация.** *Мақолада инвестиция муҳитини баҳолаш орқали иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг асосий методологик жиҳатлари тадқиқ этилган. Тадқиқот натижаларига кўра, "инвестиция муҳити хавфсизлигини баҳолашнинг интеграцион индекси" ишлаб чиқилиб, индекс таркибига қатор субиндекслар ва кўрсаткичларни киритиш таклиф этилган. Инвестиция муҳити хавфсизлиги индексининг чегаравий қийматлари ҳисоблаб чиқилган. Инвестиция муҳити хавфсизлиги индексининг стандарт ўсиш нуқталари аниқланган ва инвестицион ривожланишнинг мақбул даражаси, хавфли бўлган ҳудудлар учун тавсиявий чегаралар белгиланган. Мазкур тадқиқот асосида Ўзбекистонда инвестиция муҳити хавфсизлигини янада оширишга қаратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

**Таянч сўзлар:** *"хавфсиз инвестиция", инвестиция сиёсати, молиявий-иқтисодий муносабатлар, халқаро молия марказлари, оффшор ҳудудлар, "солиқ гаванналари", инвестиция муҳити, инвестиция салоҳияти, "инвестиция жозибадорлиги" индекси, тўғридан-тўғри хорижий инвестиция, ЯИМ, молиявий ресурслар, инвестиция муҳити хавфсизлиги индекси, Марказий ва Шарқий Европа мамлакатлари, макроиқтисодий муҳит рисклари, саноат рисклари.*

**Аннотация.** *В статье описаны основные методологические аспекты оценки инвестиций и обеспечения рисков, а также конкретные результаты. По результатам*

*исследования разработан «Индекс интеграции оценки безопасности инвестиций», который предлагает субиндексы и субиндексы в индексе. По результатам исследования рассмотрено предельное значение индекса безубыточности инвестиций. В ходе исследования установлено, что стандартный рост индекса инвестиционной безопасности должен быть увеличен, а также определены пределы допустимого уровня инвестиционного развития и опасные в этом вопросе направления. На основе этого вывода сделаны предложения, направленные на восстановление инвестиционной безопасности в Узбекистане.*

**Ключевые слова:** *«безопасные инвестиции», инвестиционная политика, финансово-экономические отношения, международные финансовые центры, оффшорные зоны, «налоговая гавань», инвестиционная среда, инвестиционный потенциал, индекс «инвестиционной привлекательности», прямые иностранные инвестиции, ВВП, финансовые ресурсы, инвестиционная среда, индекс безопасности, страны Центральной и Восточной Европы, риски макроэкономической среды, промышленные риски.*

**Annotation.** *The article was described the main methodological aspects of investment evaluation and risk assurance, and concrete results. Achieving the research result, "Investment benefit security assessment tegration index" is developed and offers sub-indices and sub-indexes in the index. Based on the results of the research, the marginal value of the investment breakeven index was considered. During the study, it was determined that the standard growth of the investment-safe index should be increased, and the limits for the acceptable level of investment development and the areas that are dangerous in this matter were determined. On the basis of this conclusion, proposals aimed at the re-production of investment security in Uzbekistan have been made.*

**Key words:** *"safe investment", investment policy, financial and economic relations, international financial centers, offshore areas, "tax haven", "investment environment, investment potential, investment attractiveness" index, foreign direct investment, GDP, financial resources, investment environment security index, Central and Eastern European countries, macroeconomic environment risks, industrial risks*

## Кириш

Жаҳонда молиявий оқимларнинг глобаллашуви шароитида иқтисодиётга "хавфсиз инвестиция"ларни жалб этиш ҳар бир давлатнинг ташқи инвестиция сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири. Бу борада, кўплаб механизм ва воситалардан фойдаланилади. Жумладан, иқтисодий ривожланиши паст даражада бўлган ҳудудларда махсус иқтисодий зоналарни ташкил этган ҳолда бу зоналарга инвестицияларни жалб этиш орқали инвестиция фаоллиги таъминланади.

Аҳамиятлиси, молиявий-иқтисодий муносабатларнинг интеграция жараёнлари тобора жадаллашиб, халқаро молия марказларининг фаоллиги ошиб бориши фонида мамлакатлар иқтисодий тараққиётида инвестициялар, шу жумладан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар мобиллигини таъминлаш – энг муҳим омиллардан бирига айланди. Шу билан биргаликда, юқорида таъкидланганидек, иқтисодиётга "хавфсиз инвестиция"лар оқимини фаоллаштиришда бир қанча жиҳатларга аҳамият бериш талаб этилади. Бунда жаҳон амалиётида махсус иқтисодий зоналарнинг муайян бир тури – оффшор ҳудудларнинг инвестицион фаоллик ва шу билан биргаликда иқтисодий хавфсизликка таъсир этишига эътибор қаратиш лозим. Қайд этиш керакки, "1980 йиллардан бошлаб, оффшор молиявий марказлар сони икки баравар кўпайди, яъни уларнинг сони 30 дан 60 тагача кескин ошди. Булар Европа,

Америка, Ҳинд океани ва Австралиядаги аҳоли кам истиқомат қилувчи ороллар ёки штатларда анклав ҳудудлар сифатида ташкил этилди [1]".

Ҳар йили халқаро оффшор ҳудудларнинг "пухта ўйланган" молиявий схемалари тизими ҳар бир давлатнинг молиявий тизимидан катта миқдордаги маблағларни ноқонуний олиб чиқиб кетиш имконини бериши глобал инвестиция фаоллиги ва бу орқали иқтисодий хавфсизликка сезиларли таъсир этмоқда. Оффшор юрисдикцияларнинг ташкил этилиши ва такомиллашиб бориши натижасида "солиқ гаванналари" деб аталадиган ушбу ҳудудлар глобал иқтисодий тармоқда молиявий капиталнинг эркин фаолият юритишига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Шу сабабли, мамлакатларнинг инвестиция муҳити хавфсизлик даражасини баҳолаш иқтисодиётга инвестициялар оқимини фаоллаштириш, инвестиция муҳити жозибадорлигини ошириш, жалб этилган капитал қайтими самарадорлигини таъминлашда долзарб аҳамиятга эга.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**

Мамлакатнинг "инвестиция муҳити хавфсизлиги" даражасини аниқлаш борасида олиб борилган илмий-тадқиқотларда баҳолаш услублари жумласига қуйидагилар киритилган:

– инвестицион хавфсизликнинг интеграциялашган индексининг моҳияти ва тузилишини аниқлаш [2];

– инвестиция муҳитини баҳолашнинг таҳлил ва тадқиқот ўтказилган мамлакатлар намунасини шакллантириш [3];

– ретроспекция даври учун маълум бир мамлакатлар намунасига асосланиб, кириш параметрлари тизимини яратиш [4];

– дунё мамлакатларининг инвестиция муҳити хавфсизлик даражасини баҳолаш ва таҳлил қилиш [6];

– мамлакат инвестицион хавфсизлигини юқори даражага олиб чиқиш йўлидаги хусусиятлар ва қонуниятларни тадқиқ этиш [7];

– индексларнинг чегаравий қийматларини белгилаш [6].

Шунингдек, инвестиция муҳити хавфсизлигига салбий таъсир этувчи оффшор ҳудудларнинг глобал инвестиция жараёнларига, халқаро иқтисодий хавфсизликка таъсири юзасидан илмий-тадқиқотлар олиб борган россиялик олимлар Ю.П.Господарик ва М.В.Пашковскаяларнинг фикрича, оффшор (инглизчадан, off shore – яъни "қирғоқдан ташқарида") – ҳудуд жойлашган мамлакатда рўйхатдан ўтган хорижий компанияларга махсус солиқ ва бошқа имтиёзлар бериш орқали хорижий капитални жалб қиладиган махсус молиявий марказ бўлиб, ушбу ҳудудда оффшор бизнес, оффшор компанияларни рўйхатдан ўтказиш ва фаолият олиб боришга қонуний равишда рухсат берилган ва резидентларга нисбатан кўп сонли имтиёзлар қўлланиладиган давлатлар ва махсус ҳудудлар оффшор юрисдикциялар [8], деб аталади. Эътиборлиси, мазкур фикр-мулоҳазаларда оффшор ҳудудлар, нафақат муайян бир ҳудуд, балки давлатлар ҳам оффшор марказ сифатида таърифланган.

В.И.Баронов ва Г.М.Косюниналарнинг эркин иқтисодий ва оффшор зоналарнинг иқтисодий-ҳуқуқий жиҳатлари бўйича олиб борган илмий тадқиқотларида "Халқаро валюта фонди экспертларининг тавсиялари асосида глобал инвестиция фаоллигига 40 фоиз оффшор марказларнинг салбий таъсирини юмшатиш учун банкларда хизмат кўрсатиш соҳаси бўйича халқаро Базель

қўмитаси стандартларини мамлакатлар миллий стандартларига мослаштириш зарурлиги таъкидланган. Жумладан, ахборот алмашинуви талабини 65 фоиздан 82 фоизга, халқаро филиалларни очиш борасидаги назорат талабини 72 фоиздан 87 фоизга ошириш имконияти мавжуд [9]".

Мазкур илмий-тадқиқотларда халқаро даражада эътироф этилган стандартларни миллий ҳисоблар тизимларига интеграция қилиш орқали оффшор марказларнинг глобал инвестицион фаолликка таъсирини камайтиришга алоҳида эътибор берилганлигига гувоҳ бўлдик.

Буюк Британиянинг Эссекс (University of Essex) университетида оффшор молия марказларининг глобаллашувдаги ўрни борасида илмий-тадқиқотлар олиб борган профессор Prem Sikka шуни алоҳида қайд этадики, "...баъзи оффшор молия марказларида оффшор фирма ёки молия хизматлари марказлари (шу жумладан, банклар) атиги 500 фунт стерлинг капитал эвазига тузилиши мумкин. Қолаверса, компаниялар ортиқча шов-шувсиз шакллантирилади ва банк ҳисоблари электрон почталар орқали очилади. Кейин ўзларининг молиявий хизматлар марказига эга компаниялар осонгина капитал оқимини бошқаришлари мумкин бўлади. Шу тарзда улар "кичик миқдор"дан глобал инвестиция фаоллигига таъсир этади [5]".

Бу борада, жаҳон иқтисодиётининг деярли барча тармоқлари, соҳалари ва мамлакатлар ҳудудлари йирик миқдордаги инвестиция ресурсларига кучли эҳтиёж сезмоқда. Шунингдек, кўпгина мамлакатлар иқтисодий ривожланиш тенденциялари фақатгина хорижий инвестициялар фаоллиги билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Ички инвестиция салоҳияти етарли даражада ривожланмаган мамлакатлар учун хорижий инвестиция манбаларини жалб қилиш – энг мақбул тараққиёт йўлидир. Бу, ўз навбатида, мамлакатдаги мавжуд ижтимоий-иқтисодий, молиявий муаммоларга ечим топиш баробарида юқори даражадаги иқтисодий хавфсизликни таъминлашни кун тартибига қўйган. Ҳар бир мамлакатда қулай инвестиция муҳитининг шакллантирилиши, инвестициялар мобиллигининг фаоллашуви, алоҳида тармоқлар ва ҳудудлар бўйича инвестиция муҳити жозибадорлигини ошириш хорижий инвестиция оқимларини кўпроқ жалб этишда эътиборли жиҳатлардандир. Шу сабабли, мамлакатларнинг инвестиция муҳити хавфсизлик даражасини баҳолаш, доимий мониторинг қилиш – мамлакат иқтисодий-инвестициявий хавфсизлигини таъминлашнинг истиболли йўналишларидан бири, деб ҳисоблаймиз.

Юқоридаги илмий-тадқиқотларда инвестиция муҳити хавфсизлиги ва оффшор ҳудудларнинг мазмунига оид умумий ва хусусий қарашлар, уларнинг асосий хусусиятлари, фойдаланиладиган молиявий схемалар ҳақида кўпроқ фикр юритилган. Аммо ушбу ҳудудларнинг глобал инвестиция фаоллиги ва халқаро иқтисодий хавфсизлик даражасига таъсири борасида комплекс илмий-тадқиқотлар орқали мавзуга янгича ёндашувларни киритиш имконияти юқори ҳисобланади.

### Тадқиқот методологияси

Мақола доирасида илмий-тадқиқотларни олиб боришда статистик кузатув, индукция ва дедукция, тадқиқот объекти бўйича сўровномалар ўтказиш, вербал шарҳлаш каби усуллардан фойдаланилган.

### Натижа ва муҳокама

Мамлакатнинг инвестиция муҳити хавфсизлиги ва жозибадорлиги жалб

қилинган маҳаллий ва хорижий инвестицияларнинг умумий миқдорига қараб баҳолаш мақсадга мувофиқдир. Мазкур жараённинг умумий методологиясига халқаро индекслар (кўрсаткичлар) билан интеграциялашган “инвестиция муҳити хавфсизлигини баҳолашнинг интеграцион индекси” орқали баҳолаш таклиф этилади (1-жадвал). Инвестиция муҳити хавфсизлигини баҳолашнинг интеграцион индексида ҳар бири индекс маълум элементларни ифодаловчи, таснифланган 3 та йирик компонентли субиндекслардан иборат.

Ушбу интеграцион индекс таркибидаги субиндексларни ташкил этувчи кўрсаткичлар тизими, жумладан, комплекс кўрсаткичлар ва индивидуал миқдорий параметрларни баҳолаш – мамлакатнинг инвестиция муҳити жозибадорлиги ва хавфсизлик даражасини аниқлаш, унинг муҳим хусусиятлари

*1-жадвал*

**“Инвестиция муҳити хавфсизлигини баҳолашнинг интеграцион индекси” таркибидаги субиндекслар ва кўрсаткичлар тузилиши**

| Субиндекслар | № | Кўрсаткичлар | Шартли белгиси |
|---|---|---|---|
| **“ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИ” ИНДЕКСИ, $S_1$:** | 1.1. | Бизнес юритиш индекси | $I_{s11}$ |
| | 1.2. | Коррупцияга мойиллик индекси | $I_{s\,12}$ |
| | 1.3. | Иқтисодий эркинлик индекси | $I_{s\,13}$ |
| | 1.4. | Глобал рақобатбардошлик индекси | $I_{s\,14}$ |
| | 1.5. | Инсон тараққиёти индекси | $I_{s\,15}$ |
| | 1.6. | Бизнес юритиш индекси | $I_{s\,16}$ |
| **“ИНВЕСТИЦИЯ ЖОЗИБАДОРЛИГИ” ИНДЕКСИ, $S_2$:** | 2.1. | ЯИМ нинг ўсиши, фоизда | $I_{s\,21}$ |
| | 2.2. | ЯИМнинг аҳоли жон бошига тақсимоти, АҚШ долларида | $I_{s\,22}$ |
| | 2.3. | Инфляциия даражаси | $I_{s\,23}$ |
| | 2.4. | Ишсизлик даражаси | $I_{s\,24}$ |
| | 2.5. | Экспорт ҳажмининг ЯИМ ҳажмидаги улуши, фоизда | $I_{s\,25}$ |
| **“ИНВЕСТИЦИЯ ФАОЛЛИГИ” ИНДЕКСИ, $S_3$:** | 3.1. | ЯИМда тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг улуши, фоизда | $I_{s\,31}$ |
| | 3.2. | ЯИМ ҳажмида асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг улуши, фоизда | $I_{s\,32}$ |
| | 3.3. | Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажмидаги улуши, фоизда | $I_{s\,33}$ |
| | 3.4. | Ички инвестициянинг хорижий инвестицияларга нисбати | $I_{s\,34}$ |
| | 3.5. | Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг дунёдаги тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардаги улуши, фоизда | $I_{s\,35}$ |

**Манба:** *муаллиф ишланмаси.*

ва макроиқтисодий ривожланиш динамикасига баҳо бериш имкониятини беради. Мазкур комплекс интеграцион индексда инвестиция муҳитининг хавфсизлик даражаси индексини ишлаб чиқишда қуйидаги субиндекс гуруҳлар мавжуд:

– инвестиция муҳити ($S_1$);

– инвестиция жозибадорлиги ($S_2$);

– инвестиция фаоллиги ($S_3$).

Мамлакат инвестиция муҳити ва жозибадорлиги субъектларининг инвестиция фаоллиги даражаси билан бевосита боғлиқ бўлиб, инвестиция муҳити хавфсизлиги билан бир контексда тавсифланади:

– инвестиция муҳити ($S_1$) индекси – бу мамлакатларнинг энг таъсирчан индексларини ўзида жамланган субиндекс. Унинг таркибидаги индексларнинг ҳар бири ўзига хос хусусиятга эга, хусусан, мулк ҳуқуқи ва уларни бошқариш, бизнес очиш ва юритиш қулайлиги, аутсорсинг жозибадорлиги, инвестиция салоҳияти, умумий рақобатбардошлик ва бошқаларга оид ишлар ҳолатини акс эттиришга қаратилган. Уларнинг ҳар бири мамлакатнинг инвестиция муҳитини тўлиқ очиб бермайди, аммо улар бир-бирини тўлдиради ва комплекс тоифа сифатида инвестиция муҳитининг умумий сифат даражасини ҳар томонлама тавсифлаш имконини беради;

– инвестиция жозибадорлиги ($S_2$) индекси – иқтисодий ривожланиш тенденцияларини тавсифловчи ҳамда инвесторлар учун энг муҳим макроиқтисодий кўрсаткичларни, яъни ЯИМнинг ўсиш суръатларини баҳолашдан иборат бўлган субиндекс бўлиб, аҳоли жон бошига тўғри келадиган ЯИМ ҳажми, инфляция ва ишсизлик даражаси, экспортнинг ЯИМдаги улуши каби муҳим кўрсаткичларни қамраб олган тўплам индекс ҳисобланади;

– инвестиция фаоллиги ($S_3$) индекси – бу мамлакатдаги инвестиция фаоллигининг интенсивлигини тавсифловчи кичик субиндекс. У маълум бир даврда ташқи инвестиция ресурсларини жалб қилиш даражасини ва ички инвестицияларнинг ривожланишини ҳисобга оладиган нисбий кўрсаткичлардан ташкил топган. У тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва иқтисодиётдаги ялпи капитал жамғармасининг ЯИМдаги, ялпи капитал жамғаришдаги тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг улуши, ички ва хорижий инвестициялар ўртасидаги нисбатини ўз ичига олади.

**Халқаро экспертлар томонидан олиб борилган** тадқиқот натижаларига кўра [10], инвестиция муҳити хавфсизлик даражасини баҳолаш натижаларининг аҳамияти қуйидагиларда намоён бўлади:

• биринчидан, миллий иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларга инвестиция кўринишидаги молиявий ресурсларни фаол жалб қилиш, тўплаш ва сақлаш имкониятини оширади;

• иккинчидан, мамлакат иқтисодиётининг барқарор суръатларда ўсиши ва ишлаб чиқаришнинг рақобатбардошлигини таъминлайди;

• учинчидан, миллий иқтисодий тизимнинг ўзини ўзи молиявий ресурслар билан таъминлаш босқичларининг самарали фаолиятида барқарорликни таъминлайди ҳамда иқтисодиётни техник-технологик жиҳатдан модернизация қилишга шарт-шароит яратади.

Тадқиқотлар асосида индексни ҳисоблаш учун z-стандартлаш балли сифатида танланган. Мамлакатлар учун кўрсаткичлар $x_{ij}$ ( i – кўрсаткич, j – мамлакат) орқали белгиланган:

$$I_{ij}(I) = \frac{x_{ij} - \bar{x}_i}{\sigma_i},$$

$$I_{ij}(D) = \frac{\bar{x}_i - x_{ij}}{\sigma_i}.$$

Тадқиқотимизда энг кенг тарқалган чизиқли йиғиш усули қўлланилган, яъни вазнли ва нормаллаштирилган индивидуал кўрсаткичларни йиғиш тушунилади:

$$ISI = S1^{0.33} + S2^{0.33} + S3^{0.33},$$

$$S1 = I_{S11}^{0.2} + I_{S12}^{0.2} + I_{S13}^{0.2} + I_{S14}^{0.2} + I_{S15}^{0.2},$$

$$S2 = I_{S21}^{0.2} + I_{S22}^{0.2} + I_{S23}^{0.2} + I_{S24}^{0.2} + I_{S25}^{0.2},$$

$$S3 = I_{S31}^{0.2} + I_{S32}^{0.2} + I_{S33}^{0.2} + I_{S34}^{0.2} + I_{S35}^{0.2}.$$

Таклиф этилган усуллардан фойдаланиб, мамлакатлар учун инвестиция хавфсизлигининг интеграцияланган индекслари баҳоланди. Қуйидаги 2-жадвалда Марказий ва Шарқий Европа мамлакатларида ўтказилган ҳисоб-китоблар келтирилган.

Таҳлил ўтказилган давлатлар: Албания, Болгария, Хорватия, Чехия, Венгрия, Польша, Руминия, Словакия, Словения, Эстония, Латвия, Литва, Россия Федерацияси, Украина, Молдава Республикаси.

Бунда инвестиция муҳити хавфсизлик индекслари динамикасида мамлакатлар икки гуруҳга бўлиниши мумкин:

– инвестиция хавфсизлиги бўйича ўз позицияларини мустаҳкамлаган давлатлар;

– инвестиция хавфсизлиги даражаси ёмонлашган давлатлар.

Мамлакатларнинг биринчи гуруҳида Чехия, Эстония, Венгрия, Латвия, Литва, Польша ва Руминия мамлакатлари бўлиб, уларнинг ўсиш суръатлари бир-биридан сезиларли даражада фарқ қилади. 2017–2022 йиллар давомида Латвия (12,3 %), Эстония (9,2 %), Польша (8,4 %) давлатлари энг юқори кўрсаткични ташкил этган. Руминия (2,9%) ва Венгрия (4,8%) ўртача ўсиш суръатларини акс эттирган. Чехия ва Литва (0,8 % дан) кўрсаткичларини аҳамиятсиз ўсиш характерига эга, деб ҳисоблаш мумкин. Иккинчи гуруҳ мамлакатларига Албания, Болгария,

*2-жадвал*

**Марказий ва Шарқий Европа мамлакатлари инвестиция муҳити хавфсизлик индекси**

| Марказий ва Шарқий Европа малакатлари | Инвестиция муҳити хавфсизлик индекси | | | | | | Ўсиш рейтинги, %да **2017-2022** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **2017** | **2018** | **2019** | **2020** | **2021** | **2022** | |
| Албания | 0.473 | 0.460 | 0.433 | 0.435 | 0.463 | 0.465 | -1.7 |
| Болгария | 0.567 | 0.479 | 0.497 | 0.505 | 0.519 | 0.551 | -2.8 |
| Хорватия | 0.521 | 0.462 | 0.460 | 0.453 | 0.481 | 0.482 | -7.5 |
| Чехия | 0.638 | 0.612 | 0.594 | 0.596 | 0.627 | 0.643 | 0.8 |
| Эстония | 0.621 | 0.594 | 0.629 | 0.648 | 0.640 | 0.678 | 9.2 |
| Венгрия | 0.562 | 0.510 | 0.536 | 0.579 | 0.522 | 0.589 | 4.8 |
| Латвия | 0.536 | 0.497 | 0.548 | 0.560 | 0.553 | 0.602 | 12.3 |
| Литва | 0.591 | 0.533 | 0.556 | 0.578 | 0.577 | 0.596 | 0.8 |
| Молдова | 0.511 | 0.432 | 0.429 | 0.452 | 0.429 | 0.444 | -13.1 |
| Польша | 0.550 | 0.551 | 0.545 | 0.565 | 0.577 | 0.596 | 8.4 |
| Руминия | 0.543 | 0.464 | 0.510 | 0.506 | 0.534 | 0.559 | 2.9 |
| Россия Федерацияси | 0.510 | 0.473 | 0.489 | 0.438 | 0.434 | 0.465 | -8.8 |
| Словакия | 0.612 | 0.568 | 0.531 | 0.531 | 0.550 | 0.582 | -4.9 |
| Словения | 0.640 | 0.578 | 0.551 | 0.562 | 0.570 | 0.605 | -5.5 |
| Украина | 0.533 | 0.370 | 0.425 | 0.305 | 0.371 | 0.394 | -26.1 |

**Манба:** *муаллиф ҳисоб-китоблари.*

Хорватия, Молдова, Россия, Словакия, Словения ва Украина киради. Украина (–26,1%), Молдова (–13,1%), Россия (–8,8%), Хорватия (–7,5%) давлатлари инвестиция муҳити хавфсизлигининг энг паст рейтингларини ташкил қилган. Ўртача пасайиш Словения (–5,5%), Словакия (–4,9 %), Болгария (–2,8%), Албания (–1,7%) давлатлари учун хосдир.

Украина Марказий ва Шарқий Европа мамлакатлари орасида ҳатто, инвестиция ривожланишининг хавфли даражасига эга мамлакатлар гуруҳида ҳам энг паст кўрсаткични қайд этган. Украина ривожланиш учун кам вақт талаб қиладиган самарали чоралар кўрмаса, тўлиқ иқтисодий ўсиш учун инвестиция даражасини ошира олмайди. 2022 йилда Украина 2017 йилга нисбатан 13 поғона пастлаган. ЯИМ ҳажми пасайиши, юқори инфляция, суверен кредит рейтингининг пастлиги, нотинч иш шароитлари, ҳарбий-сиёсий вазиятнинг беқарорлиги ва бошқалар сабаб бўлди.

Тадқиқот натижалари асосида инвестиция муҳити хавфсизлиги индексининг чегаравий қиймати ҳисоблаб чиқилди.

*3-жадвал*

**Инвестиция муҳити хавфсизлик индекси (ISI) чегаралари**

| Инвестиция муҳити хавфсизлик индекси **(ISI)** чегаралари | Инвестиция муҳити хавфсизлик индекси чегараси маъноси |
|---|---|
| Оптимал хавфсизлик (ISI > 0.75) | Инвестиция муҳити учун энг қулай, мулкдорлар манфаати учун “хавфсизлик ёстиқчаси” мавжуд. Хусусий мулк қонуний кафолатларига субъектив аралашувнинг мутлақо чекланганлиги. Мамлакат ичкарисида умумэътироф этилган халқаро нормаларнинг тўлиқ амал қилиши |
| Хавфсиз даражада (0.52 < ISI < 0.75) | Инвесторлар учун валюта муносабатлари, мулкчилик шаклларининг қонуний кафолатлари ўрнатилган. Тўғридан-тўғри инвестициялар учун бозор шароити қоидалари амал қилади. Халқаро ташкилотлар тавсиясига кўра хорижий капитал хавфсизлиги таъминланган |
| Хавфли даражада (0.28 < ISI < 0.52) | Инвестиция сиёсати ва мулкчилик соҳасида давлатнинг фаол аралашуви, хусусийлаштириш жараёнларида давлат мулки улушининг юқорилиги мавжуд. Инвесторларнинг ҳуқуқ-манфаатлари қонунларда акс эттирилган, аммо уларни амалда таъминлаш учун бартараф этиш мумкин бўлган ва “сунъий” чекловларнинг амал қилиши. Валюта либерализацияси тўлиқ якунига етмаган ва ташқи сиёсий босимлар остида иқтисодиётнинг доимий тебраниб туриши мавжуд бўлган ҳолат кузатилади |
| Ўта хавфли даражада (ISI < 0.28) | Инвестиция киритилиши хавфли ҳудудлар. Инвестиция сиёсати айрим шахслар манфаатига хизмат қилади. Киритилган капитал “қайтмаслик” риски билан “кафолатланган” бўлади |

**Манба:** *муаллиф ҳисоб-китоблари.*

Бунда мамлакатларни икки гуруҳга бўлиш имконияти мавжуд бўлади:

– инвестиция компоненти бўйича нисбатан “хавфсиз” давлатлар;

– инвестиция компоненти бўйича нисбатан “хавфли” давлат.

Тадқиқот давомида инвестиция муҳити хавфсизлиги индексининг стандарт ўсиш нуқталари аниқланди ва инвестицион ривожланишнинг мақбул даражаси ва бу масалада хавфли бўлган ҳудудлар учун чегаралар белгиланди (3-жадвал).

Тадқиқотларимиздан аниқландики, мамлакатнинг инвестиция муҳити хавфсизлик индекси 1 га қанчалик яқинлашса, унинг инвестиция ресурсларини тўплаш, улардан оқилона фойдаланиш қобилияти шунчалик юқори бўлади. Хавфсизлик даражасини белгиловчи омилларни аниқлаш учун Марказий ва Шарқий Европа мамлакатлари (МШЕ) гуруҳида корреляция таҳлили ўтказилди. Натижалар қуйидаги 4-жадвалда келтирилган.

Бу кўрсаткич мамлакатнинг илмий, техник, интеллектуал салоҳиятини ошириш, асосий капитални такрор ишлаб чиқариш, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, халқаро ҳамкорлик даражасида иқтисодий рақобатбардошликни ва ялпи ички маҳсулотнинг кафолатли ўсишини таъминлаш, стратегик захираларни яратиш, табиий ресурсларни сақлаш ва тиклаш, экологик стандартларнинг хавфсизлигини таъминлаш қобилиятини белгилайди.

**Хулоса**

Инвестиция муҳити хавфсизлик даражасини баҳолаш, биринчи навбатда, умумий макроиқтисодий динамиканинг содир бўлиши мумкин бўлган ёмонлашувга қарши чоралар қўллаш имконини беради.

Мазкур тадқиқот асосида қуйидаги таклифларни амалиётга жорий этиш инвестиция муҳити хавфсизлигини таъминлашда ижобий самарасини беради, деб ҳисоблаймиз:

– республика ҳудудларини “инвестиция муҳити хавфсизлигини

*4-жадвал*

**Инвестиция муҳити хавфсизлик индекси ва унинг таркибий қисмлари ўртасидаги корреляциясини баҳолаш**

| Мамлакатлар | Пирсон корреляция индекси | | |
|---|---|---|---|
| | Субиндекс[1] Инвестицион муҳит | Субиндекс[2] Инвестицион жозибадорлик | Субиндекс[3] Инвестицион фаолият |
| Барча МШЕ мамлакатлари | **0.98** | **0.87** | **0.05** |
| Албания | 0.17 | 0.61 | 0.72 |
| Болгария | -0.01 | 0.83 | 0.64 |
| Хорватия | -0.01 | 0.66 | 0.93 |
| Чехия | 0.79 | 0.73 | 0.65 |
| Естония | 0.65 | 0.91 | 0.18 |
| Венгрия | 0.11 | 0.74 | 0.46 |
| Латвия | 0.89 | 0.77 | -0.02 |
| Литва | 0.63 | 0.90 | 0.18 |
| Молдава | 0.43 | 0.51 | 0.95 |
| Польша | 0.34 | 0.92 | -0.76 |
| Руминия | 0.31 | 0.93 | 0.08 |
| Россия | 0.91 | 0.78 | 0.87 |
| Словакия | 0.97 | 0.82 | 0.89 |
| Словения | 0.52 | 0.83 | 0.87 |
| Украина | 0.72 | 0.97 | 0.85 |

**Манба:** *муаллиф ҳисоб-китоблари.*

баҳолашнинг интеграцион индекси" орқали баҳолаш асосида инвестиция муҳитига салбий таъсир этувчи рискларни аниқлаш. Мазкур рискларни бартараф этишга қаратилган дастлабки чораларни кўриш;

– инвестиция муҳитини баҳолаш орқали "ҳудудлар инвестиция муҳити жозибадорлиги рейтинги"ни чораклик ва йиллик эълон қилиб бориш;

– инвестиция муҳити жозибадорлигини ошириш мақсадида берилган солиқ, божхона ва бошқа маъмурий-молиявий имтиёзлар самарадорлигини баҳолаш. Баҳолаш натижаларига кўра, имтиёзлар самарадорлигини ошириш, уларнинг сонини оптималлаштириш.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


1. Financial Stability Forum, (2000). Report of the Working Group on Offshore Centres. https://www.taxjustice.net/cms/upload/pdf/WP03-02.pdf
2. Ash, S. (2017). Opportunities and risks for investors in central and east Europe. Financial Times.
3. Bubbico, R., Gattini, L., Gereben, Á., Kolev, A., Kollár, M., & Slacik, T. (2017). Wind of change: Investment in Central, Eastern and South Eastern Europe. European Investment Bank.
4. Günther, J., & Kristalova, M. (2016). No Risk, No Fun? Foreign Direct Investment in Central and Eastern Europe. Intereconomics, 51(2), 95-99.
5. Prem Sikka. University of Essex, UK. The role of offshore financial centres in globalization. Accounting Forum Volume 27, 2003 - Issue 4. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1046/j.1467-6303.2003.t01-2-00111.x?tab=permissions&scroll=top
6. O.Zakharova, O.Bezzubchenko, K.Mityushkina, T.Nikolenko (2020). Assessment of countries' international investment activity in the context of ensuring economic security. Problems and Perspectives in Management, 18(4), 72-84.
7. United Nations. (2019). World Investment Report: Special Economic Zones. United Nations Conference On Trade and Development (UNCTAD). United Nations Publications.
8. Ю.П.Господарик, М.В.Пашковская. Международный экономическая безопастность. Учебник. -3-е изд,, стер. -М.: Университет, «Синергия», 2018. -416 с.
9. В.И.Баронов, .М.Косюнина. Свободные экономические и офшорные зоны: (экономико-правовые вопросы зарубежной и российской практики) : учебное пособие. - Москва : Магистр : ИНФРА-М, 2019. – 560
10. Transparency International. (2019). CPI 2019 Global Highlights.

UO‘T 33.330

**Saloxitdinov Sherzod Farhodovich**
*Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi*
*e-mail:* saloxitdinov@internet.ru

## OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUVLAR

**Салохитдинов Шерзод Фарходович**
*Преподаватель Джизакского политехнического института*
*e-mail:* saloxitdinov@internet.ru

## МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА УСЛУГ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Salokhitdinov Sherzod Farkhodovich**
*Teacher of Jizzakh Polytechnic Institute*
*e-mail:* saloxitdinov@internet.ru

## METHODOLOGICAL APPROACHES TO QUALITY ASSESSMENT OF HIGHER EDUCATION SERVICES

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini rivojlantirish yo'nalishlari va amaliy ahamiyatining uslubiy yondashuvlari tadqiq etilgan.*
**Tayanch so‘zlar:** *oliy ta'lim muassasalari, sifat, xizmat, baholash tizimi, tendensiyalar, mehnat, kadrlar salohiyati, tashqi muhit omillari.*

**Аннотация.** *В статье исследуются направления развития системы оценки качества обслуживания в высших учебных заведениях и методические подходы, имеющие практическое значение.*
**Ключевые слова:** *высшие учебные заведения, качество, сервис, система оценки, тенденции, труд, квалификация персонала, факторы внешней среды.*

**Annotation.** *This article researches the directions of development of the service quality assessment system in higher education institutions and methodological approaches of their practical importance.*
**Keyswords:** *higher education institutions, quality, service, evaluation system, trends, labor, personnel competence, external environmental factors.*

## Kirish

Mamlakatimizda ta'lim xizmatlarining rivojlanib borayotganligi va ijtimoy-iqtisodiy siyosatda uning yetakchi o'rinlardan birini egallaganligi hamda boshqa tarmoqlar, sohalar bilan o'zaro mutanosibligi ta'lim xizmatlari faoliyatining murakkablashuvi bu boradagi muammoli vazifalarni hal qilish borasida turlicha yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Hozirgi ta'lim tizimini, ayniqsa, oliy ta'limni tanqidiy tahlil qilish asosida zamonaviy yangi ta'lim tizimining kadrlar talab va ehtiyojlari asosida tashkil qilish turlicha g'oyalar, qarashlar oldinga surilmoqda. Zero, respublikamizning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, "Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash borasida aniq maqsadlari belgilab berilgan"[1].

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash ko'rsatkichlari ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligi sohasini tezkor belgilashga imkon yaratadi. Oliy ta'lim sohasidagi adabiyotlarda qayd etilishicha "Oliy ta'lim sohasidagi sifat, uning quyidagi funksiyalari va faoliyat turlarini qamrab oluvchi ko'p o'lchamli konsepsiya hisoblanadi: o'quv va akademik programmalar, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalar, kadrlar bilan ta'minlash, o'quvchilar, bino, moddiy-texnikaviy asos va jihozlar, jamiyat farovonligi yo'lidagi ishlar. Sifat muammosini hal etishda unga tasir etuvchi omillarning butun majmuyini ular o'zaro bog'liqligi va o'zaro harakatida boshqarish lozim, ya'ni tizimli yondashishdan foydalanishi kerak"[2].

Ta'lim sifati nazorati ichki va tashqi baholashdan iborat bo'lib, mazkur baholashlarning mexanizmlari turlicha bo'lishi va ta'lim sifatini ta'minlashda ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda jahon oliy ta'lim tizimida 10 dan ortiq ta'lim sifati menejmenti modellari qo'llanilib kelinmoqda va bu modellar oliy ta'lim muassasalarining sifat bo'yicha talab qilingan natijalariga erishishiga qaratilgan faoliyat jarayonlari va jihatlariga nisbatan belgilangan talablar va ko'rsatkichlar, tamoyillar, metodlar hamda ushbu jarayonlarning takomillashuv darajasini belgilab beruvchi mezonlar, ularni baholash yo'llari yig'indisi deb tushuniladi. Sifatni baholashga asoslangan modellar tizimli ravishda o'z-o'zini baholash, SWOT – tahlili vositasida OTM faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

## Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashni tadqiq qilgan olimlardan L.Vlaskin va L.Grinberg tadqiqotlarida keltirilishicha, oliy ta'lim sifati ko'p qirrali, ko'p darajali va dinamik tushuncha bo'lib, u ta'lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga hamda o'ziga xos ma'lum standartlarga bog'liqdir [3].

N.Mirkurbanovning fikricha, xalq xo'jaligi va ta'limning qaysi turi va bosqichi bo'lmasin, uning bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashi va amal qilishi sifat mezoni asosiga tayanadi. Oliy ta'lim sohasida sifatning ta'minlanishi provardida yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo'ladi. Bu isbot talab qilmaydigan aksioma bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hukumati, vazirlik va oliy ta'lim muassasalarining bosh masalasiga aylangan [4].

Z.Jumayevning ko'rsatib berishicha "OTM sifat ko'rsatkichlarini baholashda uning ilmiy salohiyatini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash kerak bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlar sifatida intellektual, ijtimoiy-madaniy va moddiy-texnik holatini bildiradigan ko'rsatkichlar kiritiladi. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifat ko'rsatkichlari tahlili va bitiruvchilarning

sifat tayyorgarligi indikatorini hisoblash usullaridan ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini baholash uchun qo'llash ta'lim muassasasi salohiyati reytingi, uning faollik reytingi, moddiy-texnik salohiyat reytingi, ijtimoiy-madaniy salohiyat reytingi kabilarni aniqlash asosida amalga oshiriladi" [5].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot metodologiyasi sifatida uslubiy yondashuvlar sohasida olimlarning tadqiqotlarini o'rganish jarayonida tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi. Bunda oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar tadqiqoti asosida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash maqsadlarini shakllantirish qanchalik darajada natija berayotgani baholanadi.

**Natija va muhokama**

Bugun jahonda barcha sohalarda rivojlanish, takomillashish tendensiyasi juda yuqori sur'atda kechmoqda. Bu yurtimiz ta'lim sohasidagi jadal islohotlarda ham o'z ifodasini topmoqda. Ta'lim tizimining rolini oshirishda ta'lim sifatini yuksaltirish, kadrlar salohiyatini oshirish va tizimning moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablar asosida mustahkamlash kabilar bilan bir qatorda, oliy ta'lim tizimini sifat jihatdan rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.




**1-rasm.Oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar**

**Manba:** *muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Oliy ta'lim xizmatlari sifati raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ish beruvchilar, ishga yollanuvchilarning ham moddiy, ham o'zaro manfaatdorliklariga bog'liq bo'lib, uni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz (1-rasm).

Oliy ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarini va jamiyat ehtiyojiga mosligini ta'minlaydi hamda sohani amaliyotga moslashtiradi va investitsion jozibadorligini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, Respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

– oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

– professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

– oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;

– oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda;

– Respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan;

– oliy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.

Yuqorida keltirilgan muammolar ta'lim sifatini, shu jumladan, oliy ta'lim sifatini keng miqyosda tahlil va tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada bizningcha, oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash va tavsiflash borasidagi keng qamrovli muammolarni tizimli tahlili uslubiy yondashuvlarini tadbiq qilib chiqish kerakli natijalarga olib keladi.

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish avvalo ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyatining yetarli darajada bo'lishi, unda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash natijasida erishish mumkinligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda bitiruvchilarining amaliy tayyorgarligini tashkil qilishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda oliy ta'lim xizmatlari sifatini kompleks baholashning keng qamrovli metodologiyasini ishlab chiqishni zarur deb topdik va buni bajarishda sifatga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar, korxona talablari ta'sirini tahlil qilish orqali yondashishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz. Oliy ta'lim xizmatlari sifati darajasi 2-rasmda ko'rsatilganidek, o'n bosqichda baholash uslubiyoti taklif qilindi. Mazkur metodikani ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari asos sifatida olindi.

| | |
|---|---|
| Oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash maqsadlarini shakllantirish | **Oliy ta’lim sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi chora-tadbirlar** |
| | 1.Ta’lim oluvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirish mexanizmi mazmunini belgilash |
| | 2.Ta’lim va tarbiya raqobatbardoshligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashtirish |
| | 3. Bitiruvchining raqobatbardoshligi OTMda o‘qish jarayonida shakllanishi asosida Bitiruvchi talabalarni tayyorlash sifati tahlili |
| | 4. Ish topish, ish o‘rnini egallash va raqobatbardosh imkoniyatlarni egallash uchun mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish |
| | 5. Mehnat faoliyatining ehtimoliy variantlarini aniqlash va bitiruvchilar bandligiga ko‘maklashish tahlili |
| | 6.Raqobatbardoshlikni kompleks baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimini modellashtirish |
| | 7.Bitiruvchilar raqobatbardoshligi darajasiga muvofiq tavsiyalar ishlab chiqish |
| | 8.Oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish |
| | 9.Ilm-fanining sifatli va miqdoriy rivojlanishini o‘rganish |
| | 10.Ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish sur’atlarini oshirishga erishish |

**|2-rasm. Oliy ta’lim xizmatlari sifati darajasini kompleks baholashning uslubiyati**

**Manba:** *muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Ta’lim xizmatlari sifat darajasini bir tomondan, professor-o‘qituvchilarning dars jarayoniga qanday tayyorgarlik ko‘rgani va shu asosda uni tashkil etishi bilan o‘lchanadi. Ikkinchi tomondan, professor-o‘qituvchilarning mujassamlashgan ilmiy-pedagogik salohiyatida o‘z ifodasini topadi. Oliy ta’lim xizmatlari sifati darajasini kompleks baholashning uslubiyatini ta’lim oluvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirish mexanizmi, ta’lim va tarbiya raqobatbardoshligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, talabalarni tayyorlash sifati tahlili, mehnat bozoridagi vaziyat, raqobatbardoshlikni kompleks baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimini modellashtirish hamda bitiruvchilar raqobatbardoshligi darajasiga muvofiq tavsiyalar ishlab chiqish va oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish singari asosiy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, mazkur metodika xodimning butun hayoti mobaynida uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini egallab borishini rivojlantirishga asoslanganligi bilan farqlanadi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim xizmatlarini tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uslubiyatini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu boradagi vazifalarning ijrosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rsatib berganidek, oliy ta’limning qamrovi va sifatini oshirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilishi lozimligiga to‘xtalib o‘tgan [6]. Mazkur vazifalarni bajarishda bo‘lajak mutaxassislarni iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlari asosida, yuqori sifatda tayyorlashni ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalarining o‘zgaruvchan tashqi muhitga oqilona va o‘z vaqtida moslashishini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashga uslubiy yondashuvlar ularning umumiy va xususiy ko'rsatkichlari tizimi hamda bu ko'rsatkichlarning ish beruvchi uchun qiymatini hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatining asosiy omillarini baholash uslubiyati ishlab chiqildi.

**Xulosa**

– Bizningcha, hozirgi rivojlanish bosqichida oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Birinchidan, ta'limning o'rni va ahamiyati, ijtimoiy hayotning barcha sohalari, jumladan iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma'naviy hayot sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biriga aylanayotganligi bilan ifodalanadi. Ikkinchidan, oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash ko'rsatkichlari keyingi bir necha yillardan beri ta'lim tizimining eksponensial o'zgarishi jarayonlari bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqotlar ham nazariy, ham amaliy tusga ega bo'lib, ularning jarayonida hozirgi ta'lim tizimining sifat xususiyatlari ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishiga olib keladi.

– Bu borada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va sifatli ta'lim berishni, ta'lim tizimidagi tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali yangi ta'lim tizimining sifat darajasini oshirishga erishiladi.

– Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

– ta'lim sifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilish;

– ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishni baholash;

– OTMlarni strategik rejalashtirish tamoyillarini joriy etish uslubiyatini takomillashtirish;

– OTM xizmatlari sifatini baholash mezonlarni yaxlit tizim sifatida qo'llash natijalari: «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabr PF-5545-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. Перегудов Л.В., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 y. 60-b.
3. Lazar Vlasceanu, Laura Griinberg, and Dan Parlea. (2004). Quality Assurance and Accreditation: A Glossary of Basic Terms and Definitions. Bucharest: UNESCO [ISBN 92- 9069-178-6]
4. Миркурбанов Н., Аношкина В., Данилова Е. Высшее образование в Узбекистане: состояние и рекомендации// Ж. Аналитическая записка. – 2009. № 1 (12), Б. 24-28
5. Jumayev Z. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Journal of "Irrigation and melioration". 2016. №4(6). 74-75-b.
6. Mirziyoev Sh.M. Bunyodkor xalqimiz mustaqilligimizni mustahkamlab, barqaror taraqqiyot yo'lida dadil ildamlayveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. "Xalq so'zi". № 272 (8334). 2022-yil 21-dekabr.

**UDC 330.33(011:07)**

**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna**
*Westminster International University in Tashkent*
*Ph.D student,*
*email: sarvinozmamadjonova89@gmail.com*

**Khidirov Nodir Giyosalievich**
*Tashkent Institute of Finance*
*Ph.D, associate professor*
*email: nodirkhidirov0123@gmail.com*

# THE INVISIBLE HAND OF UZBEKISTAN'S ECONOMY: THE IMPACT ON WOMEN'S LABOR FORCE PARTICIPATION

**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna**
*Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti*
*tayanch doktarant*
*email: sarvinozmamadjonova89@gmail.com*

**Xidirov Nodir G'iyosaliyevich**
*Toshkent moliya instituti*
*Ph.D, dotsent*
*email: nodirkhidirov0123@gmail.com*

# O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING KO'RINMAS QO'LI: AYOLLARNING ISHCHI KUCHI TARKIBIDAGI ISHTIROKIGA TA'SIRI

**Мамаджонова Сарвиноз Шарифжоновна**
*Международный Вестминстерский университет в*
*Ташкенте докторант*
*email: sarvinozmamadjonova89@gmail.com*

**Хидиров Надир Гиесалиевич**
*Ташкентский финансовый институт*
*Ph.D, доцент*
*email: nodirkhidirov0123@gmail.com*

# НЕВИДИМАЯ РУКА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: ВЛИЯНИЕ НА УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В СОСТАВЕ РАБОЧЕЙ СИЛЫ

**Annotation.** *The article explores the relationship between female labor force participation rate (FLFPR) and gross domestic product (GDP) per capital in the regions of Uzbekistan. The research analyzes the FLFPR and GDP per capital for Uzbekistan's 13 regions and the Autonomous*

*Republic of Karakalpakstan. The findings show that the FLFPR varies significantly between regions, with the highest proportion of working women living in Fergana, Namangan, and Andijan. Surprisingly, the lowest FLFPR is found in Tashkent, the most progressive city.*

*In addition, the paper compares the trend for Uzbekistan with other Central Asian countries' trends. The research concludes that there is a significant relationship between FLFPR and GDP per capital in Uzbekistan, with economic growth resulting in increased female participation in the labor force.*

**Key words**: *female labor force participation rate (FLFPR), gross domestic product (GDP), labor force.*

**Annotatsiya.** *Maqolada O'zbekiston hududlarida ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ishtirokiga ta'siri darajasi (AIKTITR) va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot O'zbekistonning 13 viloyati va Qoraqalpog'iston avtonom Respublikasi uchun AIKTITR va aholi jon boshiga YaIM tahlil qiligan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, AIKTITR mintaqalar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi, iqtisodiyotda band ayollarning eng yuqori ulushi Farg'ona, Namangan va Andijonda istiqomat qiladi. Ajablanarlisi shundaki, eng past AIKTITR O'zbekistonning eng rivojlangan shahri bo'lgan Toshkentga to'g'ri keladi.*

*Bundan tashqari, maqola O'zbekistondagi dinamika boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari dinamikasi bilan solishtirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda AIKTITR va aholi jon boshiga YaIM o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud bo'lib, iqtisodiy o'sish esa ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etishga olib keladi.*

**Tayanch so'zlar:** *ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ishtirokiga ta'siri darajasi (AIKTITR), yalpi ichki mahsulot (YaIM), ishchi kuchi.*

**Аннотация.** *В статье исследуется взаимосвязь между уровнем участия женщин в составе рабочей силы (УУЖСРС) и валовым внутренним продуктом (ВВП) на душу населения в регионах Узбекистана. В исследовании анализируются УУЖСРС и ВВП на душу населения в 13 регионах Узбекистана и Автономной Республике Каракалпакстан. Результаты показывают, что УУЖСРС существенно различается между регионами, при этом самая высокая доля работающих женщин проживает в Ферганской, Наманганской и Андижанской областях. Удивительно, но самый низкий УУЖСРС наблюдается в Ташкенте, в самом прогрессивном городе.*

*Кроме того, в статье сравниваются тенденции Узбекистана с тенденциями других стран Центральной Азии. Исследование приходит к выводу, что существует значительная связь между УУЖСРС и ВВП на душу населения в Узбекистане, при этом экономический рост приводит к увеличению участия женщин в рабочей силе.*

**Ключевые слова:** *уровень участия женщин в составе рабочей силы (УУЖСРС), валовой внутренний продукт (ВВП), рабочая сила.*

## Introduction

Women's contribution to the workforce was seen as a prohibited occurrence till the 20th century (Kranzberg, M., and Hannan, M., 2021) [1]. But for Uzbek women, the process took even longer way to go due to the patriarchal ossification of the social rules. The situation changed after the Soviet army occupied the territory of the Republic and ordered the addition of women to the labor market as an additional workforce (daryo.uz, 2019). Thus, in 2021 female labor force participation for Uzbek women was 44,1%. However, even this number is far from the global average which is estimated at 50,13% (theglobaleconomy.com, 2021) [2]..

It is essential to note that the relationship between the GDP of the country and its female workforce has a U-shaped correlation, according to the research. The U-shaped hypothesis simply shows the relationship between economic development and female labor force participation, and it is proposed that female labor force participation first falls and then rises as the country develops (Goldin, C., 1995) [3]. Of course, it would be wrong to claim the same tendency for the Uzbek female labor force without any research. Thus, it was decided to look at the relevant data from Uzbekistan.

In light of the latest reforms of the government regarded improving gender equality in the country, it is also essential to look at the female workforce participation conditions. Because I believe that a female's well-being is considerably correlated with her economic stability.

**Literature Review**

Female labor force participation rate have been a topic of interest for economists and policymakers for several decades. In her seminal work, Goldin (1995) explored the U-shaped relationship between female labor force participation rate and economic development [3]. She found that during the early stages of economic development, female labor force participation rate tend to be low due to the predominance of agriculture and the absence of labor-saving technologies. However, as economies become more developed and industrialized, female labor force participation rate tend to increase due to rising education levels and increased demand for labor in service sectors.

In recent years, several studies have examined the relationship between female labor force participation rate and economic growth in different contexts. Dahlum et al. (2022) studied the relationship between women's political empowerment and economic growth using panel data from 166 countries. They found a positive relationship between women's political empowerment and economic growth, with women's labor force participation rate being one of the key channels through which this relationship operate [4].

Similarly, Islam et al. (2022) examined the relationship between rural women's participation in farm and off-farm activities and household income in Bangladesh. They found that rural women's participation in both farm and off-farm activities had a positive impact on household income, highlighting the potential economic benefits of increasing women's labor force participation rate in rural areas [5].

Nkoumou Ngoa and Song (2021) explored the role of information and communication technologies (ICTs) in promoting female participation in African labor markets. They found that access to ICTs can improve female labor force participation rate by increasing job search efficiency and reducing search costs [6].

Aldan et al. (2021) examined the heterogeneous effects of the COVID-19 pandemic on the Turkish labor market across different demographic groups. They found that the pandemic had a greater negative impact on female labor force participation rate compared to male rate, highlighting the importance of targeted policies to support women's labor force participation during times of crisis [7].

Joslin and Nordvik (2021) investigated the role of religion in limiting women's labor force participation rate during resource booms in developing countries. They found that while religion can limit women's labor force participation rate during normal times, it does not have a significant effect during resource booms [8].

Finally, Oyvat and Onaran (2022) examined the effects of social infrastructure

and gender equality on output and employment in South Korea. They found that social infrastructure and gender equality have positive effects on output and employment, highlighting the importance of investing in social infrastructure and promoting gender equality to improve economic outcomes [9].

In summary, the studies reviewed here suggest that female labor force participation rate are an important factor for economic growth and development. Policymakers can promote women's labor force participation rate by investing in education, providing access to technology and reducing gender disparities in social infrastructure.

From perspective of the topics provided in literature review there is lack of investigations regarded to Uzbek segment of female labor market.

## Methodology

The paper uses descriptive analysis to demonstrate the relationship between GDP and female labor force participation rate. The data was obtained from open data bank of the World Bank and State Committee of the Republic of Uzbekistan on statistics. The article also looks at the data from the other Central Asian countries to form the comparison with Uzbekistan. It was decided to examine years after the collapse of the Soviet Union (1991). Because that period is the most convenient period, to compare the independent Republics without intervention of the Soviet policy.

## Results and Discussion

First of all, we must look at the GDP per capital and the level of share of women workers in the labor market for each region of Uzbekistan. It must be mentioned that Uzbekistan is divided into 12 territories and one autonomous Republic of Karakalpakhstan. This constitutes overall 13 regions, which is shown in figure 1.




**Figure 1. FLFPR by regions of Uzbekistan in 2020. FLFP is given in percent; GDP per capital in thousand sums[1]**

Average salary is a general indicator of income and the income may vary from region to region. Thus, there are regions in Uzbekistan with higher FLFPR whereas there are places with lower FLFPR. The following figure 1 represents the data on the GDP per person in the regions of Uzbekistan. Before, looking at the numbers given on the regions and their labor force let's have a look at the geographic structure of the Republic to understand the data more profoundly. Uzbekistan consists of 12 regions namely, Bukhara, Andijan, Jizzakh, Navoi, Kashkadarya, Namangan, Samarkand, Samarkand, Sirdarya, Fergana, Surkhandarya, Khorezm Tashkent these regions also named "vilayats", and of course the autonomy Republic of Karakalpakstan. There are 118 cities and 162 districts in the country. More than 49% of the population lives in the cities. The biggest city is Tashkent, which is also the capital of Uzbekistan and its population is 2.3 million. More than 50% of Russians, who are considered to be citizens of Uzbekistan, live in Tashkent. This is equal to approximately 30% of the whole population of the city. The next big city in Uzbekistan is Namangan (398 thousand people). Then comes Samarkand (366 thousand) which was the capital of the Uzbek SSR until 1930. The majority of big cities of Uzbekistan are

[1] Source: authors, based on data of the Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan

located in Fergana valley: Andijan (356 thousand); Fergana (320 thousand). The ancient Bukhara also necessarily needs to be pointed out (271 thousand). It was the biggest cultural and political center of the Uzbek people for several centuries. Finally, Nukus with 260 thousand population as being the capital of the Karakalpak autonomy republic, given as the Republic of Karakalpakhstan.

After plotting the population and FLFP of all the regions of Uzbekistan interesting trend was observed. It was assumed that Tashkent being the most progressive and with the highest income city of Uzbekistan will have the highest number of FLFPR, however, we may see that the lowest proportion of working women was living in Tashkent city in 2020, taking 36% of FLFPR and the of 37167,6 thousand sums (3255,09 USD) GDP per capital. Navai is also one of the richest GDP per capital regions it is in the first place according to the GDP per person, however, rate of female labor force stand in the third place from the bottom. It must be mentioned that the gap in FLFPR amongst regions is considerable. For example, the difference between Tashkent city with the lowest proportion of working females, and Fergana with the highest proportion of working women is approximately 10%, estimating 36% and 46.5%, respectively. It needs further clarification. Namangan is also one of the laggings behind Uzbekistan regions on GDP per person, however, the share of FLFP is only a bit lower than the leader's position estimating 45.6%, which is about only 1% less. The district of Tashkent being the unseparated part of Tashkent city has a huge difference in both GDP per capital and FLPPR, for instance in 2020 Tashkent had 21864 thousand sums (1914,82 USD) GDP per capital which was 1,5 thousand sums less than Tashkent city itself, however, the FLFPR of the district was by exactly 4% more than Tashkent city. The difference is so big that it places Tashkent city last and Tashkent to 7th place out of 14 in the FLFPR ranking for 2020. Notably, the proportion of employed women is high in the Fergana valley in general, as we may see from figure 1, all the three vilayats of Fergana valley are situated in the first consecutive places (Fergana, Namangan, Andijan). After looking through the data on FLFPR and the economic wealth of the regions (vilayats) it was interesting to look at the relationship between those variables and we put the values on the scatterplot, after which we were able to gain the following results:




**Figure 2. The relationship between FLFPR and the GDP per capital by regions of Uzbekistan (2020)[2]**

It should be mentioned that scatterplot in the figure 2 reflect the relationship between female labor force participation rated and GDP per capital for Uzbek regions for only 2020, owing that that was the newest available year.

It should be mentioned that the scatterplot in figure 2 reflects the relationship between female labor force participation rate and GDP per capital for Uzbek regions for

[2] Source: authors, based on data of author, based on data of the Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan

only 2020, owing that that was the newest available year.

In figure 1 we plotted the percent of female labor force participation on the x-axis, and per person GDP in thousand sums on the y-axis, all the data is the data for 2020. The installation we obtained is pretty curious, as we got the negative relationship between those variables contradicting the assumed hypothesis about the more progressive the region is the higher per capital, thus more women are allowed to work. It must be accounted for that the line regression of figure 2 is symbolic and cannot express the exact relationship, but it shows a mostly negative relationship. Each dot of the scatterplot represents one of the 14 regions explained in the previous figure (figure 1). They are 12 vilayats, Tashkent city and the Republic of Karakalpakhstan were seen as separate variables. In the left upper corner of the figure, we see the dots, which represent regions with the lowest GDP per capital. And in the lower right corner are regions with the highest GDP per person. However, the trend is solidly appropriate for the highest and lowest-ranked regions, whereas other regions show very little difference in FLFPR despite the income per capital. A general conclusion might be considered as the more the GDP per capital the fewer women in the region work.

After observing the interesting results above, we decided to look at what the situation was like for the whole Central Asian and Afghan region. The results of the research are shown in figure 3.

The scatterplots represent and compare the direction of correlation between GDP and FLFPR in all the countries bordering Uzbekistan, and Uzbekistan itself. The data was taken for 31 (from 1990 to 2021) years for a better view of the trend. It is clear that there is almost no trend between variables in Kazakhstan, so we cannot say whether they are positively or negatively correlated.




**Figure 3. Relationship between FLFPR and GDP of the country in Central Asian countries and Afghanistan throughout 1990-2021[3]**

[3] Source: authors, based on data from World Bank open data

The Republic of Kyrgyz and Turkmenistan shows a negative correlation, the same took place in the previous installation (figure 2) when we observed the relationships between GDP per capital and FLFPR by regions of Uzbekistan. But the difference is that the results are steeper and clearer. From figure 3 we see the same with the Republic of Kyrgyz and Turkmenistan results in the Uzbekistan case, and we will better observe it in the next figure 4. Tajikistan shows an absolute U-shaped relationship between its variables. Here Afghanistan looks more out of rules in the whole context, meaning that there is an overall positive correlation between its variables, which is undoubtedly a good sign. Thus, if to allow their women to participate in the work force country will gain from that. Nevertheless, we can notice that FLFPR saw mostly stagnancy in the country, without increasing for many years. This is a loss for the country.

Now, let's look at the Uzbekistan scatterplot separately:




**Figure 4. Relationship between FLFPR in percent and GDP of Uzbekistan for 1990-2021[4]**

The scatterplot and line plot in figure 4 demonstrate the negative relationship between variables. There was the same tendency at the micro-level (figure 2). We assumed that the trend between variables will be different if we add additional observations to the data. Specifically, in figure 2 we drew a conclusion relying only on 14 observes, but in figure 4 we plotted 31 observations, meaning GDP value and FLFPR in percent for 31 consecutive years, which started just a year (the independence of Uzbekistan was announced in August of 1991) before the independence year of Uzbekistan and ended in 2021.

### Conclusion and Recommendations

According to the data presented, there is a negative relationship between the female labor force participation rate (FLFPR) and economic wealth (measured by GDP per capital) in the regions of Uzbekistan in 2020. In other words, regions with higher GDP per capital tend to have lower FLFPR, while regions with lower GDP per capital tend to have higher FLFPR. However, it should be noted that there is a considerable gap in FLFPR among regions, with some regions having much higher FLFPR than others, despite having similar levels of economic wealth. Additionally, there are some outliers in the data, such as Tashkent city, which has the lowest proportion of working women despite being the most progressive and wealthiest city in Uzbekistan. Overall, more research and analysis are needed to fully understand the complex factors that influence female labor force participation and economic development in Uzbekistan regions.

Here are some practical perspective implications regarding the data analyzed in the article:

Encourage more women to enter the labor force: Given the low levels of female labor force participation in some regions of Uzbekistan, it is important to encourage more women to enter the labor force. This

[4] Source: authors, based on data from World Bank open data

can be achieved through a combination of measures, such as providing access to education and training, promoting flexible work arrangements, and addressing cultural and societal barriers that prevent women from working.

Address regional disparities: There are significant regional disparities in both female labor force participation and GDP per capital in Uzbekistan. To address these disparities, policymakers should focus on developing regional economic strategies that take into account the specific needs and challenges of each region. This could involve investing in infrastructure, providing financial incentives for businesses to locate in underdeveloped regions, and promoting regional collaboration and cooperation.

Foster international partnerships and cooperation: Uzbekistan can benefit from fostering international partnerships and cooperation in areas such as trade, investment, and technology transfer. This can help to promote economic growth, create jobs, and improve the competitiveness of the Uzbek economy.

## REFERENCES


1. Kranzberg, M., and Hannan, M.(2021) Women in the workforce. Brittanica https://www.britannica.com/topic/history-of-work-organization-648000/Women-in-the-workforce
2. theglobaleconomy.com (2021) – site for researchers, business people, academics, and investors who need reliable economic data on foreign countries
3. Goldin C. The U-Shaped Female Labor Force Function in Economic Development and Economic History. In: Schultz TP Investment in Women's Human Capital and Economic Development. University of Chicago Press ; 1995. pp. 61-90.
4. Dahlum, S., Knutsen, C. H., & Mechkova, V. (2022). Women's political empowerment and economic growth. World Development, 156. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2022.105822
5. Islam, M. S., Islam, S., Fatema, K., & Khanum, R. (2022). Rural women participation in farm and off-farm activities and household income in Bangladesh. Heliyon, 8(9). https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e10618
6. Nkoumou Ngoa, G. B., & Song, J. S. (2021). Female participation in African labor markets: The role of information and communication technologies. Telecommunications Policy, 45(9). https://doi.org/10.1016/j.telpol.2021.102174
7. Aldan, A., Çıraklı, M. E., & Torun, H. (2021). Covid 19 and the Turkish labor market: Heterogeneous effects across demographic groups. Central Bank Review, 21(4), 155–163. https://doi.org/10.1016/j.cbrev.2021.12.003
8. Joslin, K. E., & Nordvik, F. M. (2021). Does religion curtail women during booms? Evidence from resource discoveries. Journal of Economic Behavior and Organization, 187, 205–224. https://doi.org/10.1016/j.jebo.2021.04.026
9. Oyvat, C., & Onaran, Ö. (2022). The effects of social infrastructure and gender equality on output and employment: The case of South Korea. World Development, 158. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2022.105987
10. Stanfors, M., Jacobs, J. C., & Neilson, J. (2019). Caregiving time costs and trade-offs: Gender differences in Sweden, the UK, and Canada. SSM - Population Health, 9. https://doi.org/10.1016/j.ssmph.2019.100501
11. https://data.worldbank.org - The World Bank Open Data
12. www.stat.uz - Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan

УДК 330(7:085)

**Якубова Дильдар Мухамеджановна,**
*к.э.н., доцент*
*Ташкентский государственный технический университет*
Dildar1956@mail.ru

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ РЕЗЕРВОВ РОСТА ПРОМЫШЛЕННОСТИ

**Yakubova Dildar Muxamedjanovna,**
*iqtisod fanlari nomzodi, dotsent,*
*Toshkent davlat texnika universiteti,*
*Dildar1956@mail.ru*

## SANOAT O‘SISH ZAHIRALARINING INNOVATSION KO‘RSATKICHLARI

**Yakubova Dildar Mukhamedzhanovna,**
*Candidate of Economics, Associate Professor,*
*Tashkent State Technical University,*
*Dildar1956@mail.ru*

## INNOVATIVE INDICATORS OF INDUSTRY GROWTH RESERVES

**Аннотация.** *В статье рассмотрены инновационные показатели резервов роста промышленности. Активизация инновационных факторов является наиболее трудным, но самым перспективным способом увеличения производства промышленной продукции. Проведенный анализ позволил выявить существенные резервы в увеличении уровня загрузки производственных мощностей, росте производительности труда, модернизации основных фондов, а также диверсификации и росте конкурентоспособности промышленности.*

**Ключевые слова:** *инновация, инновационные показатели, производительность труда, резервы роста, ускоренное развитие, факторы производства, уровень дохода.*

**Annotatsiya.** *Maqolada sanoat o‘sishi zaxiralarining innovatsion ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion omillarni faollashtirish sanoat ishlab chiqarishini ko‘paytirishning eng qiyin, ammo eng istiqbolli usuli hisoblanadi. Tahlillar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, asosiy fondlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, sanoatni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishning muhim zahiralarini aniqlash imkonini berdi.*

**Tayanch so‘zlar:** *innovatsiya, innovatsion ko‘rsatkichlar, mehnat unumdorligi, o‘sish zahiralari, jadal rivojlanish, ishlab chiqarish omillari, daromad darajasi.*

**Annotation.** *The article considers innovative indicators of industrial growth reserves. The activation of innovative factors is the most difficult, but the most promising way to increase industrial production. The analysis made it possible to identify significant reserves in increasing the level of production capacity utilization, increasing labor productivity, modernizing fixed assets, as well as diversifying and increasing the competitiveness of industry.*

**Keywords:** *innovation, innovation indicators, labor productivity, growthreserves, accelerated development, factors of production, income level*

## Введение

В расширении потенциала и резервов роста промышленности первостепенную роль в долгосрочном периоде следует уделять повышению инновационной составляющей проводимой в стране модернизации, а также наращиванию собственной научной базы. Для этого необходимо опираться на «Национальную стратегию страны на период до 2030 года», которая предусматривает: создание системы технологической модернизации всех отраслей экономики и развитие наукоемких направлений; совершенствование законодательной и нормативно-правовой базы для осуществления эффективной научно-технической и инновационной деятельности; мобилизацию финансовых ресурсов на повышение уровня исследований и разработок по созданию конкурентоспособных инновационных продуктов; совершенствование механизмов патентования научных разработок и внедрения инноваций в производство, а также обеспечение инновационной деятельности кадрами высокой квалификации. В этом состоит актуальность исследования.

## Обзор литературы по теме

В научных работах зарубежных учёных таких, как Эрроу К., Блауг М., Карамчук, Савицкая Г.В., Годин А.М., Хасбулатов З.А. особое внимание уделено теоретическим и практическим аспектам повышения эффективности промышленного производства, анализу хозяйственной деятельности предприятия. Так, по мнению Хасбулатова З.А., нужно производить оценку резервов роста промышленного производства за счет внутренних и внешних резервов роста.

В научных работах отечественных учёных таких, как Хасанов Б.А., Абдурахманова Ф.Ф., Кадырова З.Н., Норбоев О.А. изложены теоретические и практические аспекты организации экономического анализа, имеющие целью повышение эффективности финансово-хозяйственной деятельности промышленных предприятий и организаций.

## Методология исследования

С целью повышения эффективности финансово-хозяйственной деятельности промышленных предприятий и организаций большое применение находит факторный анализ.

Существуют следующие типы факторного анализа:

1. Детерминированный (функциональный) – результативный показатель представлен в виде произведения, частного или алгебраической суммы факторов.
2. Стохастический (корреляционный) – связь между результативным и факторными показателями является неполной или вероятностной.
3. Прямой (дедуктивный) – от общего к частному.
4. Обратный (индуктивный) – от частного к общему.

5. Одноступенчатый и многоступенчатый.

6. Статический и динамический.

7. Ретроспективный и перспективный.

**Детерминированный факторный анализ** представляет собой методику исследования влияния факторов, связь которых с результативным показателем носит функциональный характер, т.е. когда результативный показатель факторной модели представлен в виде произведения, частного или алгебраической суммы факторов.

Данный вид факторного анализа наиболее распространен, поскольку, будучи достаточно простым в применении (по сравнению со стохастическим анализом), позволяет осознать логику действия основных факторов развития предприятия, количественно оценить их влияние, понять, какие факторы, и в какой пропорции возможно и целесообразно изменить для повышения эффективности производства.

Резервы роста промышленного производства имеют различную природу. Наряду с этим, в условиях рыночных отношений резервы роста производства промышленного предприятия могут находиться за его пределами, т.е. во внешней среде. К ним можно отнести появление новых технологий, развитие форм организации производства и управления, резервы использования улучшения макроэкономических условий хозяйствования и другие открывающиеся возможности внешней среды.

Инновация (нововведение) – это внедренное (а, следовательно, практически необходимое и используемое) новшество, которое обеспечивает качественный рост эффективности процессов, продукции или обновление действующей системы, востребованных на рынке. Активное внедрение инноваций в деятельность организации поддерживает её стабильную работу в нестабильных условиях внешней среды и в конкурентной среде. Когда в организации определена чёткая инновационная стратегия, то менеджеры по управлению персоналом могут влиять на ситуацию, чтобы она приносила пользу руководству и становилась выгодной для работников. К основному рычагу влияния на сотрудников и их группы относится корпоративная культура. В инновационной корпоративной культуре для персонала свойственно быстрое принятие инноваций и генерация идей.

Результаты и обсуждения

Для анализа внутренних резервов роста необходимо отобрать показатели, характеризующие уровень обеспеченности средствами производодства (табл. 1):

- доля основных фондов в ВВП (%);
- производительность труда в промышленонсти (%);
- среднегодовое использование производственных мощностей в промышленности (%).

Для того чтобы нивелировать воздействие возможных резких изменений и скачков значений показателей, данные по всем показателям были взяты как средее значение за период 2020-2022 гг.

Первые два показателя сопоставляются со значениями по странам мира. В качестве сопоставимых стран были отобраны основные торговые партнеры Узбекистана по импорту (Китай, Россия и Казахстан), а также средние значения показателей по таким группам стран как Европа и Центральная Азия (исключая страны с высоким уровнем дохода), страны с низким и средним уровнем дохода, страны с низким средним уровнем дохода и страны с высоким средним уровнем дохода. Такой выбор стран был продиктован тем, что в Узбекистане активо проводится политика импортозамещения,

а значит, замещение импортируемого объема товаров и является резеровом роста для промышленности Узбекистана. Группы стран в свою очередь были отобраны исходя из того, что по данным Всемирного банка Узбекистан относится к странам с низким средним доходом и является резервом роста.

Так, согласно табл. 1, оценка внутреннего резерва на основе среднегодового использования производственных мощностей не требует сравнения с миром, а производится путем выявления резервов исходя из максимальной загруженности мощностей, а также доли основных фондов от ВВП страны и производительности труда на промышленных предприятиях страны.

Разность между валовым выпуском промышленной продукции и объемом отгруженной промышленной продукцией определяется как показатель, характеризующий нереализованную продукцию промышленных предприятий. Этот показатель, хотя и не в полной мере учитывает действие всех разнородных факторов внешней среды, тем не менее, дает обобщенную оценку возможности роста реализации ранее произведенной продукции.

**Предложения**

Для оценки резервов роста промышленного производства Узбекистана необходимо учитывать тот факт, что мировая экономика находится в стадии постиндустриального развития. А это говорит о том, что постиндустриальная экономика как уклад, основана на инновационной модели развития, которая характеризуется развитием новых технологий, прежде всего, информационных и высокотехнологичных отраслей, активизацией процессов интернационализации, глобализации и интеграции.

*Таблица 1*

**Показатели внутренних резервов развития промышленности**

| | **Доля ОФ от ВВП (%)** | **Производи-тельность труда (тыс долл. /чел.)** | **Среднегодовое использование произ-водственных мощностей (%)** |
|---|---|---|---|
| Узбекистан | 23,9 | 10,8 | 46,1* |
| Китай | 44,9 | 19,3 | - |
| Россия | 21,1 | 26,8 | - |
| Казахстан | 14,5 | 40,9 | - |
| Европа и Центральная Азия (исключая страны с высоким уровнем дохода) | 21,4 | 21,9 | - |
| Страны с низким средним уровнем дохода | 25,3 | 7,6 | - |
| Страны с низким и средним уровнем дохода | 31,6 | 14,8 | - |
| Страны с высоким средним уровнем дохода | 33,3 | 21,5 | - |
| Среднее значение | 27,0 | 20,4 | 70 |
| Максимальное значение | 44,9 | 40,9 | 100 |
| Доля Узбекистана от среднего значения | 93,9 | 61,7 | - |
| Доля Узбекистана от максимального значения | 53,4 | 26,3 | - |

**Источник.** *Данные Госкомстата РУз и Всемирного банка.*

Инновационная модель развития страны предполагает рассмотрение инноваций как основного фактора модернизации экономики, повышения ее конкурентоспособности и, в конечном счете, экономического роста; ориентацию на развитие новых технологий и рост высокотехнологичных отраслей и капиталоемкого производства. Инновационное развитие управления предприятиями имеет следующие преимущества: повышает инвестиционную привлекательность; помогает привлечь долгосрочных инвесторов; позволяет снизить стоимость кредита; увеличивает рыночную стоимость компании или акционерного общества, а также практическое применение предложений рекомендаций, определяющих перспективы инновационного развития национальной системы управления на основе мировых стандартов.

**Заключение**

В итоге можно сделать вывод, что активизация инновационных факторов является наиболее трудным, но самым перспективным способом увеличения производства промышленной продукции. Проведенный анализ позволил выявить существенные резервы в увеличении уровня загрузки производственных мощностей, росте производительности труда, модернизации основных фондов, а также диверсификации и росте конкурентоспособности промышленности.

**ЛИТЕРАТУРА**


1. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. М.: Инфра-М, 2003.
2. Годин А.М. Маркетинг: Учебник для вузов. М.: Дашков и др., 2007.
3. Хасбулатов З.А. Направления использования резервов роста промышленного производства в регионе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Махачкала, 2008.
4. Цифровая экономика: как специалисты понимают этот термин. РИА Новости.
5. Электронный ресурс. URL: https://ria.ru/science/20170616/1496663946.html
6. Авласко З.А., Авласко П.В. Оценка показателей эффективности инвестиций в научные инновации и разработки в условиях цифровой экономики.
7. Международный студенческий научный вестник. 2018. №4-6.
8. www.stat.uz

**УЎТ 634/338.1**

**Ботиров Эркинжон Хайитович,**
*Тошкент молия институти мустақил изланувчиси*
*e.mail: erkin_botirov@gmail.com*

# МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА ЭКСПОРТ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА СТРАТЕГИЯСИ

**Ботиров Эркинжон Хайитович,**
*Соискатель Ташкентского финансового института*
*e.mail: erkin_botirov@gmail.com*

# ЭКСПОРТНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И СТРАТЕГИЯ ПЛОДООВОЩНОГО КЛАСТЕРА

**Botirov Erkinjon Hayitovich,**
*Researcher of Tashkent Institute of Financial*
*e.mail: erkin_botirov@gmail.com*

# EXPORT OPPORTUNITIES AND STRATEGY OF THE FRUIT AND VEGETABLE CLUSTER

**Аннотация.** *Ушбу мақолада мева-сабзавотчилик кластерлари фаолиятини ташкилий тузилмасини шакллантиришнинг хориж тажрибаси, қишлоқ хўжалиги корхоналарида етиштирилган маҳсулотларни экспорт имкониятлари ва стратегияси ўрганилган. Шу билан бирга, мева-сабзавотчилик соҳасидаги инновацион кластерларида маҳсулотларни экспорт жараёнини молиялаштириш шакллари, йўналишларининг назарий асослари, уларни ривожланган давлатлар тажрибасида қўлланилиши ўрганилган ва тегишли хулосалар келтирилган.*

**Таянч сўзлар:** *кластер, мева-сабзавотчилик кластери, юқори технологик инновациялар, маҳсулотлар экспорти, экспорт салоҳияти, ташқи бозорларда экспорт, агробизнесда тадбиркорлик, тадбиркорлик агрокластери, рақобатбардош маҳсулот, синергетик самара.*

**Аннотация.** *В статье изучен зарубежный опыт формирования организационной структуры плодоовощных кластеров, экспортные возможности и стратегия продукции, выращиваемой в сельскохозяйственных предприятиях. При этом изучены теоретические основы форм и направлений финансирования процесса экспорта продукции в инновационных кластерах в сфере плодоовощного производства, их применение на опыте развитых стран, и представлены соответствующие выводы.*

**Ключевые слова:** *кластер, плодоовощной кластер, высокотехнологичные инновации, экспорт продукции, экспортный потенциал, поддержка экспорта, экспорт на внешние*

*рынки, предпринимательский агрокластер, конкурентоспособный продукт, синергетический эффект.*

**Annotation.** *This article examines foreign experience in the formation of the organizational structure of fruit and vegetable clusters, export opportunities and the strategy of products grown in agricultural enterprises. At the same time, the theoretical foundations of the forms and directions of financing the process of exporting products in innovative clusters in the field of fruit and vegetable production, their application on the experience of developed countries are studied and the corresponding conclusions are presented.*

**Keywords:** *cluster, fruit and vegetable cluster, high-tech innovations, product exports, export potential, export support, export to foreign markets, entrepreneurial agro-cluster, competitive product, synergistic effect.*

**Кириш**

Ўзбекистоннинг табиати, иқлим шароитлари, мавжуд ишчи кучи ресурсларидан ва географик жойлашувидан келиб чиққан ҳолда, мамлакат иқтисодиётининг юқори сифатли мева ва сабзавотлар етиштиришда йирик имкониятлари ва уларнинг ташқи бозорларга экспортини ривожлантиришда улкан салоҳиятга эга.

Сўнгги йилларда мамлакатда қишлоқ хўжалиги соҳаси фаол ислоҳ қилинмоқда. Мазкур тармоқда бошқарув тизимини такомиллаштириш, давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг самарали механизмларини жорий этиш, кооперацияни йўлга қўйиш, замонавий ресурс тежамкор технологияларини жорий қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорти ҳажмини ошириш мақсадида қатор фармон ва қарорлар қабул қилинди.

Статистика агентлиги маълумотларига кўра, жорий йилнинг январь-июль ойларида Ўзбекистон 1,1 млн тонна мева-сабзавотлар экспорт қилган бўлиб, бу кўрсаткич 2022 йилнинг мос даврига нисбатан 1,2 баробарга ёки 153,8 минг тоннага кўпайган.

Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотларининг асосий экспорт бозорлари Россия (41,8 фоиз), Покистон (14,6 фоиз), Қозоғистон (12,0 фоиз) ҳамда Қирғиз Республикаси (9,1 фоиз) ҳиссасига тўғри келган.

2023 йилнинг январь-июль ойларида хорижга қиймати 672,9 млн долларлик мева-сабзавотлар экспорт қилинган. Бу кўрсаткич 2022 йилнинг мос даврига нисбатан 22,4 фоизга кўпайган ва жами экспортдаги улуши 4,5 фоизни ташкил этган.

Республикамизнинг пахта тозалаш, тўқимачилик, енгил, озиқ-овқат, кимё саноати каби кўплаб тармоқларининг ривожланиш истиқболлари, иқтисодий ва молиявий аҳволи, бу бутун саноат салоҳиятининг ярмига яқини бевосита қишлоқ хўжалигига боғлиқ. Кўпгина тадқиқотчилар ушбу соҳанинг ривожланиши ва унинг умуман ижтимоий-иқтисодий ўсишга таъсири муҳимлигини таъкидлайдилар. Масалан, ФАО тадқиқотчилари иқтисодиётнинг бошқа соҳаларига қараганда қишлоқ хўжалигидаги ўсиш мультипликатор ролини ўйнаб, қашшоқликни камайтириши мумкин, деган хулосага келишди[7]. Ушбу ҳисобот қишлоқ хўжалигидаги иқтисодий ўсишнинг ҳар бир фоизи умумий қашшоқлик даражасининг 1,5 фоизга қисқаришига тенг эканлигини аниқлади.

Агробизнесда ҳар бир тадбиркор экспортни амалга оширишда стратегик қарорлардан, бозорни тўғри тушунишдан бошлаши керак. Акс ҳолда, унинг маҳсулотларига талаб умуман бўлмаслиги мумкин. Бундай ҳоллар ҳозирги кунда

фаолият олиб бораётган мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи тадбиркорларимизда кўп учрайди. Аммо маҳсулот етиштириш – тадбиркор фойда олди дегани эмас, албатта. Мева-сабзавот маҳсулотларини етиштиришда уларни истеъмолчиларга сифатли (хусусиятларини йўқотмаган ёки максимал даражада сақлаган) ҳолда етказиб бериш, маълум вақт сақланиши ва қадоқлаш каби омилларни ҳисобга олиш жуда муҳим ҳисобланади. Аксарият ҳолларда ҳосил йиғим-теримидан кейинги жараёндаги харажатлар ва сармоялар маҳсулотни етиштиришга кетган маблағдан кўп бўлиб, кўпинча бундай харажатлар етарлича эътиборга олинмайди.

Бу борада яна бир муҳим омилни таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон географик жиҳатдан барча ташқи бозорлардан (мева ва сабзавотлар экспорти учун) узоқ масофада жойлашган. Бу дегани, маҳсулотни истеъмолчиларга етказиб бериш харажатлари, яъни логистика харажатлари доим юқори бўлади. Шу сабабли, арзон нархдаги маҳсулотларни экспорт қилишнинг маъноси йўқ – даромадли экспорт учун маржа етарли даражада бўлмаслиги мумкин. Бундан ташқари, мамлакатда ишчи кучининг етарлилигидан ҳам фойдаланиш лозим – ҳосил йиғим-терим жараёни қанчалик меҳнатталаб ва харажатли бўлса, Ўзбекистоннинг ушбу маҳсулотни экспорт қилиш имконияти шунчалик юқори бўлади. Албатта, маҳсулотнинг сифати, хавфсизлиги ва унинг сақланишини таъминлаш зарур инфратузилма ва билимларнинг мавжудлигига ҳам боғлиқ.

Ҳукумат ва бутун жамият экспортни кенгайтиришдан манфаатдор экани ва шу боис экспортчиларга ёрдам беришга ҳаракат қилаётгани юқорида ҳам айтиб ўтилди. Давлат ва нодавлат тузилмалар, донор ташкилотлар ташаббуси билан амалга оширилаётган кўплаб лойиҳа ва дастурлардан мақсад ҳам шундан иборат.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**

Бевосита агрокластернинг моҳияти А.А. Настин томонидан атрофлича асосланган. Жумладан, унинг таърифича, “агрокластер бир вақтда ва ўзаро ҳамкорликда ишлаб чиқариш вазифаларини ҳал қилиш ва атроф-муҳитни ҳимоя қилишда бирлашиш мақсадида географик жиҳатдан бир жойда жойлашган, ўзаро бир-бирига боғлиқ ва бир-бирини тўлдирувчи, турли мулк эгалари – оилавий ферма, фермерларнинг кооператив корхоналари, ижтимоий ва илмий ташкилотлар, таълим муассасалари ва маслаҳат хизматларидан иборат бозор субъектлари тизими”[8]дан иборат. Агрокластерлар ўзининг иқтисодий мазмунига кўра, агросаноат мажмуида тадбиркорлик агрокластери тарзида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан ҳам, назарий жиҳатдан унинг иқтисодий категория сифатида талқин этилиши агрокластернинг моҳиятини кенгроқ очиб беради. Жумладан, А.В.Глотко томонидан берилган таърифда “агросаноат мажмуидаги тадбиркорлик агрокластери – ушбу тизимда маълум даражада ўзаро алоқа қилиш маданиятига эга бўлган боғлиқлик билан, иштирокчиларининг умумий иқтисодий манфаатларини амалга оширувчи ва технологик занжир тамойили асосида ташкил этилган ҳудудий жиҳатдан алоҳида инновацион йўналтирилган интеграцион тузилма”[9] тарзида баён этилган бўлса, Р.Р.Тохчуков эса, янада аниқроқ тарзда, “тадбиркорлик агрокластери – пировард натижаси синергетик самара олиш ҳисобланган ишлаб чиқаришнинг барча босқичлари – қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришдан тайёр маҳсулотни сотишгача

бўлган жараёнларни ягона такрор ишлаб чиқариш тарзида мужассамлаштирган турли фаолият билан шуғулланувчи ташкилотларни бирлашуви”[10]дан иборат эканлиги сифатида таърифлайди. Шунингдек, Э.Галвес-Ногалес агрокластерни содда ҳолда ифодалаб, “маҳсулот ишлаб чиқарувчилар ва институтларнинг умумий манфаат олиш ва имкониятларни кашф этиш йўлида расмий ёки норасмий тарзда озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида ўзаро боғланиши ва тармоқлараро алоқаларни ўрнатишидир” дея таъкидлайди[11]. Ушбу назарий таърифларни янада такомиллаштирган ва кенгайтирган ҳолда умумлаштириб, “агрокластер – қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотиш жараёнларини ягона занжирга бирлаштириш ва юқори технологик инновациялардан фойдаланиш билан бир қаторда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ички ва ташқи бозорда рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ жойларда инфратузилма мажмуини шакллантириш ва ривожлантириш, қишлоқ аҳолисининг иш билан бандлиги даражаси ва даромадларини ошириш ҳамда келажакда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифати ва экологик муҳитни яхшилашда фаолият юритадиган хўжалик юритиш субъектларидан таркиб топади”, деган хулосага келиш мумкин. Шу нуқтаи назардан ҳам, ривожланган мамлакатлар тажрибасининг ижобий натижаларига кўра, қишлоқ хўжалигининг рақобатбардош ривожланишининг самарали омилларидан бири агрокластерларни шакллантириш ва улар фаолиятини ривожлантириш ҳисобланади. Агрокластерларнинг умумий хусусиятларини тизимлаштириш орқали улар фаолиятининг барча кўрсаткичлари бўйича кенг тасаввурга эга бўлиш мумкин. Бу борада иқтисодчи олим А.И.Скиба томонидан агрокластерларнинг умумий хусусиятлари бўйича тизимлаштирилишига оид ишланмалари[12] муҳим аҳамиятга эгадир.

**Тадқиқот методологияси**

Мавзу юзасидан аграр ислоҳотларни амалга ошириш жараёнида мева-сабзавотчилик кластерларини экспорт салоҳиятини ошириш имкониятлари ҳамда стратегик ривожланиш йўлларини аниқлаш, ушбу соҳа бўйича хорижий ва маҳаллий илмий ходимлар ва мутахассисларнинг илмий ишлари ва тавсиялари ўрганилди. Мева-сабзавотчилик кластерларида етиштириладиган маҳсулотларни экспорт жараёнини молиялаштиришнинг ҳозирги ҳолати таҳлил қилинди. Муаммоларни ўрганишда қиёсий таҳлил, маълумотларни гуруҳлаш, тизимли таҳлил, анализ ва синтез усулларидан фойдаланилди.

**Натижа ва муҳокама**

Юқорида айтиб ўтилган тадқиқот доирасида мева-сабзавотчилик маҳсулотларини етиштирувчилар ва агробизнес вакилларидан мамлакатимизда етиштирилаётган мева-сабзавотчилик маҳсулотларини дунё бозорига олиб чиқилишига нима тўсқинлик қилаётгани сўралган. Респондентларнинг фикридан келиб чиқиб, мева-сабзавотчилик маҳсулотларини экспортига тўсқинлик қилувчи энг муҳим омилларни қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Агробизнесда фаолият олиб бораётган тадбиркорлар маҳсулот етиштирувчиларга экспорт учун зарур билим ва тажриба етишмаслиги.
2. Ташқи бозорларга чиқишнинг юқори харажатлари (юқори транспорт ва логистика харажатлари, корхоналарнинг

замонавий бошқарув технологиялари ва сифат стандартларини жорий этиш харажатлари).

3. Ташқи бозорлар (сертификатлаштириш талаблари ва маҳсулот сифати, рақобат ва талаб ҳолати, хорижий ҳамкорларнинг ишончлилиги тўғрисида) маълумотларнинг мавжуд эмаслиги.

4. Экспортни қўллаб-қувватлаш инфратузилмасига киришнинг чекланганлиги (хорижий кўргазма ва ярмаркаларда иштирок этиш).

5. Етиштирилаётган мева-сабзавотчилик маҳсулотларнинг нархи ва сифат бўйича рақобатнинг пастлиги.

6. Ташқи бозорга чиқиш ва имтиёзлар олишдаги бюрократик тўсиқлар, тақиқлар, экспорт квоталари.

7. Айланма маблағларнинг етишмаслиги ва кредит ресурсларидан фойдаланишнинг ёмонлиги.

8. Рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур бўлган ресурсларни импорт қилишдаги қийинчиликлар (конверсиянинг йўқлиги, юқори божхона тўловлари).

9. Экспортни рағбатлантиришнинг лойиҳа ва дастурлари тўғрисида маълумотларнинг йўқлиги.

Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, мавжуд ва потенциал мева-сабзавот маҳсулотлари экспортчилари учун қўллаб-қувватлашнинг энг долзарб йўналишлари қуйидагилардир:

Миллий бозорда мева-сабзавотчилик маҳсулотларини етиштираётган хўжалик субъектларини ташқи бозорларда ишлашига кўмаклашиш: харидорлар сўровларини ўрганиш, мижозларни излаш, ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш, малакали маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш, маҳсулотларни бозорда илгари суриш чора-тадбирларини амалга ошириш.

Ташқи бозорлар, жумладан, мева-сабзавот маҳсулотларига талаб таркиби, рақобат ҳолати, маҳсулотларга қўйиладиган техник талаблар, импорт қоидалари, маҳсулотларни бозорларга олиб чиқиш усуллари тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиш.

Маҳаллий мева-сабзавотчиликка ихтисослашган кластер-компанияларнинг халқаро кўргазмаларда иштирокини ташкил этиш ва молиялаштиришда кўмаклашиш; хорижда ўзбек компаниялари маҳсулотлари ҳақидаги маълумотларни тарқатишда кўмаклашиш.

Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари сифатини ошириш, уларни халқаро сифат стандартларига мослаштиришга кўмаклашиш.

Мева-сабзавотчилик маҳсулотларининг ташқи кўринишини яхшилашга ёрдам бериш (ўлчамлари, тақдимоти, қадоқлаш, маркалаш, ёрлиқ ва бошқалар).

Мева-сабзавотчилик кластерларига янги техника ва технологияларни сотиб олиш ва жорий этишда кўмаклашиш.

Ташқи молиялаштиришни олишда ёрдам бериш (инвестиция лойиҳалари ва экспортдан олдинги молиялаштириш учун).

Мева-сабзавотчилик маҳсулотларини етиштириш, ишлаб чиқаришнинг барча занжирида фаолият олиб бораётган хўжалик субъектларининг кадрлар салоҳиятини ошириш (тренинглар, стажировкалар, услубий материалларни нашр этиш орқали).

Мева-сабзавотчилик кластерлари – компанияларга экспорт учун зарур бўлган ҳужжатларни тайёрлашда кўмаклашиш, маъмурий тўсиқларни бартараф этиш, логистика ва юк ташишда ёрдам бериш.

Экспортчилар ўртасида тажриба алмашиш ва қўшма тадбирлар ўтказиш учун ҳамкорликни йўлга қўйиш.

Давлат тузилмаларида экспортчилар ва мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб

чиқарувчи корхоналар, тадбиркорлар манфаатларини ҳимоя қилиш, экспортдаги тўсиқларни бартараф этиш ва агробизнесда соғлом рақобат учун курашиш.

Шундай қилиб, мева-сабзавотчилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш фаолиятини олиб бораётган тадбиркор ва агробизнес вакилларига кенг доирадаги масалалар бўйича амалий ёрдам зарур. Шунга кўра, мева-сабзавотчилик маҳсулотлари экспортини қўллаб-қувватлаш билан шуғулланадиган идоралар ва ташкилотлар кенг доирадаги мутахассисларни: менежерлар, маркетологлар, технологлар, ҳуқуқшуносларни жалб қилишлари, шунингдек, корхона ходимларининг малакасини ошириш бўйича тадбирларни ўтказишлари ва рағбатлантиришлари керак.

Лекин энг муҳими, мева-сабзавотчилик кластери-компаниялар раҳбарлари томонидан маҳсулотларни экспортга рағбатлантиришга қизиқиш ва интилиш бўлмаса, ҳаттоки энг яхши экспорт консалтинги ҳам натижа бермайди.

Мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган изчил ислоҳотлар жараёнида мева-сабзавотчиликни ривожлантириш, соҳада янги, истиқболли навларни яратиш, қайта ишлаш ва унинг экспортини кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, юртимизда мева-сабзавотчилик қишлоқ хўжалигининг сердаромад тармоғи бўлиб, серқуёш заминимизда етиштирилган мева ва сабзавотлар мазаси, хуштаъмлиги ва шифобахшлиги билан машҳур.

Соҳа мутахассисларининг айтишича, аграр соҳа тубдан ислоҳ қилиниб, амалиётга замонавий илм-фан ютуқлари, интенсив агротехнологиялар қўлланилаётгани, деҳқон ва боғбонлар фаолияти ҳар томонлама рағбатлантириб келинаётгани тармоқ ривожида янги уфқларни очиб берди. Бу жараёнда паст рентабелли пахта ва ғалла майдонлари

**Мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти**

*(2022 йил январь-декабрь)*




**1-расм**

босқичма-босқич қисқартирилиб, улар ўрнида янги боғ-роғлар барпо этилаётгани, сабзавот ва полиз экинлари жойлаштирилаётгани ички ва ташқи бозорни сархил неъматлар билан тўлдиришда қўшимча имкониятларни туҳфа қилмоқда.

Ҳукумат томонидан қишлоқ хўжалиги ва боғдорчиликни ривожлантиришга катта эътибор қаратилаётгани боис экспорт қилинаётган маҳсулотлар сифати ва ҳажми йилдан-йилга ортиб бормоқда. Жумладан, 2022 йил январь-декабрда 1 743,7 минг тонна мева ва сабзавотлар экспорти амалга оширилган бўлиб, ушбу кўрсаткич 2017 йилга нисбатан 1,9 баробар ёки 839,6 минг тоннага кўпайди. Мева-сабзавот маҳсулотларининг асосий экспорт бозорлари Россия Федерацияси (42,5 %), Қозоғистон (18,9 %), ХХР (9,1 %) ҳамда Покистон (8,8 %) давлатлари ҳиссасига тўғри келган.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, жаҳон банки экспертлари фикрига кўра, Ўзбекистон гилос, ўрик, олхўри, узум ва ёнғоқ каби маҳсулотлар билан Хитой бозоридан мустаҳкам жой эгаллаши учун улкан салоҳиятга эга. Кейинги пайтларда ана шу салоҳиятдан унумли фойдаланиш учун соҳага давлат сиёсати даражасида устувор аҳамият қаратила бошланди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотларига кўра, 2022 йил январь-декабрда озиқ-овқат маҳсулотларининг асосий қисми бўлган 1145,8 млн. АҚШ доллари қийматидаги мева-сабзавот экспорт қилинди. Бу кўрсаткич 2021 йилнинг мос даврига нисбатан 18,5 % га кўпайди ва жами экспортдаги улуши 5,9 % ни ташкил этди.

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги мутахассисларининг айтишича, мева-сабзавотчиликка ҳам илм-фан ютуқлари, жаҳоннинг илғор тажрибаси жадал татбиқ этилаётгани туфайли ушбу тармоқда самарадорлик ортмоқда. Бунда янги йўналиш – интенсив боғдорчилик ўзлаштирилгани айни муддао бўлаётир. Мазкур технология асосида пакана ва яримпакана боғлар барпо этиш тажрибаси дастлаб Самарқанд ва Тошкент вилоятларида синаб кўрилди. Янгилик кутилган самара бергач, у мамлакатимизнинг барча ҳудудида татбиқ этилдики, пировардида ҳосилдорлик кескин кўтарилиб, қайта ишлаш ва экспорт салоҳияти бир неча баробар ортди.

Қишлоқ хўжалигида, шу жумладан, мева-сабзавотчилик кластерларида олиб борилаётган ислоҳотлардан асосий мақсад – жаҳон талабига мос сифатли, рақобатбардош мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш ҳажмини кескин ошириш ҳамда экспорт салоҳиятини мунтазам кўтариб бориш орқали Ўзбекистонни жаҳон озиқ-овқат бозорида муносиб ўринни эгаллашдан иборат.

*1-жадвал*

**Мева-сабзавот маҳсулотларининг экспорт географияси**
*(2022 йил январь-декабрь)*

| *Давлатлар* | *минг тонна* | *млн. АҚШ доллари* | *улуши, % да* |
|---|---|---|---|
| Россия Федерацияси | 541,9 | 486,7 | 42,5 |
| Қозоғистон | 641,2 | 216,0 | 18,9 |
| ХХР | 127,2 | 104,6 | 9,1 |
| Покистон | 65,3 | 101,2 | 8,8 |
| Қирғиз Республикаси | 155,6 | 42,9 | 3,7 |
| Афғонистон | 48,7 | 31,1 | 2,7 |
| Туркия | 19,0 | 25,5 | 2,2 |
| Беларусь | 24,3 | 19,9 | 1,7 |
| Озарбайжон | 10,0 | 14,1 | 1,2 |
| Эрон | 12,8 | 13,3 | 1,2 |
| БАА | 6,8 | 9,0 | 0,8 |
| Грузия | 11,7 | 8,4 | 0,7 |
| Тожикистон | 24,0 | 7,8 | 0,7 |
| Германия | 3,3 | 7,3 | 0,6 |
| Туркманистон | 8,0 | 7,1 | 0,6 |
| Бошқа давлатлар | 43,9 | 50,7 | 4,4 |

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотларига асосан, 2022 йил январь-декабрь ойларида мева ва сабзавотлар экспортининг қиймат жиҳатидан энг катта ҳажми Россия Федерациясига тўғри келди (мева ва сабзавотлар экспорти умумий ҳажмининг 42,5 % и), бу кўрсаткич Қозоғистонга экспорт ҳажмидан 2,3 баравар кўп.

**Хулоса**

Мамлакатимиз иқтисодиётида эришилган асосий ютуқлар бу савдо қоидаларини либераллаштириш: валюта сиёсатини либераллаштириш, экспортда чекловларни бекор қилиш, экспортда монополияларни чеклаш ва уларга йўл қўймаслик, чегарани кесиб ўтишда коррупцияни камайтириш, олдиндан тўлов талабларини камайтириш ва бошқалар. Шу билан биргаликда, жойларда мавжуд муаммоларни ўз вақтида бартараф қилинмаётганлиги сабабли, мева-сабзавот маҳсулотлари истеъмолчи дастурхонига бормасдан, нес-нобуд бўлмоқда. Ҳолбуки, Хитой бозорига кўплаб маҳсулот турлари бўйича кириш имкониятига эга бўлган ҳолда, Ўзбекистон ҳали ҳам талаб қилинадиган сифатга эга бўлган маҳсулотнинг катта ҳажмини таъминлаб бера олмаяпти. Муваффақият бу бозорни тушунишдаги ёндашувларни тубдан ўзгаришидир. Шундагина тадбиркорлар ўз бизнесини истеъмолчига нисбатан "юзма-юз" ўзгартириши ва фақат шу йўл билан барқарор натижага эришиши мумкин.

Ҳозирги вақтда мева-сабзавотчилик кластерлари ва қайта ишлаш корхоналари, банк ва инфратузилма ташкилотлари, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари билан таълим муассасалари, илмий-тадқиқот институтлари, технологиялар трансфери марказлари, коворкинг майдонлари, технопарклар таркибида инновацион блокнинг етакчи роли, малакали кадрлар билан таъминланган ҳолда, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларида ҳудудий инновацион агрокластерларни ташкил этиш мева-сабзавотчилик маҳсулотлари импорти ўрнини босиш самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишларидан бири бўлиши керак.

Олиб борилган тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, айтадиган бўлсак, мева-сабзавот маҳсулотларининг экспортини ошириш маҳсулотни етиштиришга эмас, балки бошқа таъминот занжиридаги муаммоларга боғлиқлигини айтиш мумкин. Хусусан, импортчи давлатларнинг талабларини ўрганиш, соҳа маҳсулотининг ҳажмидан тортиб қадоқлаш тартибигача аҳамият бериш ва импортчи давлатларнинг бу борадаги талабларини ўрганиш ҳамда таъминот занжирининг узлуксизлигини таъминлашга эътибор қаратиш айни муддаодир. Шу билан бирга, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш борасида соҳанинг моддий-техника таъминоти замонавий талаблар даражасига олиб чиқилиши, соҳани молиявий қўллаб-қувватлашдаги муаммоларни ечиш, соҳани янада ривожлантириш ва экспорт салоҳиятини ошириш учун соҳадаги йирик ишлаб чиқарувчиларга молиявий имтиёзлар бериш зарур. Инновацион мева-сабзавотчилик кластерларида етиштирилаётган маҳсулотлар экспорт жараёнини максимал даражада эркинлаштириш орқали соҳада фаолият олиб борадиган қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини молиявий қўллаб-қувватлаш ислоҳотларнинг асосий мақсадларидан бўлиши лозим.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрелдаги “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги Қонуни (Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 18 апрелдаги ЎРҚ-476-сон Қонуни таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 07.06.2022 й., 03/22/775/0477-сон).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “2020–2030 йилларда Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сонли Фармони.
3. 2021 йил 24 ноябрдаги “Мева-сабзавотчилик ва узумчиликда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида деҳқон хўжаликларининг улушини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-20-сонли қарори.
4. 2021 йилнинг 15 декабридаги «Мева-сабзавотчилик соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, тармоқда кластер ва кооперация тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-52-сонли қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 августдаги “Республикада экспорт ва инвестиция салоҳиятини янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6042-сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 октябрдаги “Экспорт фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлашни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6091-сонли Фармони.
7. ФАО. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти «Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалигининг ҳолати: яхшироқ келажак учун қишлоқ хўжалигига сармоя киритиш» сиёсати. Рим, 2012 йил.
8. Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании. // “Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий”, 2011, №4. –С. 45
9. Глотко А.В. Инновационно-кластерная развитие АПК. Материалы межрегион. научно-практ. конф. с междунар. участием “Проблемы и перспективы государственноправового, экономического и социального развития субъектов Российской Федерации. 3–4 октября 2008 г. Горно-Алтайский, РИО ГАГ. –С.104.
10. Тохчуков Р.Р. Предпринимательский агропромышленный кластер: теоретические основы создания и функционирования в системе АПК. // Современные научные исследования: электронный научный журнал, 19 апреля 2012 г., рубрика: “Экономика”. http://www.sni-vak.ru/ info@sni-vak.ru
11. Galvez-Nogales, Eva. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Rome, 2010.
12. Скиба А.И. Кластеры: реализация системного принципа в пространственно институциональной организации производства. // Ж. “Региональная экономика: теория и практика”, 2011, 10, ( 193),–С. 31.

UO‘T 658.152/153

**Mamatmurodov Alisher Saparboyevich,**
*Toshkent kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi*

# QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING IPO O‘TKAZISH MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Маматмуродов Алишер Сапарбоевич,**
*научный сотрудник Ташкентского международного университет Кимё*

# ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕХАНИЗМА ПРОВЕДЕНИЯ IPO АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ

**Mamatmurodov Alisher Saparboevich,**
*Researcher at Tashkent Kimyo International University*

# IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE IPO MECHANISM OF JOINT-STOCK COMPANIES IN THE SECURITIES MARKET

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining IPO o‘tkazish mexanizmi samaradorligini oshirish, kapital bozorni rivojlantirish, qimmatli qog‘ozlar chiqarishni ko‘paytirish jismoniy va yuridik shaxslarining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish alohida yoritilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *qimmatli qog‘ozlar bozori, emitent, jahon moliya bozori, innovatsiya, IPO, kapital bozor, birja kotirovkasi.*

**Аннотация.** *В статье рассматривается эффективность механизма IPO акционерных обществ на рынке ценных бумаг, развитие рынка капитала, увеличение выпуска ценных бумаг, расширение участия физических и юридических лиц на фондовом рынке.*

**Ключевые слова:** *фондовый рынок, эмитент, мировой финансовый рынок, инновации, IPO, рынок капитала, биржевые котировки.*

**Annotation.** *In this article, the efficiency of the IPO mechanism of joint-stock companies in the securities market, the development of the capital market, the increase in the issuance of securities, and the expansion of the participation of individuals and legal entities in the stock market are highlighted.*

**Key words:** *stock market, issuer, global financial market, innovation, IPO, capital market, stock exchange quotation*

## Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda moliya bozori va uning tarkibiy qismi bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, jahon moliya bozori orqali kapital jalb qilish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, mazkur sohani yanada rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaxshilashga doir bajaralishi zarur bo'lgan vazifalar mavjuddir.

Fond bozorida birlamchi ommaviy takilf (IPO) o'tkazishda asosiy masala loyihalarni moliyalashtirish va aksiyalarni chiqarish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Biroq qimmatli qog'ozlar bozorida amaldagi amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, uning ishtirokchilari va bozor operatsiyalari mavjud iqtisodiy imkoniyatlarni to'liq aks ettirmaydi. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish, samarali moliyalashtirish usullarini qo'llash, xalqaro moliya institutlari bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlar bozorida birlamchi ommaviy takilf (IPO)ning rolini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning faol investitsiya siyosati asosida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, uning shaffof va barqaror ishlashini ta'minlash, boshqaruv subyektlari tomonidan investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarining bozordagi faolligini oshirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va davlat mulkini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aksiyadorlarning huquq va manfaatlari hamda fond bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda kapital bozorini yanada rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ko'paytirish, jismoniy va yuridik shaxslarning fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida 2021–yil 13-aprel kuni "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi PF-6207-sonli Farmon[1] va 2017-yilning 7-fevralida "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasi" PF-4947-sonli Farmon[2]larida ham moliya bozorini yanada takomillashtirish, fond bozoriga yangi moliyaviy instrumentlar olib kirish hamda milliy korxonalarimizning aksiyalarini IPO orqali nufuzli xorijiy fond birjalari savdo ro'yxatiga olib kirish chora-tadbirlari belgilab olingan.

## Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining IPO o'tkazish mexanizmi samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyati faoliyati va korporativ qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar o'zbek olimlari tomonidan ham tadqiq qilinmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni beqiyos darajada ajralib turadi va turli manbalarda aksiyadorlik jamiyatlariga turlicha ta'riflar berilgan. Xorijiy iqtisodchi-olimlar N.V.Burkov va M.Y.Makovetskiylarning fikricha: "Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari haqli ravishda bozor iqtisodiyotining bir qator muhim omillaridan biri hisoblanadi"[3].

L.Besnikning fikricha, "Korporatsiyalar umuman iqtisodiyotning tayanchi bo'lib, ular ish o'rinlarining asosiy manbayi va albatta, iqtisodiyotning eng yirik soliq to'lovchisi hisoblanadi"[4].

F.Xamidova aksiyadorlik jamiyatlarining shaklini "...milliy iqtisodiyotning real sektorining ildizi"[5], deb ta'riflaydi.

A.Grechenyukning fikricha, "Aksiyadorlik jamiyatlarining kapitali har qanday kompaniya uchun majburiy moliyalashtirish manbayi hisoblanadi"[6].

M.Y.Makovetskiyning so‘zlariga ko‘ra, aksiyalar aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi: “Zamonaviy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlari haqli ravishda bozor iqtisodiyotining eng muhim omillaridan biri bo‘lib, ularni tashkil etilishining o‘zi ularga iqtisodiy, shu jumladan, investitsiyalarni moliyalashtirish imkonini berib, qimmatli qog‘ozlar, xususan, aksiyalar chiqarish hisobiga faoliyat”[7] yuritadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va korporativ qimmatli qog‘ozlar bozori bilan bog‘liq ayrim jihatlar yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilib, maqolada qimmatli qog‘ozalar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining IPO o‘tkazish mexanizmi samaradorligini oshirish masalasi ko‘rib chiqildi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining IPO o‘tkazish mexanizmi samaradorligini oshirish, kapital bozorini yanada rivojlantirish, qimmatli qog‘ozlar chiqarishni ko‘paytirish, jismoniy va yuridik shaxslarni fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish usullari tadqiq qilindi.

## Natija va muhokama

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish siyosati doirasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish va takomilashtirish muhim hisoblanadi. So‘nggi yillardagi amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, aksiyadorlik jamiyatlari sonining o‘zgarishi, fond birjalaridagi qimmatli qog‘ozlar aylanmasi, ularning investitsion jozibadorligini oshirishda sohaning rivojlanishi va global iqtisodiy taraqqiyotiga ta’siri yuqori hisoblanib, ushbu yo‘nalishda amaliy taklif hamda xulosalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodchilar ta’kidlaganidek, IPO amaliyotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korporativ moliyaviy strategiyaning to‘g‘ri ishlab chiqilganligi va unga amal qilinishiga bevosita bog‘liq. IPO bo‘yicha korporativ strategiya bevosita uzoq muddatli tayyorgarlik rejasini belgilab olishni talab etadi. Uzoq muddatli tayyorgarlikdan asosiy maqsad investitsion jozibadorlikni oshirib borishdir. Buning uchun esa yuqori rentabellikka erishish asosida muntazam dividendlarga o‘tish, ichki hujjatlarni jozibadorlik nuqtayi nazaridan takomillashtirish (dividendga yo‘naltiriladigan sof foyda miqdorini, dividend to‘lash shaklini, ustav kapitalida ulushga egalik qilishning yuqori chegarasini aniq belgilash kabilar) talab etiladi[12].




**1-rasm. IPO natijasida jalb qilingan kapital hajmi, mlrd. so‘m[8]**

1-rasm ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, 2022-yil 30-noyabrdan 2023-yil 15-fevralgacha birjada “UzAuto Motors” AJning aksiyalarini birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) bo‘lib o‘tdi. “UzAuto Motors” AJ IPOsi doirasida 56,89 mlrd. so‘mlik 1 383 ta talabnomalar to‘plandi, bu sotilayotgan aksiyalar umumiy hajmining 29,1 foizini tashkil etadi. Savdolar obyekti emitentning 784,70 ming dona oddiy aksiyalari bo‘ldi. Bitta aksiyaning narxi 72 500,00 so‘m, nominal qiymati 5 000,00 so‘mni tashkil etdi[10].

Anderrayterning ma'lumotlariga ko'ra, muomaladagi aksiyalarning 80,1 foizi institutsional investorlarga, qolgan 19,9 foizi esa chakana investorlarga taqsimlangan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, "UzAuto Motors" AJ IPO yakunida 56,89 mlrd. so'mlik kapitalni jalb qilishga muvaffaq bo'ldi, bu 2018-yilda bo'lib o'tgan "Kvars" AJning IPOsidan 7,5 barobar va 2020-yilda bo'lib o'tgan "Jizzax Plastmassa" AJning IPOsidan 42 barobar ko'pdir. "UzAuto Motors" AJning chiqarilgan 2,7 mln. dona oddiy aksiyasidan 784 703 dona aksiyalar IPO orqali investorlarga sotildi, bu umumiy taklifning 29,06 foizini tashkil etdi[10].

2-jadval ma'lumotlaridan "Kvars" AJ o'z mahsulotlarini sotishdan sof tushum 2021-yilda 423 320,91 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 2022- yilga kelib 37% ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari yalpi sof foyda 2020-yilda 87 706,84 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 148 742,19 mln. so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib 69% ga oshgan. Shuningdek, 2020- yilda moliyaviy faoliyatning daromadlari jami 110 057,72 mln. so'm bo'lsa, 2021-yilda 95 822,50 mln. so'mga tushgan, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 12% ga tushgan. Bundan shuni tushunish mumkinki, Aksiyadorlik jamiyatini moliyaviy faoliyatdan olinadigan

*1-jadval*

**"Kvars" AJ Moliyaviy hisobotlar to'g'risidagi ma'lumoti [8]**

| Ko'rsatkich nomi (mln.so'm) | O'tgan yilga nisbatan o'zgarish | 2021-yil | 2020-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|---|
| Mahsulotlarni sotishdan sof tushum | 37% | 423 320,91 | 307 964,61 | 246 913,32 |
| Sotilgan mahsulotlarning tannarxi | 24% | 274 578,72 | 220 257,76 | 164 417,05 |
| Yalpi foyda | 69% | 148 742,19 | 87 706,84 | 82 496,27 |
| Sotish xarajatlari | 58% | 18 285,00 | 11 537,84 | 10 264,51 |
| Ma'muriy xarajatlar | 10% | 14 922,92 | 13 585,93 | 13 296,05 |
| Boshqa operatsion xarajatlar | 45% | 38 832,29 | 26 775,34 | 32 876,22 |
| Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari | 474% | 64 888,21 | 11 295,35 | 4 468,65 |
| Asosiy faoliyatning foydasi | 200% | 141 590,18 | 47 103,09 | 30 528,14 |
| Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami | -12% | 95 822,50 | 110 057,72 | 28 337,39 |
| Valyuta kursi farqidan daromadlar | -15% | 92 955,39 | 109 647,29 | 21 583,92 |
| Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar | 83% | 182 699,75 | 99 800,78 | 14 689,84 |
| Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) | -5% | 54 712,93 | 57 360,03 | 44 175,70 |
| Foyda solig'i | 100% | - | 10 288,85 | 5 312,26 |
| Sof foydasi | 16% | 54 712,93 | 47 071,18 | 38 863,44 |

daromadlari yildan yilga pasayib bormoqda. “Kvars” AJ ning 2021-yilgi sof foydasi 54 712,93 mln.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 16%ga oshgan[8].




**2-rasm. O‘zbekistonda birja kotirovkalar varag‘iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi[9]**

2-rasmda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, birja kotirovkalari varag‘iga kiritilgan aksiyalar emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi 95,21 trln. so‘mdan 118,87 trln. so‘mgacha bo‘lgan oraliqda o‘zgarib turdi. Shuningdek, bozor kapitallashuvining eng yuqori qiymati 20-fevral sanasida qayd etilgan bo‘lib, emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 118,87 trln. so‘mga yetgan.

Emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi o‘sishiga IPO yakunlanganidan so‘ng “UzAuto Motors” AJning oddiy aksiyalari bilan birja savdolarining boshlanishi sabab bo‘ldi. 20-fevraldan 28-fevralgacha bo‘lgan davrda “UzAuto Motors” AJning nominal narxi 5 000,00 so‘m bo‘lgan oddiy aksiyalari bilan 68 000,00 – 85 000,00 so‘m narx oralig‘ida bitimlar tuzildi, bu esa o‘z navbatida, emitentlarning umumiy kapitallashuviga ta’sir ko‘rsatdi. 2023-yil 28-fevral holatiga birja kotirovkalari ro‘yxatiga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 117,58 trln. so‘mni tashkil etmoqda[11].

*2-jadval*

**2021 — 2023-yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlar[1]**

| T/r | Ko‘rsatkichlar nomi | O‘lchov birligi | 2020-yil *(amalda)* | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi | trln. so‘m | 1,9 | 4,9 | 14,5 | 45 |
| 2. | Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlarning umumiy qiymati | foizda (YIMga nisbatan) | 0,3 | 0,7 | 1,9 | 5 |
| 3. | Korporativ obligatsiyalarning umumiy qiymati | trln. so‘m | 0,16 | 0,75 | 1,88 | 3,94 |
| | | foizda (YIMga nisbatan) | 0,03 | 0,1 | 0,3 | 0,5 |
| 4. | “Moliya va investitsiya savodxonligi” dasturi asosida qamrab olinadigan aholi va tadbirkorlik subyektlari soni | nafar | – | 5 000 | 20 000 | 40 000 |
| 5. | Investitsiya hisob raqamlari soni | yil davomida faol bo‘lgan depo hisobvaraqlar | 4 000 | 6 000 | 10 000 | 20 000 |
| 6. | Hududiy investitsiya dasturlari doirasidagi loyihalarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismi | foizda (hududiy investitsiya dasturi qiymatiga nisbatan) | – | 1 | 3 | 5 |

Jadvaldagi tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi 2020-yil 1.9 trln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichni 2023-yil yakuniga qadar 45 trln. so‘mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo‘lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratish; yani kapital bozorining uyg‘un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta’minlash orqali 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, “Moliya va investitsiya savodxonligi” dasturi asosida qamrab olinadigan aholi va tadbirkorlik subyektlari dasturlari doirasida 2023-yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish maqsad qilingan.

**Xulosa**

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining IPO o‘tkazish mexanizmi samaradorligini oshirish va rivojlantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish kerak:

1. IPO mexanizmini mahalliy investorlarga turli vositalar yoki soha vakillari orqali keng reklama ishlarini amalga oshirish, jarayon samaradorligini ta’minlash;

2. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari o‘z kapitalini oshirish strategiyasini ishlab chiqishlari va o‘z navbatida, ushbu strategiya doirasida IPO mexanizmini qo‘llashga ustuvor ahamiyat berishlari zarur.

3. IPO mexanizmini yanada rivojlantirishda xorijiy tajribadan keng foydalanish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozori yanada chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 62 PF- 07-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kuni imzolangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasi” PF-4947-sonli Farmoni.
3. Burkova N.V., Makovetskiy M.Yu. Microeconomics. Resource markets, general equilibrium and market imperfections. Textbook / Omsk, 2010. -P.152.
4. Besnik Livoreka and others. Theories on Dividend Policy Empirical Research in Joint Stock Companies in Kosovo // Procedia Economics and Finance 14 (2014) 387-396, p.387. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567114007278.
5. Khamidova F.A. Analysis and ways of attracting portfolio investments in privatized enterprises. Diss. ... Ph.D., –T., 2008. –P.3.
6. Grechenyuk Antona and others. Peculiarities of formation shareholders’ equity and liabilities of Russian joint stock companies // Procedia Economics and Finance 39 (2016) 165-175, p.165. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567116302696
7. Makovetskiy M.Yu. Equity financing as a mechanism for attracting investments by corporations // Actual problems of the humanities and natural sciences. 2014. No. 8-2. P. 57
8. https://uz-assets.uz/oz/portfolio/kvarts-ao?type=fin&year=2021
9. https://uzse.uz/system/
10. https://uzse.uz/system/analytics/
11. Elmirzaev S., Mamatov B. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini samarali tashkil etish masalalari //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – T. 24. – №. 3. – S. 283–288.

UO‘T 336.1.07.575

**Hamdamov Omonullo Ne’matullayevich,**
*Toshkent moliya instituti*
*“Korporativ moliya va qimmatli*
*qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti,*
*iqtisodiyot fanlari doktori*
*fin.management945@gmail.com*

**To‘rayeva Nafosat Abdisalomovna,**
*Toshkent moliya instituti*
*KMQQB-5k/22 guruhi magistri*
nafoshkashug0000@gmail.com

# KORPORATIV SOLIQLARNI BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

**Хамдамов Омонулло Неъматуллаевич,**
*Ташкентский финансовый институт*
*доцент кафедры «Корпоративные финансы и ценные бумаги»*
*доктор экономических наук*
*fin.management945@gmail.com*

**Тураева Нафосат Абдисаломовна,**
*магистрант Ташкентского финансового института*
*группы КМККБ-5к/22*
*nafoshkashug0000@gmail.com*

# ЗНАЧЕНИЕ КОРПОРАТИВНЫХ НАЛОГОВ В ФОРМИРОВАНИИ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА

**Khamdamov Omonullo Nematullaevich**
*Tashkent institute of finance*
*Professor of the Department “Corporate*
*Finance and Securities”*
*fin.management945@gmail.com*

**Turaeva Nafosat Abdisalomovna**
*Master Student of the Tashkent*
*institute of finance group KMQQB-5k/22*
*nafoshkashug0000@gmail.com*

# THE IMPORTANCE OF CORPORATE TAXES IN THE FORMATION OF STATE BUDGET REVENUES

**Annotatsiya.** *Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ahamiyati va xalqaro amaliyotda mazkur yo'nalishga doir amaliy islohotlarning asosiy yo'nalishlari bayon etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Davlat byudjeti daromadlarini oshirish va takomillashtirishga doir takliflar keltirilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *davlat byudjeti, soliqlar, daromadlar, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, korxonalar, mahalliy byudjet.*

**Аннотация.** *Рассмотрено значение налогов в формировании доходов государственного бюджета и основные направления практических реформ по этому вопросу в международной практике. Также были проанализированы состав и динамика доходов государственного бюджета Республики Узбекистан. Разработано предложение по увеличению и совершенствованию доходов государственного бюджета.*

**Ключевые слова:** *государственный бюджет, налоги, доходы, прямые налоги, косвенные налоги, предприятия, местный бюджет.*

**Annotation.** The importance of taxes in the formation of state budget revenues and the main directions of practical reforms on this issue in international practice are considered. The composition and dynamics of revenues of the State budget of the Republic of Uzbekistan were also analyzed. A proposal has been developed to increase and improve state budget revenues.

**Key words:** *state budget, taxes, revenues, direct taxes, indirect taxes, enterprises, local budget.*

## Kirish

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi soliq tizimining qanday tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Soliq tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lgan Davlat byudjetining barqarorligi esa mamlakat iqtisodiyotini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Darhaqiqat, mamlakat milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish, davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish jarayonlari davomida amalga oshiriladi. Jahon mamlakatlari amaliyotida iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga bog'liq holda bevosita va bilvosita soliqlardan foydalanib kelinmoqda. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar soliq ma'murchiligida bevosita soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yevropa Ittifoqiga kiruvchi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar davlat byudjeti, asosan, bevosita soliqlar hisobiga to'ldiriladi". Ekspertlar ma'lumotiga ko'ra, "Xitoy 2022-yildan boshlab, bevosita soliqlar ulushini oshirish va bilvosita soliqlar ulushini pasaytirishni navbatdagi asosiy vazifalardan etib belgilagan" [1].

Jahonda global miqyosdagi integratsiya va raqobatlashuvning kuchayishi sharoitida davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirishga doir ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati oshib bormoqda. Daromadlarni prognozlash jarayonini bashorat qilish va sifatli prognozlash, eksponensial tekislash va yagona tenglama regressiya prognozi, makroiqtisodiy daromadlarni prognozlashda xarajatlarni prognozlash, o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, dasturiy-maqsadli usulda byudjetni rejalashtirish uslubiyotini takomillashtirish, davlat byudjeti prognoz xatoliklarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu boradagi ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Nazariy adabiyotlarda va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari va davlatlarning qonun hujjatlarida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning mohiyatini yoritib beruvchi tushunchalarni uchratish mumkin. Bunda jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar alohida diqqat markazida oʻrganilib kelinmoqda. Xususan, oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan: A.Adizov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumlashtirilgan holda “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar – davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida koʻrsatiladigan xizmatlar haqi boʻlib, ularni mablagʻ bilan taʼminlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qoʻyilgan hajm va oʻrnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirilgan toʻlovdir” – deya taʼrif bergan [2]. O.Abdurahmonov esa jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mohiyatini ochishda unga quyidagicha taʼrif bergan, “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga oʻtkazadigan ekvivalentsiz majburiy toʻlovlaridir” [3].

M.Usmanova soliqni qoʻllashda soliqqa tortilmaydigan daromad miqdorini aniq belgilash va amaliyotga joriy qilish, daromadlarni deklaratsiyalashda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlarini daromaddan chegirish masalasiga alohida eʼtibor qaratilgan [4].

Soliqlarga doir masalalarni tadqiq etishda optimal soliqqa tortish masalalari koʻplab iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida alohida oʻrin egallagan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim Ramsey tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar optimal soliqqa tortish boʻyicha ilmiy adabiyotlarning asosi sifatida qaraladi. Ramsey samarali soliqqa tortish faqat bir soliqni emas,toʻliq soliqlar toʻplamini joriy etishni talab qilishni koʻrsatib bergan. Shu bilan birga, bu foizli daromadlarni soliqqa tortishda ham muhim ahamiyatga ega. Ramsey isteʼmol va jamgʻarmani ikkita turli tovarlar sifatida koʻrib chiqadi va kapitalga ish haqidan daromadga nisbatan ancha past stavkada soliq solinishi lozimligini taʼkidlagan [5].

Soliq tushumlarini prognoz qilish uslubiyatini takomillashtirish yoʻnalishida tadqiqot olib borgan S.Xudoyqulov tomonidan berilgan taʼrifga koʻra, soliq salohiyati – “milliy xoʻjalik, hududlar, yuridik va jismoniy shaxs sifatida soliq majburiyati yuklatilgan shaxslarni davlatning byudjet-soliq siyosati doirasida hamda amaldagi soliq qonunchiligi boʻyicha oʻzlariga yuklatilgan soliq majburiyatini toʻlash imkoniyati, shuningdek, davlat tomonidan soliqlarning adolatlilik tamoyili buzilmagan holda byudjetga maksimal darajada soliqlarni jalb etish mumkin boʻlgan imkoniyatdir [6]. Byudjet daromadlari barqarorligini taʼminlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yoʻnalishlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan L.Bozorovaning talqinicha, hudud soliq potensiali – soliq qonunchiligining amal qilishi sharoitida tahlil etilayotgan davrdagi soliq va boj toʻlovlarining ehtimol qilinadigan eng yuqori summasi, shuningdek, soliq va bojxona organlarining nazorat ishlari natijalari boʻyicha qoʻshimcha hisoblangan soliq toʻlovlari summalari, yaʼni bu haqiqiy yigʻilgan soliqlar miqdori bilan byudjet daromadlarini potensial toʻplanishining qobiliyati oʻrtasidagi farqdir [7].

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ahamiyati masalalari xorijiy va mahalliy olimlar, iqtisodchilar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda qoʻllaniladigan statistik tahlil, sintezlash, mantiqiy fikrlash, guruhlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Natija va muhokama**

Dunyoda soliqlarning belgilangan muddatida hamda to‘liq hajmda davlat byudjetiga kelib tushishiga qaratilgan zamonaviy vositalarni samarali qo‘llash orqali davlat byudjeti manfaatlarini ta’minlash maqsadiga qaratilgan yangi innovatsion loyiha va tashabbuslarni joriy etish masalalariga katta ahamiyat qaratilmoqda.Shular jumlasidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatining ixtiyoriy bajarilishini, ya’ni ixtiyoriy soliq intizomini rag‘batlantirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini risk boshqaruv (Risk-management system) tizimi vositasida baholash va tadbirkorlik hamda investitsiya muhitining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun soliq tekshiruvlarini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning risk darajasiga qarab amalga oshirish masalalariga alohida tadqiqot o‘tkazish yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor berilmoqda.

Soliq ma’muriyatchiligi tizimining takomillashtirilishi yurtimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va mamlakat investitsion jozibasini yaxshilashga qaratilgan muhim shartlardan biridir. “Bugungi kun bizdan davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish hamda ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo‘lib qoladi. Shu boisdan jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo‘yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik”, deya ta’kidlab o‘tgan so‘zlari ham bejiz emas albatta [8]. Mamlakatimizning yuqorida qayd etib o‘tilgan xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlari soliq ma’muriyatchiligi va soliq nazorati bo‘yicha qonun hujjatlari yanada takomillashtirilishiga e’tiborni alohida qaratish zarurati yuzaga kelganligini anglatib, sohaga oid yangi qabul qilinayotgan bir nechta normativ-huquqiy huijatlarda soliq organlari faoliyat tizimini isloh qilishning asosiy muhim yo‘nalishlari qatorida soliq nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish bo‘yicha zamonaviy usullarni joriy etish ko‘zlanganligi ham bu jarayonlarni muntazam tadqiq etib borish dolzarb ekanligidan darak beradi.

Hozirda dunyoning 218 ta mamlakatida foyda solig‘i undiriladi. Foyda solig‘i stavkasi ushbu mamlakatlarning 44 tasida 0–10 foizgacha, 50 tasida -10–20 foizgacha,111 tasida-20–30 foizgacha, 26 tasida-30–40 foizgacha, 2 tasida -45–55 foizgacha etib belgilangan.Foyda solig‘i tushumi dunyo YIM da 26,3% ini,soliqli daromadlarning 33,0% ini tashkil etadi.Bundan ko‘rinadiki foyda solig‘i butun dunyo bo‘yicha byudjet daromadlaridan shakllantiriladigan asosiy soliq turidan biri bo‘lib, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijtimoiy xarajatlarini o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat byudjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kabi barqaror daromad manbalarini byudjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog‘ini ta’minlashni taqozo qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet-soliq siyosatining asosiy vazifalari iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonini o‘stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Jahonda iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda byudjed-soliq mexanizmining ahamiyatini oshirish, bevosita va bilvosita soliqlarning optimal nisbatini shakllantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Bevosita soliqlarning byudjet tushumlariga ta’sirini kuchaytirish, aholi va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faolligini

*1-jadval*

**2018-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad qismi (tlrn.so'm)**

| № | Yillar | 2018-yil | | 2019-yil | | 2020-yil | | 2021-yil | | 2022-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Soliq turlari | Summa | % | Summa | % | Summa | % | Summa | % | Summa | % |
| 2 | Davlat byudjeti daromadlari | 79,0 | 100 | 112,1 | 100 | 132,9 | 100 | 164,6 | 100 | 201,8 | 100 |
| 3 | Bevosita soliqlar | 15,2 | 19,8 | 31,6 | 28,2 | 45,2 | 34,0 | 58,9 | 35,8 | 64,4 | 31,8 |
| 4 | Bilvosita soliqlar | 41,4 | 52,2 | 46,2 | 41,4 | 46,4 | 34,9 | 56,2 | 34,2 | 71,3 | 35,3 |
| 5 | Resurs soliqlari | 12,4 | 16,0 | 19,6 | 17,5 | 21,2 | 16,0 | 23,1 | 14,0 | 23,9 | 11,4 |
| 6 | Boshqa daromadlar | 9,1 | 12,0 | 14,3 | 12,8 | 20,1 | 15.1 | 26,4 | 16,0 | 42,1 | 21,5 |

**Manba:** *O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portali ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi*

rag'batlantirish, mamlakat hududlaridagi iqtisodiy faoliyatning turli tafovut va sharoitlaridan kelib chiquvchi tengsizlik holatlarini yumshatish, mulkdan tejamli va samarali foydalanish, aholi daromadlari o'rtasidagi tabaqalanish darajasini tartibga solish, soliq tushumlarini prognozlash va ularning yig'iluvchanlik darajasini oshirish kabilar – bu boradagi tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi. O'zbekistonda bevosita soliqlarni hisoblash va undirishni takomillashtirish orqali soliqqa tortish mexanizmi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy subyektlarning samarali va tejamkor faoliyatini rag'batlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning daromad va foydani ko'paytirishdan manfaatdorligini oshirish, byudjetni soliq tushumlari bilan to'ldirishga undovchi moslashuvchan mexanizmini yaratishga harakat qilinmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar orqali bevosita soliqlarni hisoblash metodikasining ishlab chiqilishi, soliqlar va soliqqa tortish mexanizmining takomillashuvi, xalqaro standartlar amaliyotiga joriy etilishi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy va soliq hisobotlarining muvofiqlashuvi kabi jarayonlarni samarali tashkil etish muhim vazifalardan hisoblanadi. 1-jadvalda foyda solig'ini hisoblab chiqarish va byudjetga undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili,foyda solig'i bazasini aniqlashda amortizatsiya xarajatlari va investitsiyaviy chegirmani hisobga olish tartibi hamda foyda solig'i bo'yicha soliq nazoratini o'tkazish tartibini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Foyda solig'i bo'yicha qarzdorlikning yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning foyda solig'i bo'yicha qarzdorligi 2019-yilda 111,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 180,5 mlrd.so'm, 2021-yilda 963,6 mlrd. so'mni tashkil etgan. Eng ko'p foyda solig'i bo'yicha qarzdorlik hududlar kesimida qaralganda 2021-yilda Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 277,9 mlrd.so'm, Farg'ona viloyatida 115,9 mlrd. so'm, Toshkent viloyatida esa 110,0 mlrd. so'mni tashkil etgan (2-jadval).

Iqtisodiyotni ko'p yillik rivojlanishida soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini samarali boshqarishning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Chunki soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini samarali boshqarmay turib soliq siyosatini amalga oshirib, mamlakatning soliq tizimini yaratib bo'lmaydi. Soliqlarsiz esa mamlakatning iqtisodiyotini umuman tasavvur qilishning iloji yo'q. Qo'shimcha ravishda shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan byudjet-soliq siyosati samarasi o'laroq, xususiy sektorga keng imkoniyatlar eshiklari ochilgan. Xususan, soliq yukining yildan yilga kamaytirilayotganligi soliq to'lovchilarga bu borada yanada ko'proq mablag'ni o'z faoliyatida qayta foydalanish imkoniyatini yaratayotgan bo'lsa, ularga berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalar evaziga esa faoliyatni yanada samarali tashkil qilish hamda yangi innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa mamlakatimizning kelajakda yanada rivojlanishi uchun samarali hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari barqarorligini oshirish, ular mustaqilligini ta'minlash uchun soliqlardan berilayotgan ajratmalar byudjet qonunchiligiga muvofiq hududlarning viloyat byudjetida qoldirilmoqda.

*2-jadval*

**O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 2019–2021-yillardagi foyda solig'i bo'yicha qarzdorlik tahlili (mlrd.so'm)**

| T/r | Hudud nomi | Foyda solig'i qarzlari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **2019-yil** | **2020-yil** | **2021-yil** |
| | **Respublika bo'yicha** | **111,7** | **180,5** | **963,6** |
| | YSTBHDSI | 39,6 | 21 | 139,3 |
| | Hududlar bo'yicha | **72,2** | **159,5** | **824,3** |
| 1 | Qoraqalpog'iston Res | 0,8 | 13,8 | 14,3 |
| 2 | Andijon viloyati | 5,9 | 18,3 | 105,8 |
| 3 | Buxoro viloyati | 11,6 | 21,2 | 26,3 |
| 4 | Jizzax viloyati | 1,3 | 4,5 | 18 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 5,3 | 21,6 | 33,3 |
| 6 | Navoiy vioyati | 1 | 1,4 | 3,9 |
| 7 | Namangan viloyati | 1,8 | 1,9 | 18,7 |
| 8 | Samarqand viloyati | 3,4 | 3,7 | 52,2 |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 1,1 | 4,7 | 10,8 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 3,8 | 6,4 | 18 |
| 11 | Toshkent viloyati | 10,6 | 13,2 | 110 |
| 12 | Farg'ona viloyati | 2,5 | 6,7 | 115,9 |
| 13 | Xorazm viloyati | 1,4 | 3,4 | 19,1 |
| 14 | Toshkent shahri | 22 | 38,8 | 277,9 |

**Manba:** *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.*

Qayd etish joizki, mahalliy byudjetlar balansligini ta'minlash ular daromadlarining xarajatlariga mutanosib bo'lishini taqozo etadi va xarajatlar tarkibini tahlil qilish, shu asosda ularni optimallashtirish mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bizning fikrimizga ko'ra, hududlardagi byudjet daromadlarini tartibga solishdagi asosiy vazifa, joylardagi boshqaruv faoliyatining samaradorligi uchun sharoit va rag'batlar yaratish, byudjetdan ko'rsatiladigan asosiy xizmatlarga fuqarolar uchun kafolat va imkoniyatlarni ta'minlash uchun munitsipal byudjetlar o'rtasidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliqli daromadlarni solishtirma nisbatini tenglashtirishga olib keladigan optimal yolini topishdan iborat.

**Xulosa**

Korxonalarda soliq to'lash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yakuniy natijasini nazorat qilib borish

imkoniyati bo‘lishi uchun joriy hisobotlar tarkibiga aslidagi soliq yuki ko‘rsatkichlarini kiritish lozim. Nominal va real soliq yuki ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovutlar mavjudligi turli xil korxonalar o‘z zimmasidagi soliq majburiyatlarini qay darajada vijdonan bajarayotganidan dalolat beradi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tmoqchimizki, chinakamiga soliq yuki faqatgina o‘z fuqarolik majburiyatlarini vijdonan bajarayotgan shaxslar zimmasiga tushadi. Keyinchalik korxonalar tomonidan majburiy ravishda topshiriladigan hisobot ko‘rsatkichlarining tarkibiga korxonaning zimmasiga tushadigan soliq yuki uchun asos bo‘ladigan o‘lchamlarni umumlashtirish imkoniyatini beruvchi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichini ham kiritib qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Korxonalar miqyosida soliq to‘lovlarini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamisha yaratiladigan qo‘shilgan qiymat hamda tayyor mahsulotlar, ishlab chiqarish bilan bog‘liq ishlar, xizmatlar tarkibidagi qo‘shilgan qiymat ulushini kamaytirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun, joriy hisobotlar asosida qo‘shimcha qiymat qo‘shilgan qiymat ulushini muntazam nazorat qilib borish zarur.

Soliq siyosatini tashkil etishda soliq to‘lovchilarning atrof-muhit va ekologiyaga ta’sir darajasini inobatga olish lozim. Chunki bugungi kunda dunyo bo‘ylab atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga qaratilgan tendensiya mavjud. Bunday holatda davlat tomonidan atrof-muhitni va ekologiyani asrash hamda tadbirkorlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida soliqlar bilan bog‘liq chora-tadbirlar qo‘llanishi lozim. Bu orqali tadbirkorlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Xalqaro valyuta jamg‘armasining yillik hisobot materiallari asosida muallif tomonidan olingan.
2. Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2004. 25-b.
3. Abdurahmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2005. 52-53-b.
4. Usmanova M. “Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish”. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent BMA. 2011. 23-b.
5. Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish: mohiyati va xususiyatlari// Iqtisodiyot va ta’lim. № 4. 2020. 130-b.
6. Xudoyqulov S. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2019. 23-b.
7. Bozorova L.A. Byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo‘nalishlari//Iqtisod va moliya №12, 2012, 48-b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
9. https://take-profit.org/statistics/government-spending/european-union/
10. http://www.finmarket.ru/database/news/5888396
11. https://www.doingbusinnes.org/content/dam/DoingBusinnes/Uzbekistan/UZB.pdf.
12. https://openbudget.uz/incomesView/

Тошкент молия институтининг «Таҳририят ва нашриёт»
бўлимида нашрга тайёрланди.

Материаллар кўчириб босилаётганда «Молия» илмий журналидан олинганлиги кўрсатилиши шарт.

Журналда эълон қилинаётган материаллардаги далиллар, рақамлар ва маълумотларнинг тўғрилиги учун уларнинг муаллифлари жавобгар ҳисобланади.

Таҳририят фикри доим ҳам муаллифлар фикрига мос келавермайди.

Таҳририятга юборилган қўлёзмалар муаллифларга қайтарилмайди.

«Молия» илмий журналига «Матбуот тарқатувчи» АК ҳамда
«INTER PRESS» компаниялари орқали обуна бўлиш мумкин.

Теришга берилди: 01.12.2023 й. Босишга рухсат этилди: 09.12.2023 й.
Бичими 70x100 1/16. Шартли босма табоғи 16,25.
Ҳисоб-нашр табоғи 16,50. Адади 250 нусха. Буюртма № 04.
Баҳоси келишилган ҳолда.

Босмахона гувоҳномаси № 10-24-10
«Ҳумоюнбек истиқлол мўъжизаси» босмахонасида
ризография усулида чоп этилди.